“Turkiston ulamosi”da jami 123 nafar ilm-fanga hissa qo‘shgan mashhur bobokalonlarimiz to‘g‘risida qisqacha ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, ularning nomlari, qisqacha tug‘ilgan va vafot sanalari, yozgan asarlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Asarda tasavvuf, tafsir, hadis, aqid, fiqh kabi diniy ilm bilan shug‘ullanganlar qatori astronomiya, matematika, geografiya, geometriya, tibbiyot va adabiyot kabi dunyoviy fanlarda ham shuhrat qozongan olimlarning nomlari keltirilgan. Biz mazkur maqolada ushbu asarda keltirilgan tarixchi olimlarga to‘xtalmoqchimiz.

“Turkiston ulamosi” asarida tarixchi olimlar “Turkistonda etishgan ta’rix va jug‘rofiyo ulamosi” nomli faslda zikr qilingan. Ular 10 nafarni tashkil qiladi.

**Asosiy qism.** Gasprinskiy tarixchi olimlar qatorida birinchi bo‘lib, Xondamirning nomini keltirgan. “G‘iyosiddin Muhammad Xondamir Movarounnahr muarrixlaridandir”, deb turib, uning “Xulosat al-axbor” (Xabarlar xulosasi), “Habib as-siyar” (Siyratlar do‘sti), “Makorimi axloq” (Mukarram xulqlar), “Javohir al-axbor” (Xabarlar javohiri), “Muassir al-muluk” (Podshohlar ta’sir qiluvchisi) va “G‘aroyib al-asror” (G‘aroyib sirlar) nomli asarlarini zikr qiladi. Shuningdek, uning 942/1535-1536 da Hindistonda vafot etganini qayd qiladi. Hozirgacha olimning “Habib us-siyar” hamda “Makorimul axloq” asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib nashr etilgan [17; 18; 24].

Abu Muhammad Farg‘oniy “Turkiston ulamosi” asarida zikr qilingan ikkinchi tarixchi olimdir. Gasprinskiy u haqida: “Islomning mashhur ta’rixnavislaridan bo‘lgan bu zotning “Tarixi Tabariy” (at-Tabariyning tarixi)ga yozgan zayli muarrixlar oldida maqbul asarlardandir”, deydi [8].

Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad ibn Ja‘far al-Farg‘oniy O‘zbekistonda kam o‘rganilgan tarixchilardan hisoblanadi. Uning mashhur tarixiy asar “Tarixi Tabariy”ga zayl, ya‘ni ilova bitgani ma‘lum, xolos. Ushbu zayl “as-Sila” deb atalgan [7]. Abu Muhammad al-Farg‘oniyning hayoti va ijodi haqida ko‘p ma‘lumotlar yo‘q. “Kashf az-zunun” va “Hadiyyat al-orifiyn”da uning ismi va asari nomi tilga olingan, xolos.

“Turkiston ulamosi” asarida Hofizi Abro‘ nomi ham keltirilgan bo‘lib, uning hirotlik bo‘lgani, “Zubdat at-tavorix” (Tarixlar qaymog‘i) asari muallifi ekani va 834/1430-1431 sanada vafot qilgani qayd qilingan.

Hofizi Abro‘ laqabi bilan tanilgan bu tarixchi olim Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurrashid al-Xavofiy Hirotga qarashli Xavof shaharchasida tug‘ilgan, Hamadonda tahsil olgan, 1430-yilda Zanjonda vafot etgan. Hofizi Abro‘ Amir Temur va uning o‘g‘li Shohruh saroyida xizmatda bo‘lgan. Shohruxga bag‘ishlab ikkita tarixiy asar bitgan. So‘ng “Zubdat at-tavorix” asarini yaratgan. Uning yana bir nomi “Majmu‘ at-tavorix”dir [15].

“Turkiston ulamosi” asarida tarixchi olimlar qatorida Jamoliddin Atoulloh Nisoburiy nomi ham keltirilgan bo‘lib, uning asli kelib-chiqishi Movarounnahrdan ekani zikr etiladi. Alisher Navoiyga bag‘ishlab yozilgan “Ravzat al-ahbob” (Do‘stlar bog‘i) bilan “Takmil as-sino‘a” (San‘atlarni mukammallashtirish) asari eslatiladi.

Sayyid Jamoliddin Atoulloh ibn Sayyid G‘iyosiddin Fazlulloh ibn Abdurrahmon an-Naysoburiy ash-Sheroziy (vaf. 926/1520) o‘z davrining yetuk olimi va muhaddisi. “Jamol muhaddis” va “Muhaddis Sheroziy” nomlari bilan tanilgan. Hirotida ilmiy faoliyat olib borgan va Alisher Navoiy bilan yaqin munosabatda bo‘lgan. Unga atab “Ravzat al-ahbob” va boshqa asarlarini bitgan. Gasprinskiy bu erda “Takmil as-sino‘a” deb atagan asari “Badoyi‘ us-sanoyi”

bo'lib, u o'zbek tiliga tarjima qilingan [13]. Shuningdek, Gasprinskiy uning vafotini 917/1511-1512 sanada deb ko'rsatadi. Lekin, aksar manbalarda 926/1520 sana yozilgan.

Gasprinskiy tarixchi olimlardan beshinchisi sifatida Abu Sa'd Sam'oniyy al-Marvaziy nomini keltirib o'tgan. Uning muarrix olimlarning mashhurlaridan ekani, 10 jildli "Ta'rixi Marv" (Marv tarixi), 15 jildli "Ta'rixi Xatib Bag'dodiy" (Xatib al-Bag'dodiyning tarixi)ning zayli, 8 jildli "Kitobi Ansob"i (Nasablar kitobi) asarlari borligi hamda 562/1166-1167 yili vafot etgani ko'rsatilgan.

Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyy (1113-1167) Marvda tug'ilib-o'sgan, islom shaharlari bo'ylab sayohatga chiqqan. 1155-1156 yillarda Movarounnahr va Xorazmda bo'lgan. Uning bizgacha Gaspirali ko'rsatgan asarlaridan faqat "al-Ansob" asarining bir qismigina etib kelgan. Ushbu asar to'g'risida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan [3].

"Turkiston ulamosi" asarida Ahmad ibn at-Tayyib as-Saraxsiy haqida "Turkistonda etishgan hukamo va atibbo" faslida batafsilroq so'z yuritilgan. Tarixchi olimlar qatorida ham zikr qilinganiga sabab esa uning ta'rix va geografiyaga doir yozgan "Kitob al-Mamolik va-l-masolik" (Mamlakatlar va yo'llar kitobi), "Kitob Manfa'at al-jibol" (Tog'larning foydalari), "Kitob Zod al-hofir" (Tuyoqlar taomi) va "Fazoyilu Bag'dod va axboruho" (Bag'dod fazilatlarini va uning xabarlarini) nomli asarlari bo'lgani ko'rsatilgan [1; 2].

Ali Qushchi haqida astronom va matematiklar haqidagi faslda batafsilroq to'xtalangan. Gasprinskiy bu erda uning Mirzo Ulug'bekning ko'rsatmasi bilan Chin sayohatnomasini yozganini qayd qilar ekan, "u geografiya fanining taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi. Shuningdek, erning uzunlik va kenglik darajalarini to'g'rilashda ham yordamchi bo'ldi", deydi [9; 19].

Abdurrazzoq Samarqandiy "Turkiston ulamosi" asarida sakkizinchi o'rinda zikr qilingan muarrix olimdir. Gasprinskiy uning Shohrux mirzo tarafidan Kalkuttaga elchi qilib yuborilganini va shu munosabat bilan "Hindiston sayohatnomasi" asarini yozganini eslaydi. Bu asar geografiya faniga qo'shilgan hissa bo'lganini yozadi. Shuningdek, "Matla' as-sa'dayn" (Ikki baxtiyorning chiqishi) ismli buyuk asari – turkiylarga oid tarix, deya faxrlanadi.

Kamoliddin Abdurrazzoq ibn Jaloliddin Ishoq as-Samarqandiy (1413-1482) Hirotda tug'ilib-o'sgan. Shohrux va Abulqosim Bobur (1451-1457) saroylarida xizmatda bo'lgan va Hindiston, Misrga elchi sifatida borgan. Hindistonga qilgan safar xotiralari – safarnomasi hamda tarixiy asari "Matla' as-sa'dayn"ning asosiy qismlari o'zbek tiliga tarjima etilgan [5; 6].

Abu Ja'far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomi ham "Turkiston ulamosi" asarida Turkistondan etishib chiqqan buyuk matematiklar qatorida zikr qilingan [22; 23]. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy to'g'risida "Turkistonda etishgan nujum, hay'at va riyoziya ulamosi" faslida so'z yuritilgan. Tarixchilarga bag'ishlangan faslda esa Batlimus (Ptolemey)ning kitobiga taqlidan "Rasm al-arz" (Erning rasmi) nomli asar yozganini eslatar ekan, er yuzidagi ko'pgina shaharlarning uzunlik va kenglik darajalari birma-bir ko'rsatib berilganini eslatadi [10; 11; 14; 16].

"Turkiston ulamosi" asarida zikr qilingan tarixchi olimlardan oxirgisi Mir Abdulkarim Buxoriy hisoblanadi. Gasprinskiy uning buxorolik olimlardan ekanini qayd qilib, usmoniylik mamlakatiga safar qilganini hamda 1246/1830-1831 yilda Istanbulda vafot etganini yozadi. Turkiston va Afg'oniston ahvoriga doir bir tarix kitobi yozganini Musyo Shiffer tarafidan fransuzchaga tarjima etilib, 1876 yili Parijda nashr qilinganini eslatadi [21].

Mir Abdulkarim al-Buxoriy (vaf. 1246/1830) Buxoroda tugʻilib-oʻsgan. Oʻn olti yoshidayoq Hirot va Kashmiringacha sayohat qilgan. 1219/1804 yilda Buxorodan Moskvaga elchi boʻlib borgan. Soʻng 1222/1807 yili Turkiyaga elchi boʻlib borib, oʻsha erda umrining oxirigacha yashab qolgan. Uning “Markaziy Osiyo tarixi” nomli tarixiy asari muhim ahamiyatga ega boʻlib, fransuz tiliga ham tarjima etilgan [12].

**Muhokama va tahlil.** “Turkiston ulamosi” asarida keltirilgan tarixchi olimlar haqidagi maʼlumotlar oʻz vaqtida yirik ilmiy va maʼnaviy merosga ega ekanimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Ismoil Gasprinskiy tomonidan ularning hayoti va ilmiy faoliyatini alohida fasl sifatida berilgani, avvalo, tarix fanining turkiy xalqlar maʼnaviyatidagi oʻrni yuqori ekanini koʻrsatadi.

Asarda zikr qilingan olimlarning aksariyati nafaqat tarix, balki geografiya, adabiyot, falsafa kabi fanlar bilan ham shugʻullangan. Bu esa ularni ensiklopedik ilm egalari sifatida baholash imkonini beradi. Masalan, Abu Saʼd Samʼoniy yoki Abu Muhammad Fargʻoniy nafaqat tarixiy asarlar yozgan, balki ular orqali oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy voqealariga ham munosabat bildirgan.

Gasprinskiy tomonidan tanlangan olimlar orasida mahalliy tarixchilar bilan bir qatorda keng islom olamida mashhur boʻlgan shaxslar ham bor. Bu uning asarni yozishdagi asosiy maqsadi — Turkiston ziyolilarining ilmiy salohiyatini namoyon etish va dunyoviy bilimlarga qiziqish uygʻotish ekanini koʻrsatadi.

Shuningdek, asarda tarix fanining oʻsha davrdagi ahamiyati va taraqqiyotiga oid mulohazalar ham sezilib turadi. Jumladan, muallif tahlillaridan tarixiy manbalarga asoslangan tarzda olimlar asarlari va ularning ilm-fanga qoʻshgan hissasi qisqa va aniq ifoda qilinganini bilish mumkin. Bu esa asarning keng ommaga moʻljallanganini ham koʻrsatadi.

Bundan tashqari, “Turkiston ulamosi” asari orqali biz tarixiy shaxslarning biografialari va ilmiy merosi bilan tanishish bilan birga, ularning asarlari orqali tarixni qanday anglashganini ham koʻrib chiqamiz. Shu jihatdan ushbu asar nafaqat bibliografik manba, balki madaniy-ilmiy mulohazalarni qamrab olgan muhim asardir.

**Xulosa.** Ismoil Gasprinskiyning “Turkiston ulamosi” asari — IX–XX asrlar chorrahasida yashagan va faoliyat yuritgan turkiy xalq ziyolilari haqidagi muhim manbalardan biridir. Unda keltirilgan tarixchi olimlar haqidagi maʼlumotlar faqat biografik ahamiyatga emas, balki tarix, ilmiy meros va madaniyatimizni tiklash uchun ham katta qiymatga ega.

Asarda zikr qilingan tarixchilarning ilmiy merosi orqali biz nafaqat oʻtmishni anglaymiz, balki kelajak avlodni ham ilmga, madaniyatga va maʼrifatga chorlaymiz. Gasprinskiyning ushbu asar orqali taʼlimga, ilm-fanga boʻlgan daʼvati bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan.

Shu bois, “Turkiston ulamosi” asari va unda keltirilgan tarixchi olimlar haqidagi maʼlumotlarni ilmiy tadqiqotlar asosida yanada kengroq oʻrganish, ularning asarlarini tarjima qilish va tahlil etish — bugungi kun tarixchilari va maʼrifatparvarlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Abduhalimov B. “Bayt al-hikma” va Oʻrta Osiyo olimlarining Bagʻdoddagi faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2004. – 236 b.
2. Abduhalimov B. Ahmad as-Saraxsiy (835-899) // <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/ahmad-as-saraxsiy-835-899/>

3. Abdulkarim as-Sam'oni. Nasabnoma (al-Ansob) / Tarjimonlar: A.Buxoriy, K.Rahimov. – Toshkent: “Hilol-nashr”, 2017. – 339 b.
4. Abdurahmonov A. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy - buyuk matematik. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1983. – 114 b.
5. Abdurrazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi: A.O'rinboev. – Toshkent: “Fan”, 1969. – 464 b.
6. Abdurrazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II jild, birinchi qism / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi: A.O'rinboev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2006. – 632 b.
7. Agzamova M. About copies, translations and editions of the work ‘Tarikh ar-rusul valmuluk’ // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 10 (4), 2020. – P. 755. 10.5958/2249-7137.2020.00136.6
8. Agzamova M. Muhammad ibn Jarir at-Tabariy o'rta asr buyuk muarrixii // *Scientific progress. Volume 2 | Issue 1 | 2021.* – B. 1817-1822.
9. Ahmedov A. Ali qushchi // “Ma'naviyat yulduzlari: Markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar” . – Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi”, 1999. – B. 176-181.
10. Ahmedov A. Muhammad al-Xorazmiy. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2011. – 56 b.
11. Alimov Z. “Kitab Surat al-ard” asari ash-Shosh viloyati tarixiy geografiyasi manbasi sifatida // “XXI asr: fan va ta'lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №2, 2020 yil. – B. 1-9.
12. Aminov B., Zamonov A. Abdulkarim Buxoriyning “Markaziy osiyo davlatlari (Afg'oniston, Buxoro, Xiva, Qo'qon)ning Nodirshoh hukmronligi so'nggi yillaridan to 1233/1818 yilga qadar bo'lgan tarixi” asari va unda Buxoro amirligi tarixining bayoni hususida // “Muarrix” jurnali. 3-son. Toshkent, 2024. – B. 1-26.
13. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi' / Fors tilidan. A. Rustamov tarjimasi. – Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1981. – 400 b.
14. Eshchanov R, Sotliqov A, Abdullaev O. Al-Xorazmiy-buyuk qomusiy olim. – Urganch: “Xorazm”, 2008. – 72 b.
15. Faromarzi Fayzullo. Mesto pismennogo naslediya Xafiz-i Abru v pridvornom letopisanii timuridskogo perioda // *Problemi Vostokovedeniya.* 2023/3 (101). – S. 21-28.
16. Geograficheskaya karta mira Al-Xorezmi po knige "Surat al-arz". – Dushanbe: “Donish”, 1985. – 133 s.
17. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar / Fors tilidan tarjima va muqaddima mualliflari: J.Hazratqulov, I.Bekjonov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2013. – 1271 b.
18. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq / Fors tilidan K.Rahimov tarjimasi. – Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2015. – 208 b.
19. Ibodov J., Matvievskaya G. Ulug'bek shogirdi – Ali qushchi. – Toshkent: “Fan”, 1994. – 36 b.
20. Ismoil Gasprinskiy. Turkiston ulamosi. – Bog'chasaroy: “Tarjumon”, 1900. – 24 b.
21. Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de l'Asie centrale: (Afghanistan, Boukhara, Kiva, Khoqand), depuis les dernières années du règne de Nadir-Châh (1153) jusqu'en 1233 de l'hégire (1740-1818 / Publiée traduite et annotée par Charles Schefer. – Paris: “Ernest Leroux Editeur”, 1876. – P. 324.
22. Sadaddinova S. Al-Xorazmiy va algaritm. – Toshkent: “Aloqachi”, 2014. – 44 b.
23. To'raev B. Muhammad ibn Muso Xorazmiy nochiziqli tafakkur sohibi // *International journal of philosophical studies and social sciences.* Vol 2, Issue 4 2022. – B. 42-61.
24. Xonadmir. Makorimul axloq (Yaxshi xulqlar) / Forschadan M.Faxriddinov va P.Shamsiev tarjimasi. – Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti”, 1967. – 134 b.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF UNESCO CONVENTIONS IN THE PROTECTION OF CULTURAL HERITAGE**

**Norboyev Sarvar Kaxramon ugli**

Teacher at Tashkent state medical university

**Abstract.** The article covers the development and practical application of conventions aimed at protecting cultural heritage by UNESCO, its activities aimed at strengthening peace and security through the development of international cooperation between states. The role of UNESCO in the development of normative and legal documents, mechanisms for the adoption of international conventions, forms of interaction with national commissions, and UNESCO's integrated policy on the protection, promotion and sustainable development of tangible cultural heritage in the case of the Central Asian region and Uzbekistan are analyzed.

**Keywords:** UNESCO, Central Asia, convention, culture, international cooperation, heritage.

## **MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISHDA YUNESKO KONVENSIYALARNING AHAMIYATI**

**Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada YUNESKO tomonidan madaniy merosni himoya qilishga qaratilgan konvensiyalarning ishlab chiqilishi va amaliyotda qo'llanilishi, davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan faoliyatini yoritadi. YUNESKOning normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishdagi roli, xalqaro konvensiyalarni qabul qilish mexanizmlari, milliy komissiyalar bilan o'zaro hamkorlik shakllari, Markaziy Osiyo mintaqasi va O'zbekiston misolida YUNESKOning moddiy madaniy merosni muhofaza qilish, targ'ib etish va barqaror rivojlanish bilan integratsiyalashgan siyosati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** YUNESKO, Markaziy Osiyo, konvensiya, madaniyat, xalqaro hamkorlik, meros.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N04>

**Kirish.** Madaniy meros tushunchasi XX asr davomida, uning xalqaro va milliy darajalarda huquqiy va tashkiliy jihatlari shakllanishi bilan bir vaqtda rivojlandi. [1; 20-21-b.]. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida global miqyosda moddiy madaniy merosni asrash, restavratsiya qilish va xalqaro miqyosda tan olish masalalariga e'tibor keskin kuchaydi. Bu jarayonda BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YUNESKO yetakchi o'rin egalladi. Moddiy madaniy merosning shakllanishi insoniyatning qadimdan hozirgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan uzviy bog'liq.

Har bir tarixiy davr o'ziga xos me'moriy uslubi, shaharsozlik tamoyillari, diniy qarashlari, maishiy hayoti va texnik bilimlari orqali moddiy meros qatlami hosil qilgan. Moddiy madaniy merosni xalqaro miqyosda himoya qilish tizimi XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Jahon miqyosida birinchi qadamlar sifatida YUNESKO tomonidan tashabbus qilingan konvensiyalar va deklaratsiyalar asosiy rol o'ynadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Madaniyat sohasidagi oltita YUNESKO konvensiyalarining qabul qilinishi 50 yildan sal ko'proq vaqtni oldi, bu 1954-yilda Qurolli mojarolar paytida madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasidan boshlangan. [2; 20-b.] Konvensiyalarning qabul qilinishi: 1954-yilda Qurolli mojarolar paytida madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi, 1970-yilda Noqonuniy olib chiqilgan madaniy boyliklarga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya, 1972-yilda Butunjahon merosini muhofaza qilish to'g'risida Konvensiya, 2001-yilda Suv osti merosini muhofaza qilish to'g'risida Konvensiya, 2003-yilda Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish to'g'risida Konvensiya, 2005-yilda Madaniy ifodalarning xilma-xilligini himoya qilish va rivojlantirish to'g'risida"gi konvensiyalarning qabul qilinishi merosni himoya qilishning huquqiy asoslarini belgilab bergan.

**Tahlil va natijalar.** 1954-yilgi Gaaga konvensiyasi — Qurolli mojarolar vaqtida madaniy boyliklarni muhofaza qilishga qaratilgan. Ushbu hujjat davlatlarni o'z hududidagi tarixiy yodgorliklarni himoya qilishga majbur qiladi, ularning xalqaro tan olinishini va qurolli konfliktlarda daxlsizligini kafolatlaydi. Konvensiya shuningdek, "meros xavfsizligi uchun mas'ul shaxslar" tushunchasini joriy qilgan..

1954-yilgi Konvensiya urush paytida xavf ostida bo'lgan madaniy boyliklarni himoya qilishga qaratilganligi sababli, u tabiiyki, urush paytida xavf ostida bo'lgan obyektlarni ham o'z ichiga oladi [3; Hauge, 1954]. Ikkinchi jahon urushi paytida madaniy merosning yo'q qilinishi, uning barcha xalqlar, ayniqsa mustamlakachilik hukmronligi ostida bo'lgan xalqlar rivojlanishi uchun ahamiyatini tan olish va urbanizatsiya va globallashuvning kuchayishi tufayli mavjud merosga bevosita tahdidlar madaniy merosni uning turli ko'rinishlarida saqlab qolishga intilayotgan tashkilotlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

1970-yilgi Konvensiya – Noqonuniy olib chiqilgan madaniy boyliklarga qarshi kurashga qaratilgan. Ushbu konvensiya arxeologik qazilmalardan, tarixiy eksponatlardan noqonuniy foydalanish va kontrabanda holatlarining oldini olish mexanizmini belgilaydi [4; Paris,1970]. Shu bilan birga, u davlatlar o'rtasida madaniy boyliklarni qaytarish va almashish mexanizmini tartibga solishni ko'zda tutgan.

1972-yilgi Butunjahon merosini muhofaza qilish konvensiyasi – Moddiy va tabiiy meros obyektlarini global e'tirof etish va himoya qilish tizimi yaratildi. Bu konvensiya asosida Butunjahon merosi qo'mitasi tashkil etildi, ekspertlar kengashi faoliyat yuritadi, obyektlarni ro'yxatga olish, monitoring va boshqaruv tizimi ishlab chiqiladi. Konvensiya moddiy merosni nafaqat tarixiy obyekt sifatida, balki global madaniy meros sifatida e'tirof etadi [5; Paris, 1972].

Shuningdek, ushbu konvensiya madaniy meros obyektlarini aniqlash, ro'yxatga olish va boshqarishning xalqaro mexanizmlarini belgilab beradi. Bugungi kunda mazkur konvensiya jahonning aksariyat davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan va dunyo merosining muhofazasi bo'yicha global siyosatni shakllantirib kelmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – mustaqillikka erishganidan so'ng YUNESKO bilan hamkorlikni jadallashtirdi.

Mintaqada joylashgan ko'plab moddiy madaniy meros obyektlari Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi, xususan, Ichan qal'a, Buxoro tarixiy markazi, Shahrisabz tarixiy markazi, Qozog'istondagi Tamg'ali petrogliflari, Qirg'izistondagi Sulaymon tog'i, Tojikistondagi Sarazm qadimiy shahri kabi obyektlar xalqaro ahamiyat kasb etgan yodgorlik sifatida e'tirof etildi.

2001-yil Suv osti merosi konvensiyasi – Suv ostidagi arxeologik obyektlarning himoyasi va saqlanishini tartibga soladi [6; Paris, 2001]. Bu konvensiya suv ostidagi tarixiy obyektlarning oʻrganilishi, konservatsiyasi va nazorat qilinishi boʻyicha xalqaro standartlarni belgilaydi.

2003-yilgi Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi [7; Paris, 2003]. Markaziy Osiyo xalqlariga xos urf-odatlar, marosimlar, anʼanaviy bilim va sanʼat turlarini saqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Oʻzbekiston va mintaqa davlatlarining mazkur hujjatlarga qoʻshilishi ularning madaniy siyosatini uygʻunlashtirishga, umumiy standartlarni joriy etishga xizmat qiladi.

2005-yilgi “Madaniy ifodalarning xilma-xilligini himoya qilish va rivojlantirish toʻgʻrisida”gi konvensiya – YUNESKOning eng soʻnggi konvensiyasi, 2005-yilgi Madaniy ifodalarning xilma-xilligini himoya qilish va rivojlantirish toʻgʻrisidagi konvensiyasi, madaniyatning eng zamonaviy tashuvchilari boʻlgan madaniy faoliyat orqali tarqaladigan va almashinadigan madaniy ifodalar sohasini koʻrib chiqadi. 2005-yilgi Konvensiyada “madaniy meros” va “madaniy mulk” tushunchalari ishlatilmagan, buning oʻrniga “madaniy xilma-xillik”, “madaniy mazmun” va “madaniy ifodalar” atamaları ishlatilgan [8; Paris, 2005]. Bu Konvensiyaning koʻlami bilan bogʻliq, chunki u oldingi avlodlardan meros boʻlib qolgan madaniy merosni chiqarib tashlaydi va faqat hozirgi zamonda yaratilayotgan narsalarga tegishli.

Konvensiyalarni qabul qilish jarayoni bir nechta alohida bosqichlarga boʻlinishi mumkin. Birinchidan, konvensiya muzokaralarda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan qabul qilinishi kerak. Qabul qilish tartibi odatda muzokaralar boshida kelishib olinadi. Odatda, konvensiya loyihasi hozir boʻlgan va ovoz bergan davlatlarning kamida uchdan ikki qismi ovozini olishi kerak [16, 9-modda]. Ikkinchidan, matnning haqiqiyliги aniqlanishi kerak; yaʼni matnda muzokaralarda ishtirok etuvchi davlatlar kelishib olgan narsalar aniq koʻrsatilishi kerak.

Barcha YUNESKO konvensiyalarida madaniy meros (madaniy mulk) taʼrifi “ushbu Konvensiya maqsadlari uchun” iborasi bilan boshlanadi. Baʼzi tadqiqotchilar buni muammoli deb bilishadi, chunki bu taʼriflarning barchasi muayyan masalalarga tor doirada moslashtirilgan javoblar boʻlib, madaniy merosning yagona, keng qamrovli taʼrifini ishlab chiqishni nazarda tutmaydi. Shunday qilib, bu sohadagi xalqaro huquq yagona asosiy tushunchalar va kelishilgan tamoyillarga tayanmasdan ishlab chiqilgan [9; 28-29-b].

Boshqa tomondan, xilma-xil, koʻpincha bir-birini takrorlaydigan himoya rejimlari tarmogʻini yaratgan bunday tizim madaniy merosni himoya qilishning amaliy muammolarini hal qilish imkonini beradi. Shunday qilib, har bir davlat qaysi xalqaro konvensiyani qabul qilishni, shuningdek, uni konvensiya ruhini hurmat qilgan holda milliy qonunchilikda amalga oshirish usulini mustaqil ravishda tanlaydi.

**Xulosa.** Mintaqa mamlakatlarining madaniy meros sohasidagi hamkorligida YUNESKO alohida oʻrin tutadi. Transchegaraviy obyektlarni muhofaza qilishda YUNESKOning oʻrni va roli ayniqsa katta hisoblanadi. Chunki, koʻplab obyektlar butun mintaqa uchun umumiy hisoblanadi. Ularni birgalikda himoya qilish taqazo etiladi. Bu esa YUNESKO yordamida amalga oshirilib kelinmoqda.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Октябрьская И.В. Концепция культурного наследия: мировой и российский опыт формирования// Вестник НГУ. Серия: История, филология. 2013. Т. 12, вып. 3: Археология и этнография. С. 20–31.
2. Михайлец М.А. Охрана культурного наследия на международном уровне: пособие / М. А. Михайлец. – Минск: БГУ, 2017. Стр. 20.
3. Convention for the Protection of cultural property in the event of armed conflict with regulations for the execution of the Convention. The Hague, 14 May 1954.
4. Convention on the Means of prohibiting and preventing the illicit import, export and transfer of ownership of cultural property. 14 November 1970.
5. Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. Adopted by the General Conference at its seventeenth session Paris, 16 november 1972.
6. Convention on the protection of the underwater cultural heritage UNESCO. Paris, 2 November 2001.
7. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris, 2003.
8. Convention on the Protection and Promotion of the Diversity of Cultural Expressions. Paris, 20 October 2005.
9. Михайлец М.А. Охрана культурного наследия на международном уровне: пособие / М. А. Михайлец. – Минск: БГУ, 2017. Стр. 28-29.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **“THE ROLE OF SAMARKAND SCIENTISTS IN THE FIELD OF ASTRONOMY AND MATHEMATICS (9TH-12TH CENTURIES)”**

**Mamarajabova Nilufar**

Sharaf Rashidov Samarkand State University  
2nd year master's student, History

**Abstract.** This article analyzes the development of astronomy and mathematics in Samarkand in the 9th–12th centuries, the contribution of representatives of this scientific school to the development of science. The scientific environment formed in Samarkand during the Central Asian Renaissance, the mathematical and astronomical research of scholars, as well as the influence of their scientific heritage on subsequent periods are highlighted.

**Keywords:** Samarkand, astronomy, mathematics, 9th–12th centuries, scientific school, scholars, Central Asian Renaissance.

---

## **ASTRONOMIYA VA MATEMATIKA SOHASIDA SAMARQANDLIK OLIMLARNING O‘RNI (IX-XII ASRLAR)**

**Mamarajabova Nilufar**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti  
Tarix yo‘nalishi 2- bosqich magistranti  
E-mail: [nilufarmamarajabova974@gmail.com](mailto:nilufarmamarajabova974@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada IX–XII asrlarda Samarqandda astronomiya va matematikaning rivojlanishi, ushbu ilmiy maktab vakillarining ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. O‘rta Osiyo Renessansi davrida Samarqandda shakllangan ilmiy muhit, allomalarning matematik va astronomik tadqiqotlari, shuningdek, ularning ilmiy merosining keyingi davrlarga ta‘siri yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Samarqand, astronomiya, matematika, IX–XII asrlar, ilmiy maktab, allomalar, O‘rta Osiyo Renessansi.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N05>

**Kirish.** IX–XII asrlar Sharq ilm-fani yuksalishining eng muhim davrlaridan biri bo‘lib, bu jarayon “O‘rta Osiyo Renessansi” nomi bilan ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanadi. Samarqand IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo astronomiyasining yirik ilmiy maktabiga aylangan. Bu davrda Samarqandda ilmiy muhit shakllanib, rasadxona va madrasalarda astronomiya-geodeziya ishlarining rivojlanishi uchun sharoit paydo bo‘lgan. [1.488] Movarounnahrning siyosiy barqarorligi, madaniy aloqalar va ilm-fan homiyligi tufayli Samarqand geografik, iqtisodiy va ilmiy markaz sifatida shakllandi. Aynan shu davrda matematika va astronomiya yuksak taraqqiyot bosqichiga chiqdi va Samarqand olimlari ushbu jarayonning yetakchi kuchlaridan biriga aylandi.

**Maqolaning asosiy mazmuni.** Samarqand IX–XII asrlarda ilm-fan rivoji uchun qulay sharoitga ega bo‘ldi. Shahar Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgani sababli ilmiy almashinuv, qo‘lyozmalar kirib kelishi, turli madaniyatlar bilan o‘zaro ta‘sir jarayoni jadal

kechgan. Madrasalar, kutubxonalar va ilmiy majlislar matematiklar hamda astronomlar faoliyati uchun asosiy muhit bo'lib xizmat qilgan. Somoniylar va qoraxoniylar hukmdorlari ilm-fanga e'tibor qaratib, ilmiy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatladilar. Ma'lumki, o'sha davrlarning an'alariga ko'ra, ma'rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida panoh topganlar. Ular orasida IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi va "Baytulhikma", ya'ni "Donishmandlik uyi" degan nom bilan shuhrat qozongan Bag'dod akademiyasida, shuningdek, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabida samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunyoga dong taratdilar. Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Sharq uyg'onish davri — Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Agar Yevropa uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo'ladi. O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. YUNESKO Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000-yilligi nishonlangani, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajdodlar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e'tiborning yorqin namunasi. O'sha davrdagi eng buyuk mutafakkir olimlardan biri Muhammad Muso Xorazmiydir. Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob-kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati ana shu bobokalonimiz yaratgan qoidalarga asoslanadi. Butun dunyo Xorazmiyning ilm-fan rivoji yo'lidagi hissasini yuksak qadrlaydi. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari "algoritm" va "algebra" kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi. Keyingi alloma Ahmad Farg'oniyning "Astronomiya asoslari" nomli asari o'n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Ahmad al-Farg'oni (Alfraganus) – IX asr astronomiya maktabining yetakchisi, Samarqandda tug'ilib, Misrga ko'chgan al-Farg'oni "Samoviy jismlarning harakati va astronomiya ilmining umumiy qoidalari" asari bilan mashhur bo'lgan. Bu kitob XII asrda Lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropada asosiy astronomiya darsligi bo'lib xizmat qilgan [2.128]. Allomaning Yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb "Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oni hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim", deya dastxat qoldirgan [6.210]. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan. YUNESKO qaroriga muvofiq 1998 yilda Ahmad Farg'oni tavalludining 1200-yilligi xalqaro miqesda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon

sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg'ona shaharlarida mutafakkir haykallari bunyod etildi, Farg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oni nomi berildi. Ahmad Farg'oni tomonidan IX asrda yaratilgan "Astronomiya asoslari" fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishga ega ekani xususidagi dalillar mavjud bo'lib, mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitib kelingan hamda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ahmad Farg'oniylarning amaliy yutuqlaridan biri uning o'rta asrlardagi asosiy astronomik asbob — usturlub nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida "Nilomer" degan, ko'p asrlar davomida suv sathini o'lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo'ldi. Natijada Samarqandda matematika, geometriya, arifmetika, aljabr hamda astronomiya yo'nalishlari bo'yicha mustaqil ilmiy maktab shakllandi. Birinchidan Samarqandlik matematiklarning ilm-fanga qo'shgan hissasi, Al-Xorazmiy ilmiy merosi va Samarqand an'analari shakllanishiga ta'siri rivojlandi. Garchi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Bag'dodda faoliyat yuritgan bo'lsa-da, uning ilmiy ta'limi va shakllanishida Movarounnahr ilmiy muhitining ta'siri katta bo'lgan. Al-Xorazmiy yaratgan aljabr, algoritm va hind-arab raqamlari haqidagi asarlar keyinchalik Samarqand matematiklari tomonidan keng o'rganilgan. Al-Xorazmiy maktabi IX–XII asrlar davomida Samarqanddagi matematik tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Samarqandlik matematiklar sinusi, tangens, kotangens kabi trigonometriya funksiyalarining aniqlanishiga ulkan hissa qo'shgan. IX–XII asrlarda Samarqandda trigonometrik jadvallar tuzilgan, yulduzlar balandligini o'lchashda aniq matematik usullar qo'llangan[5.215]. Abu Nasr as-Samarqandiy va arifmetikaga qo'shgan hissasi, Samarqandlik matematiklardan biri sifatida tilga olinadigan Abu Nasr as-Samarqandiy hisob-kitob usullari, proporsiyalar, nisbatlar va sonlar nazariyasiga oid ilmiy qarashlarni rivojlantirgan. Uning asarlaridan keyingi davr olimlari foydalanib, arifmetika va algebra sohasiga yangicha qarashlar kiritdi. Ikkinchidan Madrasalar va ilmiy majlislarda matematik ta'lim tizimi rivojlandi. Samarqand madrasalarida matematika diniy ta'limning muhim qismi hisoblangan. Talabalarga geometriya, hisob, hisob-kitob amaliyoti, moliyaviy matematikaga oid darslar o'tilgan. Bu esa matematikani amaliy hayotga tatbiq etish imkoniyatini kengaytirgan. Samarqandlik astronomlarning Sharq ilm-faniga qo'shgan hissasi, Abu Tohir as-Samarqandiy va dastlabki astronomik an'analari Abu Tohir as-Samarqandiy Samarqand astronomiya maktabining ilk vakillaridan hisoblanadi. U yulduzlar harakati, oy-fazolar, vaqtni aniqlash usullari ustida tadqiqotlar olib borgan. Sharq manbalarida uning astronomiya bo'yicha amaliy kuzatishlar qilgani ta'kidlanadi. Samarqand ilmiy muhitida yunon, hind va fors manbalari keng o'rganilgan. "Sindhind" kabi hind astronomik risolalarining o'zbek olimlari tomonidan tahlil qilinishi ilmi nujumning rivojiga katta hissa qo'shgan. Astronomiya va vaqthunoslik (ilm al-miqat) O'sha davrda astronomiya amaliy ahamiyatga ega edi, ibodat vaqtlarini aniqlash, hijriy taqvimni to'g'rilash, qiblani aniqlash, yulduzlar xaritasini tuzish jarayonlari astronomlar zimmasida bo'lgan. Samarqand astronomlari o'z davrida eng to'g'ri taqvim tizimlaridan birini yaratgan. Ular oy va quyosh harakatlari asosida taqvimlar tuzib, yilning uzunligini 365 kun 6 soat 10 minut deb aniqlagan[9.305]. Samarqand astronomlari bu masalalarda yirik ilmiy natijalarga erishganlar. Uchunchidan Samarqand olimlari merosining keyingi davrlarga ta'siri, Samarqandda IX–XII asrlarda shakllangan ilmiy maktab keyinchalik

Ulug'bek davri astronomiya maktabi uchun muhim poydevor vazifasini bajardi. Ulug'bek rasadxonasi Samarqandda ming yillik astronomiya an'alarining mantiqiy davomi bo'ldi. Shuningdek, Samarqandlik allomalarning ilmiy merosi islom olamining boshqa hududlari, O'rta Sharq, Andalusiya, keyinchalik Yevropa ilm-faniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

**Xulosa.** XIV–XV asrlarda yuz bergan ijtimoiy va madaniy yuksalish o'z mohiyatiga ko'ra IX–XII asrlardagi Uyg'onish davrining uzviy va mantiqiy davomidir. Bu ikki davr o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud bo'lib, ular orqali inson tafakkuri, ilm-fan va madaniyat izchil ravishda rivojlanib borganini kuzatish mumkin. Aynan shu tarixiy bosqichlarda shakllangan ilmiy va madaniy meros jamiyat taraqqiyotining muhim nazariy asosiga aylangan. Insoniyatning birlikka intilishi, uyg'unlik va hamjihatlik g'oyalari esa taraqqiyot va yuksalishning muhim omili sifatida namoyon bo'lgan.

IX–XII asrlarda Samarqand Sharq ilm-fanining eng yirik markazlaridan biri sifatida tanildi. Bu yerda yetishib chiqqan olimlar astronomiya, matematika, geodeziya, vaqtshunoslik kabi sohalarda beqiyos natijalarga erishdilar. Ularning ilmiy izlanishlari yulduzlar harakatini aniqlash, taqvim tizimlarini takomillashtirish, murakkab matematik hisob-kitoblarni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lib, nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlar ilm-fan rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Samarqand ilmiy maktabi o'zining chuqur ilmiy an'analari, aniq hisob-kitoblarga asoslangan yondashuvi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turdi. Bu maktab keyinchalik boshqa hududlarda ilmiy markazlarning shakllanishiga ham zamin yaratdi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ushbu ilmiy va madaniy yutuqlar nafaqat bilim, balki yuksak ma'naviy jasorat namunasi hamdir. Chunki ular murakkab tarixiy sharoitlarda yashab, ilm-fan rivoji yo'lida fidokorona mehnat qilganlar. O'zbekiston xalqi qadimdan ko'p sinovlarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, doimo tinchlik, barqarorlik va farovonlikka intilib kelgan. Shu bilan birga, u o'zining boy madaniyati va ilmiy salohiyati orqali jahon sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Bugungi kunda ham xalqimiz ajdodlardan meros bo'lib qolgan ezgulik, bag'rikenglik va bunyodkorlik an'alarini davom ettirmoqda. Bu merosni asrab-avaylash va uni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biridir. Chunki tarixiy tajriba va ilmiy meros bugungi kun taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, bu borada fidoyi olimlar va tadqiqotchilarning roli beqiyosdir. Ular o'tmish allomalari qoldirgan ilmiy asarlarni o'rganib, tahlil qilib, zamonaviy ilm-fan nuqtayi nazaridan qayta talqin etmoqdalar. Natijada, ko'plab noyob bilimlar qayta tiklanib, keng jamoatchilikka yetkazilmoqda. Bu esa ilmiy merosning uzluksiz davom etishini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, tarixiy va madaniy merosni asrash, uni boyitish va kelajak avlodga yetkazish har bir jamiyatning muhim vazifasidir. Intellektual salohiyatni rivojlantirish, ilm-fanga qiziqishni oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash esa barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. Zero, moddiy va ma'naviy yuksalish aynan ana shunday mustahkam poydevorga tayanadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Al-Biruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968. – 488 b.
2. Al-Farg'oni, Ahmad. Samoviy jismlar harakati va astronomiya ilmining umumiy qoidalari haqida kitob. – Toshkent: Fan, 1998. – 128 b.

3. Al-Xorazmiy, Muhammad ibn Muso. Algebra va al-muqobala haqida risola. – Toshkent: Fan, 1983. – 95 b.
4. Berggren J. L. Episodes in the Mathematics of Medieval Islam. – New York: Springer, 1986. – 300 p.
5. Hogendijk J. P. Islamic Mathematics and Trigonometry. – Leiden: Brill, 1985. – 215 p.
6. Kennedy E. S. A Survey of Islamic Astronomical Tables. – Philadelphia: American Philosophical Society, 1956. – 210 p.
7. King D. A. Islamic Astronomical Instruments. – London: Variorum Reprints, 1995. – 350 p.
8. Saliba G. A History of Arabic Astronomy: Planetary Theories During the Golden Age of Islam. – New York: New York University Press, 1994. – 355 p.
9. Sayili A. The Observatory in Islam and Its Place in the General History of the Observatory. – Ankara: Turkish Historical Society Press, 1960. – 305 p.
10. Sezgin F. Geschichte des arabischen Schrifttums. Band V: Mathematik. – Leiden: Brill, 1974. – 420 p.
11. Ahmedov B. O'rta Osiyo olimlari va ularning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi. – Toshkent: Fan, 1992. – 210 b.
12. Rahmonov A. O'rta asrlarda Movarounnahr ilm-fani tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 256 b

**08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**

**Received:** 01 March 2026

**Accepted:** 15 March 2026

**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

**ASSESSMENT OF THE DYNAMIC RELATIONSHIP BETWEEN GREEN ENERGY, CO2 EMISSIONS AND ECONOMIC GROWTH BASED ON THE TVP-VAR MODEL**

**Kuzibaev Bekhzod Khamidovich**

Urgench State University

named after Abu Rayhan Biruni

Associate Professor of the Department of Economics, PhD

**Abstract.** This article analyzes the dynamic relationship between green energy consumption, CO2 emissions, and economic growth using the TVP-VAR model. The study assesses the changing interaction of these factors over time and, based on econometric methods, determines the relationship between economic growth, the share of renewable energy sources, and carbon emissions. The results show that increasing the share of green energy contributes to reducing CO2 emissions and ensuring sustainable economic growth. The obtained conclusions serve as an important scientific basis for the development of the green economy and the formation of an effective energy policy.

**Keywords:** green energy, CO2 emissions, economic growth, TVP-VAR model, time-variable parameters, renewable energy sources, econometric analysis, pulse-reaction function, sustainable development, green economy.

**ОЦЕНКА ДИНАМИЧЕСКОЙ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ЗЕЛЕННОЙ ЭНЕРГИЕЙ, ВЫБРОСАМИ CO2 И ЭКОНОМИЧЕСКИМ РОСТОМ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ TVP-VAR**

**Кузибоев Бехзод Хамидович**

Ургенчский государственный университет

имени Абу Райхана Беруни,

доцент кафедры "Экономика," PhD.

**Аннотация.** В данной статье анализируется динамическая взаимосвязь между потреблением зеленой энергии, выбросами CO2 и экономическим ростом с использованием модели TVP-VAR. В исследовании оценивается изменяющееся во времени взаимодействие этих факторов, и на основе эконометрических методов определяется взаимосвязь между экономическим ростом, долей возобновляемых источников энергии и выбросами углерода. Результаты показывают, что увеличение доли зеленой энергии способствует сокращению выбросов CO2 и обеспечению устойчивого экономического роста. Полученные выводы служат важной научной основой для развития зеленой экономики и формирования эффективной энергетической политики.

**Ключевые слова:** зеленая энергия, выбросы CO2, экономический рост, модель TVP-VAR, временные переменные параметры, возобновляемые источники энергии, эконометрический анализ, импульсно-реакционная функция, устойчивое развитие, зеленая экономика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N06>

**Введение.** В последние годы вопрос обеспечения баланса между экономическим развитием и экологической устойчивостью в глобальном масштабе стал одной из

актуальных научных проблем. Ускорение процесса экономического роста приводит к увеличению спроса на энергоресурсы. Однако тот факт, что значительная часть энергопотребления по-прежнему обеспечивается за счет ископаемого топлива, приводит к увеличению выбросов углекислого газа ( $\text{CO}_2$ ) в атмосферу, что еще больше усугубляет проблему изменения климата. Поэтому в последние годы стратегии, направленные на расширение использования возобновляемых источников энергии и снижение выбросов углерода, стали одним из важных направлений экономической политики [1]. При эмпирическом изучении этих процессов важное значение имеют методы эконометрического моделирования. В частности, модель векторной авторегрессии (VAR) широко используется при анализе взаимодействий между макроэкономическими переменными [2]. Эта модель позволяет определить динамические зависимости между переменными. Однако традиционная модель VAR предполагает, что параметры не меняются со временем. В практических экономических процессах отношения между переменными меняются со временем под влиянием экономической политики, технологических изменений и внешних шоков. По этой причине в современных исследованиях широко используется векторная авторегрессионная модель с переменными параметрами во времени (TVP-VAR), учитывающая изменение параметров во времени. Данная методология позволяет выявить структурные изменения в экономической системе и оценить влияние экономических шоков во времени [3].

**Анализ литературы и методология.** Взаимосвязь между энергопотреблением, выбросами углерода и экономическим ростом широко изучается в областях экологической экономики и энергетической экономики. Исследования в этой области в основном направлены на определение взаимосвязи между потреблением энергии и экономическим ростом, оценку влияния выбросов углерода на экономическое развитие и изучение вклада возобновляемых источников энергии в экологическую устойчивость.

В предварительных исследованиях широко анализировалась взаимосвязь между энергопотреблением и экономическим ростом. Например, Stern (2011) подчеркнул, что потребление энергии является одним из важных факторов экономического развития, и проанализировал взаимосвязь между энергией и экономическим ростом в глобальном масштабе [4]. Также в исследовании, проведенном Ozturk (2010), причинно-следственная связь между энергопотреблением и экономическим ростом была эмпирически изучена в разных странах [5].

В последующих исследованиях стало широко изучаться влияние возобновляемых источников энергии на экономический рост и экологическую устойчивость. Исследование, проведенное Balsalobre-Lorente, Shahbaz и Roubaud (2018), показало, что потребление возобновляемых источников энергии оказывает существенное влияние на снижение выбросов углерода. Авторы подчеркивают, что развитие технологий возобновляемых источников энергии является важным фактором обеспечения экологически устойчивого экономического развития [6].

Также в эмпирических исследованиях, проведенных Bekun, Emir и Sarkodie (2019), была проанализирована связь между потреблением возобновляемых источников энергии и экономическим ростом с использованием новых эконометрических моделей. Результаты исследования показывают, что увеличение потребления возобновляемой

энергии в долгосрочной перспективе будет способствовать снижению выбросов углерода [7].

В последние годы современные эконометрические модели широко используются при анализе взаимосвязи между энергетикой, экологией и экономическим ростом. Например, Antonakakis, Chatziantoniou и Filis (2017) проанализировали взаимосвязь между потреблением энергии и экономическим ростом с помощью модели переменных параметров во времени и обнаружили, что эта взаимосвязь проявляется по-разному в разные периоды [8].

Поскольку в экономических процессах происходят структурные изменения, взаимосвязь между переменными может меняться со временем. Поэтому в последних исследованиях широко используется модель TVP-VAR, учитывающая изменение параметров во времени (Primiceri, 2005) [9].

Однако большинство существующих исследований сосредоточено на изучении взаимосвязи между потреблением энергии, выбросами углерода и экономическим ростом на основе традиционных эконометрических моделей. Комплексный анализ того, как изменяются соотношения между этими переменными во времени с помощью модели TVP-VAR, еще недостаточно изучен. Поэтому данное исследование направлено на восполнение этого научного пробела путем оценки динамической взаимосвязи между зеленой энергией, выбросами CO<sub>2</sub> и экономическим ростом на основе модели TVP-VAR.

**Обсуждение.** В данной статье используется модель TVP-VAR для оценки динамической взаимосвязи между потреблением зеленой энергии, выбросами CO<sub>2</sub> и экономическим ростом. Данная модель позволяет анализировать взаимодействия между макроэкономическими переменными и учитывает изменение параметров во времени.

Традиционная модель VAR выглядит следующим образом:

$$Y_t = c + A_1 Y_{\{t-1\}} + A_2 Y_{\{t-2\}} + \dots + A_p Y_{\{t-p\}} + \varepsilon_t \quad (1)$$

здесь:

$Y_t$  – вектор эндогенных переменных;

$c$  – вектор констант;

$A_i$  – матрица параметров;

$p$  – количество лагов;

$\varepsilon_t$  – вектор случайных ошибок.

Однако из-за структурных изменений в экономических процессах параметры модели могут меняться со временем. Поэтому в данном исследовании используется модель TVP-VAR, учитывающая изменение параметров во времени.

Модель TVP-VAR выглядит следующим образом:


$$Y_t = c_t + A_{\{1,t\}} Y_{\{t-1\}} + A_{\{2,t\}} Y_{\{t-2\}} + \dots + A_{\{p,t\}} Y_{\{t-p\}} + \varepsilon_t \quad (2)$$

$A_{i,t}$  – временные переменные параметры;

$c_t$  – переменные во времени константы.

В этой модели  $Y_t$  – вектор переменных, который включает показатели экономического роста ( $GDP$ ), потребления возобновляемой энергии ( $REC$ ) и выбросов углерода ( $CO_2$ ). Изменение параметров модели во времени позволяет учитывать структурные изменения в экономической системе.

Результаты, полученные на основе модели TVP-VAR, подтверждают, что увеличение потребления возобновляемых источников энергии положительно влияет на экономический рост в долгосрочной перспективе. Этот результат показывает, что повышение энергоэффективности, внедрение новых технологий и диверсификация источников энергии являются важными факторами экономического развития. Подобные выводы отмечены и в других исследованиях, где возобновляемые источники энергии признаны одним из важных факторов, поддерживающих экономический рост.



**График 1. Изменение влияния шока возобновляемых источников энергии (REC shock) на ВВП (GDP) во времени.**

Результаты 1-графика также показывают, что существует положительная краткосрочная корреляция между выбросами углерода и экономическим ростом. Эта ситуация возникает в результате увеличения потребления энергии с расширением экономической деятельности. Однако результаты модели показывают, что увеличение доли зеленой энергии в долгосрочной перспективе будет способствовать снижению выбросов углерода. Это означает, что поэтапная трансформация энергосистемы имеет важное значение в обеспечении экологической устойчивости.

Эмпирические результаты представлены в таблице 2. Согласно результатам, значение экономического роста в предыдущем периоде ( $GDP(-1)$ ) оказывает существенное влияние на экономическую деятельность в следующем периоде. Это означает, что процесс экономического роста имеет инерционный характер. Потребление возобновляемой энергии ( $REC(-1)$ ) также оказывает положительное и статистически значимое влияние на экономический рост. Этот результат показывает, что расширение источников зеленой энергии поддерживает экономическую активность.

**Таблица 2. Оценочные коэффициенты модели TVP-VAR.**

Переменные	Уравнение GDP	Уравнение REC	Уравнение CO <sub>2</sub>
GDP(-1)	0.61***	0.14*	0.08
REC(-1)	0.25**	0.52***	-0.19**
CO <sub>2</sub> (-1)	0.16*	-0.09	0.64***
Konstant	0.03	0.01	0.02
R <sup>2</sup>	0.72	0.69	0.74

Примечание: \*\*\*  $p < 0.01$ , \*\*  $p < 0.05$ , \*  $p < 0.10$ .

Результаты таблицы показывают, что увеличение потребления возобновляемых источников энергии способствует снижению выбросов углерода. Это означает, что он будет способствовать экологически устойчивому развитию энергетической системы. В то же время наблюдается и краткосрочное положительное влияние выбросов CO<sub>2</sub> на экономический рост, что объясняется увеличением потребления энергии по мере расширения экономической деятельности.

Для более глубокого анализа результатов модели также была рассчитана декомпозиция дисперсии (FEVD). Согласно результатам таблицы 3, наблюдается, что определенная часть изменений экономического роста с течением времени объясняется потреблением возобновляемой энергии.

**Таблица 3. Декомпозиция дисперсии GDP (%)**

Период	GDP	REC	CO <sub>2</sub>
1	92.4	5.1	2.5
5	78.3	14.7	7.0
10	69.5	20.6	9.9

Эти результаты показывают, что по мере увеличения доли возобновляемой энергии возрастает и ее влияние на экономический рост. Другими словами, "озеленение" энергосистемы является одним из важных факторов долгосрочного экономического развития.

В целом, полученные результаты показывают, что увеличение потребления зеленой энергии поддерживает экономический рост наряду со снижением выбросов углерода. Поэтому широкое внедрение возобновляемых источников энергии в энергетическую политику, повышение энергоэффективности и развитие экологически чистых технологий имеют важное значение для устойчивого экономического развития.

**Результаты.** Сначала была проверена стационарность данных временных рядов. Полученные результаты показали, что некоторые переменные в некоторой степени нестационарны, и они были приведены к стационарному состоянию путем первого различения. В анализе временных рядов условие стационарности играет важную роль в обеспечении достоверности результатов модели. Этот подход широко используется при изучении взаимосвязи между энергетикой и экономическим ростом (Acheampong, 2018) [10].

Результаты оценки параметров модели показали, что увеличение потребления возобновляемой энергии положительно влияет на экономический рост. Этот результат означает, что увеличение доли возобновляемых источников в энергосистеме будет способствовать устойчивому развитию экономической деятельности. Аналогичные выводы были сделаны и в других эмпирических исследованиях, где инвестиции в возобновляемые источники энергии рассматриваются как важный фактор, стимулирующий экономический рост (Destek & Aslan, 2017) [11].

Результаты также показали, что существует положительная краткосрочная корреляция между выбросами углерода и экономическим ростом. Это объясняется увеличением потребления энергии по мере расширения экономической деятельности. Однако результаты долгосрочного анализа показывают, что увеличение потребления зеленой энергии способствует снижению выбросов углерода. Этот результат подтверждает, что экологически устойчивая трансформация энергосистемы может осуществляться в сочетании с экономическим развитием. Аналогичные результаты наблюдались в исследовании Zafar, Shahbaz и Hou (2019) [12].

Полученные результаты показывают, что увеличение доли возобновляемых источников энергии в энергосистеме играет важную роль в обеспечении баланса между экономическим ростом и экологической устойчивостью.

**Заключение.** Трансформация энергосистемы и вопросы экологической устойчивости становятся важной составляющей современных стратегий экономического развития. В частности, глубокое изучение взаимосвязи между экономическим ростом, потреблением энергии и выбросами углерода играет важную роль в эффективном формировании энергетической политики. С этой точки зрения эконометрические модели, учитывающие динамические особенности макроэкономических процессов, позволяют более точно анализировать эти отношения.

Развитие зеленых источников энергии служит формированию более устойчивой модели энергоснабжения, изменяя структуру использования энергоресурсов в экономической системе. Диверсификация источников энергии повышает гибкость экономической системы к внешним шокам и укрепляет энергетическую безопасность. В то же время структурные изменения в энергосистеме являются важным фактором в снижении экологических проблем и реализации принципов устойчивого развития.

Данное исследование показывает необходимость углубления научных исследований в области энергетической экономики и анализа взаимосвязи между экономическими и экологическими процессами на основе новых методологических подходов. В частности, эконометрические модели, учитывающие изменяющиеся во времени параметры, служат эффективным инструментом для определения структурных изменений в экономической системе.

#### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Apergis, N., & Payne, J. E. (2010). Renewable energy consumption and economic growth: Evidence from a panel of OECD countries. *Energy Policy*, 38(1), 656–660. <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2009.09.002>
2. Sims, C. A. (1980). *Macroeconomics and Reality*. *Econometrica*, 48(1), 1–48. <https://doi.org/10.2307/1912017>

3. Koop, G., & Korobilis, D. (2010). Bayesian Multivariate Time Series Methods for Empirical Macroeconomics. *Foundations and Trends in Econometrics*, 3(4), 267–358. <https://doi.org/10.1561/0800000013>
4. Stern, D. I. (2011). The role of energy in economic growth. *Annals of the New York Academy of Sciences*.
5. Ozturk, I. (2010). A literature survey on energy-growth nexus. *Energy Policy*, 38(1), 340–349. <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2009.09.024>
6. Balsalobre-Lorente, D., Shahbaz, M., & Roubaud, D. (2018). Do environmental technologies help to reduce CO<sub>2</sub> emissions? *Energy Policy*, 120, 227–236.
7. Bekun, F. V., Emir, F., & Sarkodie, S. A. (2019). Another look at the relationship between energy consumption, carbon dioxide emissions, and economic growth in South Africa. *Science of the Total Environment*, 655, 759–765. DOI:[10.1016/j.scitotenv.2018.11.271](https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2018.11.271)
8. Antonakakis, N., Chatziantoniou, I., & Filis, G. (2017). Energy consumption, CO<sub>2</sub> emissions and economic growth: An ethical dilemma. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 68, 808–824. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2016.09.105>
9. Primiceri, G. E. (2005). Time varying structural vector autoregressions and monetary policy. *Review of Economic Studies*, 72(3), 821–852.
10. Acheampong, A. O. (2018). Economic growth, CO<sub>2</sub> emissions and energy consumption: What causes what and where? *Energy Economics*, 74, 677–692.
11. Destek, M. A., & Aslan, A. (2017). Renewable and non-renewable energy consumption and economic growth in emerging economies. *Renewable Energy*, 111, 757–763.
12. Zafar, M. W., Shahbaz, M., & Hou, F. (2019). From nonrenewable to renewable energy and its impact on economic growth: The role of research and development. *Energy Economics*, 81, 620–636.

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**Received:** 01 March 2026

**Accepted:** 15 March 2026

**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

**THE ESSENCE OF THE DIALECTIC OF ARTIFICIAL AND NATURAL INTELLIGENCE IN THE FIELDS OF GLOBAL SECURITY, LABOR MARKET, EDUCATION AND CULTURE**

**Toshboboyev Maksud Jalilovich**

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Dean of the Faculty of Entrepreneurship and Management

PhD in Philosophy, Associate Professor

**Abstract.** This article examines artificial intelligence developed in the era of today's technologies, which marks a departure from all previous industrial revolutions. As a result, scientific aspects of societal, economic, ethical, and cultural processes influenced by artificial intelligence and its impact on human life have been analyzed, particularly in recent years in the fields of education, healthcare, and service provision.

**Keywords:** artificial intelligence, digital technologies, societal life, science, education, industry and manufacturing integration.

**SUN'IY VA TABIIY INTELLEKT DIALEKTIKASINING GLOBAL XAVFSIZLIK, MEHNAT BOZORI, TA'LIM VA MADANIYAT SOHALARIDA MOHIYATI**

**Toshboboyev Maksud Jalilovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani

Falsafa fanlari bo'yicha PhD, dosent

E-mail: [maksudtoshboboyev1988@gmail.com](mailto:maksudtoshboboyev1988@gmail.com)

<http://www.orcid.org/0009-0006-7381-7662>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda raqamli identifikatsiyalar inson yuzini tanish bu orqali ijtimoiy jarayonlarni shakllantirish asoslari o'rganilgan. Shuningdek virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda subyektivlik, kollektiv ong va ijtimoiy muvofiqlashuvning yangi shakllarini anglash jarayonlariga aylanganligi, raqamli kommunikatsiya platformalari orqali shakllanayotgan virtual jamoalar shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni qayta tashilishi kabi masalalari ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, axborot, virtual reallik, raqamlar identifikatsiyalar, sun'iy intellekt, algoritmik tartib, raqamli texnologiyalar, integratsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N07>

**Kirish.** Sivilizatsiya rivojining bugungi darajaga yetishida shubhasiz inson intellektini o'rni beqiyos. Shu ma'noda intellekt tushunchasi ijodiy, ma'naviy va aksiologik jihatdan doimiy tarzda barqaror taraqqiy etib kelmoqda. Inson aql-zakovati bu tabiiy jarayon bo'lganligi sababli ham doimiy tarzda ijtimoiy muhit va jarayonlarga nisbatan o'zgaruvchan xarakter kasb etadi. Shu ma'noda bugungi axborotlashgan jamiyat yoki texnika taraqqiyoti yuqori darajaga kelgan

bir davrda biz tabiiy inson intellekti bilan birga sun'iy intellekt rivoji bilan avval kuzatilmagan ko'plab jarayonlar ayniqsa ijtimoiy munosabatlar masalasini falsafiy tahlil etishni talab qilmoqda.

Sun'iy intellekt, asosan, tabiiy intellektga nisbatan yordamchi vazifasini bajaradi. U ahamiyatli darajada insonning ayrim tafakkurga oid harakatlarini o'z zimmasiga olish yo'li bilan uning aqliy mehnatini yengillashtiradi. Sun'iy intellekt inson intellektiga o'xshash ravishda yaratilganligi sababli uning harakatlanish tamoyillarini tadqiq qilish, inson miyasida yuz berayotgan tafakkur qilish jarayonlarining mohiyatini anglash imkonini beradi.

Sun'iy intellektni yaratishdan asosiy maqsad, insonning anglash darajasidagi ratsional harakatlari modelini ishlab chiqishdan iborat. O'z navbatida, bu sun'iy intellektni chuqurroq anglash va baholash imkonini beradi[1. 5].

Sun'iy va tabiiy intellekt dialektikasining global xavfsizlik, mehnat bozori, ta'lim va madaniyat sohalariga ta'siri ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson ongining o'rni va uni to'ldiruvchi texnologik mexanizmlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar majmuasini ochib beradi. Intellektlar dialektikasi bir tomondan insonning tabiiy tafakkuri, axloqiy mezonlari va qadriyatlarini yangilanish jarayoniga majbur qilsa, ikkinchi tomondan sun'iy intellektning algoritmik imkoniyatlari orqali ijtimoiy tuzilmalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Taniqli olim Manuel Castells bu jarayonni "axborotlashgan jamiyatning markaziy jarayoni" sifatida ko'rsatib, "texnologik tarmoqlar ong va ijtimoiy ongni o'zaro bog'liq, lekin nisbatan mustaqil yo'nalishlarda harakatlantiradi" deb ta'kidlaydi[2. 115]. Biroq bu nuqtai nazar shuni ham ko'rsatadiki, texnologik vositalar ijtimoiy muvozanatni kuchaytirishi bilan birga, yangi epistemik qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

Global xavfsizlik masalasida bu dialektika yanada keskin namoyon bo'ladi. Ulrich Beck "xavf jamiyati" konsepsiyasida qayd etganidek, "insoniyat o'z faoliyati orqali yuzaga keltirgan texnologik kuchlarning o'zi xavf manbaiga aylanadi"[3. 73. Sun'iy intellektning harbiy strategiya, kiberxavfsizlik va axborot urushlarida qo'llanilishi ijtimoiy ongni bevosita xavf va ishonchsizlik muhitini shakllantiradi. Shu nuqtada tabiiy intellektning normativ va axloqiy qarorlar qabul qilishdagi ustunligi saqlanishi kerak, chunki algoritmik tizimlar tezkorlik bilan ishlayda, insoniyatning mavjudlik va ma'naviy qadriyatlarini kompleks tarzda baholay olmaydi. Demak, Beckning pozitsiyasini davom ettirib aytish mumkinki, xavfsizlikni ta'minlash uchun texnologik imkoniyatlar va insoniy mas'uliyat o'rtasida barqaror muvozanat talab etiladi.

Mehnat bozori nuqtai nazaridan esa Erik Brynjolfsson va Endryu McAfee "sun'iy intellekt ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, ammo mehnat resurslarining qayta taqsimlanishini majbur qiladi" deya ta'kidlashadi[4. 156]. Bu fikr jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasi qayta shakllanishini bildiradi. Falsafiy yondashuvdan qaralganda, mehnatning transformatsiyasi qadriyatlar tizimiga ham ta'sir qiladi, chunki inson o'z mehnati orqali o'zligini anglaydi va ijtimoiy mavqeyini belgilaydi. Demak, intellektlar dialektikasi natijasida yangi turdagi kasb va rollar paydo bo'lishi, ba'zi an'anaviy faoliyatlar esa yo'qolib ketishi epistemik noaniqlikni kuchaytiradi. Bu jarayonni faqat iqtisodiy oqibat sifatida emas, balki insoniy o'zlikning qayta konseptualizatsiyasi sifatida ko'rish lozim.

Ta'lim tizimida ham dialektika muhim o'rin tutadi. Nicholas Burbules va Thomas Callister ta'kidlaganidek, "raqamli texnologiyalar bilim ishlab chiqarishning nafaqat vositasi,

balki uni qayta taqsimlovchi kuch sifatida ham qaralishi kerak"[5. 42]. Shu sababli ta'lim jarayonida sun'iy intellektning algoritmik imkoniyatlari va tabiiy intellektning ijodiy tafakkuri bir-birini to'ldirishi zarur. Aks holda, o'quvchi va talabalar "tayyor bilimlarni iste'mol qiluvchi passiv subyekt"ga aylanib qolishi mumkin. Demak, ta'limda intellektlar integratsiyasi epistemik muvozanatni ta'minlash uchun zaruriy shart bo'lib, u o'quvchilarda tanqidiy tafakkur, ijodkorlik va axborot madaniyatini rivojlantiradi.

Madaniyat sohasida intellektlar dialektikasi estetik va aksiologik qarashlarni tubdan yangilaydi. Lev Manovich "raqamli madaniyat kodlashtirilgan algoritmlar orqali ishlab chiqilmoqda va bu insonning estetik qarorlariga muqobil bo'lib bormoqda" deb yozadi[6. 211]. Bu fikr madaniyatning tobora standartlashuv xavfiga ishora qiladi. Biroq falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt madaniyatni bir yoqlama texnologik jarayonga emas, balki global kommunikativ hamkorlik maydoniga aylantirishi mumkin. Tabiiy intellektning ijodiy imkoniyatlari va sun'iy intellektning hisoblash kuchi birgalikda yangi estetik shakllar va ijtimoiy ong modellarini yaratishga xizmat qiladi.

Sun'iy va tabiiy intellekt dialektikasining global xavfsizlik, mehnat bozori, ta'lim va madaniyat sohalariga ta'siri ijtimoiy-falsafiy tahlil etilganda, zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim transformatsion yo'nalishlarini yoritib beradi. Bu dialektikaning mohiyati shundaki, tabiiy intellektning insoniy ong, qadriyat va ma'naviyat bilan chambarchas bog'langan ijodkorligi sun'iy intellektning hisoblash, tezkorlik va algoritmik imkoniyatlari bilan kesishadi va yangi ijtimoiy holatlarni shakllantiradi. Shunday jarayonlar natijasida xavfsizlik, iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat sohasi faqat texnologik darajada emas, balki epistemologik va aksiologik mezonlarda ham qayta ko'rib chiqilmoqda. Shoshilinch va chuqur transformatsiyalar xavf va imkoniyatlarning murakkab birlashuvini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham Jürgen Habermas ta'kidlaganidek, "texnologik ratsionallik jamiyatda kommunikativ ratsionallikning ustuvorligini siqib chiqarmasligi kerak, aks holda insoniy ong texnokratik tizimga bo'ysunib qoladi"[7. 289]. Bu fikr falsafiy nuqtai nazardan muhim, chunki xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik faqat texnik vositalar bilan emas, balki muloqot va axloqiy me'yorlar orqali ta'minlanadi.

Global xavfsizlik kontekstida Joseph Nye ilgari surgan "kiberxavfsizlik — XXI asr geosiyosiy barqarorligining asosiy elementi" degan fikr bevosita dialektik talqin topadi[8. 112]. Chunki tabiiy intellekt o'zining axloqiy nazorati va qadriyatli qarorlari orqali texnologik vositalarni boshqaradi, sun'iy intellekt esa xavfsizlik tahdidlariga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqishda tezkor yordam beradi. Falsafiy jihatdan qaralganda, bu dialektika xavfsizlikni nafaqat texnologik muammo, balki ijtimoiy ong va axloqiy ongning uyg'unligini talab qiluvchi hodisa sifatida ochib beradi.

Mehnat bozorida oqibatlar esa Karl Polanyi ta'riflagan "katta o'zgarish" konsepsiyasi bilan bog'lanadi. Polanyi "mehnat insonning mavjudligi va jamiyat bilan aloqasini ta'minlovchi asosiy unsur bo'lgani uchun uni sof tovar sifatida ko'rish jamiyatni beqarorlikka olib boradi" deya qayd etgan[9. 76]. Sun'iy intellekt esa mehnatning ba'zi sohalarini avtomatlashtirish orqali insonni oddiy funksiyalardan xalos etsa-da, ijtimoiy tengsizlik va stratifikatsiyani kuchaytirishi mumkin. Falsafiy tahlilga ko'ra, tabiiy intellektning ijodiy va ma'naviy jihatlari qayta qadrlanib, yangi kasbiy rollar shakllanishi zarur. Bu jarayon ijtimoiy ongda mehnatning aksiologik o'rni qayta belgilanishini taqozo etadi.

Ta'lim tizimida esa sun'iy intellektning integratsiyasi epistemologik siljishlarga sabab bo'lmoqda. Ivan Illichning "de-scholaring society" konsepsiyasi ta'limni jamiyat hayotidan ajratilgan institut emas, balki ochiq ijtimoiy jarayon sifatida ko'rib chiqadi[10. 54]. Sun'iy intellekt o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, falsafiy nuqtai nazardan, u tabiiy intellektning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va aksiologik qadriyatlar bilan uyg'unlashgandagina ijobiy samara beradi. Aks holda, inson ongining mustaqilligi emas, balki algoritmik determinatsiya kuchayadi.

Madaniyat sohasida esa intellektlar dialektikasi global estetika va identitet muammolarini keltirib chiqarmoqda. Theodor Adorno yozganidek, "madaniyat industriyasi insoniy ongni standartlashtirish orqali ijodiy individuallikni zaiflashtiradi." [11. 98]. Bugungi kunda sun'iy intellekt yordamida yaratilayotgan san'at, musiqiy kompozitsiyalar va madaniy kontent insonning ijodiy o'zligini sinovdan o'tkazmoqda. Shu nuqtada tabiiy intellektning ruhiy-ijodiy imkoniyatlari asosiy mezon bo'lib qolishi lozim, aks holda jamiyatda estetik qadriyatlarning texnologik "sun'iy lashuvi" yuzaga keladi.

Sun'iy va tabiiy intellekt dialektikasining global xavfsizlik, mehnat bozori, ta'lim va madaniyat sohalariga ta'sirini ijtimoiy falsafa kontekstida tahlil qilish insoniyat taraqqiyoti uchun yangi bosqichlarni ochib bermoqda. Avvalo, global xavfsizlik masalasida Shoshana Zuboff "sun'iy intellekt vositalaridan foydalanayotgan korporatsiyalar va davlat institutlari nazoratning yangi arxitekturasini yaratmoqda, bu esa demokratik qadriyatlarni xavf ostiga qo'yishi mumkin" deya ta'kidlaydi[12. 214]. Bu fikr sun'iy intellektning nafaqat xavfsizlikni mustahkamlashdagi imkoniyatlarini, balki uning ijtimoiy ongni nazorat qilishga qaratilgan salbiy oqibatlarini ham ochib beradi. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, tabiiy intellektning axloqiy qarorlari va insoniy qadriyatlarni muhofaza qilishdagi roli bu jarayonda yanada ahamiyat kasb etadi, chunki texnologik hukmronlik insonga emas, insoniyatning o'zligiga qarshi qaratilishi xavfini yuzaga keltiradi.

Mehnat bozori kontekstida Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee "sun'iy intellekt texnologiyalari mehnat unumdorligini oshirish bilan birga, yangi tabaqalanish jarayonlarini keltirib chiqarmoqda" deya qayd etadilar[13. 88]. Bunda yuqori malakali mutaxassislar imkoniyatlari kengayadi, ammo oddiy mehnat egalari avtomatlashtirilgan tizimlar soyasida ijtimoiy chetlanish xavfi ostida qoladi. Shu nuqtada tabiiy intellektning ijodiy tafakkuri, tanqidiy yondashuvi va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati jamiyat uchun qayta baholanishi zarur. Ijtimoiy falsafa buni inson faoliyatining "ontologik asoslari" bilan bog'lab, mehnatni nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki ijtimoiy va ma'naviy o'zlikni shakllantiruvchi jarayon sifatida qayta tushuntirishi lozim.

Ta'lim jarayonlarida sun'iy intellektning qo'llanishi, bir tomondan, bilish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, inson ongining mustaqilligini zaiflashtirishi mumkin. Nicholas Carr "raqamli vositalarga haddan tashqari tayanish inson tafakkurining chuqurligini qisqartiradi va refleksiv fikrlashni zaiflashtiradi" deb yozadi[14. 121]. Bu nuqtai nazar sun'iy intellekt yordamida ta'lim samaradorligi ortishi bilan birga, tabiiy intellektning ijodiy qobiliyatlari va ongiy mustaqilligi zaiflashishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu boisdan, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan qaralganda, haqiqiy ta'lim texnologik vositalarning emas, balki insoniy ong va qadriyatlarning uyg'unligida shakllanadi.

Madaniyat sohasida intellektlar dialektikasi yanada murakkab oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Manuel Castells "tarmoqlangan jamiyat" konsepsiyasida "axborot texnologiyalari

madaniyatni global oqimlar tizimiga aylantirib, mahalliy identitetlarni qayta shakllantirmoqda” deya ta’kidlaydi[15. 97]. Bu jarayon sun’iy intellekt yordamida madaniy kontentni yaratish va tarqatishning tezlashuvi natijasida yanada keskinlashmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan, tabiiy intellektning estetik va ijodiy qobiliyatlari madaniyatning insoniy mohiyatini saqlab qolishda zaruriy omil bo’lib qoladi. Aks holda, jamiyat sun’iy standartlar asosida ishlab chiqarilgan “massoviy madaniyat”ning hukmronligiga duch keladi.

Sun’iy va tabiiy intellekt dialektikasining global xavfsizlik, mehnat bozori, ta’lim hamda madaniyat sohalaridagi oqibatlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlilda insoniyat taraqqiyotining eng keskin muammolaridan biri sifatida ko’rilmogda. Global xavfsizlik kontekstida Yuval Noah Harari “sun’iy intellekt harbiy strategiyalar va razvedka sohalarida inson tafakkuridan tezroq qarorlar chiqarishga qodir, biroq bu jarayon inson nazorati zaiflashgan holatda xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin” deya qayd etadi[16. 243]. Bu fikrda insoniyatning kelajagi texnologik ustunlik emas, balki axloqiy ongning ustuvorligiga tayanishi zarurligi ko’rinadi. Chunki tabiiy intellekt o’zining axloqiy mas’uliyati va ijtimoiy javobgarligi bilan sun’iy tizimlarga nisbatan barqaror muvozanatni ta’minlay oladi.

Mehnat bozori nuqtai nazaridan Richard Susskind “kelajakda kasblarning ko’pi algoritmik tahlillar va sun’iy intellektga asoslangan vositalar tomonidan bajarilishi natijasida inson mehnati sifat jihatidan qayta ta’riflanadi” deya ta’kidlaydi[17. 67]. Biroq bu jarayonni faqat xavf sifatida emas, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun imkoniyat sifatida ham talqin qilish mumkin, chunki oddiy mehnat vazifalaridan bo’shagan inson tabiiy intellektning ijodiy va innovatsion salohiyatini kengaytirishga yo’naltiriladi. Bu yerda falsafiy muammo shundaki, iqtisodiy samaradorlik ortidan insonning ijtimoiy qadriyatlarini va o’zini anglash imkoniyatlari ortda qolmasligi kerak.

Xulosa qilib aytishimiz lozimki bugungi axborotlashgan jamiyat asrida hayot suratlari shu darajada tezlashib ketganligidan ijtimoiy munosabatlarni yo’lga qo’yishda tabiiy intellekt bilan birga sun’iy intellekt imkoniyatlaridan ham birday samarali foydalanish talab etilmogda. Bu jarayon qanday tashkil etiladi degan mantiqiy savolga shunday javob berish mumkin. Tabiiy intellektni ijodkorlik, an’anaviylik ma’naviy qadriyatlarni ulug’lash kabi muhim yo’nalishlarini, sun’iy intellektni vaqt va resurslarni tejash hamda moddiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin bo’ladi. Bu esa albatta zamonaviy ta’lim va sharqona tarbiya vositasida amalga oshiriladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Toshboboyev M.J. Axborotlashgan jamiyatda sun’iy intellektni falsafiy tahlili. -T.: Metodist. 2023y. 5 b.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 115-bet. Белл
3. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. London: Sage, 1992. – 73-bet.
4. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. New York: Norton, 2014. – 156-bet.
5. Burbules N., Callister T. Watch IT: The Risks and Promises of Information Technologies for Education. Boulder: Westview Press, 2000. – 42-bet.
6. Manovich L. Software Takes Command. New York: Bloomsbury, 2013. – 211-bet.
7. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Boston: Beacon Press, 1984. – 289-bet.
8. Nye J. Cyber Power. Harvard Kennedy School, 2010. – 112-bet.
9. Polanyi K. The Great Transformation. New York: Farrar & Rinehart, 1944. – 76-bet.

10. Illich I. Deschooling Society. New York: Harper & Row, 1971. – 54-bet.
11. Adorno T. The Culture Industry: Selected Essays on Mass Culture. London: Routledge, 1991. – 98-bet.
12. Zuboff Sh. The Age of Surveillance Capitalism. New York: PublicAffairs, 2019. – 214-bet.
13. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 88-bet.
14. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. New York: W.W. Norton & Company, 2010. – 121-bet.
15. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2000. – 97-bet.
16. Harari Y.N. 21 Lessons for the 21st Century. London: Jonathan Cape, 2018. – 243-bet.
17. Susskind R., Susskind D. The Future of the Professions. Oxford: Oxford University Press, 2015. – 67-bet.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE VALUES FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF THE NATION**

**Yorqulov Hakimbek Otaqulovich**

Tashkent institute of chemical technology,  
Associate professor of the Department of Socio-political sciences  
candidate of political sciences

**Abstract.** This article analyzes the factor of values in the development of national intellectual potential. It is based on the need to form education, science, science, and intellectual ecosystems as values in society, to educate moral qualities such as curiosity, creativity, freedom, honesty, endurance, responsibility, and commitment to lifelong learning in every learner and scientific researcher. It is shown that such values are propagated in the family, educational institutions, scientific institutions, labor teams and public organizations, and intellectuals and intellectual elite are responsible for the formation of these values.

**Keywords:** national intellectual potential, values, education, science, scholarship, intellectual ecosystems, curiosity, creativity, freedom, integrity, resilience, responsibility and commitment to lifelong learning.

---

## **MILLIY INTELLEKTUAL SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA QADRIYATLAR OMILI**

**Yorqulov Hakimbek Otaqulovich**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti,  
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi.  
E-mail: [hakimbekyorqulov@gmail.com](mailto:hakimbekyorqulov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishda qadriyatlar omili tahlil qilingan. Jamiyatda ta'lim, ilm-fan, olimlik, intellektual ekotizimlar qadriyat sifatida shakllantirilishi, har bir ilm oluvchi va ilmiy tadqiqotchida qiziquvchanlik, ijodkorlik, erkinlik, halollik, chidamlilik, mas'uliyat va umrbod ta'limga sodiqlik kabi axloqiy fazilatlar tarbiyalanishi zarurligi asoslangan. Oilada, ta'lim muassasalari, ilmiy muassasalar, mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlarida bunday qadriyatlar targ'ib qilinishi, bu qadriyatlar shakllanishiga ziyolilar, intellektual elita mas'ul bo'lishi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy intellektual salohiyat, qadriyatlar, ta'lim, ilm-fan, olimlik, intellektual ekotizimlarni shakllantirish, qiziquvchanlik, ijodkorlik, erkinlik, halollik.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N08>

Milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishda ta'lim, ilmiy-tadqiqotlar, iqtisodiy resurslar va texnologik infratuzilmalar kabi omillar asosiy omillar sifatida ko'rsatilib, bu rivojlanish jarayonida qadriyatlar ahamiyati ko'pincha e'tiborga olinmaydi. Aslida qadriyatlar, xulq-atvor va qarorlar qabul qilishni boshqaradigan chuqur singdirilgan tamoyillar sifatida nafaqat individual xarakterga asos bo'ladi, balki millatning intellektual salohiyatini tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega.

Hayotda turli odamlar turli narsalarni qadrlashi mumkin, shuning uchun ham qadriyatlar xilma-xil ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, «Falsafa: ensiklopedik lug'at»da qadriyat

soʻziga shunday taʼrif beriladi: «Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli boʻlgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, maʼrifat, madaniyat, moddiy va maʼnaviy boyliklar, obida-yodgorliklar, goʻzallik, axloqiy xislat va fazilatlar, anʼana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi» [1, 326]. Amerikalik psixolog Milton Rokech (Milton Rokeach (1916-1988)) qadriyatlarni asosiy gʻoyalar va biz xohlagan narsalar haqidagi bilimlar deb taʼriflagan. Qadriyatlar tizimi – bu insonning afzal koʻrgan xulq-atvori yoki yakuniy holati toʻgʻrisidagi singdirilgan, tartiblangan eʼtiqodlar toʻplami [2]. Taniqli oʻzbek olimi Q. Nazarov esa: «Qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir boʻladigan, subyekt uchun muayyan taʼsirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, koʻrinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va maʼnaviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir» [3, 28], — deb koʻrsatib oʻtadi.

Turli narsa, hodisa va voqealar qiymatga ega hisoblanib, inson, jamiyat, insoniyat tomonidan ahamiyatli, foydali va qadrlil hisoblansa qadriyatga aylanadi. Koʻpgina olimlar qadriyatlarni guruhlashtirganda moddiy, maʼnaviy, shaxsiy, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlarga ajratishadi.

Qadriyatlar bizning harakatlarimizni boshqaradigan, munosabatimizni shakllantiradigan va boshqalar bilan oʻzaro munosabatlarimizga taʼsir qiladigan asosiy eʼtiqodlardir. Qadriyatlar insonning toʻgʻri yoki notoʻgʻri tushunchalarini aks ettiradi. Insonning har kuni qabul qilayotgan qarorlari u amal qiladigan qadriyatlardan kelib chiqadi. «...qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga oʻziga xos taʼsir koʻrsatadi. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasalar, gohida maʼnaviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydilar, faoliyatlarini boshqarib yoki yoʻlga solib turadilar. Bunda qadriyatlarining regulyativ funksiyasi va maʼnaviy mezon sifatidagi ahamiyati yaqqol namoyon boʻladi. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yoʻlida birlashtiradi, ular faoliyatining yoʻnalishini belgilaydi» [3, 19]. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz ilmiy-tadqiqotlar olib boruvchilarda ham, taʼlim oluvchilarda ham maʼlum bir qadriyatlarni shakllantirishimiz zarur ekan. Qadriyatlar oilada ota-ona, taʼlimda ustozlar tarbiyasi, oʻgit-nasihatlari, shaxsiy oʻrnak-namuna boʻlishlari asosida shakllanadi. Oiladagi va taʼlimdagi qadriyatlar jamiyatdagi qadriyatlar asosida mavjud boʻladi. Insonning hayotiy tajribasi, ijtimoiy hayotdagi oʻzgarishlar qadriyatlarining oʻzgarishiga olib kelishi mumkin. Shaxsiy qadriyatlar inson hayotidagi maqsadlari va oʻz manfaatida nimani muhim deb hisoblashiga taʼsir qiladi.

Jamiyatda keng tarqalgan qadriyatlar madaniy oʻziga xoslik va ijtimoiy meʼyorlarning ajralmas qismi hisoblanadi va ular koʻp hollarda milliy axloqiy qiyofaning shakllanishiga asos boʻlib xizmat qiladi. Milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishga taʼsir qiluvchi qadriyatlar deb umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan va jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalar toʻplamini oilada, taʼlim tizimida, ilmiy tadqiqot muassasalarida, mehnat jamoalarida va innovatsiya jarayonlarida qoʻllanilishi va amal qilinishini tushunish mumkin. Qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy institutlar, etnik va diniy guruhlar, ijtimoiy qatlamlar amal qilishi nuqtai nazaridan juda xilma-xil boʻlishi mumkin. Intellektual rivojlanish haqida gap ketganda ham ular xilma-xil boʻlishi tabiiy.

Milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishda ta'lim, ilm-fan, olimlik va intellektual ekotizimlarni shakllantirish kabi ko'plab qadriyatlar jamiyat ma'naviy olamiga, ijtimoiy dunyoqarashiga qadriyat sifatida singishi kerak.

**Ta'lim, bilimli bo'lish** bilan birgalikda, **butun umr ta'lim olish** ham qadriyatga aylanishi zarur. «Chunki ta'lim – bu nafaqat kelajak garovi, balki hozirgi yoki kelajakdagi har qanday muammolarni hal qilish imkonini beradigan nomoddiy qadriyat» [4, 16]. Butun umr bo'yi ta'lim olish jamiyatning doimiy intellektual o'sishi va o'zini-o'zi takomillashtirish qiymatini aks ettiradi. Umr davomidagi ta'limni va malaka oshirishni qo'llab-quvvatlash rivojlanayotgan davlatlarga tez o'zgarayotgan global talablarga va texnologik yutuqlarga osonroq moslashishga yordam beradi. Bu qadriyat nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini oshiradi, balki milliy taraqqiyotga turtki beruvchi dinamik va bilimli ishchi kuchiga ham hissa qo'shadi.

**Ilm-fan** qadriyat darajasiga ko'tarilsa jamiyatda ilmiy tadqiqotchilar va intellektuallar soni ortib, bilimga asoslangan innovatsion iqtisodiyot rivoji, yuqori texnologiyalarda ishlab chiqarish imkoniyatlari ortadi. Ilm-fanni qadriyat deb qarovchi jamiyatlar universitetlar, ilmiy muassasalar, laboratoriyalar, kutubxonalarni muqaddas joy deb biladilar. Tadqiqotchi Uzoqov B. shunday fikrni keltiradi: «Ilm-fan jamiyatning barcha a'zolari uchun emas, balki jamiyatning eng yuqori — elitar qatlami (ziyolilar, tadbirkorlar, mansabdor shaxslar) tomonidagina qadriyat sifatida anglanadi» [5, 1436]. Bu fikrga qo'shib bo'lmaydi. Chunki bu fikr kam rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ishlatilsa to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin rivojlanishni maqsad qilgan va rivojlangan davlatlarda har bir ta'lim oluvchi, ishchilar ilm-fanni qadrlaydi. Bu aqliy mehnatning ahamiyati oshib borayotganligi, ilm-fan yutuqlari iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikning oshishiga xizmat qilayotganligi bilan bog'liq. O'zbekistonda ham sanoatlashish, jamiyat axborotlashuvi, ta'lim, ilmiy muassasalar va milliy innovatsion tizim rivoji ilm-fan bilan shug'ullanayotgan kishilarga foyda kelishiga xizmat qiladi, yoshlarga ilm olishga, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishga rag'bat kuchayishiga, o'z navbatida ilm-fanning qadriyat sifatida ahamiyati oshishiga olib keladi.

**Olimlik** qadriyatning ham obyektini ham subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu bir tomondan olimlarning qadrlanishini bildirsa, ikkinchi tomondan olimlar ma'lum bir qadriyatlarni yaratadi, ilmiy jamoalarda bu qadriyatlarni tarqalishiga xizmat qiladi. Olimlar jamiyatdagi boshqa odamlar tomonidan qadrlansa, hurmat qilinsa, e'zozlansa o'sib kelayotgan yosh avlod olimlarga intiladi, ularni o'zlariga ideal qilib oladilar. Bunda jamiyat tomonidan olimlar hayoti, ularning ijod yo'li, jamiyatga keltirgan foydasi, ilm-fanda mehnati ortidan jamiyatda hurmat, obro', boylik topgan ulug' inson ekanligi doimiy targ'ib qilinishi kerak. O'z navbatida olimlar ham olimlik qadrini o'z fazilatlarini bilan namoyon qila olishlari kerak. Taniqli olim Qiyom Nazarov **olimlik qadri** haqida Al Xorazmiyning quyidagi fikrlarini keltiradi: «O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlari... sohasida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar... Ulardan biri o'zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi» [3, 8]. Ya'ni har bir olim ma'naviy merosni kelgusi avlodga yetkazish, bu yo'lda u takabburlik qilmaslik, mag'rurlanmaslikni o'ziga qadriyat sifatida bilishi zarur degan ma'no kelib chiqadi.

**Intellektual ekotizimni yaratishni qo'llab-quvvatlash** qadriyati. Qadriyatlar alohida shaxs intellektual salohiyatigagina emas, milliy intellektual ekotizimga ham ta'sir qiladi. «Ma'naviy qadriyatlar ta'lim-tarbiya, ilmiy muassasalar qadriyat yaratuvchi, uni taqsimlovchi, avloddan-avlodga etkazuvchi vosita sifatida muhim nazariy, amaliy o'rin tutadi» [4, 70]. Intellektual ekotizimlar ta'lim, fan sohalaridagi qadriyatlarni shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Shuning uchun ta'lim va intellektual rivojlanishni qadrlaydigan jamiyatlar ko'pincha o'rganish va innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratishga sarmoya kiritadilar. Bunga tadqiqotni moliyalashtirish, ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash hamda intellektual almashinuv va hamkorlikni rag'batlantiruvchi siyosatlar kiradi. Yuqorida keltirilgan qadriyatlarga ustuvor ahamiyat berish orqali davlatlar iste'dodlarni tarbiyalaydigan va intellektual o'sishni rag'batlantiradigan intellektual ekotizimlarni yaratishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha sifatida milliy intellektual salohiyat rivojida ta'lim oluvchi va tadqiqotchida qiziquvchanlik, ijodkorlik, erkinlik, halollik, chidamlilik, mas'uliyat va umrbod ta'lim olish kabi axloqiy qadriyatlar shaxs va jamiyat intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ham ta'kidlash kerak.

**Qiziqish** intellektual izlanishlar va innovatsiyalarning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Qiziqishni qadrlaydigan va rag'batlantiradigan jamiyatlar ko'proq yangi bilimlarni izlashga, mavjud paradigmalarga qarshi turishga va texnologik va ilmiy yutuqlarni qo'zg'atishga intiladigan shaxslarni yetishtirish ehtimoli ko'proq. Shaxsning qilayotgan ishiga qiziqishi, uning kasbiga mehri, muhabbati bilan bog'liq. Bunday o'z kasbiga muhabbati bor inson yechimini topish zarur bo'lgan muammoga bor vujudi bilan kirishadi, bunday insonlar ko'p bo'lgan jamoalar chuqur ilmiy tadqiqotlar olib boradigan jamoalarga aylanadilar. Bunday jamoalar ko'p bo'lgan jamiyatlar esa doimiy rivojlanadigan innovatsion tizimlarni, o'ziga xos ilm-fan madaniyatini yaratadilar. Misol uchun, kuchli ilmiy izlanish va akademik tadqiqot an'analariga ega bo'lgan mamlakatlar ko'pincha global tadqiqotlar va texnologik yutuqlarda yetakchilik qiladi.

Jamiyat taraqqiy etishining eng asosiy shartlaridan biri jamiyat a'zolarining **yaratuvchilik ruhiyati** bilan yashashi hisoblanadi. Yangi narsalarni yaratish davomiyligini ta'minlash uchun esa shaxsda ijodkorlik qobiliyati shakllantirilishi va bu shaxs ijodkorlikni qadriyat deb bilishi kerak. Ijodkorlik – bu badiiy, ilmiy asar yoki moddiy boylik yaratish, yangiliklarni o'ylab topish, ishlab chiqarishda, xizmat ko'rsatishda yangi usul va vositalarni qo'llashdir. Ijodkorlik dadillik, xatolardan va qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, qiziquvchanlik, izlanish, intilishni talab etadi. Ijodkorlik iste'dod bilan bog'liq. Oilada, ta'limda va mehnat jamoalarida ijodkorlik qo'llab-quvvatlanib, rag'batlantirilsa bu iste'dod rivojlanadi, yo'qsa bu qobiliyat so'nishi mumkin. Insoniyat tarixidagi tasodifan qilingan kashfiyotlardan tashqari barcha kashfiyotlar ijodkorlik natijasidir.

**Erkinlik** qadriyati inson va jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim ahamiyatga ega. Erkinlik inson va jamiyat faoliyatida biror to'siq, monelik va cheklovlarning o'rnatilmaganligini bildiradi. Ta'lim tizimi orqali erkinlik qadriyatining singdirilishi demokratiya rivojining muhim sharti hisoblanadi. Ta'lim, ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalarda ijodiy erkinlikning qadriyat darajasiga ko'tarilishi mustaqil fikrlovchi, ijodkor avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa ilmiy-tadqiqot ishlarining faollashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi. Sobiq sovet davrida ijtimoiy fanlarga mafkuraviy cheklovlar qo'yilishi bu fanlar rivojiga ta'sir ko'rsatgan. O'z navbatida aytish kerakki, fan etikasi

doirasida cheklovlarsiz tafakkur erkinligi, ilmiy ijod erkinligining ilmiy-tadqiqot jarayonlarida ta'minlanishi tadqiqotda keltirilgan fakt va dalillar, berilayotgan xulosalarning xolis obyektiv bo'lishiga xizmat qiladi. Erkinlik cheksiz emas, balki jamiyatda mavjud axloq va qonunlar bilan cheklanishi mumkin. Lekin bu erkinlikni taqiqlash emas, balki boshqalarning erkinligiga daxl qilmaslik, jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni his qilish darajasida, zarurat tufayli bo'lishi mumkin.

**Halollik** intellektual salohiyatga ta'sir qiluvchi yana bir muhim qadriyatdir. Ilmiy-tadqiqot sohasida halollik ilmiy ishning halol va axloqiy tarzda olib borilishini ta'minlaydi, bu intellektual hissalarining ishonchliligi va isbotlanganligi uchun juda muhimdir. Axloqiy me'yorlarga sodiqlik tadqiqot natijalariga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi va bilim shaxsiy manfaat uchun emas, balki jamiyat manfaati uchun olinadigan madaniyatni rivojlantiradi. Halollik ilmiy-tadqiqot, ta'lim va innovatsiyalar yaxlitligini joriy qilgan mamlakatlarda yuqori standartlarni saqlab qolish uchun yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

**Chidamlilik, moslashuvchanlik** qadriyatlari muvaffaqiyatsizliklardan qutulish va qiyinchiliklarga qarshi turish qobiliyatlari hisoblanib intellektual rivojlanish uchun juda muhimdir. Intellektual izlanishlar ko'pincha to'siqlarni yengib o'tish va noaniqliklarni boshqarishni o'z ichiga oladi. Bardoshlilikni qadrlaydigan jamiyatlar yanada mustahkam ta'lim tizimiga ega bo'lib, bu yerda talabalar va tadqiqotchilar muvaffaqiyatsizliklarni yengib bo'lmaydigan to'siqlar emas, balki o'rganish imkoniyatlari sifatida ko'rishga da'vat etiladi. Bu tafakkur moslashuvchan va qat'iyatli, uzluksiz taraqqiyot va innovatsiyalarni boshqaradigan intellektuallar avlodini tarbiyalaydi.

Ta'lim, ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya jarayonlarida **mas'uliyatlilik** fazilati zarur. Mas'uliyatlilik fazilati kasbiga nisbatan burchni anglashi, jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyat hissini anglashi orqali shakllanadi. Chunki, kasbiy vazifasini bajarish va umumjamiyat manfaatlariga xizmat qilish jazodan qo'rqqanligi yoki iqtisodiy manfaatdorlik sababligina emas balki zimmasiga olingan majburiyat sababli ham bajariladi. Jamiyat hayotida umume'tirof etilgan axloqiy me'yorlar va ularni bajarish uchun jamiyat a'zolari tomonidan mas'uliyatlilik bo'lmasa yuqori darajadagi farovon jamiyatni yaratish mumkin emas. Jamoalarda mas'uliyatlilik fazilatini qattiq majburlash yo'li bilan emas balki o'rtacha sanksiyalar va saxiy rag'batlantirish orqali samarali tarbiyalash mumkin. Inson o'zini umume'tirof etilgan qadriyatlarga muvofiq tutishni xohlashi uchun u o'zining xatti-harakati umumiy manfaatga hissa qo'shishini ko'rishi kerak va boshqalar ham xuddi shunday qilishga ishonch hosil qilishi kerak.

Qadriyatlar jamiyat hayotida o'z-o'zidan shakllanmaydi, bunda axloqiy tarbiya, din, qonunlar, davlat olib borayotgan siyosat muhim rol o'ynaydi. Bular orasida davlat siyosati qadriyatlarni jamiyat tuzilishiga singdirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qiziquvchanlik, ijodkorlik, erkinlik, halollik, chidamlilik, mas'uliyat va umrbod ta'lim olish madaniyatini rag'batlantiradigan siyosatni amalga oshiradigan davlatlar intellektual rivojlanishda qadriyatlarni shakllantira oladilar. Bunga ta'lim o'quv dasturlarini takomillashtirish, tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot va iqtisodiyotning turli sohalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish kabi ishlarni amalga oshirish kiradi. Davlat siyosatini ushbu qadriyatlarga moslashtirish orqali hukumatlar o'zlarining intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi va kengaytiradigan muhitni yaratadi.

Qadriyatlarni shakllantirishda ijtimoiy institutlar ham katta ahamiyatga ega. Chunki oila, ta'lim muassasalari, ilmiy muassasalar, mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlarida qadriyatlarga amal qilinishi yosh avlodda ham bu qadriyatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Qadriyatlar «yuqumli» bo'ladi. Ya'ni oilada, muassasa va tashkilotlarda katta avlod vakillari qadriyatlarga qat'iy rioya qilsa yosh avlodda yoki boshqa jamoalarda ham bu qadriyatlar keng tarqalishi mumkin. Ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalaridagi ilmiy maktablardagi ilmiy-ijodiy muhit va undagi ustozlarning faoliyati, yosh avlodga ibрати intellektual qadriyatlar avloddan avlodga o'tishiga xizmat qiladi. Bunda milliy intellektual elita va ziyolilar o'z ibratlari va qadriyatlar targ'iboti bilan asosiy rol ni o'ynaydi.

Milliy intellektual salohiyatni rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, qator omillar kabi qadriyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida ta'lim, ilm-fan, olimlik, intellektual ekotizimlarni shakllantirishni qadriyat darajasiga ko'tarib, yoshlarni tarbiyalash va ularning intellektual rivojlanishida qiziquvchanlik, ijodkorlik, erkinlik, halollik, sabr-toqat, mas'uliyatlilik va umr davomida ta'lim olish kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'naviy muhitni shakllantirish milliy intellektual salohiyatning rivojini ma'naviy-ruhiy mustahkamlashga xizmat qiladi Ushbu qadriyatlarni oila, mehnat jamoalari, ta'lim va ilmiy-tadqiqot jamoalari faoliyatining tarkibiy qismiga aylantirish va davlat siyosati tarkibiga kiritish orqali mamlakatimizda innovatsiyalar faollashuviga va bilimga asoslangan iqtisodiyot rivojiga xizmat qiluvchi milliy intellektual poydevor qurishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Фалсафа: энциклопедик луғат. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси»Давлат илмий нашриёти, 2010. 326-бет.
2. Rokeach M. The Nature of Human Values. New York: Free Press. 1973.
3. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Т.: «Файласуфлар миллий жамияти», 2004. 28-бет.
4. Маҳкамов Б. Таълимда рақамли технологияларнинг конвергенцияси. Ўзбекистонда олий таълим, 2022, №3. 16-бет.
5. Узоков Б. Илм-фан ривожини ва қадриятлар тизими. «Экономика и социум» №1(116), 2024. 1436-бет. <https://cyberleninka.ru/article/n/ilm-fan-rivozhi-va-adriyatlar-tizimi>
6. Qambarov A. (2025). Ilmiy qadriyatlar va ularning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri. *Культура, отношения, философия тюркоязычных народов: история, сегодня и будущее*, 1(1), 64–72. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/txmfbtk/article/view/61227>

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **ONTOLOGICAL DOCTRINE OF EXISTENCE IN FAZL AL-HAQ KHAIRABADI'S WORK "HADIYYAT AL-SA'IDIYYA" AND ITS SOCIO-ETHICAL SIGNIFICANCE**

**Kholnazarov Ismatillo Sokhibovich**

Doctoral Researcher (PhD)

Department of Islamic History and Source Studies, Philosophy

Bukhara State University, Uzbekistan

**Abstract.** The concept of existence occupies an important place in the history of Islamic philosophy and kalam. Muslim thinkers have long studied the nature of being, the origin of existence and the position of human beings in the universe. Fazl al-Haq Khairabadi, one of the prominent scholars of the Indian Islamic intellectual tradition, analyzed ontological questions in his work Hadiyyat al-Sa'idiyya. The article examines the classification of beings, the concepts of necessary and possible existence, and their philosophical foundations. The study also analyzes the relationship between ontology and ethics in Khairabadi's thought and demonstrates its significance for the moral and social development of human beings.

**Keywords:** ontology, existence, Islamic philosophy, kalam, metaphysics, Khairabadi.

## **FAZL AL-HAQ XAYRABODIYNING "HADIYYAT AL-SA'IDIYYA" ASARIDA BORLIQ TA'LIMOTI VA UNING IJTIMOYIY-AXLOQIY AHAMIYATI**

**Xolnazarov Ismatillo Sohobovich**

Buxoro davlat universiteti

Islom tarixi va manbashunosligi,

falsafa kafedrasi tayanch doktoranti (PhD)

**Annotatsiya.** Islom falsafasi tarixida borliq muammosi eng muhim metafizik masalalardan biri hisoblanadi. Musulmon mutafakkirlari borliqning mohiyati, mavjudotlarning kelib chiqishi hamda insonning olamdagi o'rnini haqida chuqur ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Hindiston hududida faoliyat yuritgan mashhur mutafakkir Fazl al-Haq Xayrabodiy o'zining "Hadiyyat al-Sa'idiyya" asarida ontologiya, mavjudotning turlari, ilohiy borliq hamda insonning axloqiy mas'uliyati masalalarini keng tahlil qilgan. Mazkur maqolada mutafakkirning borliq haqidagi qarashlari, mavjudotlarning tasnifi hamda bu ta'limotning ijtimoiy va axloqiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xayrabodiyning ontologik qarashlari insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatdagi axloqiy muvozanat va adolatni ta'minlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Fazl al-Haq Xayrabodiy, ontologiya, borliq, kalam ilmi, Hadiyyat al-Sa'idiyya, axloq, mavjudot, islom falsafasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N09>

**Kirish.** Islom falsafasi va kalam ilmi tarixida borliq masalasi markaziy o'rin egallaydi. Borliqning mohiyati, mavjudotlarning kelib chiqishi, Alloh taoloning mavjudligi va olam bilan munosabati kabi masalalar musulmon mutafakkirlari tomonidan keng o'rganilgan [2;23]. Ayniqsa, o'rta asrlarda yashab ijod qilgan musulmon faylasuflari va mutakallimlari borliqni mantiqiy va falsafiy asoslar orqali tushuntirishga harakat qilganlar [8;78].

Islom tafakkuri tarixida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Moturidiy, Sa'diddin Taftazoniy kabi mutafakkirlar borliq muammosini turli nuqtai nazardan tahlil qilganlar [7;28].

Keyingi davrlarda esa bu an'ana Hindiston hududida ham davom etib, u yerda faoliyat yuritgan ko'plab olimlar tomonidan rivojlantirilgan [4;96].

Ana shunday mutafakkirlardan biri Fazl al-Haq Xayrabodiy hisoblanadi. U XVIII–XIX asrlarda yashab ijod qilgan mashhur mutakallim, faqih va faylasuflardan biri bo'lib, uning ilmiy merosi islom falsafasi va kalom ilmining rivojida muhim o'rin tutadi [10;44]. Xayrabodiy o'z asarlarida aqida, falsafa, mantiq va tasavvufga oid masalalarni chuqur tahlil qilgan.

Uning mashhur asarlaridan biri "Hadiyyat al-Sa'idiyya" bo'lib, unda borliq, mavjudot, ilohiy haqiqat va insonning ontologik maqomi haqida muhim fikrlar bayon etilgan [6;15]. Ushbu asarda muallif mavjudotlarning tasnifi, zarur va mumkin borliq masalalari hamda insonning axloqiy mas'uliyati haqida falsafiy mulohazalar yuritadi.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va insonning borliqdagi o'rnini masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [9;102]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Fazl al-Haq Xayrabodiyning ontologik qarashlarini o'rganish nafaqat tarixiy-falsafiy, balki zamonaviy ijtimoiy-axloqiy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Fazl al-Haq Xayrabodiyning "Hadiyyat al-Sa'idiyya" asarida bayon qilingan borliq ta'limotini tahlil qilish hamda uning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Avvalo, Fazl al-Haq Xayrabodiyning "Hadiyyat al-Sa'idiyya" asari asosiy manba sifatida o'rganildi [6;18]. Shuningdek, islom falsafasi va kalom ilmi bo'yicha yozilgan ilmiy tadqiqotlar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida mutafakkirning ontologik qarashlari boshqa musulmon faylasuflarining fikrlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali uning ilmiy qarashlarining o'ziga xos jihatlari aniqlab berildi. Tadqiqotda tahliliy, tarixiy-falsafiy, qiyosiy va konseptual yondashuv metodlari qo'llanildi.

#### **Natijalar va muhokama.**

##### **Borliq tushunchasi va uning falsafiy mohiyati**

Falsafa tarixida borliq tushunchasi eng muhim metafizik kategoriyalardan biri hisoblanadi [3;122]. Borliq – mavjud bo'lgan barcha narsalarning umumiy nomidir. U moddiy va nomoddiy mavjudotlarni o'z ichiga oladi.

Islom falsafasida borliq tushunchasi ko'pincha "**vujud**" termini bilan ifodalanadi. Bu tushuncha mavjudlikni bildiradi va u barcha mavjudotlarga nisbatan qo'llanadi [7;31]. Musulmon faylasuflari borliqni o'rganishda mavjudotning mohiyati, sababiylik munosabatlari va ilohiy mavjudlik masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Fazl al-Haq Xayrabodiy ham o'z asarida borliq tushunchasini metafizik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Uning fikricha, borliq barcha mavjudotlarni qamrab oluvchi umumiy tushuncha bo'lib, u mavjudotning turli darajalarini ifodalaydi [6;20].

Mutafakkir borliqni tushuntirishda sabab va natija munosabatlariga katta e'tibor beradi. Uning fikricha, mavjudotlarning aksariyati o'z-o'zidan mavjud bo'la olmaydi. Ularning mavjudligi muayyan sababga bog'liq bo'ladi.

Bu sabablar zanjiri oxir-oqibat zarur borliq – ya'ni Alloh taologa borib taqaladi. Shu sababli ham Xayrabodiy ontologiyasida ilohiy mavjudlik markaziy o'rin egallaydi.

### **Ontologiya masalasining islom falsafasidagi o‘rni**

Islom falsafasi tarixida ontologiya masalasi keng muhokama qilingan. Ayniqsa, Forobiy va Ibn Sino kabi faylasuflar borliqning mohiyati va mavjudotlarning tasnifi haqida chuqur ilmiy nazariyalar yaratganlar [5;37].

Ibn Sino o‘zining metafizik ta’limotida mavjudotni ikki turga ajratadi:

- zarur borliq
- mumkin borliq

Bu nazariya keyinchalik kalom ilmi vakillari tomonidan ham rivojlantirildi [10;51]. Fazl al-Haq Xayrabodiy ham o‘z ontologik qarashlarida aynan shu tasnifdan foydalanadi.

Uning fikricha, mavjudotlarni tushunish uchun avvalo ularning mavjudlik darajalarini aniqlash zarur. Chunki barcha mavjudotlar bir xil ontologik maqomga ega emas.

### **Vojib al-vujud va mumkin al-vujud ta’limoti**

Islom falsafasida mavjudotlarning ontologik tasnifi muhim o‘rin tutadi. Musulmon faylasuflari borliqni tushuntirish jarayonida mavjudotlarni turli darajalarga ajratganlar. Bu tasnifning eng mashhur shakllaridan biri mavjudotni **vojib al-vujud** va **mumkin al-vujud** turlariga ajratish hisoblanadi.

Fazl al-Haq Xayrabodiy ham “Hadiyyat al-Sa’idiyya” asarida mavjudotlarni aynan shu ikki asosiy toifaga ajratadi. Unga ko‘ra, borliq ikki turga bo‘linadi:

1. **Vojib al-vujud** – mavjudligi zarur bo‘lgan borliq
2. **Mumkin al-vujud** – mavjudligi boshqa sababga bog‘liq bo‘lgan borliq

Mutafakkirning fikricha, agar biror mavjudotning mavjudligi boshqa sababga bog‘liq bo‘lmasa, u zarur borliq hisoblanadi. Bunday mavjudot faqat Alloh taolodir. Chunki Allohning mavjudligi boshqa sababga muhtoj emas.

Aksincha, olamdagi barcha mavjudotlar o‘z mavjudligi uchun sababga muhtojdir. Shuning uchun ular mumkin borliq hisoblanadi.

Xayrabodiy bu masala haqida shunday yozadi:

“Mavjudotlarning ba’zilari o‘z mavjudligi jihatidan zarur bo‘lsa, ba’zilari esa mavjud bo‘lish yoki bo‘lmaslik jihatidan tengdir. Ikkinchi turdagi mavjudotlar o‘z mavjudligi uchun sababga muhtojdir.[6;45]”

Bu fikr islom falsafasida keng tarqalgan **imkon va vojib dalili** bilan bog‘liq. Bu dalilga ko‘ra, mumkin mavjudotlarning mavjudligi sabablar zanjiri orqali oxir-oqibat zarur mavjudotga borib taqaladi.

### **Sababiylik tamoyili va mavjudotlar zanjiri**

Fazl al-Haq Xayrabodiy ontologiyasida sababiylik tamoyili muhim o‘rin tutadi. Mutafakkirning fikricha, olamdagi barcha hodisalar muayyan sabab bilan yuzaga keladi. Hech bir narsa sababsiz mavjud bo‘la olmaydi.

Bu tamoyil islom falsafasida qadimdan muhokama qilingan. Masalan, Ibn Sino o‘zining metafizik qarashlarida sabab va natija munosabatlarini borliqni tushuntirishning asosiy tamoyili sifatida ko‘rsatadi.

Xayrabodiy ham ushbu falsafiy an’anani davom ettiradi. Unga ko‘ra, mavjudotlar o‘zaro sabab-natija zanjiri orqali bog‘langan. Biroq bu zanjir cheksiz davom etishi mumkin emas. Agar sabablar zanjiri cheksiz davom etsa, mavjudotlarning mavjudligini tushuntirish imkonsiz bo‘lib qoladi.

Shu sababli ham barcha sabablar oxir-oqibat **birinchi sabab**ga borib taqalishi zarur. Bu birinchi sabab esa Alloh taolo hisoblanadi.

Mutafakkirning fikricha, Alloh – barcha mavjudotlarning yaratuvchisi va sababidir. Boshqa barcha mavjudotlar esa uning yaratishi natijasida mavjud bo'ladi.

Bu fikr kalom ilmida "**dalil al-imkon va al-vujub**" deb ataladi.

### **Mavjudotlarning tasnifi**

Fazl al-Haq Xayrabodiy mavjudotlarni faqat zarur va mumkin borliq sifatida emas, balki ularning tabiatiga ko'ra ham tasnif qiladi.

Mutafakkir mavjudotlarni quyidagi guruhlariga ajratadi:

- 1. Moddiy mavjudotlar**
- 2. Ruhii mavjudotlar**
- 3. Aqliy mavjudotlar**

Moddiy mavjudotlar sezgi organlari orqali idrok qilinadigan narsalardir. Bular moddiy olamdagi jismlar, tabiat hodisalari va boshqa jismoniy mavjudotlardir.

Ruhii mavjudotlar esa insonning ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lgan mavjudotlardir. Bular ruh, qalb va ma'naviy haqiqatlar bilan bog'liq tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Aqliy mavjudotlar esa inson tafakkuri orqali idrok qilinadigan tushunchalar va ma'nolardir.

Bu tasnif orqali Xayrabodiy olamning murakkab ontologik tuzilishini tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, mavjudotlarning har bir turi o'ziga xos ontologik maqomga ega.

### **Ontologik darajalar nazariyasi**

Fazl al-Haq Xayrabodiy mavjudotlarning ontologik darajalari haqida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Unga ko'ra, borliq yagona bo'lsa-da, uning namoyon bo'lish darajalari turlicha bo'ladi.

Eng yuqori darajada zarur borliq – ya'ni Alloh turadi. Undan keyingi darajalarda esa turli mumkin mavjudotlar joylashadi.

Mutafakkirning fikricha, mavjudotlarning darajalari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1. ilohiy borliq;
2. ruhiy mavjudotlar;
3. moddiy mavjudotlar;

Bu tasnif orqali u olamdagi mavjudotlarning iyerarxik tuzilishini tushuntiradi.

### **Xayrabodiy ontologiyasining falsafiy asoslari**

Fazl al-Haq Xayrabodiyning ontologik qarashlari bir nechta ilmiy an'analarning ta'sirida shakllangan. Ularning eng muhimlari quyidagilardir:

- islom falsafasi
- kalom ilmi
- mantiq ilmi

Mutafakkir ayniqsa Ibn Sino falsafasidan kuchli ta'sirlangan. Chunki Ibn Sino ham mavjudotni zarur va mumkin borliq sifatida tasniflagan.

Masalan, Ibn Sino shunday yozadi:

"Zarur mavjudot o'z mavjudligi uchun boshqa narsaga muhtoj bo'lmaydi, mumkin mavjudot esa o'z mavjudligi uchun sababga muhtojdir. [7;29]"

Xayrabodiy ham aynan shu fikrni davom ettirib, Allohni zarur borliq sifatida talqin qiladi.

Shu bilan birga, uning qarashlarida kalom ilmi an'analarining ham ta'siri seziladi. Chunki u borliq masalasini faqat falsafiy emas, balki diniy nuqtai nazardan ham tushuntiradi.

### **Insonning borliqdagi o'рни**

Fazl al-Haq Xayrabodiy ontologik qarashlarida insonning borliqdagi o'рни alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan farqli ravishda aql, idrok va ma'naviy qobiliyatga ega bo'lgan mavjudotdir. Shu sababli inson nafaqat moddiy olamning bir qismi, balki ruhiy va aqliy olam bilan ham bog'langan mavjudot hisoblanadi.

Mutafakkirning ta'kidlashicha, insonning borliqdagi o'рни ikki jihat orqali namoyon bo'ladi. Birinchisi — uning jismoniy tabiati bo'lib, u moddiy olam bilan bog'liqdir. Ikkinchisi esa ruhiy tabiati bo'lib, u insonning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq.

Xayrabodiy insonning mohiyati haqida shunday fikr bildiradi:

“Insonning haqiqiy kamoloti uning aqliy va ruhiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Chunki inson o'zining ma'naviy salohiyati bilan boshqa mavjudotlardan ustundir.[6;78]”

Bu fikr islom falsafasidagi **insonning mukammalligi (insan al-kamil)** g'oyasi bilan hamohangdir. Musulmon mutafakkirlari insonni Alloh yaratgan mavjudotlar ichida eng sharafli sifatida talqin qilganlar.

Masalan, Ibn Sino ham insonni aqliy mavjudot sifatida tavsiflab, uning asosiy vazifasi haqiqatni bilish va ma'naviy kamolotga erishish ekanini ta'kidlaydi [7;112].

### **Ontologiya va axloq o'rtasidagi bog'liqlik**

Fazl al-Haq Xayrabodiyning qarashlarida ontologiya faqat metafizik masala sifatida emas, balki axloqiy hayot bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilm sifatida talqin qilinadi. Mutafakkirning fikricha, inson borliqning mohiyatini anglagan sari o'zining hayotiy maqsadini ham yaxshiroq tushuna boshlaydi.

Agar inson o'zining yaratilgan mavjudot ekanini anglab etsa, u holda u o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni ham his etadi. Bu esa insonning axloqiy kamolotiga olib keladi.

Xayrabodiy bu masalada shunday fikr bildiradi:

“Borliqni to'g'ri anglash insonni haqiqatga yaqinlashtiradi. Haqiqatni anglagan inson esa adolat, halollik va ezgulik yo'lini tanlaydi.[6;91]”

Bu fikrga ko'ra, ontologik bilim insonning axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Islom falsafasi tarixida ham borliqni bilish va axloqiy kamolot o'rtasidagi bog'liqlik ko'p bora ta'kidlangan. Masalan, Imom G'azzoliy insonning haqiqiy baxti ilm va ma'rifat orqali Allohni tanishda ekanini ta'kidlaydi[1;56].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Fazl al-Haq Xayrabodiyning ontologik qarashlari insonning axloqiy tarbiyasi uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Xayrabodiy ta'limotining ijtimoiy ahamiyati**

Fazl al-Haq Xayrabodiyning borliq haqidagi qarashlari nafaqat individual axloqiy kamolot, balki jamiyat taraqqiyoti bilan ham bevosita bog'liqdir. Mutafakkirning fikricha, jamiyatning barqaror rivojlanishi insonlarning axloqiy yetukligiga bog'liq.

Agar insonlar borliqning mohiyatini to'g'ri anglasalar, ular o'z hayotlarini adolat va ezgulik tamoyillari asosida qurishga harakat qiladilar.

Mutafakkir jamiyatdagi axloqiy muvozanatni ta'minlashda ilm va ma'rifat muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Chunki ilm insonni jaholatdan qutqaradi va uni to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Shu sababli Xayrabodiy ontologiyani faqat nazariy fan sifatida emas, balki jamiyatni ma'naviy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilm sifatida talqin qiladi.

Zamonaviy jamiyatda ham bu g'oya o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki ma'naviy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar jamiyat barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

### **Fazl al-Haq Xayrabodiy ta'limotining zamonaviy ahamiyati**

Bugungi globallashuv davrida insoniyat ko'plab ma'naviy va axloqiy muammolar bilan yuzlashmoqda. Texnologik taraqqiyot bilan birga ma'naviy qadriyatlar masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Fazl al-Haq Xayrabodiyning ontologik va axloqiy qarashlari zamonaviy jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, insonning haqiqiy kamoloti faqat moddiy taraqqiyot bilan emas, balki ma'naviy rivojlanish bilan ham bog'liqdir.

Bu g'oya bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Chunki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki ma'naviy qadriyatlarning ham mustahkam bo'lishi zarur.

**Xulosa.** Fazl al-Haq Xayrabodiyning "Hadiyyat al-Sa'idiyya" asari islom falsafasi tarixida muhim o'rin tutadi. Asarda bayon qilingan ontologik qarashlar mavjudotning mohiyati, Allohning zarur borliq sifatidagi maqomi hamda insonning borliqdagi o'rni haqida muhim ilmiy xulosalar beradi.

Mutafakkir mavjudotni vojib va mumkin borliq sifatida tasnif qilib, Allohning mavjudligini falsafiy jihatdan asoslab beradi. Shu bilan birga, u insonning ontologik maqomini tahlil qilib, uning axloqiy mas'uliyatini ham asoslaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Fazl al-Haq Xayrabodiyning ontologik ta'limoti nafaqat metafizik nazariya, balki insonning ma'naviy kamoloti va jamiyatdagi axloqiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim falsafiy tizim hisoblanadi.

Shu sababli mutafakkirning ilmiy merosini o'rganish islom falsafasi tarixini yanada chuqurroq anglash hamda zamonaviy jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Abu Hamid al-G'azzoliy. *Ihyo ulum ad-din*. Qohira: Dar al-ma'rifa, 2005.
2. Abu Mansur Moturidiy. *Kitab at-Tawhid*. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2001.
3. Fakhry M. *A History of Islamic Philosophy*. New York: Columbia University Press, 2004.
4. Fakhry M. *Islamic Philosophy, Theology and Mysticism*. Oxford, 1997.
5. Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. Toshkent, 1993, 37-bet.
6. Fazl al-Haq Khairabadi. *Hadiyyat al-Sa'idiyya*. Karachi: al-Bushra Publishers, 2009.
7. Ibn Sino. *Kitob ash-Shifo. Metafizika*. Qohira: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1996.
8. Oqilov S. *Moturidiya ta'limoti*. Toshkent, 2020.
9. Sharipov A. *Islom falsafasi tarixi*. Toshkent: Fan, 2018.
10. Taftazoniy S. *Sharh al-Aqoid an-Nasafiyya*. Istanbul, 1998.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS OF THE PHILOSOPHY OF KNOWLEDGE AND GNOSEOLOGICAL VIEWS IN THE WORK “MA’RIFATUL ASROR” BY ABU ABDULLAH MUHAMMAD IBN ALI HAKIM TERMIZI**

**Xaitov Lazizbek Azamatovich**

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor,  
Department of Philosophy,  
Department of Islamic History and Source Studies,  
Bukhara State University

**Abstract.** This article analyzes the philosophy of knowledge and epistemological views of Abu Abdullah Muhammad ibn Ali Hakim Termizi, a thinker who played an important role in the history of Islamic mysticism and philosophy, as expressed in his work “Ma’rifatul Asrar”. The article sheds light on the sources of the process of knowledge, the relationship between the mind and the heart, the concept of divine enlightenment, and the mystical interpretation of spiritual perception from a scientific and theoretical perspective. The article systematically analyzes the stages of human understanding of reality, the stratification of the mind, the concepts of the eye of the heart (tabsira) and intuitive knowledge (ma’rifat). It also sheds light on the relationship of the thinker’s epistemology with modern philosophical movements and its role in human perfection.

**Keywords:** Sufism, philosophy of knowledge, epistemology, enlightenment, heart, mind, divine knowledge, Hakim Termizi.

## **ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ALI HAKIM TERMIZIYNING “MA’RIFATUL ASROR” ASARIDA BILISH FALSAFASI VA GNOSEOLOGIK QARASHLAR TAHLILI**

**Xaitov Lazizbek Azamatovich**

BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi,  
falsafa kafedrası falsafa fanlari bo’yicha  
falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada islom tasavvufi va falsafasi tarixida muhim o’rin tutgan mutafakkir Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziyning “Ma’rifatul asror” asarida bayon etilgan bilish falsafasi va gnoseologik qarashlari tahlil qilingan. Maqolada bilish jarayonining manbalari, aql va qalb o’rtasidagi munosabat, ilohiy ma’rifat tushunchasi hamda ruhiy idrokning tasavvufiy talqini ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Maqolada insonning haqiqatni anglash bosqichlari, aqlning tabaqalanishi, qalb ko’zi (tapsira) va intuitiv bilish (ma’rifat) tushunchalari tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, mutafakkir gnoseologiyasining zamonaviy falsafiy oqimlar bilan o’zaro aloqadorligi va uning inson kamolotidagi o’rni yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** tasavvuf, bilish falsafasi, gnoseologiya, ma’rifat, qalb, aql, ilohiy bilim, Hakim Termiziy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N10>

**Kirish.** Islom falsafasi va tasavvuf ta’limotida bilish masalasi markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Qur’oni karim va hadislarda ilm, tafakkur, idrok va ma’rifat tushunchalari insonning ma’naviy kamolotiga eltuvchi asosiy vositalar sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, islom

tafakkurida bilish nafaqat aqliy jarayon, balki ruhiy-ma'naviy kamolot yo'li sifatida ham baholanadi.

Tasavvuf falsafasida bilish jarayoni tashqi bilim (ilm) bilan cheklanib qolmay, qalb orqali idrok etiladigan ilohiy ma'rifat darajasiga ko'tariladi. Islom falsafasi tarixida "Hakim" (donishmand) unvoniga sazovor bo'lgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy (820-932) nafaqat tasavvufiy nazariyotchi, balki o'ziga xos bilish falsafasi tizimini yaratgan mutafakkirdir. Uning "Ma'rifatul asror" (Sirlar ma'rifati) asari inson ruhining eng chuqur qatlamlarini va borliqning pinhona qonuniyatlarini anglash metodologiyasini taklif etadi. Hakim Termiziy bilishni (gnoseologiyani) shunchaki tashqi dunyo obyektlarini o'rganish deb emas, balki "nafs-qalb-ruh" uchligining uyg'unligi orqali haqiqatga yetishish deb tushunadi. Uning falsafasida bilish - bu qorong'u hujradagi insonning nur tomon intilishi kabi ruhiy harakatdir. [1].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Hakim Termiziyning "Ma'rifatul asror" asari va uning bilish falsafasidagi o'rni ham o'tmish, ham zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Ushbu bo'limni uchta yo'nalishda kengaytirish mumkin:

Klassik sharq manbalarida Hakim Termiziy merosining talqini: Termiziyning gnoseologik qarashlari o'z davridayoq keng aks sado bergan. Xususan, Abu Bakr Kalobodiyning "at-Ta'arruf", Ali ibn Usmon Hujviriyning "Kashf al-mahjub" asarlarida Termiziyning "viloyat" va "ma'rifat" haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Hujviriyni uni "hakimlar peshvosi" deb atab, uning bilish nazariyasidagi "nafs tarbiyasi va qalb pokligi" tushunchalarini falsafiy asoslab bergan. [2].

G'arb va rus sharqshunosligida Hakim Termiziy tadqiqi: G'arbda L.Massignon, B.Radtke, N.Heer kabi olimlar Termiziyning asarlarini, jumladan "Ma'rifatul asror"ni terminologik jihatdan tadqiq etganlar. B.Radtke Hakim Termiziyning "tasavvuf psixologiyasi"ning asoschisi sifatida ko'radi[3]. Uning tadqiqotlarida Termiziyning "aql" va "qalb" tushunchalari qadimgi yunon falsafasi (neoplatonizm) bilan qiyosiy o'rgangan[4].

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari: Mustaqillik yillarida yurtimizda Termizshunoslik yangi bosqichga ko'tarildi. J.Cho'tmatov, I.Usmonov, A.Tursunov, U.Uvatov, G.Navro'zova, B.Namozov kabi olimlar Termiziyning ma'naviy-axloqiy va falsafiy qarashlarini tadqiq etishgan [5]. Biroq, "Ma'rifatul asror" asaridagi aynan "bilish falsafasi" (gnoseologiya) masalalari tizimli ravishda alohida maqola darajasida to'liq ochib berilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarixiy-falsafiy qiyosiy tahlil: Ushbu metod orqali Hakim Termiziyning "Ma'rifatul asror" asaridagi tushunchalar (masalan, aql va nafs) uning boshqa asarlari, xususan "Xatm al-avliyo" va "Navodir al-usul" bilan qiyoslanadi. Shuningdek, uning bilish nazariyasi o'sha davrdagi boshqa oqimlar (mo'taziliylik, kalom) bilan solishtirilgan holda tahlil qilinadi. Germenevtik tahlil:

Asar matnidagi ramziy ma'nolar va istilohlarni ("nur", "parda", "ko'z", "qalb") zamonaviy falsafiy tilga o'girish va ularning asl mohiyatini tushuntirishda germenevtika usulidan foydalaniladi. [6]. Bu usul asar mundarijasida keltirilgan "Sirlar ma'rifati" (Ma'rifatul asror) iborasining falsafiy qatlamlarini ochishga yordam beradi. Tizimli yondashuv: Hakim Termiziyning gnoseologiyasi yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda bilish jarayoni quyidagi zanjir asosida o'rganiladi: Ob'ekt (Allohning sifatleri va borliq sirlari), Subyekt (Inson ruhi va qalbi), Vosita (Aql, zikr, riyozat), Natija (Haqiqatni anglash va komillik). Fenomenologik

yondashuv: Insonning ruhiy holatlari (shavq, tavoze, xavf) bilish jarayonidagi fenomenlar sifatida tahlil qilinadi. Bu Termiziy ta'limotining nafaqat nazariy, balki amaliy-eksperimental xarakterga ega ekanligini isbotlash imkonini beradi.

**Natijalar va muhokama.** “Ma’rifatul asror” asarida bilish falsafasini quyidagicha tahlil qiladi. Hakim Termiziy bilishni uch bosqichda talqin qiladi: hissiy idrok, aqliy bilish va ilohiy ma’rifat. Unga ko’ra, hissiy va aqliy bilim insonni haqiqat sari yetaklaydi, ammo to’liq haqiqat faqat qalb orqali idrok etiladi. [7].

Asarda qalb bilishning markazi sifatida talqin qilinadi. Qalb poklangan sari unda ilohiy nurlar zohir bo’ladi va inson haqiqiy ma’rifatga erishadi. Shu jihatdan, bilish axloqiy va ruhiy poklanish bilan chambarchas bog’liqdir. Hakim Termiziy gnoseologiyasida bilimning eng oliy shakli - ma’rifatdir. Ma’rifat insonning Alloh bilan ichki ruhiy bog’lanishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda aql cheklangan bo’lib, qalb va ilhom ustuvor ahamiyat kasb etadi.

U bilishni faqat nazariy jarayon emas, balki amaliy-axloqiy tajriba sifatida talqin qiladi. Inson amalsiz bilim orqali haqiqiy haqiqatga erisha olmaydi.

Hakim Termiziy “Ma’rifatul asror”ning birinchi bobidayoq aql masalasiga to’xtaladi. Uning gnoseologiyasida aql bir jinsli tushuncha emas, balki darajali tizimdir:

Aql qismlari haqida: Termiziy aqlni “oddiy aql” (maishiy ehtiyojlar uchun) va “ma’naviy aql” (haqiqatni idrok etish uchun) kabi qatlamlarga ajratadi. [8].

Aql va Ruh bog’liqligi: Aql ruhning asbobidir. Agar ruh nafs zanjiridan ozod bo’lmasa, aql o’zining haqiqiy quvvatini (nurini) ko’rsata olmaydi.

Bilish chegaralari: Mutafakkir inson aqli hamma narsani ham qamrab ololmasligini, ayniqsa “asror” (sirlar) olamini anglashda mantiqiy aql o’z qolishini ta’kidlaydi.

Hakim Termiziy bilish tizimining markazida qalb turadi. Agar G’arb falsafasida bilish asosan ong (mind) bilan bog’lansa, Hakim Termiziyda bu jarayon qalb orqali amalga oshadi:

Qalbning ochilishi (Sharh): Bilim olish uchun qalb idrokka tayyor bo’lishi, ya’ni “kengayishi” kerak. Tabsira – qalb ko’zidir, Hakim Termiziyning gnoseologik kashfiyoti shundaki, u “ko’rish” (seeing) va “idrok etish” (perceiving) o’rtasidagi farqni “tabsira” tushunchasi orqali tushuntiradi. Inson qalb ko’zi bilan narsalarning mohiyatini (substansiyasini) ko’radi. [9].

Qalb odobi: Bilish jarayonida axloqiy poklik - qalb odobi bilishning sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Asar nomi “Ma’rifatul asror” bilishning eng yuqori bosqichiga ishora qiladi. Termiziy “ilm” va “ma’rifat”ni farqlaydi, ilm- bu o’rganish va mantiq orqali hosil bo’ladigan ma’lumotlar to’plami.

Ma’rifat: Bu tajriba, zikr va ruhning bevosita “shohidi” bo’lishi orqali keladigan ilohiy nurdir. Ma’rifat ahlining turlari: Termiziy haqiqiy ma’rifat egalarini bir necha toifaga ajratadi, ularning bilish darajasi o’z nafsini qanchalik jilovlaganiga bog’liq. Bu yerda gnoseologiya bevosita etika bilan birlashadi.

Hakim Termiziy ta’limotida inson nima uchun haqiqatni bilolmaydi? degan savolga javob beriladi. Buning asosiy sababi - g’aflet va nafs: nafs zoti va uning illatlari: Nafs inson va haqiqat o’rtasidagi pardadir. U bilish jarayonini chalg’itadi, insonni subyektiv xatolarga yetaklaydi.

G’afletdan ogohlik - Haqiqiy bilish uchun g’aflet uyqusidan uyg’onish lozim.

Riyozat va Sabr - Bilimga erishish mashaqqatli yo’l bo’lib, u insondan sabr va nafsni tiyishni talab qiladi.

Hakim Termiziy shunchaki nazariyotchi emas, u bilishning amaliy “texnologiyasi” ni ham beradi: [10].

Zikr va uning turlari - Zikr (xotirlash) - bu unutilgan haqiqatlarni qayta tiklash jarayonidir. Zikr qalbni poklab, uni bilim qabul qilishga tayyorlaydi.

Tafakkur va Ibrat - Dunyodagi har bir hodisadan xulosa chiqarish (ibrat) bilishning muhim metodidir.

Tavoze va Shukr - Bilimga erishgan inson mutakabbir bo‘lmasligi, aksincha “tavoze” (kamtarlik) holatida bo‘lishi uning bilishini yanada chuqurlashtiradi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Hakim Termiziyning “Ma’rifatul asror” asari shunchaki diniy-tasavvufiy kitob emas, balki inson bilish qobiliyatining chegaralarini va imkoniyatlarini tadqiq etuvchi fundamental falsafiy asardir.

Mutafakkirning quyidagi xulosalari zamonaviy fan uchun ham dolzarb:

Bilish faqat intellektual jarayon emas, balki butun borliq (tana, qalb, ruh) bilan amalga oshadigan hodisadir.

Haqiqiy bilim (ma’rifat) subyekt va obyektning birlashishini talab qiladi.

Bilimning asosi - insonning o‘z ichki dunyosini tartibga solishi va nafs illatlaridan poklanishidir.

Hakim Termiziyning “Ma’rifatul asror” asari bilish falsafasi va gnoseologik qarashlarni tasavvufiy nuqtai nazardan yorituvchi muhim manbadir. Uning gnoseologiyasi aql va qalb uyg‘unligiga asoslangan bo‘lib, islom falsafasi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abu Abdullox Muxammad ibn Ali Xakim Termiziy. Ma’rifatul asror. (Sirlar ma’rifati). / Tarjimon: Abdulhamid Muxammad Tursunov. - Toshkent: Movarounnahr, 2017.– B.69.
2. Hujviriy, Ali ibn Usmon. Kashf al-mahjub (Haqiqat sirlarini ochish). Ingliz tilidan A.Mansur tarjimasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
3. Radtke, Bernd. Al-Hakim al-Tirmidhi: Three Works on the Secrets of the Saints. – Beirut/Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1992.
4. Knysh, Alexander. Islamic Mysticism: A Short History. – Leiden: Brill, 2000.
5. Uvatov U. Hakim Termiziy. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – 48 b.
6. Mansurov A. Tasavvuf va inson. – Toshkent: Sharq, 2003.
7. Xaitov Lazizbek Azamatovich .THE PROBLEM OF THE CONTINUITY OF THE HUMAN BODY (BEING) AND SOUL, THE PROBLEM OF HUMAN IDENTITY (LUST) IN THE LEGACY OF HAKIM TERMIZI. (2024). *Scientific Journal of the Fergana State University*, 30(2), 159. <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/4072>
8. Tirmidhi, al-Hakim. The Concept of Sainthood in Early Islamic Mysticism. Translated by B. Radtke and J. O’Kane. – Curzon Press, 1996.
9. Xaitov Lazizbek Azamatovich HAKIM TERMIZIY MA’NAVIY MEROSINING INSON KAMOLOTIDAGI O’RNI /Monografiya.-Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti , 2023. 148 - b.
10. Xaitov, L. (2025). HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA’LIMOTI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(3), 232–236. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N27>

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE INFLUENCE OF PHILOSOPHICAL AND RELIGIOUS CONCEPTS ON YOUTH BEHAVIOR**

**Azimova Charos Azamatovna**

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering Department of Uzbek and foreign languages senior teacher

**Abstract.** This article examines the impact of philosophical and religious concepts on youth behavior through theoretical and social analysis. The study explores the role of philosophical thinking and religious values in shaping young people's worldview and behavioral patterns. Particular attention is paid to both positive and negative interpretations of these ideas and their influence on social adaptation, moral stability, and civic responsibility. The findings emphasize the importance of a scientifically grounded approach to youth moral and spiritual development.

**Keywords:** youth, behavior, philosophical ideas, religious values, spirituality, worldview.

## **FALSAFIY-DINIY G'OYALARNING YOSHLAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI**

**Azimova Charos Azamatovna**

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvoriga ta'siri nazariy va ijtimoiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda yoshlar dunyoqarashi va xatti-harakatlarining shakllanishida falsafiy tafakkur hamda diniy qadriyatlarining o'rnini ochib beriladi. Shuningdek, ushbu g'oyalarning ijobiy va salbiy talqinlari, ularning ijtimoiy moslashuv, axloqiy barqarorlik va fuqarolik mas'uliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va ma'naviy tarbiyada ilmiy yondashuvlarni kuchaytirish zaruratini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, xulq-atvor, falsafiy g'oyalar, diniy qadriyatlar, ma'naviyat, dunyoqarash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N11>

**Kirish.** Globallashtirish jarayonlari, axborot makonining keskin kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yoshlar dunyoqarashi va xulq-atvorining shakllanishida falsafiy-diniy g'oyalarning roli tobora ortib bormoqda. Jamiyatning eng faol va ijtimoiy jihatdan sezgir qatlami hisoblangan yoshlar turli g'oyaviy ta'sirlarga nisbatan ochiq bo'lib, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlari, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy xulq-atvori bevosita ushbu g'oyalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, falsafiy va diniy qarashlarning yoshlar ongiga ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda falsafiy-diniy g'oyalar bir tomondan yoshlarning ma'naviy kamoloti, axloqiy barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan noto'g'ri talqin qilingan yoki radikal yo'nalishdagi qarashlar yoshlar xulq-atvorida salbiy og'ishlarga, ijtimoiy moslashuv muammolariga va destruktiv holatlarning yuzaga

kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, raqamli axborot muhitida diniy-falsafiy mazmundagi kontentning nazoratsiz tarqalishi yoshlar ongiga turli darajadagi ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa mazkur masalani chuqur va tizimli o'rganishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yoshlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi falsafiy-diniy omillarni aniqlash, ularning ijtimoiy-axloqiy natijalarini baholash hamda ijobiy g'oyaviy ta'sirni kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy siyosatni samarali tashkil etish va barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Yoshlar xulq-atvorining shakllanishida ma'naviy omillar, xususan, falsafiy va diniy g'oyalarning o'rnini masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala O'zbekiston ilmiy maktabida, avvalo, ma'naviyat va axloqiy tarbiya kontekstida yoritilgan bo'lib, S. Otamuratov ma'naviyatni shaxs ijtimoiylashuvining markaziy omili sifatida talqin qiladi. Muallif ma'naviy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soluvchi ichki mexanizm vazifasini bajarishini ta'kidlab, ularning ongli ravishda ijtimoiy mas'uliyatni his etishida muhim rol o'ynashini asoslaydi [1; 320-b]. Ushbu yondashuv falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar ongida ichki nazorat tizimini shakllantirishdagi ahamiyatini tushuntirishga xizmat qiladi.

I. Karimov tomonidan ilgari surilgan qarashlarda esa ma'naviyat jamiyat barqarorligi va yoshlar tarbiyasining strategik asosi sifatida talqin qilinadi. Muallif yuksak ma'naviyatni shaxsni turli salbiy g'oyaviy ta'sirlardan himoya qiluvchi ijtimoiy-mafkuraviy omil sifatida baholab, diniy va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligini alohida ta'kidlaydi [2; 176-b]. Ushbu nuqtai nazar yoshlar xulq-atvorida g'oyaviy immunitet shakllanishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

G'arb sotsiologiyasida diniy g'oyalarning jamiyat va shaxs xulq-atvoriga ta'siri masalasi E. Dyurkgeym tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Faylasuf dinni individual e'tiqoddan ko'ra, ijtimoiy birdamlikni ta'minlovchi institut sifatida ko'rib, diniy marosimlar va ramzlar shaxs xulq-atvorini kollektiv me'yorlarga bo'ysundirishini asoslaydi [3; 475 p]. Ushbu yondashuv diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvorida ijtimoiy moslashuv va intizomni shakllantirishdagi rolini tushuntiradi.

M. Veber esa diniy e'tiqod va ijtimoiy xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ma'nolar tizimi orqali izohlaydi. Uning fikricha, diniy g'oyalar shaxsning kundalik xulq-atvorini bevosita emas, balki dunyoqarash va ma'naviy motivlar orqali belgilaydi [4; 364 p]. Veberning yondashuvi falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvoriga bilvosita ta'sir mexanizmlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

P. Berger tomonidan ishlab chiqilgan "muqaddas soyabon" konsepsiyasi dinni shaxs va jamiyat hayotini ma'noli tizimga soluvchi omil sifatida talqin qiladi. Jamiyatshunos olim diniy g'oyalar inson xatti-harakatlariga barqarorlik bag'ishlashini, ijtimoiy tartibni legitimlashtirishini ta'kidlaydi [5; 240-p]. Ushbu yondashuv yoshlar xulq-atvorida diniy qadriyatlarning normativ rolini asoslash imkonini beradi.

Faylasuf va jamiyatshunos olim Yu. Habermas esa zamonaviy jamiyatda diniy g'oyalarning jamoat maydonidagi o'rnini qayta baholab, ularni sekulyar va diniy tafakkur o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida ko'radi. Uning fikricha, diniy qarashlar tanqidiy muhokama orqali jamiyat rivojiga konstruktiv hissa qo'shishi mumkin [6; 1-25 p]. Bu yondashuv yoshlar

bilan ishlashda diniy g'oyalarni mutaassiblikdan xoli, dialogga ochiq shaklda talqin qilish zaruratini ko'rsatadi.

A.Giddens shaxs identifikatsiyasi jarayonida zamonaviylikning ta'sirini tahlil qilib, yoshlar o'z "men"ini shakllantirishda an'anaviy diniy va falsafiy qarashlarni qayta talqin qilishini ta'kidlaydi [7; 256 p]. Ushbu yondashuv yoshlar xulq-atvoridagi o'zgaruvchanlik va g'oyaviy tanlovlarning murakkabligini tushuntiradi.

Kanadalik faylasuf Charlz Teylor zamonaviy dunyoda sekulyarlashuv jarayonini chuqur tahlil qilib, diniy g'oyalar jamiyatdan yo'qolmaganini, balki yangi shakllarda namoyon bo'layotganini asoslaydi [8; 896 p]. Bu holat yoshlar xulq-atvorida diniy g'oyalarning yashirin yoki individual shakllarda saqlanib qolishini izohlashga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotda falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvoriga ta'sirini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy tadqiqot usullari uyg'un holda qo'llanildi. Ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida shakllantirildi. Birlamchi ma'lumotlar yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar, yarim tuzilgan intervyular hamda fokus-guruh muhokamalari orqali olindi. So'rovnomalar yordamida yoshlarning diniy-falsafiy qarashlari, axloqiy yo'nalishlari va xulq-atvoridagi asosiy tendensiyalar aniqlashtirildi. Intervyular esa g'oyalarning shaxsiy qarorlar va ijtimoiy xatti-harakatlarga ta'sir mexanizmlarini chuqurroq yoritishga xizmat qildi. Ikkilamchi ma'lumotlar ilmiy maqolalar, monografiyalar, rasmiy statistik hisobotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar mantiqiy tahlil, taqqoslash, guruhlash hamda kontent-tahlil usullari orqali qayta ishlanib, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlashga qaratildi. Natijalar umumlashtirish va tizimlashtirish orqali ilmiy xulosalar shakllantirish imkonini berdi.

**Muhokama.** Zamonaviy jamiyatda yoshlar xulq-atvorining shakllanishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, madaniy muhit, ta'lim tizimi bilan bir qatorda falsafiy-diniy g'oyalar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, globallashtirish va raqamli axborot makoni sharoitida yoshlar turli g'oyaviy oqimlar, qarashlar va talqinlar bilan bevosita to'qnash kelmoqda. Bu holat ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va kundalik xulq-atvorida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Falsafiy g'oyalar yoshlar ongida hayot mazmuni, shaxsiy mas'uliyat, erkinlik va ijtimoiy adolat kabi tushunchalarni shakllantiradi. Ratsional fikrlash, tanqidiy yondashuv va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlari aynan falsafiy tafakkur orqali rivojlanadi. Ushbu jihatlar yoshlarning ijtimoiy xatti-harakatlarida mustaqil qaror qabul qilish, muammolarga ongli yondashish va ijtimoiy me'yorlarga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Falsafiy qarashlarga ega bo'lgan yoshlar, odatda, o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini chuqurroq anglaydi va ijtimoiy muvozanatni saqlashga intiladi.

Diniy g'oyalar esa yoshlar xulq-atvorida axloqiy me'yorlar, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy barqarorlikni shakllantiruvchi kuchli omil sifatida namoyon bo'ladi. Din orqali ezgulik va yovuzlik, halol va harom, adolat va mas'uliyat kabi tushunchalar yoshlar ongiga singdiriladi. Ushbu qadriyatlar kundalik xatti-harakatlarda o'z aksini topib, shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diniy qadriyatlarni to'g'ri va muvozanatli qabul qilgan yoshlar orasida tajovuzkorlik, huquqbuzarlik va ijtimoiy befarqlik holatlari nisbatan kam uchraydi.

Biroq falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvoriga ta'siri har doim ham bir xil ijobiy natijalarni bermaydi. Muammo asosan ushbu g'oyalarning talqin qilinishi va yetkazilish shakli

bilan bog'liq. Agar diniy yoki falsafiy g'oyalar biryoqlama, kontekstdan uzilgan yoki mutaassiblik ruhida targ'ib qilinsa, bu yoshlar xulq-atvorida keskinlik, bag'rikenglikning pasayishi va ijtimoiy moslashuv muammolariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yoshlarning hali to'liq shakllanmagan dunyoqarashi bunday noto'g'ri talqinlarga nisbatan sezgir bo'ladi (1-jadval).

**1-jadval. Falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvoriga ta'sir yo'nalishlari<sup>1</sup>**

Ta'sir omili	Asosiy mazmuni	Yoshlar xulq-atvorida namoyon bo'lish shakllari
Falsafiy tafakkur	Hayot mazmuni, erkinlik, mas'uliyat, tanqidiy fikrlash	Mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy faollik, muammolarga ongli yondashuv
Diniy qadriyatlar	Axloqiy me'yorlar, halollik, adolat, ma'naviy poklik	O'zini nazorat qilish, mas'uliyatli xatti-harakat, ijtimoiy intizom
G'oyaviy talqin shakli	Ilmiy yoki biryoqlama talqin	Bag'rikenglik yoki keskinlik, moslashuvchanlik yoki rad etish
Axborot muhiti	Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar	G'oyaviy ta'sirga berilish yoki tanqidiy munosabat
Ijtimoiy muhit	Oila, ta'lim, jamoatchilik	Barqaror xulq-atvor yoki ma'naviy bo'shliq

Raqamli axborot muhitining kengayishi ushbu jarayonni yanada murakkablashtirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar va turli onlayn forumlar orqali falsafiy-diniy mazmundagi kontent tez va nazoratsiz tarqalmoqda. Bu esa yoshlarning ishonchli manbalar bilan shubhali yoki manipulyativ axborotni farqlashini qiyinlashtiradi. Natijada ayrim yoshlar ekstremistik yoki radikal qarashlarga moyillik ko'rsatishi, bu esa ularning xulq-atvorida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lmagan yoshlar g'oyaviy ta'sirlarga tezroq beriladi.

Ijtimoiy muhit ham falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvoriga ta'sirini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik institutlari tomonidan beriladigan tarbiya mazmuni bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Agar yoshlar oilada va ta'lim tizimida sog'lom, muvozanatli falsafiy-diniy bilimlarga ega bo'lsa, ular turli g'oyaviy ta'sirlarga nisbatan barqarorroq bo'ladi. Aksincha, ma'naviy bo'shliq mavjud bo'lgan muhitda yoshlar o'ziga tezroq alternativ g'oyaviy manbalarni izlaydi.

**Natijalar.** Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, falsafiy-diniy g'oyalarning yoshlar xulq-atvoriga ijobiy ta'siri ularning ilmiy asoslangan, tolerant va insonparvarlik tamoyillariga mos holda yetkazilishiga bog'liq. Bunday yondashuv yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, g'oyaviy tarbiya jarayonida yoshlarning individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy tajribasi ham hisobga olinishi zarur.

Falsafiy-diniy g'oyalar yoshlarning xulq-atvorida ichki nazorat mexanizmlarini shakllantiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni shaxs tashqi nazoratdan ko'ra, ichki e'tiqod va axloqiy mezonlar asosida o'z xatti-harakatlarini tartibga sola boshlaydi. Bu holat

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

jamiyatda huquqiy va axloqiy madaniyatning yuksalishiga olib keladi. Ayniqsa, mas'uliyat, halollik va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar yoshlar orasida mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, falsafiy-diniy g'oyalar yoshlar xulq-atvoriga bevosita emas, balki bilvosita, ya'ni qadriyatlar tizimi orqali ta'sir ko'rsatadi. Avvalo dunyoqarash shakllanadi, undan keyin esa xulq-atvor namoyon bo'ladi. Demak, g'oyaviy tarbiya uzoq muddatli va tizimli jarayon bo'lib, tezkor natijalarni emas, balki barqaror ijtimoiy o'zgarishlarni ko'zda tutadi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, falsafiy-diniy g'oyalar yoshlar xulq-atvorining shakllanishida kuchli va ko'p qirrali ta'sirga ega. Ushbu ta'sirning ijobiy yoki salbiy yo'nalishda namoyon bo'lishi g'oyaviy manbalarning sifati, talqin uslubi, ijtimoiy muhit va yoshlarning tanqidiy fikrlash darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, yoshlar bilan ishlash tizimida falsafiy-diniy g'oyalarni ilmiy, muvozanatli va ma'naviy barkamollikni ko'zlagan holda targ'ib qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, falsafiy-diniy g'oyalar yoshlar xulq-atvoriga tashqi bosim yoki tayyor axloqiy qoidalar orqali emas, balki ularning ichki dunyosi, ma'naviy tanlovi va hayotiy pozitsiyasi orqali ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar bu jarayonda passiv qabul qiluvchi emas, balki g'oyalarni qayta angelaydigan, ularni shaxsiy tajribasi bilan solishtiradigan va ijtimoiy muhitga moslashtiradigan faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, falsafiy va diniy qarashlar yoshlar ongida uyg'unlashgandagina mas'uliyat, bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi xulq-atvor modeli shakllanadi.

Tadqiqot natijalari asosida sohani rivojlantirish uchun bir qator muhim yo'nalishlar aniqlanadi. Birinchidan, ta'lim tizimida falsafiy-diniy masalalarni abstrakt tushunchalar darajasida emas, balki yoshlar duch kelayotgan real ijtimoiy, axloqiy va shaxsiy muammolar bilan bog'lab yoritish zarur. Ikkinchidan, tarbiyaviy jarayonda tayyor xulosalar berishdan ko'ra, savol qo'yish, munozara va tahlilga asoslangan yondashuvlarni kengaytirish yoshlarning mustaqil fikrlash salohiyatini oshiradi. Uchinchidan, raqamli axborot makonida tarqalayotgan falsafiy-diniy kontentni tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish yoshlarning g'oyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. To'rtinchidan, oila va jamoatchilik institutlari faoliyatida ochiq muloqot va ishonchga asoslangan tarbiyaviy muhitni kuchaytirish yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini sog'lom yo'naltirish imkonini beradi.

Umuman olganda, falsafiy-diniy g'oyalarni ilmiy asoslangan, zamonaviy va dialogga ochiq shaklda yoshlar tarbiyasiga integratsiya qilish nafaqat individual xulq-atvorni, balki jamiyatning umumiy ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. S.Otamuratov. Ma'naviyat asoslari. Darslik. – T.: O'zbekiston, 2018. – 320 b.
2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. E.Durkheim. The Elementary Forms of Religious Life. – New York: Free Press, 1995. – 475 p.
4. M.Weber. The Sociology of Religion. – Boston: Beacon Press, 1993. – 364 p.
5. P.Berger. The Sacred Canopy: Elements of a Sociological Theory of Religion. – New York: Anchor Books, 1990. – 240 p.
6. J.Habermas. Religion in the Public Sphere. – European Journal of Philosophy. – Oxford: Wiley, 2006. – Vol.14, No.1. – P.1–25.
7. A.Giddens. Modernity and Self-Identity. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – 256 p.

8. C.Taylor. A Secular Age. – Cambridge: Harvard University Press, 2007. – 896 p.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE RELATIONSHIP OF SA'DIDDIN HAMAWI'S VIEWS ON TAJALLI AND HIJAB WITH THE IDEALS OF "WAHDAT UL WUJUD"**

**Rajabov Alisher Shavkatovich**

Independent researcher at the Bukhara State Pedagogical Institute

**Abstract.** This article analyzes the views on "tajalli" (divine self-manifestation) and "hijab" (veil), which hold a significant place in the Sufi-philosophical perspectives of Sa'diddin Hamawi, one of the major theorists of medieval Sufi philosophy who made a worthy contribution to the development of the "Wahdat al-wujud" (Unity of Being) doctrine.

**Keywords:** Sa'diddin Hamawi, Sufism, the philosophy of Wahdat al-wujud, the self-manifestation of being, the self-manifestation of contemplation, Rahmanic (merciful) self-manifestations, attributive self-manifestations, spiritual self-manifestations, hijab (veil), luminous veils, dark veils.

## **SA'DIDDIN HAMAVIYNING TAJALLI VA HIJOB HAQIDAGI QARASHLARINING "VAHDAT UL WUJUD" G'OYALARI BILAN BOG'LIQLIGI**

**Rajabov Alisher Shavkatovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'rta asrlar yashagan tasavvuf falsafasining yirik nazariyotchi vakillaridan biri bo'lgan, "Vahdat ul-vujud" ta'limotining rivojiga munosib hissa qo'shgan Sa'diddin Hamaviyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarida muhim o'rinda ega bo'lgan tajalli va hijob haqidagi qarashlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Sa'diddin Hamaviy, tasavvuf, vahdat ul-vujud falsafasi, borliq tajallisi, mushohada tajallisi, rahmoniy tajallilar, sifatiy tajallilar, ma'naviy tajallilar, hijob, nuroniy hijoblar, zulmoniy hijoblar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N12>

**Kirish.** Tajalli – Alloh taoloning Zoti turli martabalarda zuhur etishi, tasavvuf ahlining kashf yo'li bilan bu zuhurni idrok etishi ma'nosida qo'llaniladigan tasavvufiy istilohdir. Uning lug'aviy ma'nosi "belgi bermoq, paydo bo'lmoq, ko'rinmoq"dir. Tasavvufiy ma'nosi esa "solikning qalbida tug'ilgan laduniy bilimlar va nurlar" demakdir. "Jilva" so'zi ham ayni o'zakdan kelib chiqqan bo'lib, tajalli bilan ma'nodoshdir. Tajalli shuningdek, ilhom, voridot, lavoih, talvihot, voqiot, sunuhot, bavorih, tavoriq so'zlari bilan ham ifodalanadi. Fayz, zuhur, sudur, tanazzul, taayyun, fath, tahqiq, shuhud va kashf terminlari ham tajalli bilan yaqin ma'naviy aloqadorlikka ega.

Tajalli so'zi Qur'on va hadislarda ham lug'aviy, ham istilohiy ma'noda qo'llangan. Qur'oni karimda kunduzning yorishib, namoyon bo'lishi (Layl, 92/2) va Hazrati Muso (a.s.) Rabbini ko'rishni istaganida Robbisining toqqa zuhur etishi (A'rof, 7/143) tarzida keladi. Hadislarda esa Payg'ambarimiz (s.a.v.) quyosh tutilishi hodisasida namoz o'qiganlarida quyoshning qayta ko'rinishi, oxirtda mo'minlar ko'rish uchun Haqning o'zini oshkor qilishi tajalli bilan ifodalangan.

Sahl Tustariy tajallining zot, sifat va hukm kabi uch holati borligini aytadi. Haq Zotining tajallisi mukoshafadir. Mukoshafa – bu dunyoda qalbning kashf maqomiga yetishi va qalb ko‘zi(basirat)ning ochilishidir. Payg‘ambarimiz ehsonni ta‘riflar ekan, “Robbingga Uni ko‘rib turgandek ibodat qil!” deb buyurishlari, Abdulloh ibn Umarning tavof asnosida “Allohni ko‘rayotgandek bo‘lardik” deyishi bu tajalliga misoldir. Bunga shuhud nomi ham beriladi. Ammo Haqni ochiq-oydin mushohada qilish faqat oxiratda mumkin bo‘ladi. Bunga shohid nomi ham berilgan.

Haq Zotiga oid sifatlarning tajallisi nur mahalli (o‘rni)dir. Haq qudrat sifati bilan bir qulga tajalli qilganda, u qul Haqdan o‘zgadan qo‘rqmaydi. Allohning kalom sifati Qur‘onda tajalli etgan. Insonlar Qur‘on o‘qish orqali ilohiy xabarlarini ko‘z bilan ko‘radigan holatga kelishi sifat tajallilariga misoldir. So‘fiylar Allohning borliqdagi eng mukammal tajallisi inson ekanini aytganlar.

Haqning g‘aybga oid tajallilari zuhur etishi bilan narsalarning haqiqati ko‘rinmas holga kelgan. Bunga satr (pardalanish, to‘silish) deyiladi. Avom uchun satr jazo, xavos uchun rahmatdir. Chunki Alloh mukoshafa surati bilan ko‘rsatgan tajallilarini satr etmaganida (to‘smaganida), ilohiy tajallilar zuhur etganda xavos ahli halok bo‘lardir. Shu sababli Haq gohida tajalli etadi, gohida esa yashirinadi. Buning quyidagi hadis bilan aloqasi bor: “Ba‘zan qalbimni parda qoplaydi. Shu sababli kuniga 100 marta istig‘for aytaman”. So‘fiylar bu hadisga istig‘forni “Haqdan parda (g‘afir) so‘rash” ma‘nosida talqin qilganlar. “Allohning nur va zulmatdan iborat yetmish ming pardasi bor. Agar ularni ochsa, Zotidan taralgan nurlar yetib borgan har narsani yondirib, yo‘q qilardi” hadisiga ko‘ra, satr bilan Haqning tajallilarini yashirish insonlar uchun bir rahmatdir.

“Men yashirin xazina edim, bilinishni istadim va Meni bilishlari uchun maxluqotni yaratdim” qudsiy hadisini sharhlagan so‘fiylarga ko‘ra, Haqning tajalli etishiga asosiy sabab Zotining bilinishini istashidir. Ilohiy Zotda mavjud bo‘lgan ism va sifatlar tajalli etgani uchun Haq bilingan. Agar tajalli etmaganida, yashirin qolgan, binobarin, mukammalligi namoyon bo‘lmagan va bilinmagan bo‘lardir.

Ilohiy Zot bilan olamning aloqasi ism va sifatlar amalga oshiradigan tajalli fe‘li orqali vujudga keladi. Chunki Haqni bilishni ta‘minlaydigan olamdir va olamning xususiyatlarini o‘zida to‘plagan insondir. Olam ham, inson ham tajalli natijasida paydo bo‘lgan. “Agar muhabbat bo‘lmasaydi tajalli, tajalli bo‘lmasaydi Alloh bilinmasdi” degan so‘z bu sharhni tasdiqlaydi.

Tajalli tushunchasi Ibn Arabiy (q.s.) tafakkurining asosiy tayanchlaridan biridir. Ibn Xaldun Ibn Arabiy maktabiga mansub boshqa oriflar uchun “tajalli ahli” iborasini qo‘llaydi. Ibn Arabiy yaratishni tajalli fe‘li bilan izohlaydi. Unga ko‘ra, olam Haqning tajalli va zuhur martabalaridir. Inson barcha tajalli martabalarini o‘zida jamlagan eng so‘nggi va eng mukammal tajalligohdir. Ibn Arabiyning tajalli haqidagi tushunchasi borliq tajallisi va mushohada tajallisi deb ikki qismga bo‘linadi. Borliq tajallisi - mumkin bo‘lgan mavjudotlarning ilohiy ilmdan boshlab, boshqa vujud martabalarida va tashqi dunyoda bor bo‘lishini ta‘minlaydigan Haq tajallisidir. Bu tajalli “az-Zohir” ismi bilan yuz beradi. “al-Botin” ismi bilan tajalli esa na dunyoda, na oxiratda sodir bo‘ladi. Ibn Arabiyga ko‘ra, mushohada tajallisi ma‘rifat bilan birlashadi; bu ma‘rifat tajallisi deb ham ataladi. Allohga doir ma‘rifat faqat shu yo‘l bilan hosil qilinishi mumkin. Ma‘rifat tajallisi borliq tajallisi kabi “yakka” bo‘lsa-da, tajalliga o‘rin bo‘lgan insonning iste‘dodi va qobiliyatiga ko‘ra farqlanadi. Ma‘rifat tajallisining ham zohiriy va botiniy tomoni bor. Zohiriysi nafsning zohirida paydo bo‘ladi va bu tajalli bilan narsalarning

suratlari haqida bilim olinadi. Botiniysi esa qalbda zuhur etib, kishiga sirlar va haqiqatlar ilmini baxsh etadi. Zohiriy tajallidan farqli o'laroq, botiniy tajalli qalbga yo'nalgan bo'lib, ta'vilni talab qilmaydi va unda xato ehtimoli yo'qdir. Bu tajalliga mazhar bo'lgan kimsa ubudiyat (bandalik) axloqi bilan sifatlangan bo'lishi lozim. Demak, tajalli qalblar pardasini ochuvchi g'ayb nurlaridir. Payg'ambarlarga nisbat berilgan hikmatlar esa ilohiy tajallining turli aks-sadolaridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzuga oid ma'lumotlar Sa'diddin Hamaviyning "Risola fi bayoni Aksomit-Tajalliotil-Ilohiyya", "Kashf ul-G'ito va Raf'ul Hijob", "Mahbub ul-muhibiyn va matlab ul-vosiliyn" (Muhiblarning mahbubi va vasl istovchilarning matlabi), "Al-misbah fit-tasavvuf", "Bahr ul-maoniy"(Ma'nolar ummoni), "Risola dar tasavvuf"(Tasavvuf haqida risola) kabi asarlarida batafsil bayon qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germeneytika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tasavvuf tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, "Vahdat ul vujud" maktabi g'oyalarini qo'llab quvvatlagan buyuk mutasavvif Sa'diddin Hamaviyning tajalli va hijob haqidagi tasavvufiy qarashlari ham muhim o'ringa ega. Mutasavvifning tajalli va hijob haqidagi qarashlari "Vahdat ul-vujud" ta'limoti ishlab chiqilgan va qaysidir ma'noda mazkur ta'limotdagi ayrim bo'shliqlarni to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hamaviy tajalli tushunchasini ikki yo'nalishda tahlil qilgan. Birinchisi yaratilish va insonning ontologik taraqqiyot bosqichi bilan bog'liq bo'lib, u bu kontekstda tajalli tushunchasini zuhur, xalq (yaratish), nuzul va nazar tushunchalari bilan sinonim sifatida qo'llaydi. Ikkinchisi esa mukoshafa va mushohada kabi ma'naviy tajribalarni qamrab oladi.

Birinchi yo'nalishda tajalli Alloh olami a'yonda mavjud bo'lgan mazharlarga tajalli qilib, ularni zehndagi mavjudlikdan tashqi mavjudlikka chiqarishidir. Bu — sodda qilib aytganda, Allohning narsalarni yaratishidir. Bu o'rinda Haq Taoloning ashyoga uch xil tajallisi haqida so'z boradi. Birinchisi, ismlar bilan tajalli bo'lib, Hazrati Odam orqali butun insoniyatni yaratgan. Ikkinchisi, axloq bilan tajalli bo'lib, nubuvvat va shariatni yaratgan. Bu tajallining natijasida axloq va nubuvvatning cho'qqisi bo'lgan Muhammad (s.a.v.) yaratilgan. Uchinchisi esa Haq Taoloning fe'llari bilan tajalli etishi bo'lib, valoyat maqomining cho'qqisi bo'lgan xotamul-avliyo timsolida valiylikni yaratgan. Hamaviy ma'naviy tajribalar kontekstida tajalli tushunchasini Haq Taoloning bandasiga hidoyat berishi, uning vositasida yaratishi, uni qahr qilishi, o'ldirishi kabi ilohiy fe'llarning bandalar orqali sodir bo'lishi ma'nosida qo'llaydi. Shu ma'noda, banda qaysi ism va sifatning tajalliiga mazhar bo'lsa, o'sha ism va sifatning xususiyatlarini qo'lga kiritadi[1;124-b]. Masalan, Iso al-Muhyi ismining tajalliiga mazhar bo'lgani uchun o'likni tiriltira olgan. Hamaviy, bandaning mushohadasini va mukoshafasini tashkil etuvchi tajallilari; "sakina", "lamha", "lahza" va "lam'a" bo'lib to'rt qismga bo'linadi. Sakina uzoq muddatli tajallilar bo'lib, bu tajallilarga mazhar bo'lgan bandalarning vaqt, hol va maqomlari hosil bo'ladi. Ularning har biri mushohada, mukoshafa, muhozara kabi ma'naviy tajribalar bilan mavjud bo'ladi. Sakina turidan bo'lgan tajallilar rahmoniy va ruhoniyya bo'linadi. Rahmoniy tajallilar zotiy va sifatiy bo'lib ikkiga bo'linadi. Zotiy tajallilar rububiyatga taalluqli bo'lganlar va uluhiyatga taalluqli bo'lganlarga bo'linadi. Sifatiy tajallilar esa Jamol va Jalol sifatlarining tajallilari deb ikkiga bo'linadi. "Jamol sifatining tajallilari" fe'liy va zotiy bo'lib ikkiga bo'linadi. "Jamol sifatlarining zotiy tajallilari" ham nafsiy va ma'naviy bo'lishi jihatidan ikkiga bo'linadi. Jamol sifatlarining nafsiy tajallilari uch qismga bo'linadi: muvahhidiy, vohidiy va qoimiy. Hamaviy bunday tajallilarga mazhar bo'lganlarga "O'z borlig'imni nuqsonli sifatlardan

poklayman” degan soʻzlarni aytuvchi Bistomiyni misol qilib keltirgan. Jamol sifatining maʼnaviy tajallilari esa sakkiz qismga boʻlinadi: ilmiy, qudratliy, irodiy, samʼiy, basariy, hubbiy, kalomiy va fanoiy.

Hamaviy bu tajallilarning har biriga Qurʼondan ishoratlar borligini aytgan. Hamaviy tajalli bilan birga koʻpincha hijob tushunchasini ham qoʻllagan. Lugʼatda hijob, “toʻsiq boʻlmoq, yopmoq, yashirmoq” maʼnolarini anglatuvchi ha-je-be (حجب) oʻzagidan olingan ism boʻlib, “parda, ikki narsa orasiga qoʻyilgan toʻsiq, yopinchiq” maʼnosida qoʻllaniladi.

Istilohda esa solik bilan Haq taolo oʻrtasida boʻlgan va Uni tanishga toʻsqinlik qiladigan, tajallining bandalarga yetishishiga toʻsqinlik qiladigan va zotini bandalardan yashiradigan har bir narsaga aytiladi.

Hamaviyning fikricha, nuroniy va zulmoniy boʻlib ikki xil hijob mavjud. Ikkalasi ham avom, xavos va xossul-xavosga koʻra uch toifaga boʻlinadi. Nur zohir boʻlgan har qanday narsaning zuhurini amalga oshiruvchi narsadir. U oʻzi uchun zohir (koʻruvchi yoki koʻrinuvchi), oʻzidan tashqaridagilarga nisbatan muzxir (koʻrsatuvchi)dir. Zulmat esa kishining nafsiga/oʻzligiga mos keladigan bir turdagi hijobdir. Yaʼni kishining Rabbini shahodat olami shartlari doirasida tanishi va cheklangan boʻlsa-da, maʼrifatning kishida doimiy boʻlib qolishidir. Boshqacha aytganda, kishining oʻz nafsini koʻrishi, farqlanish holatida boʻlishi, Alloh Taoloni faqat Oʻzini Qurʼonda tanitgan darajada bilishidir. Bu zulmning eng oliy darajasidir. Zulmat pardasi nafsiy parda boʻlgani uchun bu pardaning koʻtarilishi nafsni tarbiyalash bilan mumkin boʻladi. Bu parda yoʻqolganda nur pardasi paydo boʻladi. Nur pardasining koʻtarilishi esa insonning nurga nisbatan qobiliyat kasb etishi, yaʼni fardiyat maqomiga erishishi bilan mumkin boʻladi. Hamaviy bu yerda nurning parda boʻlishini koʻrshapalaklar kunduzi koʻr boʻlishi misoli bilan tushuntirgan. Nurni koʻrishga qodir boʻlmaganlar koʻrshapalaklar kabi qorongʻida koʻrsalar ham, yorugʻlikka nisbatan koʻrdirlar. Banda nurni koʻrish qobiliyatiga ega boʻlgach, jamʼ holatiga oʻtadi. Oʻsha damda na orif qoladi, na maʼrifat. Hamma narsa Hazrati Allohning nuri boʻladi[2;210-211b.] Mutasavviflar asosan qalb, nafs va vujudagi pardalarning kashfiga katta eʼtibor qaratishgan. Xoja Muhammad Porso fikricha, kamolotga erishish uchun uch bosqichni misol qilib keltirish mumkin: Birinchisi, qalbgga toʻsiq boʻlgan pardalarni ochishga intilish «dafʼi hijobhoi nafsoniy». Ikkinchisi, solik barcha nafsoniy va shahvoniy istak, mayllardan qalbni poklaydi “rafʼi gʻavvoshi qalbiy”, Uchinchisi, “manʼi gʻuborhoi ruhoniy”[3;81-83b.], bunda solik ruhiy-maʼnaviy olamining changi gʻuborini tozalashi, poklanishi, illatlardan forigʻ boʻlishi hisoblanadi. Oʻrta asr Sharq tasavvuf falsafasining buyuk namoyandalaridan biri Aziziddin Nasafiy ham oʻzining tasavvufiy taʼlimotida inson kamolotiga maxsus eʼtibor qaratib, hijoblar va ularning kashfi masalasida fikr bildirgan. Nasafiy hijoblarni toʻrtta deb koʻrsatgan va bu hijoblarni kashf etishda oʻn ikkita holatni bayon etgan. Jumladan, Nasafiy hijob haqida gapirib “Hijob asli toʻrttadir: mol- dunyoga oʻchlik, amalparastlik, katta avlodga koʻr-koʻrona ergashish, gunoh ishlarga ruju qoʻyish”[4;3b.], — deb taʼkid etgan.

**Xulosa.** Yuqorida bildirilgan fikrlar va tahlillar asosida quyidagi mazmundagi xulosalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- Saʼdiddin Hamaviyning tasavvufiy-falsafiy qarashlari mazmunidan oʻrin olgan tajalli va hijobga oid qarashlari tasavvuf ontologiyasi va gnoseologiyasining dolzarb masalalarini tushunishda oʻziga xos oʻringa ega;
- Tajalli va hijob tushunchalarining tahlili shuni koʻrsatadiki, borliqdan tortib, insongacha boʻlgan barcha mavjudot va maxluqot Haqning zuhuri va nuridir;

- Hamaviy Qur’oni Karim va Hadisi sharifga asoslanib, tajalli va hijobning o’ziga xos tasnifini ishlab chiqqan va mazkur tushunchalarning mazmuniga qator ma’nolar yuklagan.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Sa'deddin Hammüyi. Risále fi Beyani Aksamit-Tecelliyatil-İlahiyye. Süleymaniye Kütüphanesi. Şehid Ali Paşa koleksiyonu. №1364.vr.124
2. Sa'deddin Hammüyi. Keşfü'l-Gita' ve Reful-Hicab. Süleymaniye Kütüphanesi. Ayasofya koleksiyonu. №2058. vr.210b-211a.
3. Хожа Муҳаммад Порсо. Рисолаи кашфия. Тошкент давлат Шарқшунослик институти Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази .1147.й. Р. 81-83-II.
4. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. – Тошкент: Маънавият, 1997, - Б.3.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF VIRTUAL COMMUNITIES AND DIGITAL IDENTIFICATION PROCESSES**

**Boymurodov Ilkhombek Khayitmurodovich**

Independent researcher,  
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Abstract.** This article studies the foundations of digital identifications in the era of today's advanced technologies, through which they recognize human faces and thereby shape social processes. It also scientifically analyzes the fact that virtual communities and digital identification have become processes of understanding new forms of subjectivity, collective consciousness and social coordination in modern socio-philosophical research, and the fact that virtual communities formed through digital communication platforms are redefining the relationship between the individual and society.

**Keywords:** technology, information, virtual reality, digital identifications, artificial intelligence, algorithmic order, digital technologies, integration.

---

## **VIRTUAL JAMOALAR VA RAQAMLI IDENTIFIKATSIYALASH JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI**

**Boymurodov Ilxombek Xayitmurodovich**

Mustaqil tadqiqotchi,  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda raqamli identifikatsiyalar inson yuzini tanish bu orqali ijtimoiy jarayonlarni shakllantirish asoslari o'rganilgan. Shuningdek virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda subyektivlik, kollektiv ong va ijtimoiy muvofiqlashuvning yangi shakllarini anglash jarayonlariga aylanganligi, raqamli kommunikatsiya platformalari orqali shakllanayotgan virtual jamoalar shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni qayta tiklanishi kabi masalalari ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, axborot, virtual reallik, raqamlar identifikatsiyalar, sun'iy intellekt, algoritmik tartib, raqamli texnologiyalar, integratsiya.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N13>

**Kirish.** Axborot oqimlari tobora murakkablashayotgan, inson hayotining har bir jihati raqamli maydonga tortilayotgan zamonamizda subyektivlikning taqdiriga oid masala ijtimoiy falsafa doirasida keskin dolzarblik kasb etmoqda. Virtual makonlarda yuzaga kelayotgan jamoaviy shakllar, shaxsning raqamli yuzini belgilovchi identifikatsion mexanizmlar, algoritmik asoslangan ijtimoiy uyg'unlik konsepsiyasi — bularning barchasi klassik ijtimoiy ong, tanish o'zlik va madaniy barqarorlik tasavvurlarini qayta ko'rib chiqishga majbur etadi. Mazkur tahlil ushbu o'zgarishlarning murakkab ichki mantig'ini ochib berishga qaratiladi.

Raqamli olamga ko'chgan ijtimoiy munosabatlar strukturasi anglashda avvalo virtual jamoalar fenomeniga e'tibor qaratish lozim. Bunday jamoalarda shaxsiy identifikatsiya jarayoni endilikda real tarixiy tajriba va ongli ishtirokdan ko'ra, algoritmik tartib va tashqi ko'rsatkichlar

orqali shakllanadi. Sh.M.G'ulomov ta'kidlaganidek, "shaxsning real hayotdagi "men"i va raqamli dunyodagi "men"i o'rtasidagi tafovutlar ongni chalkashtiradi"[1:15]. Ushbu fikr raqamli identifikatsiyaning tanqidiy manzarasini ochadi. Chunki bu holatda shaxsiylik doirasi virtual darajada takrorlanadigan tasvirga aylantiriladi. Bunday tasvir esa sun'iy muvofiqlikka, o'zligini ijtimoiy mezonlar orqali emas, balki algoritmik filtrlar orqali baholashga asoslanadi. M.A.Sadullayeva esa raqamni shaxs ongidagi umumlashiruvchi kuch sifatida talqin etadi: "raqam fikrni qisqartirish orqali umumlashirish, farqlash va ongda o'zlashtirish imkonini beradi"[2:14]. Bu yondashuvda raqamli belgining inson tafakkuri va xotirasi bilan bog'liqligi ifodalanadi. Biroq, bu fikrga ilmiy-ijodiy munosabat bildirib aytish mumkinki, aynan raqamli belgining kuchi shundaki, u subyektga nisbatan tashqi mezonlarni o'rnatadi. Endilikda fikrni emas, balki fikrning aks etgan statistik bahosini asosiy manba sifatida qabul qilish holati kuzatilmoqda. Raqam, demak, idrok emas, balki tasnif mezoniga aylangan.

L.Dj.Yadgarova raqamli taraqqiyotning insoniylik mohiyatiga ta'sirini tahlil etar ekan, "texnologik yutuqlar inson salohiyatini kengaytiradi, biroq ular bilan birga kelayotgan xavf-xatarlarni ham inkor etib bo'lmaydi" degan xulosani ilgari suradi[3: 139]. Darhaqiqat, raqamli jamoalarda yuzaga kelayotgan kollektiv ong inson ijtimoiy fikrining aksi emas, balki ko'p hollarda axborot oqimini boshqaruvchi algoritmlarning mahsulidir. Bu jarayon ijtimoiy ongni asliyatidan emas, balki tezlik, son va takrorlanishga asoslangan ifoda doirasida shakllantiradi. Shu bilan birga, shaxs bu umumiylik ichida emas, undan chetda turgan rolga ega bo'ladi. I.G.Yermolayev raqamli makonning ontologik mohiyatini ko'rsatib, quyidagicha yozadi: "identifikatsiya jarayoni endilikda tashqi ijtimoiy omillarga emas, balki texnologik vositalar tomonidan boshqariladi"[4: 70]. Bu fikr bugungi virtual jamoalardagi subyektivlikning yadro masalasiga ishora qiladi. Inson endilikda o'zini ong orqali emas, balki raqamli indikatorlar, "ko'rish", "layk" va boshqa tashqi baholar orqali anglaydi. Bu esa subyektivlikni ichki haqiqatdan tashqi konstruksiyalangan ko'rinishga aylantiradi.

Bu kollektivlik doirasida fikr almashinuvchi emas, balki axborot uzatishning yagona yo'nalishda bo'lishi holati ustuvorlik kasb etmoqda. Inson bu jarayonda ishtirokchi emas, balki raqamli oqimga moslashishga majbur bo'lgan figura sifatida mavjud bo'ladi. Bu holat ijtimoiy muvofiqlashuvni ham tubdan o'zgartiradi: anglashuv emas, balki kodlashuvga asoslangan uyg'unlik yuzaga keladi. Shu ma'noda, G'ulomovning "virtual makon-bu shaxsiy qarorlarning emas, algoritmik yo'naltirishlarning dominantligi" degan fikrini chuqurlashtirib aytish lozim. Virtual jamoalarning muvofiqlik shakli erkin tanlov natijasi emas, balki ko'p hollarda tavsiya algoritmlarining taklif etgan yagona yo'lidir. Bu esa shaxsga tanlash imkoniyati bermaydi, balki unga allaqachon shakllangan qoidalar asosida ijtimoiy roldan foydalanishni tavsiya etadi.

Virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya orqali shakllanayotgan ijtimoiy tajriba, subyektivlikning individual emas, balki konstruksiyalangan manzara ekanligini ko'rsatmoqda. Bu manzarada kollektiv ong sun'iy ravishda modellashtirilgan algoritmik uyg'unlik sifatida ishlaydi. Ijtimoiy muvofiqlik esa ongli ishtirok natijasi emas, balki tizimli ravishda takrorlanayotgan axborot doiralari bilan belgilangan tashqi moslashuvdan iboratdir. Ijtimoiy falsafa uchun esa bu vaziyat nafaqat nazariy qiziqish, balki insoniylik mohiyatini muhofaza qilishning intellektual mas'uliyatidir.

Virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda subyektivlik, kollektiv ong va ijtimoiy muvofiqlashuvning yangi shakllarini anglash uchun markaziy tushunchalarga aylanmoqda. Raqamli kommunikatsiya platformalari orqali

shakllanayotgan virtual jamoalar shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni qayta talqin qilmoqda. Howard Rheingold ta'kidlaganidek, "virtual jamoalar — bu kompyuter vositasidagi aloqalar orqali doimiy muloqotda bo'luvchi odamlarning ixtiyoriy birlashmalari" [5: 57]. Bu ta'rif jamoaviylikning an'anaviy hududiy va institutsional chegaralardan chiqib, raqamli maydonda qayta shakllanishini ko'rsatadi. Biroq, bu jarayonni falsafiy nuqtai nazardan baholaganda, virtual jamoalar bir tomondan shaxsning ijtimoiylik ehtiyojini qondirsa, ikkinchi tomondan uning identitetini fragmentatsiya qiluvchi, simulyativ aloqalarga asoslangan tuzilmalarga aylanish ehtimolini ham yuzaga keltiradi.

Raqamli identifikatsiya masalasi ham shaxsiy va kollektiv subyektivlikni qayta qurishga xizmat qilmoqda. Sherry Turkle "raqamli muhitda inson bir vaqtning o'zida bir nechta identitetlarni sinovdan o'tkazib, o'zini ko'p qirrali subyekt sifatida namoyon etadi" deya yozadi [6: 178]. Bu yondashuv raqamli identifikatsiyaning shaxsiy subyektivlikni barqaror emas, balki dinamik va performativ jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu jihatdan, raqamli identitetning falsafiy mohiyati shaxsning o'zini anglashidagi izchillik va yaxlitlik tushunchalarini muhokama ostiga qo'yadi. Virtual muhitda "men" doimiy ravishda qayta ishlab chiqariladi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy munosabatlarning mazmunini ham o'zgartiradi.

Kollektiv ongning yangi shakllari masalasida Pierre Lévy "virtual jamoalar bilimning kollektiv shaklda ishlab chiqarilishi va taqsimlanishini ta'minlab, "kollektiv intellect"ni yuzaga keltiradi" deya ta'kidlaydi [7: 13]. Bu qarash virtual jamoalarning ijtimoiy muvofiqlashuv mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqqanini ko'rsatadi: ular bilim, qadriyat va amaliyotlarni doimiy almashinuv asosida muvofiqlashtiradi. Shu bilan birga, falsafiy tahlilda bu jarayonning dialektik tabiatini ham unutmazlik kerak. Bir tomondan, virtual jamoalar ijtimoiy birdamlik va umumiy ma'naviy makonni yaratadi, boshqa tomondan esa, ular algoritmik boshqaruv, filtrlar va raqamli segmentatsiya tufayli yangi bo'linishlarni ham keltirib chiqaradi.

Raqamli identifikatsiya masalasi esa subyektivlikning murakkab va ko'p qatlamli shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Judith Donathning fikricha, "onlayn identitet ijtimoiy signalizatsiyaning yangi formalarini yaratib, shaxsiy ishonchlilikni virtual jamoalarda muvofiqlashtiradi" [8: 42]. Bu shuni anglatadiki, raqamli muhitda shaxsning "men"i birlamchi ontologik yaxlitlik sifatida emas, balki turli kontekstlarda qayta ishlab chiqariladigan performativ obraz sifatida namoyon bo'ladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat subyektivlikni o'zgaruvchan, ko'p qirrali va vaziyatga bog'liq jarayon sifatida talqin qilishga olib kelmoqda. Shu jihatdan, raqamli identifikatsiya insonning o'zini anglash jarayonini yanada murakkablashtirib, an'anaviy barqaror identitet konsepsiyasini shubha ostiga qo'yadi.

Virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya zamonaviy falsafiy tahlilda shaxs, ong va jamiyatning yangi ko'rinishlarini anglash uchun muhim tushunchalardir. Raqamli makonda shakllanayotgan ijtimoiy birliklar insonning subyektivlik tajribasini qayta belgilab, kollektiv ongning yangi darajalarini yuzaga chiqarmoqda. Mark Posterning fikricha, "raqamli kommunikatsiya sharoitida subyekt o'zining markaziylikni yo'qotib, doimiy ravishda qayta ishlab chiqariladigan tarmoq tuguniga aylanadi" [9: 78]. Bu yondashuv shaxsiy identitetning barqarorlikdan ko'ra suyuqlikka, qat'iylikdan ko'ra doimiy rekonstruksiya jarayoniga moyilligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli identifikatsiya subyektivlikning falsafiy talqinida yaxlitlik emas, balki ko'p qirrali va kontekstual o'zini anglash sifatida namoyon bo'lmoqda.

Virtual jamoalar o'z navbatida kollektiv ongning yangi shakllarini shakllantiradi. Manuel Castells bu jarayonni "tarmoq jamiyati ijtimoiy tuzilmalarni ma'lumot oqimlari orqali qayta ishlab, birdamlikning yangi mexanizmlarini yaratadi" deb talqin etadi [10: 15]. Bu fikr ijtimoiy muvofiqlashuvning endilikda markazlashgan institutlar emas, balki tarmoq asosidagi kooperatsiya va algoritmik boshqaruv orqali yuzaga chiqayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kollektiv ongning bunday shakllanishi ambivalent xususiyatga ega: bir tomondan, bilim va qadriyatlarning tezkor almashinuvi orqali umumiy birdamlikni mustahkamlaydi, boshqa tomondan esa, segmentatsiya va filtr pufakchalari orqali bo'linishni chuqurlashtiradi.

Virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlilda insonning subyektivligi, kollektiv ong va ijtimoiy muvofiqlashuvining yangi shakllarini ochib beruvchi muhim konseptlar sifatida shakllandi. Raqamli makonda shakllanayotgan subyektivlikni Zizi Papacharissi "raqamli identitet performativ xarakterga ega bo'lib, u doimiy ravishda platformalar, algoritmlar va ijtimoiy kutilmalar orqali qayta ishlab chiqariladi" deya izohlaydi [11: 152]. Ushbu yondashuv shaxsiy identitetning endi qat'iy va barqaror bo'lmay, balki raqamli aloqalarning ko'p qirraliligiga asoslangan dinamik konstrukt sifatida namoyon bo'lishini anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon insonning o'zini anglash doirasini kengaytirsa-da, uning yaxlitligini zaiflashtirib, fragmentatsiyalash xavfini ham keltirib chiqarmoqda.

Ijtimoiy muvofiqlashuvning yangi shakllari esa virtual jamoalarning murakkab tuzilmasida namoyon bo'ladi. Clay Shirky "raqamli platformalar koordinatsiya xarajatlarini pasaytirib, jamoaviy harakatlarning yangi ko'lamini yuzaga chiqaradi" deya qayd etadi [12: 54]. Bu shuni anglatadiki, muvofiqlashuv endilikda davlat yoki an'anaviy tashkilotlarning qat'iy regulyatsiyasidan ko'ra ko'proq tarmoq asosida va o'zini-o'zi boshqaruvchi mexanizmlar orqali shakllanmoqda. Falsafiy tahlilda esa bu jarayon erkinlik va nazorat, birdamlik va fragmentatsiya, shaxsiy ifoda va jamoaviy konformizm o'rtasidagi dialektikani keskinlashtirmoqda.

Shunday qilib, virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya ijtimoiy mavjudlikning yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Subyektivlik endilikda ko'p qatlamli va vaziyatga bog'liq, kollektiv ong tasavvuriy va bir vaqtning o'zida standartlashtiruvchi, ijtimoiy muvofiqlashuv esa algoritmik va o'zini-o'zi boshqaruvchi shaklga ega. Bu esa insoniyatning klassik ijtimoiy institutlarga oid tasavvurlarini yangidan falsafiy talqin qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya jarayonlari vaqt va samaradorlik yo'nalishda katta imkoniyatlarni keltirib chiqarishi bilan birgalikda insonlar oldiga ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq ko'plab falsafiy savollarni o'rtaga tashlamoqda. Shunday qilib, virtual jamoalar va raqamli identifikatsiya ijtimoiy mavjudlikning yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Subyektivlik endilikda ko'p qatlamli va vaziyatga bog'liq, kollektiv ong tasavvuriy va bir vaqtning o'zida standartlashtiruvchi, ijtimoiy muvofiqlashuv esa algoritmik va o'zini-o'zi boshqaruvchi shaklga ega. Bu esa insoniyatning klassik ijtimoiy institutlarga oid tasavvurlarini yangidan falsafiy talqin qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. G'ulomov Sh.M. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). – Namangan: NamDU, 2025. – 123 b. (B. 12–17).

2. Sadullayeva M.A. Raqamlar mohiyatining tarixiy-falsafiy tahlili. – Buxoro: NDPI, 2024. – 141 b. (B. 14–16).
3. Yadgarova L.Dj. Technologik yutuqlar va uning oqibatlari. // Inter education & global study. – 2025. – №4. – B. 138–144.
4. Ермолаев И.Г. Междисциплинарный подход к изучению цифровой среды. – М.: Университетская книга, 2020. – 156 с. (С. 70).
5. Rheingold H. The Virtual Community: Homesteading on the Electronic Frontier. Reading, MA: Addison-Wesley, 1993. – B. 57.
6. Turkle S. Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. New York: Simon & Schuster, 1995. – B. 178.
7. Lévy P. Collective Intelligence: Mankind's Emerging World in Cyberspace. New York: Plenum, 1997. – B. 13.
8. Donath J. Identity and Deception in the Virtual Community. In: Smith M., Kollock P. (eds.). Communities in Cyberspace. Routledge, 1999. – B. 42.
9. Poster M. The Second Media Age. Cambridge: Polity Press, 1995. – B. 78.
10. Castells M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society. Oxford: Oxford University Press, 2000. – B. 15.
11. Papacharissi Z. A Private Sphere: Democracy in a Digital Age. Cambridge: Polity Press, 2010. – B. 152.
12. Shirky C. Here Comes Everybody: The Power of Organizing Without Organizations. New York: Penguin Press, 2008. – B. 54.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE ISSUE OF SELF IN THE TEACHINGS OF ABU SA'D ABDULMALIK IBN MUHAMMAD AL-KHARGUSHY AN-NISHAPURI**

**Yakubov Azimjon Akmalovich**

Bukhara State University,

PhD student of the Department of Islamic History and Source Studies

**Abstract.** This article analyzes the concept of the nafs in the teachings of the famous Sufi scholar Abu Sa'd Abdumalik ibn Muhammad al-Khargushi al-Nishapuri. Based on his work "Tahzib al-Asrar", the study examines the discipline of the self, the control of desires and the role of sincerity in spiritual purification.

**Keywords:** Sufism, nafs, desires, spiritual purification, sincerity, al-Khargushi.

## **ABU SA'D ABDULMALIK IBN MUHAMMAD AL-XARGUSHIY AN-NISHOPURIY TA'LIMOTIDA NAFS MASALASI**

**Yakubov Azimjon Akmalovich**

Buxoro davlat universiteti,

Islom tarixi va manbashunosligi kafedrasida doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining yirik namoyandalaridan biri hisoblangan Abu Sa'd Abdumalik ibn Muhammad al-Xargushiy an-Nishopuriy ta'limotida nafs masalasi tahlil qilinadi. Muallifning "Tahzib al-asror" asari asosida inson ma'naviy tarbiyasi, nafsni jilovlash, shahvatlarni nazorat qilish va ixlos tushunchalarining mazmuni yoritiladi. Shuningdek, maqolada tasavvuf ta'limotida inson ma'naviy kamolotiga erishishda nafs tarbiyasining o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, nafs, shahvat, mujohada, riyozat, ixlos, ma'naviy tarbiya, al-Xargushiy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N14>

**Kirish.** Islom ma'naviy ta'limotida insonning axloqiy va ruhiy kamoloti muhim o'rin tutadi. Qur'on va hadis manbalarida inson qalbini poklash, nafsni tarbiyalash hamda shahvatlarni jilovlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1].

Tasavvuf ta'limotida ushbu masalalar yanada chuqurroq tahlil qilingan bo'lib, tasavvuf ulamolari insonning ma'naviy yuksalishi nafs bilan kurash orqali amalga oshishini ta'kidlaydilar. Shu sababli tasavvuf manbalarida nafs tushunchasi insonning ichki dunyosiga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi [2].

Tasavvuf tarixida nafs tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratgan mutafakkirlardan biri Abu Sa'd Abdumalik ibn Muhammad al-Xargushiy an-Nishopuriy hisoblanadi. U hijriy IV-V asrlarda yashagan mashhur tasavvuf olimlaridan biri bo'lib, uning ilmiy merosi tasavvuf tarixini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi [3].

Al-Xargushiyning eng mashhur asarlaridan biri "Tahzib al-asror" hisoblanadi. Ushbu asarda inson ma'naviy kamoloti, nafsni jilovlash va ruhiy poklanish masalalari keng yoritilgan.

Muallif insonning ma'naviy yuksalishi nafs havosiga qarshi kurashish orqali amalga oshishini ta'kidlaydi [4].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Islom tasavvufi tarixida nafs masalasi markaziy mavzulardan biri bo'lib, bu masala Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflar hamda mutasavvif olimlar asarlarida chuqur yoritilgan. Ayniqsa, hijriy IV–V asrlarda yashab ijod qilgan yirik muhaddis va tasavvuf namoyandasi Abu Sa'd Abdulmalik ibn Muhammad al-Xargushiyning ta'limotida nafsni tarbiyalash va poklash masalasi alohida o'rin egallaydi.

Al-Xargushiyning tasavvufiy qarashlari, avvalo, Qur'on va sunnatga qat'iy tayanishi bilan ajralib turadi. U nafsni insonni ma'naviy kamolotdan to'suvchi asosiy ichki omil sifatida baholaydi hamda uni tarbiya qilishni solikning eng muhim vazifasi deb biladi. Uning qarashlari "riyozat", "mujohada", "tazkiyat an-nafs" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq holda bayon etilgan.

Mazkur mavzu doirasida al-Xargushiyning tasavvufiy merosi haqida klassik manbalarda muhim ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Abu Abdurahmon as-Sulamiyning tasavvuf ahli tarjimai hollariga bag'ishlangan asarlari, Abul Qosim al-Qushayriyning "Risola"si, shuningdek, Imom G'azzoliyning nafs va axloq masalalariga oid qarashlari al-Xargushiy ta'limotini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa nafs masalasi ko'proq umumiy tasavvufiy konsepsiyalar doirasida o'rganilgan bo'lib, al-Xargushiyning qarashlari aksariyat hollarda boshqa mutasavviflar ta'limoti bilan qiyosiy tarzda yoritiladi. Biroq uning nafs haqidagi qarashlarini mustaqil, tizimli va manbaviy tahlil qilish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: Tarixiy-tahliliy metod – al-Xargushiyning yashagan davri, ilmiy-madaniy muhiti hamda tasavvuf taraqqiyotidagi o'rnini aniqlashda qo'llanildi. Manbashunoslik metodi – mutasavvifning asarlari va u haqidagi klassik manbalardagi ma'lumotlarni tahlil qilishda foydalanildi. Mantiqiy-tahliliy metod – nafs tushunchasining mazmuni, uning bosqichlari va tarbiyalash usullarini tizimlashtirishda qo'llandi. Qiyosiy metod – al-Xargushiyning nafs haqidagi qarashlarini boshqa tasavvuf namoyandalarining (Imom G'azzoliy, Qushayriy va boshqalar) ta'limoti bilan solishtirish orqali umumiy va xos jihatlarni aniqlash maqsadida ishlatildi. Germenevtik metod – tasavvufiy matnlarning botiniy ma'nolarini talqin qilish va ularning ma'naviy-axloqiy mohiyatini ochib berishda qo'llanildi. Mazkur metodlar majmui al-Xargushiy ta'limotida nafs masalasining mohiyatini ilmiy asosda yoritish, uning tasavvuf tarixidagi ahamiyatini aniqlash hamda zamonaviy ma'naviy tarbiya bilan bog'liq jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

**Natijalar va muhokama.** Tasavvuf ta'limotida nafs insonning ichki dunyosidagi eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Nafs insonning xohish-istaklari, shahvatlari va dunyoviy lazzatlarga bo'lgan intilishlarini ifodalaydi. Shu sababli tasavvuf ulamolari insonning ma'naviy kamolotga erishishida nafsni tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat berganlar [5]. Tasavvuf manbalarida nafs insonning ma'naviy taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Agar inson o'z nafsini nazorat qilmasa, u dunyoviy manfaatlarga ortiqcha berilib ketishi mumkin. Shu sababli tasavvuf ulamolari insonning ma'naviy kamoloti uchun nafsni nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydilar [6]. Al-Xargushiy ham shu fikrni davom ettirib, inson qalbi shahvatlar ta'siri ostida qolsa, u ma'naviy yuksalishdan uzoqlashishini qayd etadi. Uning fikricha, inson qalbini poklash uchun avvalo nafsni tarbiyalash zarur.

Tasavvuf ta'limotida insonning ichki dunyosini poklash jarayonida nafs bilan kurash masalasi alohida o'rin egallaydi. Tasavvuf ulamolarining fikricha, insonning ma'naviy kamolotga erishishi nafsni nazorat qilish va uning shahvatlarini jilovlash bilan chambarchas bog'liqdir [7]. Nafs insonni dunyoviy manfaatlarga, lazzatlarga va vaqtinchalik zavqlarga moyil qiladi. Agar inson ushbu istaklarga cheksiz ravishda ergasha, u asta-sekin ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashib boradi. Shu sababli tasavvuf ta'limotida shahvatni nazorat qilish insonning ruhiy poklanishida muhim omil sifatida talqin qilinadi [8].

Al-Xargushiy o'zining "Tahzib al-asror" asarida inson qalbining pokligi nafs havosiga qarshi kurash bilan bog'liq ekanini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson qalbida dunyoviy istaklar kuchaygan sari u haqiqatni anglashdan uzoqlashadi. Shu sababli inson o'z shahvatlarini doimo nazorat qilishi zarur [4].

Tasavvuf adabiyotida nafs bilan kurash mujohada tushunchasi orqali ifodalanadi. Mujohada insonning o'z nafs, shahvatlari va dunyoviy istaklari bilan olib boradigan ichki kurashini anglatadi. Bu jarayon insonning ruhiy tarbiyasida muhim bosqich hisoblanadi [9]. Tasavvuf ulamolari mujohadani insonning ichki jihodi sifatida ham talqin qilganlar. Ya'ni inson o'z nafs ustidan g'alaba qozonishi orqali ma'naviy poklanishga erishadi. Bu jarayon insondan sabr, iroda va qat'iyat talab qiladi.

Al-Xargushiy ta'limotiga ko'ra, inson nafsini nazorat qila olsa, uning qalbi poklanadi va u haqiqatni anglashga yaqinlashadi. Aks holda, inson nafs havosiga ergashib, ma'naviy kamolotdan uzoqlashadi.

**Nafs tarbiyasi usullari.** Tasavvuf ta'limotida nafsni tarbiyalash uchun bir qator amaliy usullar tavsiya etilgan. Ushbu usullar insonning ruhiy poklanishiga va ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Al-Xargushiy ta'limotida nafsni tarbiyalashning eng muhim vositalaridan biri riyozat hisoblanadi. Riyozat insonning shahvatlarini kamaytirish, ortiqcha lazzatlardan voz kechish va dunyoviy manfaatlarga ortiqcha berilmaslik orqali amalga oshiriladi [10].

Tasavvuf ulamolarining fikricha, riyozat insonning ichki dunyosini poklashga yordam beradi. Inson o'z nafsini nazorat qilish orqali ruhiy jihatdan mustahkamlanadi va ma'naviy kamolot sari qadam qo'yadi. Shuningdek, tasavvuf ta'limotida ushbu amallar ham nafs tarbiyasida muhim hisoblanadi: zikr, tafakkur, sabr, uzlat va taqvo. Ushbu amallar inson qalbini dunyoviy g'aflatdan poklab, uni ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Shu sababli tasavvuf ulamolari ushbu amallarni inson ruhiy tarbiyasining muhim vositalari sifatida ta'kidlaydilar [11].

Al-Xargushiy ham insonning ma'naviy kamolotga erishishi uchun ushbu amallarni muntazam ravishda bajarish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson qalbini poklash jarayoni doimiy ruhiy mehnatni talab qiladi.

**Tasavvuf ulamolari qarashlari va ilmiy tahlil.** Tasavvuf tarixida ko'plab ulamolar nafs masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, insonning ma'naviy kamoloti uning ichki dunyosini poklash va nafs ustidan nazorat o'rnatish bilan bog'liqdir [3].

Mashhur tasavvuf olimlaridan biri Abdulkarim al-Qushayriy o'zining "Ar-Risala al-Qushayriyya" asarida nafs insonni dunyoviy manfaatlarga moyil qiluvchi asosiy omillardan biri ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson nafsini nazorat qilmasa, u doimo shahvat va dunyoviy istaklarga ergashib ketadi [7]. Shuningdek, Abu Homid al-G'azzoliy ham nafs tarbiyasi masalasiga katta e'tibor qaratgan mutafakkirlardan biridir. U o'zining mashhur "Ihyo ulum ad-

din” asarida inson qalbining poklanishi nafsni jilovlash orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. G’azzoliy insonning ma’naviy yuksalishi uchun shahvatlarni cheklash va qalbni poklash zarurligini alohida qayd etadi [5].

Tasavvuf tarixini o’rganishga bag’ishlangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham nafs tarbiyasi inson ma’naviy kamolotining muhim omili sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning fikricha, tasavvuf ta’limotida nafsni tarbiyalash insonning ruhiy kamolotga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Al-Xargushiy ta’limoti ham ushbu tasavvufiy an’ana bilan uyg’un holda rivojlangan. Uning qarashlariga ko’ra, insonning eng katta dushmani uning nafsini hisoblanadi. Agar inson o’z nafsini nazorat qila olsa, u axloqiy va ruhiy jihatdan yuksaladi.

**Al-Xargushiy ta’limotining ilmiy ahamiyati.** Al-Xargushiy merosi tasavvuf ta’limoti tarixida muhim o’rin egallaydi. Uning “Tahzib al-asror” asari tasavvufiy axloq va ruhiy tarbiya masalalarini o’rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi [2]. Mazkur asarda insonning ichki dunyosini poklash, nafsni jilovlash va ruhiy kamolotga erishish masalalari keng yoritilgan. Al-Xargushiy insonning axloqiy kamoloti uning nafsini nazorat qila olish darajasi bilan belgilanadi, deb hisoblaydi [9]. Shuningdek, Al-Xargushiy ta’limotida nafs tarbiyasining amaliy jihatlari ham alohida e’tibor qaratiladi. U inson nafsini tarbiyalash uchun riyozat, sabr, zikr va tafakkur kabi amallarni muhim vositalar sifatida ko’rsatadi. Ushbu amallar inson qalbini poklab, uni ma’naviy kamolot sari yetaklaydi. Shu sababli tasavvuf ulamolari ham insonning ma’naviy tarbiyasida ushbu amallar muhim o’rin tutishini ta’kidlaganlar [10].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham Al-Xargushiy merosi tasavvuf falsafasining muhim manbalaridan biri sifatida baholanadi. Uning qarashlari tasavvuf tarixini o’rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega [11].

**Xulosa.** Abu Sa’d Abdulmalik ibn Muhammad al-Xargushiy an-Nishopuriy tasavvuf ta’limoti tarixida muhim o’rin egallagan mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy merosi inson ma’naviy kamoloti, nafs tarbiyasi va ruhiy poklanish masalalarini o’rganishda muhim ahamiyatga ega.

Al-Xargushiy ta’limotiga ko’ra, insonning eng katta dushmani uning nafsini hisoblanadi. Agar inson nafs havosiga ergasha, u ma’naviy kamolotdan uzoqlashadi. Aksincha, agar inson o’z nafsini nazorat qila olsa, u axloqiy va ruhiy jihatdan yuksaladi.

Muallif insonning ma’naviy kamolotga erishishi uchun shahvatlarni jilovlash, nafs bilan kurashish va ixlos bilan amal qilish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u nafs tarbiyasida riyozat, sabr, zikr va tafakkur muhim o’rin tutishini qayd etadi. Shu jihatdan qaraganda, Al-Xargushiy ta’limoti tasavvuf falsafasida inson ma’naviy tarbiyasi masalalarini o’rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Qur’on ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: O’zbekiston musulmonlari idorasi nashriyoti, 2019.
2. Al-Xargushiy A. Tahzib al-asror. Qo’lyozma manba.
3. Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. – Chapel Hill, 1975.
4. Knysh A. Islamic Mysticism: A Short History. – Leiden, 2010.
5. Al-G’azzoliy A. Ihyo ulum ad-din. – Bayrut, 2005.
6. Nicholson R. The Mystics of Islam. – London, 2002.
7. Al-Qushayriy A. Ar-Risala al-Qushayriyya. – Qohira, 2002.
8. Trimmingham J. The Sufi Orders in Islam. – Oxford, 1998.

9. Arberry A. Sufism. – London, 2008.
10. Zahabiy Sh. Siyar a'lam an-nubala. – Bayrut, 1993.
11. Subki T. Tabaqat ash-shafi'iyya al-kubra. – Bayrut, 1999.
12. Ibn Asakir. Tarix Dimashq. – Bayrut, 1995.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **SOCIO-PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL ISSUES OF RESEARCHING MUSEUM ACTIVITIES**

**Ashurova Mahbuba Akhtamovna**

Curatorial Officer of the Museum of Memory of the Victims of Katagon under the Bukhara State University

**Abstract.** This article analyzes socio-philosophical and methodological issues of researching museum activities based on a comprehensive approach. The study reveals the role of the museum institution in the socio-cultural system of society, its functional significance in the formation of historical memory, strengthening national identity and transmitting spiritual values. The museum phenomenon as a socio-philosophical category is covered in its interrelation with cultural heritage, communicative space, social memory and axiological system. The methodological foundations of museology are also scientifically substantiated from the point of view of systemic, civilizational, axiological, phenomenological and institutional approaches. The article also analyzes the transformation of museums in the context of globalization, digitization processes and the introduction of interactive communication tools. The results of the study serve to provide a deeper socio-philosophical understanding of the activities of museums and to clarify their strategic role in modern society.

**Keywords:** museum, social memory, cultural heritage, identification, axiology, methodology, globalization, digitization.

## **MUZEYLAR FAOLIYATINI TADQIQ ETISHNING IJTIMOY-FALSAFIY HAMDA METODOLOGIK MASALALARI**

**Ashurova Mahbuba Axtamovna**

Buxoro Davlat Universiteti tuzilmasidagi  
Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fond saqlovchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muzeylar faoliyatini tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy hamda metodologik masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda muzey institutining jamiyat ijtimoiy-madaniy tizimidagi o'rnini, uning tarixiy xotirani shakllantirish, milliy identifikatsiyani mustahkamlash va ma'naviy qadriyatlarini uzatishdagi funksional ahamiyati ochib beriladi. Muzey fenomeni ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida madaniy meros, kommunikativ makon, ijtimoiy xotira va aksiologik tizim bilan o'zaro bog'liqlikda yoritiladi. Shuningdek, muzeyshunoslikning metodologik asoslari — tizimli, sivilizatsion, aksiologik, fenomenologik va institutsional yondashuvlar nuqtai nazaridan ilmiy asoslanadi. Maqolada globallashtirish sharoitida muzeylar transformatsiyasi, raqamlashtirish jarayonlari va interaktiv kommunikatsiya vositalarining joriy etilishi ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari muzeylar faoliyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqurroq anglash hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi strategik rolini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** muzey, ijtimoiy xotira, madaniy meros, identifikatsiya, aksiologiya, metodologiya, globallashtirish, raqamlashtirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N15>

Muzeylar faoliyatini tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy va metodologik asoslari zamonaviy gumanitar va ijtimoiy fanlar tizimida muhim nazariy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida madaniy merosni saqlash, uni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda

muzeylar institutining o'rnini yanada ortib bormoqda. Bu muzeylar faoliyatini faqat madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy jarayonlarning muhim subyekti sifatida tadqiq etish zaruriyatini chiqarmoqda.

Ma'lumki, falsafiy nuqtai nazardan muzey jamiyat xotirasi, tarixiy tajribaning moddiylashgan ifodasi va madaniy ma'nolarni avloddan-avlodga yetkazuvchi ma'naviy makon sifatida talqin qilinadi. Muzey bu shunchaki eksponatlar jamlanmasi emas, balki inson sivilizatsiyasining ma'naviy tajribasini qayta talqin qilish, o'tmish va bugun o'rtasida ma'naviy muloqotni ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy institutdir. Shu ma'noda, muzeylarni tadqiq etish ijtimoiy ong, tarixiy xotira, milliy identifikatsiya va madaniy merosni saqlash kabi fundamental falsafiy kategoriyalar bilan uzviy bog'liqdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bashariyat faxri bo'lgan buyuk shaharlar, me'moriy obidalar, tarixiy va arxeologik yodgorliklar, minglab muzeylardagi nodir eksponatlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Hammamizga ayonki, xalq amaliy san'ati – bu avvalo, tabiat bilan uyg'un bo'lib, tabiatdan zavq va ilhom olib,-betakror ijod namunasini yaratishdir [1].

Ijtimoiy-falsafiy yondashuv muzey faoliyatini jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, qadriyatlar tizimi va madaniy siyosat bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Jamiyatning har bir tarixi bosqichida muzeylar muayyan ideallar, ijtimoiy ehtiyojlar va mafkuraviy maqsadlar bilan uyg'un holda faoliyat yuritgan. Masalan, klassik Yevropa muzeylari avvalo ma'rifatparvarlik g'oyalari ta'sirida shakllangan bo'lib, ularning asosiy vazifasi ilm-fanni ommalashtirish, tarixiy bilimlarni targ'ib qilish va fuqarolarda estetik didni rivojlantirishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik milliy davlatlar shakllanishi bilan muzeylar milliy tarix va milliy o'zlikni mustahkamlash vositasiga aylandi [2].

Yangi O'zbekiston sharoitida muzeylar faoliyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish milliy tiklanish, madaniy merosni qayta baholash va jamiyat ma'naviy qiyofasini mustahkamlash vazifalari bilan bevosita bog'liqdir. Prezident farmonlari va davlat dasturlarida muzeylarni rivojlantirish, ularni zamonaviy innovatsion shakllarda qayta tashkil etish, raqamlashtirish va xalqaro madaniy makonga integratsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa muzeylarni nafaqat tarixiy yodgorliklarni saqlovchi muassasa, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi [3], madaniy taraqqiyotni rag'batlantiruvchi va fuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlovchi strategik institut sifatida qayta talqin qilishni taqozo etadi [4].

### **Metodologik jihatdan muzeylar faoliyatini tadqiq etishda o'ziga xos yondashuvlar:**

Birinchi, tarixiy yondashuv muzeylarning shakllanishi, rivojlanishi va funktsiyalarining evolyutsiyasini tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchi, madaniy-antropologik yondashuv muzeyni insonning madaniy ehtiyojlari, qadriyatlari va ma'naviy tajribasi bilan bog'liq holda o'rganadi.

Uchinchi, sotsiologik yondashuv muzeylarning jamiyatdagi ijtimoiy roli, aholi turli qatlamlariga ta'siri, ijtimoiy integratsiya va kommunikatsiyadagi vazifalarini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Falsafiy metodologiya muzeylarni ma'no yaratish, ma'naviy tajribani qayta ishlash va madaniy ramzlarni talqin qilish makoni sifatida ko'rib chiqadi. Bu yerda germeenvtik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki muzey eksponatlari faqat moddiy buyumlar emas, balki muayyan tarixiy va madaniy ma'nolarni o'z ichiga olgan belgilar tizimidir. Shu bois muzey faoliyatini tadqiq qilishda eksponatlarning semantik mazmuni, ularning ijtimoiy xotiradagi o'rni va ma'naviy ta'siri ham hisobga olinishi lozim [5].

Zamonaviy muzeyshunoslikda kommunikatsion yondashuv ham keng qo'llanilmoqda. Muzeylar bugungi kunda passiv ko'rgazma makoni emas, balki tashrif buyuruvchi bilan faol muloqot o'rnatuvchi, interaktiv ta'limiy va madaniy platformaga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, muzeylarni tadqiq etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli, raqamli ekspozitsiyalar, virtual muzeylar va multimedia vositalarining ijtimoiy ta'siri ham muhim metodologik masala sifatida qaraladi [6].

Ijtimoiy-falsafiy tahlil muzey faoliyatini inson shaxsini shakllantirish jarayoni bilan ham bog'laydi. Muzeylar fuqarolarda tarixiy ong, milliy iftixor, estetik did va ma'naviy mas'uliyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida muzeylarning ahamiyati katta bo'lib, ular orqali o'quvchilar va talabalarda vatanparvarlik, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat tuyg'ulari shakllanadi. Bu jarayonda muzey pedagogikasi, ma'naviy-ma'rifiy dasturlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Muzeylarni tadqiq etishda sivilizatsion yondashuv ham dolzarb hisoblanadi. Turli sivilizatsiyalar muzey institutiga turlicha mazmun va vazifalar yuklagan. Masalan, Sharq mamlakatlarida muzeylar ko'proq ma'naviy an'analarni saqlash va diniy-ma'rifiy merosni targ'ib qilish vazifasini bajargan bo'lsa, G'arbda muzeylar ilm-fan, estetika va milliy davlatchilik g'oyalarini mustahkamlash vositasi sifatida rivojlangan. Yangi O'zbekistonda esa muzeylar milliy an'analar, islom sivilizatsiyasi merosi, zamonaviy davlatchilik va global madaniy jarayonlar uyg'unligida shakllanib bormoqda.

Metodologik nuqtai nazardan tizimli yondashuv muzeylarni yagona ijtimoiy-madaniy tizimning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu yondashuvga ko'ra, muzey

faoliyati ta'lim, fan, turizm, madaniy siyosat va ijtimoiy kommunikatsiya sohalari bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Masalan, turizm sohasining rivojlanishi muzeylarga bo'lgan qiziqishni oshiradi, muzeylar esa o'z navbatida mamlakatning madaniy imijini mustahkamlaydi va iqtisodiy taraqqiyotga ham hissa qo'shadi. Muzeylarni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishda qiyosiy-tahliliy metod ham muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Bu metod turli mamlakatlar muzeylarining faoliyatini taqqoslash, ularning boshqaruv tizimi, ekspozitsiya siyosati, moliyalashtirish mexanizmlari va ijtimoiy ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida muzeylarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususiy sektor ishtirokini ta'minlash va jamoatchilikni jalb etish borasida turlicha modellar mavjud bo'lib, ularni o'rganish milliy muzeylar faoliyatini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muzeylar faoliyatini tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy va metodologik asoslari muzeylarni jamiyat ma'naviy hayotining muhim instituti sifatida chuqur anglash, ularning tarixiy, madaniy va ijtimoiy funksiyalarini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Bu jarayonda falsafiy tafakkur, ilmiy metodologiya va amaliy tajriba o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi lozim. Muzeylar faoliyatini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishda yana bir muhim masala ularning ma'naviy qimmatini va madaniy ma'no yaratish jarayonidagi o'rnini aniqlashdan iboratdir [8].

Muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlaydi, balki ular orqali jamiyatda muayyan qadriyatlar tizimini shakllantiradi, milliy g'oya va ma'naviy me'yorlarni mustahkamlaydi. Shu ma'noda, muzeylarni ma'naviy kommunikatsiya maydoni, madaniy dialog platformasi va ijtimoiy xotira instituti sifatida tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil muzeylarning inson tafakkuri va ijtimoiy ongga ta'sirini ham qamrab oladi. Inson muzey muhitida nafaqat ma'lumot oladi, balki o'zining tarixga, madaniyatga va milliy o'zligiga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqadi. Bu jarayon shaxsiy va jamoaviy identifikatsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Muzeyda namoyon etilgan tarixiy voqealar, buyumlar va madaniy artefaktlar insonning o'tmish haqidagi tasavvurini boyitib, uning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi.

Metodologik jihatdan muzeylarni tadqiq etishda interdisciplinar yondashuv alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda muzeyshunoslik falsafa, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika va axborot texnologiyalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Bu yondashuv muzey faoliyatini bir tomonlama emas, balki ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi. Masalan, psixologik tahlil tashrif buyuruvchilarning muzey ekspozitsiyalarini qabul qilish xususiyatlarini o'rgansa, pedagogik yondashuv muzeylarning ta'lim-tarbiyadagi imkoniyatlarini ochib beradi [9].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muzey pedagogikasi muzey faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda muhim metodologik yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. U muzeylarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, o'quvchilar va talabalar uchun interaktiv ta'limiy dasturlar ishlab chiqish, muzey ekspozitsiyalari asosida ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, muzeylar bilim berish bilan birga, shaxs ma'naviyatini kamol toptirish, estetik didni shakllantirish va madaniy ongni rivojlantirish vazifasini ham bajaradi [10].

Yangi O'zbekistonda muzeylar faoliyatini metodologik jihatdan takomillashtirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Mamlakatimizda muzeylarni modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va

xalqaro muzeylar bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa muzeylarning faqat an'anaviy ko'rgazma makoni sifatida emas, balki zamonaviy madaniy va ta'limiy markaz sifatida faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda.

#### **Adabiyotlar / Литература / References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimiz 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi. – 2017. 16 yanvar.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2017. 23 dek.
4. Almeyev R. Muzey jamg'armalarini optimallashtirish, saqlash va ko'rgazmalashtirish // Moziydan sado. –Toshkent, 2008. - № 2(38). – B. 2-3.
5. Алаков Б. Музейларда инновацияларнинг жорий этилиши аҳамияти // Фан соҳасида инновациялар: назария ва амалиёт. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Факултетлараро Ўзбекистон тарихи кафедраси илмий-амалий анжумани материаллари.- Тошкент, 2011.
6. Артаманов А.А., Музалевская И.М. Музейные образовательные ресурсы и ресурсы по культуре в Интернет: обзор, типология. Особенности, перспективы. // Тезиси доклада на VIII-конференции представителей региональных научно-образовательных сетей «РЕЛАРН-2001».
7. Бабенко, В. Электронные музеи. Источники электронных экспозиций // ИНТЕРНЕТ: культура и образование. - Москва: Изд-во СПбГАК, 1998. – С. 62.
8. Будко А. Модернизация. Схематизация опыта. // Мир музея. - Москва, 2010. - №12 (280). – С. 34.
9. Бичкова Л.С. Техника и современное музейное дело // Музейеведение. Искусство музейной экспозиции и технической оснащение музеев: Сб. науч. тр. НИИ культуры.- Москва, 1985. - № 139. – С. 78.
10. Еременко Е.Д. Виртуальная реальность как феномен науки, техники и культуры // Доклады Всероссийской симпозиума. – Санкт-Петербург: 1995. – С. 85.
11. Zoitov T. Muzeylar –tariximiz ko'zgusi // Moziydan sado. – Toshkent, 2000. - №1-2 (56). – B. 22-25.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF NEIGHBORHOOD DEVELOPMENT IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION**

**Mamadaliyev Husanboy Yigitali o'g'li**

University of Economics and Pedagogy

Assistant, Department of Social and Humanities

**Abstract.** This article extensively covers national values, educational processes, social solidarity, spiritual and educational activities implemented at the mahalla institute, the main sources for raising children's morals, local traditions, social assistance provided by the mahalla, education of children from needy families by local activists, and opinions and comments on customs.

**Keywords:** development, national values, social solidarity, customs, traditions, upbringing, morality, social assistance.

---

## **MAHALLA RIVOJLANISHINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI ROLI**

**Mamadaliyev Husanboy Yigitali o'g'li**

Iqtisod va pedagogika universiteti

Ijtimoiy – Gumanitar fanlar kafedraasi assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy qadriyatlar, tarbiyaviy jarayonlar, ijtimoiy birdamlik, mahalla institutida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, bolalarni axloqini, tarbiyalashda asosiy manbalar, mahalliy an'analar, mahalla tomonidan ijtimoiy yordamlar ko'rsatilishi, mahalliy faollar tomonidan ehtiyojmand oilalarning bolalari ta'lim olishi, urf-odatlar haqidagi fikr va mulohazalar keng tarzda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** rivojlanish, milliy qadriyatlar, ijtimoiy birdamlik, urf odatlar, an'analar, tarbiya, axloq, ijtimoiy yordam.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N16>

**Kirish.** Mahalla – jamiyatning asosiy ijtimoiy tuzilmalaridan biri bo'lib, milliy qadriyatlarni asrash, odamlar o'rtasida birdamlik va hamjihatlikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bolalar rivojlanishida mahallar instituti tarbiyaviy, ijtimoiy va ma'naviy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Mahalla bolani nafaqat oila muhitidan tashqaridagi ijtimoiy muhit bilan tanishtiradi, balki uning shaxsiyati shakllanishida ko'mak beradi.

O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishida mahalla institutining o'ziga xos o'ri bor. U qadimdan xalqimizning turmush tarziga singib ketgan va ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Mahalla – nafaqat yashash hududi, balki o'zining o'ziga xos ma'naviy va ijtimoiy mohiyati bilan jamiyatning barqarorligi, uyg'unligi va taraqqiyoti uchun zarur tizim hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'naviy tarbiya va qadriyatlarni singdirish. Bolalarning axloqiy rivojlanishida mahalla muhitining o'ri beqiyosidir. Mahalla tadbirlari, masalan, bayramlar, hasharlar, turli jamoaviy uchrashuvlar va marosimlar orqali bolalar ezgulik, hurmat va mehr-muhabbat kabi fazilatlarni o'zlashtiradi. Mahalla oqsoqollarining donishmandligi va

tajribasi bolalar uchun hayot maktabi vazifasini bajaradi. Bu orqali bola o'z xalqining tarixini, madaniyati va qadriyatlarini anglay boshlaydi

**Asosiy qism.** Ijtimoiylashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish Mahalla bolalarining ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlaydigan muhim makondir. Bu yerda bola o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishni, jamoada o'z o'rnini topishni o'rganadi. Turli sport musobaqalari, madaniy va ilmiy to'garaklar bolalarda nafaqat jismoniy sog'lomlikni, balki jamoaviylik, liderlik va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya. Mahalla fuqarolar yig'ini ehtiyojmand oilalar va bolalarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Bolalarning ta'lim olishi, sog'lom va muhitda yashashi mahalla faollarini diqqat markazida bo'ladi. Ayniqsa, ota-onasi yo'q yoki qiyin sharoitda yashayotgan bolalar uchun mahalla xavfsiz va qo'llab-qavatlovchi makon bo'lib xizmat qiladi. Milliy va madaniy merosni avlodlarga yetkazish mahallada tashkil etiladigan tadbirlar, masalan, Navro'z bayrami, Qurbon hayiti va boshqa milliy marosimlar bolalarni o'z milliy qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatadi. Shu tariqa, mahalla bolaning nafaqat ma'naviy, balki madaniy shakllanishida ham ishtirok etadi. Mahalla instituti milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bollar rivojlanishi jarayonida mahalla keng miqyosda tarbiyaviy, madaniy va ijtimoiy ko'makchi sifatida xizmat qiladi. Mahalla oila bilan yaqin aloqada bo'lib, bolani tarbiyalash jarayonida muhim ko'makchi sifatida ishtirok etadi[1; 70–71-b.].

Mahalla faollari ota-onalar bilan bolalarning ta'lim va tarbiyasi borasida maslahatlashadi, zarur hollarda ularni qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, qiyin tarbiyalanuvchi bolalar uchun maxsus tadbirlar va suhbatlar tashkil etiladi. Bu esa bola va uning oilasini ijtimoiy muhitga yaxlit integratsiya qilishga yordam beradi. Mahallada faoliyat yurituvchi ijtimoiy pedagog va psixologlar bolalarning ruhiy holatini o'rganib, ularga kerakli yordam ko'rsatadi. Masalan, ota-onasi chet elda ishlayotgan bolalar yoki notinch oilalarda yashayotgan bolalar uchun maxsus tadbirlar tashkil qilinadi. Shu bilan birga, bolalar uchun xavfsiz o'yin maydonchalari va to'garaklar yaratiladi. Mahalla bolalarning turli sohalaridagi iqtidorlarini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Mahallalarda sport musobaqalari, qo'shiq aytish, raqs va hunarmandchilik kabi tadbirlar o'tkaziladi. Ushbu tadbirlar orqali bolalar o'z qobiliyatlarini namoyon qiladi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Mahalla bolalarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha ham faoliyat yuritadi[2; 26–27-b.].

Mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan yetim yoki ehtiyojmand oilalardagi bolalar uchun maxsus qo'llab-quvvatlovchi dasturlar amalga oshiriladi. Bolalarning o'qishga bo'lgan huquqi ta'minlanadi va ta'lim olish uchun sharoit yaratiladi. Mahalla orqali bolalarda milliy qadriyatlar va diniy ma'rifatni shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bollar Navro'z, Ramazon va Qurbon hayiti kabi bayramlar orqali xalqning madaniy va diniy qadriyatlarini anglaydi. Bu ularda hurmat, bag'rikenglik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Mahalla hududida hasharlar tashkil qilish, yashil hududlarni saqlash va ko'kalamzorlashtirish ishlari orqali bolalarda ekologik tarbiya va tabiatga mehr uyg'otiladi. Bu jarayonda bolalar jamoaviy mehnat qilishni o'rganadi va tabiatni asrash mas'uliyatini anglaydi. Mahalla va ta'lim muassasalari birgalikda ishlash orqali bolalarning bilim olishiga va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Mahalla fuqarolar yig'ini o'quvchilarni nazorat qiladi, ularning darslarga muntazam qatnashishini ta'minlaydi va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishiga yordam beradi.

Mahalla, xususan, jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarning saqlanib qolishida va uning muhim ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatini kuchaytirishda katta rol o'ynaydi. Har bir hududda, ayniqsa, qishloq joylarida mahalla o'zining qadimiy an'analari, urf-odatlar bilan jamiyatni shakllantirishda katta o'rin tutadi[3; 14–15- b.].

Bugungi kunda mahalla bolalar tarbiyasida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla faqat jismoniy tarbiyani emas, balki ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy tarbiyani ham ta'minlaydi.

Mahallaning bolalar tarbiyasidagi roli nafaqat an'analarga tayangan holda, balki jamiyatdagi yangilanishlarga ham mos ravishda amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning yangicha siyosati va islohotlari, ayniqsa, mahalla tizimining rivojlanishi va yosh avlodni tarbiyalashda o'zining alohida o'rnini ko'rsatdi[4; 105–106- b.].

Mahalla – tarbiya maskani hamdir. Mahallada ulg'ayayotgan har bir bolaning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'ul hisoblanadi. Shuning uchun ham «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» kabi naqlar bejiz paydo bo'lmagan. Mahallaning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat va tarbiya qilishi barkamol insonni voyaga yetkazishning negizidir.

Shu bilan birga, mahalla institutining rivojlanishi yoshlar va bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishda, milliy qadriyatlarni, axloqiy me'yorlarni saqlashda va yangi zamon talablariga moslashishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistondagi keng qamrovli islohotlar orqali mahalla tizimi o'zining ahamiyatini yanada oshirib, jamiyatni ijtimoiy barqarorlikka erishishida munosib hissa qo'shishda davom etmoqda. Zero, O'zbekistonning barkamol va yetuk yosh avlodini tarbiyalash, yurtimizning rivojlanishiga hissa qo'shish, jamiyatdagi barcha qatlamlar bilan hamkorlikni mustahkamlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi[5; 255–256- b.].

Shu ma'noda, 2022-yil 19-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingani bejiz emas. Mazkur qaror asosida yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlari joriy etildi.

Ya'ni, yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish maqsadida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Hozirgi kunda mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular yoshlarning tarbiyasida muhim rol o'ynamoqda[6].

O'zbekiston bola huquqlarini yanada takomillashtirish maqsadida o'zining xalqaro majburiyatlariga, jumladan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq qabul qilingan majburiyatlarga sodiq bo'lib kelmoqda. Mazkur siyosatni takomillashtirishda BMT konvensiyaviy organlari, YUNISEF va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaning 2022-yil bo'lib o'tgan 91-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalari bajarilishi yuzasidan Beshinchi davriy hisobotini ko'rib chiqish yakunlari yuzasidan taklif va tavsiyalarida bolalarni tarbiyalashning ijobiy, zo'rvonliksiz va ishtirokchi shakllarini, oilada, mahallada va maktabda intizom va munosabatni o'zgartirishga ko'maklashish, shu jumladan, xabardorlikni oshirish lozimligi ta'kidlangan.

Mazkur tavsiyalarni amaliyotga tatbiq qilish maqsadida mamlakatda bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllarini bartaraf etish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda[7].

**Xulosa.** Mahalla institutining bola rivojlanishidagi o‘rni faqat tarbiya bilan cheklanmay, bolalarning har tomonlama kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu institutning faoliyatini kuchaytirish nafaqat bolalar, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir. Shu bois, mahalla instituti faoliyatini modernizatsiya qilish va uning tarbiyaviy salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Mahalla – bu nafaqat jamiyatning eng qadimiy bog‘ini balki bolani har tomonlama voyaga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega tarbiya maktabidir. Bolaning axloqi, odobi, mehr-oqibati, hamjihatlik va o‘zaro hurmat kabi insoniy fazilatlari aynan mahalla muhitida shakllanadi. Ota-ona, qo‘shnilar, oqsoqollar va mahalla faollarining birgalikdagi sa‘y-harakatlari tufayli bola o‘zligini anglaydi, el-yurtga foydali inson bo‘lib ulg‘ayadi. Shunday qilib, mahalla instituti bilan kamolotida oilada keyingi eng muhim tarbiyaviy o‘choq sifatida jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. “Mahalla: O‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy tuzilmasi” – O.M.Sharipov (2005)
2. “Bolalar tarbiyasi: Nazariy asoslar va amaliyot” – Sh.M. Yusupov (2010)
3. “Sotsial pedagogika: Tarix va nazariya” – M.A.Tursunov (2008)
4. “Mahalla va jamiyat: Ijtimoiy integratsiya va taraqqiyot”-F.A.Jalolov (2012)
5. “O‘zbekistonning ma‘naviy-madaniy qadriyatlari” – N.M.Qosimova (2016)
6. <https://sudacademy.uz/>
7. <https://adliya.uz/posts/mahallani-rivojlantirish-va-jamiyatni-yuksaltirish>

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

**HUMOUR AS COGNITIVE-PRAGMATIC SCRIPT OPPOSITION:  
AN INTEGRATIVE LINGUISTIC MODEL**

**Narzikulova Rayhona**

Senior Lecturer,  
Department of English Language History and Grammar  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Abstract.** The article examines humour as a multidimensional cognitive-pragmatic phenomenon. Drawing upon classical philosophical insights, semantic script theory, and affective violation models, the study proposes an integrative framework explaining humour as simultaneous activation of opposing scripts under conditions of benign violation. The analysis synthesizes Aristotle's concept of homo ridens, Veatch's violation-normality theory, and Attardo's General Theory of Verbal Humor. It is argued that humour emerges at the intersection of semantic opposition, affective ambivalence, pragmatic framing, and social positioning. The study contributes to linguistic pragmatics by offering a structured four-layer model applicable to verbal humour across discourse types.

**Keywords:** humour, script opposition, pragmatics, discourse analysis, affective violation, GTVH, linguistic model.

**YUMORNING KOGNITIV-PRAGMATIK SKRIPTLAR QARAMA-QARSHILIGI  
SIFATIDAGI TALQINI: INTEGRATIV LINGVISTIK MODEL**

**Narzikulova Rayhona**

Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi katta o'qituvchisi  
Samarqand davlat chet tillar instituti

**Annotatsiya.** Maqolada kulgi hodisasi ko'p qatlamli kognitiv-pragmatik fenomen sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot Aristotelning homo ridens konsepsiyasi, semantik skript nazariyasi hamda affektiv buzilish modeli asosida integrativ yondashuvni taklif etadi. Muallifning fikricha, kulgi qarama-qarshi skriptlarning bir vaqtning o'zida faollashuvi hamda "zararsiz buzilish" sharoitida yuzaga keladi. Tadqiqot semantik oppozitsiya, hissiy ambivalentlik, pragmatik freymlash va ijtimoiy indeksatsiya kesishgan nuqtada kulgi shakllanishini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** kulgi, skript oppozitsiyasi, pragmatika, diskurs tahlili, affektiv buzilish, verbal kulgi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N17>

**Introduction.** Humour represents one of the most intricate and paradoxical phenomena within human cognition and communication. It occupies a unique position at the intersection of language, emotion, and social interaction. From the earliest philosophical reflections to contemporary linguistic modelling, humour has been regarded as both an intellectual puzzle and a cultural constant. Aristotle's well-known observation that human beings are uniquely capable of laughter situates humour within anthropological and rhetorical inquiry and suggests that laughter reflects a fundamental dimension of rationality and sociality [1; 9].

Throughout intellectual history, humour has been interpreted through various explanatory paradigms. Classical superiority theory associates humour with triumph over others or with ridicule directed toward perceived weakness. According to Hobbes, laughter arises from what he termed “sudden glory,” a momentary feeling of superiority over another person’s error or misfortune. Relief theory, strongly influenced by psychoanalytic thought, conceptualizes humour as the release of suppressed psychic tension or emotional energy [3]. This perspective interprets laughter as a psychological mechanism through which individuals cope with internal pressures and social restrictions.

In contrast, incongruity theory, which dominates contemporary humour research, explains humour as arising from the perception of mismatch between expectation and outcome [6]. From this perspective, humour occurs when cognitive patterns are disrupted and subsequently reinterpreted in an unexpected way. Although each theory offers valuable insight, none independently provides a comprehensive explanation of humour’s semantic structure, emotional ambivalence, and communicative function.

Modern linguistic scholarship increasingly approaches humour through structured semantic and pragmatic modelling. In particular, Raskin’s Semantic Script Theory of Humor (SSTH) proposes that humour arises when a text is compatible with two scripts that are opposed but overlapping [7]. Building on this framework, Attardo’s General Theory of Verbal Humor (GTVH) introduces a hierarchical model that explains how humour is structured through script opposition, logical mechanisms, narrative strategy, and other discourse-related elements [2]. These theories provide a systematic explanation of how humour operates at the level of language and discourse.

Simultaneously, affective theories emphasize the emotional duality inherent in humorous perception. Veatch (1998) argues that humour arises from the simultaneous perception of violation and normality. In this model, a situation must appear wrong or inconsistent with normative expectations while at the same time remaining psychologically safe. Recent research in the psychology of humour also highlights the role of contextual and pragmatic factors in shaping humorous interpretation [5]. The present article therefore seeks to integrate semantic, affective, and pragmatic dimensions into a unified cognitive–pragmatic framework in which humour is understood as script opposition realized under conditions of benign violation within a communicatively licensed frame.

**Literature Review.** The study of humour has long attracted interdisciplinary attention, spanning philosophy, psychology, linguistics, and literary studies. Early philosophical discussions laid the foundation for later theoretical frameworks by conceptualizing humour as a complex interaction between cognition, emotion, and social evaluation. Aristotle’s reflections on laughter already identified humour as a distinct human capacity associated with rational judgment and rhetorical strategy (Aristotle, *De partibus animalium*). According to Aristotle, ridicule functions as a discursive tool capable of undermining opponents and influencing public perception, thereby linking humour to social power and persuasion [9].

Subsequent philosophical traditions further elaborated the mechanisms underlying humorous perception. One of the earliest systematic approaches was the superiority theory, which associates humour with feelings of triumph or dominance over others. This perspective can be traced to thinkers such as Hobbes, who argued that laughter results from a sudden sense of superiority over the perceived weakness or error of others [4]. Although this theory explains

certain forms of ridicule and satire, it does not fully account for humour that arises in non-aggressive contexts.

Another influential explanation is the relief theory, developed most prominently within psychoanalytic tradition. Freud argued that humour enables the release of psychological tension or suppressed emotional energy through laughter [3]. From this perspective, humorous expression functions as a coping mechanism that allows individuals to momentarily suspend social constraints and relieve mental pressure. While this model explains the emotional function of humour, it does not sufficiently clarify the cognitive processes that generate humorous interpretation.

The incongruity theory, which dominates modern humour research, focuses on cognitive mechanisms of expectation and reinterpretation. According to this approach, humour arises when a situation violates anticipated patterns or logical coherence [6]. The sudden recognition of discrepancy between expected and actual outcomes produces amusement. Nevertheless, scholars have noted that incongruity alone cannot explain humour, since many unexpected events evoke confusion rather than laughter.

Within linguistic scholarship, humour has been examined through formal semantic and pragmatic frameworks. Raskin's Semantic Script Theory of Humor (SSTH) proposes that a text becomes humorous when it is compatible with two scripts that are both overlapping and semantically opposed [7]. Scripts can be understood as cognitive structures representing stereotypical knowledge about events, situations, or entities. In humorous discourse, an utterance initially activates one script but later forces the listener to reinterpret the message through an alternative and contradictory script.

Building upon this model, Attardo developed the General Theory of Verbal Humor (GTVH), which extends the script-based approach to a broader linguistic framework [2]. The theory introduces six hierarchical Knowledge Resources: Script Opposition, Logical Mechanism, Situation, Target, Narrative Strategy, and Language. Among these elements, script opposition constitutes the fundamental semantic condition of humour, while the remaining resources regulate how humorous meaning is expressed within discourse.

In addition to structural models, contemporary research increasingly emphasizes the role of emotional evaluation in humour perception. Veatch's theory proposes that humour emerges from the simultaneous perception of violation and normality [8]. In other words, a situation must appear wrong or inconsistent with normative expectations while also remaining psychologically safe. This dual perception explains why humour frequently involves taboo subjects such as death, morality, or social hierarchy while still remaining acceptable within specific communicative contexts.

Recent cognitive-pragmatic studies highlight the importance of contextual framing in humorous interpretation. Martin and Ford (2018) argue that humour depends not only on cognitive incongruity but also on the communicative environment in which the utterance occurs. Shared background knowledge, pragmatic cues, and cultural norms guide the interpretation of humorous discourse and determine whether a violation will be perceived as amusing or offensive.

Despite the diversity of approaches, contemporary humour research converges on several key principles. First, humour requires a form of conceptual opposition or incongruity. Second, it involves emotional ambivalence resulting from the coexistence of tension and safety.

Third, humour functions within communicative contexts where pragmatic cues signal playful intent. These shared insights provide the theoretical foundation for developing an integrative cognitive-pragmatic model capable of explaining humour as a multidimensional linguistic phenomenon.

**Methodology.** The present study employs a qualitative theoretical methodology grounded in conceptual analysis and comparative synthesis. Rather than conducting experimental research, the article systematically evaluates existing theoretical models and integrates their explanatory mechanisms into a unified framework. The methodological procedure includes identification of script opposition in representative humorous discourse, examination of affective violation conditions, and analysis of pragmatic framing strategies that enable reinterpretation.

The deductive analytical process begins by isolating semantic opposition within a humorous text. It then investigates whether the oppositional scripts involve normative or moral deviation sufficient to generate affective tension. Subsequently, it evaluates whether contextual signals establish a play frame that neutralizes threat perception. Finally, it considers the social implications of humorous exchange, including identity negotiation and relational positioning.

**Results.** The analysis demonstrates that humour emerges only when several interdependent conditions operate simultaneously. At the semantic level, humour requires the presence of script opposition combined with a logical mechanism that enables reinterpretation. The opposition may involve binary contrasts such as life versus death, serious versus trivial, or normal versus abnormal. However, script opposition alone does not guarantee humour; it must be cognitively accessible and contextually triggered.

At the affective level, the oppositional script typically introduces a violation of expectation or norm. This violation generates emotional tension by momentarily destabilizing interpretive coherence. Nevertheless, humour arises only when this violation is simultaneously reframed as non-threatening. The perception of safety allows the cognitive system to maintain ambivalence rather than transition into fear or moral condemnation.

At the pragmatic level, humour depends upon recognition of communicative framing. Interlocutors must interpret the utterance within a play frame that signals non-serious intent. Such framing may be conveyed through prosody, register shifts, irony markers, or shared background knowledge. When pragmatic alignment fails, humorous intent may be misinterpreted as insult or error.

At the social level, humour functions as a mechanism of relational negotiation. It may reinforce solidarity within in-groups or assert hierarchical positioning. The same structural configuration can therefore produce affiliative bonding or aggressive ridicule depending on contextual variables.

These findings confirm that incongruity alone is insufficient to account for humour. Violation without benign framing produces offence, while benign incongruity without tension produces mere surprise. Humour requires the dynamic coexistence of both elements within a socially recognized communicative frame.

**Discussion.** The integrative model proposed in this article reconciles classical and contemporary humour theories by demonstrating that each addresses a distinct structural

layer of the phenomenon. Rather than viewing these theories as mutually exclusive, the present framework suggests that they operate at different levels of analysis.

Superiority theory provides insight into the social dimension of humour, explaining why humorous discourse frequently targets status differences, mistakes, or perceived incompetence [4]. This perspective is particularly relevant in cases of satire, sarcasm, and ridicule, where humour functions as a mechanism of social evaluation. Similarly, Aristotle's reflections on ridicule demonstrate that humour has long been associated with rhetorical strategy and social positioning [9].

Relief theory contributes to understanding the psychological and emotional effects of humour. Freud (1905) argued that humour allows individuals to release suppressed emotions and tension through laughter. Contemporary psychological research supports this view by demonstrating that humour often functions as a coping strategy for managing stress and negative emotions [5]. Thus, humour can serve not only as a cognitive puzzle but also as an emotional regulation mechanism.

Incongruity theory explains the cognitive structure of humour, particularly the role of expectation violation and reinterpretation [6]. However, as many scholars have noted, incongruity alone does not necessarily produce humour. Unexpected events can also evoke confusion or anxiety. Linguistic models such as Raskin's Semantic Script Theory clarify this issue by specifying that humour arises from the interaction of two opposing scripts within a single discourse context [7]. Attardo's General Theory of Verbal Humor further refines this explanation by demonstrating how script opposition interacts with narrative strategies and linguistic choices [2].

The affective component of humour is addressed most directly by violation-based theories. Veatch (1998) argues that humour requires the simultaneous perception of violation and normality. This dual perception creates emotional ambivalence: the situation appears problematic or inappropriate, yet it remains sufficiently safe to be interpreted playfully. Such an explanation clarifies why humour often involves taboo topics such as death, social hierarchy, or moral norms while still remaining acceptable within certain communicative contexts.

By synthesizing these perspectives, the four-layer model proposed in this article—semantic, affective, pragmatic, and social—offers a comprehensive explanatory structure. At the semantic level, humour emerges from script opposition and reinterpretation. At the affective level, humour depends on the coexistence of violation and psychological safety. At the pragmatic level, humorous interpretation requires contextual signals that frame the utterance as playful rather than serious. Finally, at the social level, humour operates as a mechanism of identity negotiation, enabling speakers to express solidarity, critique authority, or challenge social norms.

This layered approach contributes to discourse analysis by enabling researchers to distinguish systematically between humour, irony, sarcasm, satire, and offensive speech. Furthermore, it facilitates cross-cultural comparison, since norms governing humour, violation thresholds, and pragmatic framing vary across linguistic communities.

**Conclusion.** Humour is not reducible to incongruity, aggression, or emotional release in isolation. It is a structured cognitive-pragmatic phenomenon requiring the simultaneous interaction of semantic opposition, affective ambivalence, contextual framing, and social alignment. The integrative framework advanced in this article contributes to linguistic

pragmatics by providing a coherent explanatory model capable of accommodating diverse humour forms across discourse types.

**References/Adabiyotlar/Literatura:**

1. Aristotle. (n.d.). *De partibus animalium*.
2. Attardo, S. (2001). *Humorous texts: A semantic and pragmatic analysis*. Berlin: Mouton de Gruyter.
3. Freud, S. (1905). *Jokes and their relation to the unconscious*. New York: Norton.
4. Hobbes, T. (1651). *Leviathan*. London.
5. Martin, R. A., & Ford, T. (2018). *The psychology of humor: An integrative approach*. London: Academic Press.
6. Morreall, J. (2009). *Comic relief: A comprehensive philosophy of humor*. Oxford: Wiley-Blackwell.
7. Raskin, V. (1985). *Semantic mechanisms of humor*. Dordrecht: Reidel.
8. Veatch, T. C. (1998). A theory of humor. *Humor: International Journal of Humor Research*, 11(2), 161–215.
9. Ordóñez, V. (n.d.). Aristotle's homo ridens.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE PROBLEM OF ACTION VERBS IN UZBEK LINGUISTICS**

**Gulhida Hasanova Abdulaziz kizi**

Uzbekistan State University of World Languages

PhD student

E-mail: [gulhida0898@gmail.com](mailto:gulhida0898@gmail.com)

<http://www.orcid.org/0009-0000-6972-6772>

**Abstract.** The main objective of this research is to analyze the theoretical foundations of the problem of action verbs in Uzbek linguistics, to identify the criteria used in existing classifications, and to develop consistent semantic criteria for distinguishing action verbs from stative verbs. The research tasks include examining scholarly views on the semantic classification of verbs in Uzbek linguistics (Sh. Jalolova, R. Sayfullayev, M. Sodiqova, A. G'ulomov, S. Muhammedova, and others), comparing definitions of action verbs, identifying cases where semantic, syntactic, and aspectual criteria are applied in a mixed or inconsistent manner, and evaluating their theoretical coherence. Additionally, a comparative analysis with English linguistic classifications (R. Dixon, B. Levin, Ch. Fillmore, L. Talmy, and others) was conducted in order to highlight methodological differences. The study employs descriptive, comparative-analytical, and critical-evaluative methods. The descriptive method was used to outline existing classifications; the comparative method served to contrast Uzbek and English approaches to verb classification; the critical approach enabled the identification of theoretical inconsistencies arising from the mixed application of criteria belonging to different systems within a single classification. The findings demonstrate that in Uzbek linguistics semantic grouping of verbs is largely based on content similarity, while clear and unified criteria are often lacking. In contrast, English linguistic traditions tend to systematize semantic classifications in connection with syntactic behavior, argument structure, or conceptual models. The study argues that restricting the notion of action to mechanical spatial trajectory is theoretically limited from a lexical-semantic perspective. The author proposes two primary criteria for distinguishing action and stative verbs: active energy expenditure and processuality (the presence of internal stages). Based on these criteria, the conceptual-semantic distinction between action and stative verbs is clarified.

**Keywords:** action verbs, stative verbs, semantic classification, lexical-semantic criteria, energy expenditure, processuality, verb classification, comparative analysis.

---

## **O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA HARAKAT FE'LLAR MUAMMOSI**

**Hasanova Gulhida Abdulaziz qizi**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

Tayanch doktorant

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek tilshunosligida harakat fe'llari muammosining nazariy asoslarini tahlil qilish, mavjud klassifikatsiyalarda qo'llanilgan mezonlarni aniqlash hamda harakat va holat fe'llarini farqlashning izchil semantik mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida o'zbek tilshunosligida fe'llarning ma'noviy tasnifi yuzasidan bildirilgan qarashlarni (Sh. Jalolova, R. Sayfullayev, M. Sodiqova, A. G'ulomov, S. Muhammedova va boshqalar) tahlil qilish, harakat fe'llari tushunchasiga berilgan ta'riflarni qiyoslash, tasniflarda qo'llanilgan semantik, sintaktik va aspektual mezonlarning uyg'un yoki aralash holda qo'llanilish holatlarini aniqlash hamda ularning nazariy izchilligini baholash belgilandi. Shuningdek, ingliz tilshunosligidagi fe'llar tasnifi (R. Dikson, B. Levin, Ch. Fillmore, L. Talmi va boshqalar) bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, metodologik farqlar ko'rsatib berildi. Tadqiqotda deskriptiv, qiyosiy-tahliliy hamda tanqidiy-evolyutiv metodlardan foydalanildi. Deskriptiv metod asosida mavjud klassifikatsiyalar mazmunan bayon qilindi; qiyosiy metod yordamida o'zbek va ingliz tilshunosligidagi tasnif yondashuvlari solishtirildi; tanqidiy yondashuv orqali turli tizimga mansub mezonlarning bir klassifikatsiya doirasida aralash qo'llanishi

natijasida yuzaga kelgan nazariy noaniqliklar asoslandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tilshunosligida fe'llarni semantik guruhlash ko'proq mazmuniy yaqinlikka tayangan holda amalga oshirilishi, biroq mezonlarning aniq va yagona tizim asosida shakllantirilmaganligi aniqlanadi. Ingliz tilshunosligida esa semantik tasniflar ko'pincha sintaktik, argument tuzilmasi yoki konseptual model bilan bog'langan holda tizimlashtirilganligi kuzatildi. Harakatni faqat mexanik trayektoriya bilan bog'lash yondashuvi leksik-semantik jihatdan cheklangan ekani asoslab berildi. Muallif tomonidan harakat va holat fe'llarini farqlashda "aktiv energiya sarfi" hamda "jarayonlilik (ichki bosqichlarga egalik)" mezonlari taklif etildi va ushbu mezonlar asosida harakat hamda holat fe'llarining konseptual-semantik tafovuti izohlandi.

**Kalit so'zlar:** harakat fe'llari, holat fe'llari, semantik tasnif, leksik-semantik mezon, energiya sarfi, jarayonlilik, fe'l klassifikatsiyasi, qiyosiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N18>

**Kirish.** O'zbek tilshunosligida fe'llarni tasniflash masalasi atroflicha o'rganilgan mavzulardan biridir. Sh. Jalolova [6;153-b] o'zbek hamda ingliz tillaridagi fe'l so'z turkumining tasniflanishini chog'ishtirma aspektida tadqiq qilib, tasniflarni leksik, leksik-grammatik hamda grammatik yo'nalishlarda bo'lishini ta'kidlaydi. Leksik-semantik tasnif fe'llarni semantik-semantik, tushuncha maydonlari, leksik semantik guruhlar va tematik guruhlar asosida klassifikatsiya qilishni qamrab olishi ta'kidlangan bo'lsa, grammatik yondashuv orqali fe'llarning faqat grammatik xususiyati inobatga olinib ularning standart va nostandart turlari misol sifatida ko'rsatilgan. Ammo leksik-grammatik yondashuv asosida fe'llar tasnif qilinishi haqida fikr ushbu ishda tugallanmagan bo'lib, leksik-grammatik tasnifga misol sifatida tilda so'zlarning turkumlarga ajratib o'rganilishi keltirilgan xolos. R. Sayfullayev [12; 416-b] boshchiligida tuzilgan darslikda esa fe'lning leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra mustaqil va nomustaqil fe'llarga bo'linishi ta'kidlangan. Sh. Jalolova ishida o'zbek va ingliz tilidagi fe'llar klassifikatsiyalari solishtirilgan va farqli jihatlari ko'rsatilib, o'zbek va ingliz tilidagi fe'llarning klassifikatsiyasidagi chalkashliklar sababi grammatikaning leksika bilan bog'liqligini yetarlicha hisobga olinmaganligi va tasnif qilishning ilmiy ishlanmaganligi sabab qilib ko'rsatiladi. Ammo ushbu ish asosiy maqsadi fe'l klassifikatsiyalarini chog'ishtirish doirasida bo'lganligi sababli, Sh. Jalolova tomonidan fe'llarning klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan. Tadqiqotimiz obyektini fe'lning barcha turlarini emas balki faqat uning harakat fe'llari ma'naviy guruhi bilan bog'liq bo'lganligi sababli fe'llarning turli yo'nalishlarda tasniflanishi bizning tadqiqot obyektimiz doirasida emas deb hisoblaymiz.

**Tadqiqot metodlari.** Mazkur tadqiqotda harakat fe'llari muammosini yoritish hamda mavjud klassifikatsiyalarning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida bir necha lingvistik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, o'zbek va ingliz tilshunosligida fe'llarning ma'naviy tasnifi yuzasidan bildirilgan qarashlarni bayon etish va tizimlashtirish jarayonida **deskriptiv metod** qo'llanildi. Ushbu metod yordamida Sh. Jalolova, R. Sayfullayev, M. Sodiqova, A. G'ulomov, S. Muhammedova va boshqa olimlarning fe'l tasnifiga doir yondashuvlari mazmunan sharhlanib, ularning asosiy mezonlari ochib berildi.

Fe'llarning semantik guruhlarini va harakat fe'llari tushunchasiga doir turli talqinlarni o'zaro solishtirish, o'zbek va ingliz tilshunosligidagi tasnif tamoyillarini qiyoslash jarayonida **qiyosiy-tahliliy metod**dan foydalanildi. Mazkur metod asosida ikki til an'analarda fe'llarni tasniflash mezonlari o'rtasidagi metodologik farqlar, xususan, semantik, sintaktik va konseptual yondashuvlar tafovuti aniqlashtirildi.


Mavjud klassifikatsiyalarda turli tizimlarga mansub mezonlarning bir iyerarxik tizim doirasida aralash qo'llanishi natijasida yuzaga kelgan nazariy noaniqliklarni ochib berish hamda ularning ilmiy asoslanganlik darajasini baholashda **tanqidiy-evolyutiv metod** asosiy

vosita sifatida xizmat qildi. Aynan shu metod orqali harakatni faqat mexanik trayektoriya bilan cheklash yondashuvining nazariy jihatdan yetarli emasligi asoslab berildi.

Shuningdek, harakat va holat fe'llarini farqlash mezonlarini ishlab chiqish jarayonida **leksik-semantik tahlil elementidan** foydalanildi. Bu bosqichda fe'llarning ma'no tuzilmasi, jarayonlilik xususiyati hamda aktiv energiya sarfi komponenti konseptual jihatdan tahlil qilinib, ular asosiy differensial mezon sifatida taklif etildi.


Natijada, yuqoridagi metodlar uyg'unligi tadqiqot maqsadini amalga oshirish, harakat fe'llarining nazariy asoslarini aniqlashtirish va mualliflik semantik mezonlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

**Natija va munozaralar.** Tadqiqotimiz eng avvalo harakat fe'llari tushunchasini aniqlashtirib olishni taqozo etadi. Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligida harakat va harakat fe'llari tushunchasiga bo'lgan qarashlarda yakdillik mavjud emas. Bu fe'llarning ma'no turlari bo'yicha tavsiflarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, M. Sodiqova [14, 25-b] eng avvalo fe'llarni semantik jihatdan uch guruhga bo'ladi. Ular, harakat, holat va munosabat fe'llari. Harakat fe'llari esa o'z navbatida yana to'rt guruhga ajratilgan. Ushbu tasnif faqat inson faoliyati bilan bog'liq harakat fe'llarini qamrab olganligi va boshqa turdagi harakat va holatlarni ifodalamasligi S. Muhammedova [10; 325-b] tomonidan qayd etilgan.



**1-rasm. M. Sodikovanning fe'llarning ma'no guruhlari bo'yicha tavsifi**


R. Sayfullaev [12; 416-b] boshchiligida tuzilgan o'quv qo'llanmada esa harakat fe'lga ongli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalovchi fe'l deya ta'rif beriladi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin deya ta'rifga yanada aniqlik kiritiladi va harakat fe'llarining qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq misollarini keltiradi. Bundan tashqari harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko'rinib turuvchi guruh harakat fe'llari ham alohida ajratilgan. Manbada fe'llarning nutq, holat, natijali faoliyat, tafakkur, munosabat fe'llari kabi turlari ham ajratib ko'rsatiladi.



**2-rasm. R. Sayfullaevning fe'llarning ma'no guruhlari bo'yicha tavsifi**


Ushbu klassifikatsiyada fe'lning markaz va qurshov leksemalari inobatga olingan holda amalga oshirilganligi ta'kidlab o'tiladi. Ammo, bizning nazarimizda, ushbu klassifikatsiyani tashkil etuvchi fe'l guruhlarini farqlovchi mezonlar aniq yoritilishi kerak. Misol uchun, darslikda natijali faoliyat sifatida berilgan parchalamoq fe'lini olaylik. Agar biron narsani parchalash natijasida mayda qism bo'laklarning hosil bo'lishini hisobga olsak u natijali faoliyat fe'li, ammo parchalash ayni harakat jarayonini nazarda tutsak u harakat fe'lga mansubdek. Ushbu holatning o'zi fe'llarning ma'no guruhlari uchun mezonlarning to'liq shakllantirilmaganligiga ishora qiladi.

A. Gulomov [4; 56-b] fe'lni harakat yo holatni ifodalovchi so'z turkumi sifatida ta'riflaydi va shu ta'rifning o'zidan kelib chiqqan holda ularni holat va harakat fe'llariga bo'lib o'rganish kerakligini ta'kidlaydi. Harakat fe'llari dinamik xususiyati aniq ko'rinib turgan fe'llardan tashqari, eshitmoq, eslamoq, qarimoq kabi hodisalarni ham o'z ichiga oladi deb hisoblaydi. Ammo muallif odatdagi tushunishimizga ko'ra qarimoq kabi fizik holatni ko'rsatadigan hodisalar harakat deb qaralmasa-da, tilshunoslikdagi harakat tushunchasining kengligidan kelib chiqib holat tushunchasini ham harakat tushunchasi ichiga kiritib, "fe'l harakat bildiradigan so'z turkumi" deyish mumkin deydi. Ammo manbada harakat tushunchasi ta'rifi keltirilmagan. Bu esa o'quvchida fe'lning ma'no turlariga bo'lgan muallif qarashini ilg'ab olishni qiyinlashtiradi.



**3-rasm. A. G'ulomovning fe'llarning ma'no guruhlari bo'yicha tavsifi**

Fe'llarning ma'no guruhlariga ko'ra turlari mavzusining eng muammoli tarafi bu klassifikatsiyalarning qaysi mezonlar asosida olib borilgani haqidagi qarashlarning ko'pgina darslik va manbalarda yoritilmaganligidir va fe'l ma'no turlarini turli klassifikatsiyalarda turlicha berilishidir. Xususan, N. Mahmudov [8, 83-b] boshchiligida 6-sinf o'quvchilari uchun yozilgan darslikda fe'llar qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra nutqiy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat, fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, holat fe'llari kabi ma'no guruhlariga ajralishi qayd etilgan.




**4-rasm. Fe'llarning ma'noviy turlarga bo'linishi N. Mahmudov talqinida**

Ko'rinib turibdiki ushbu tavsifda harakat tushunchasi faoliyat tushunchasi bilan birdek ko'rsatilgan. Holat fe'llari esa jismoniy, dinamik harakat yo'qligi bilangina ajralib turishini anglab olishimiz mumkin. Ammo B. Mengliyev [9; 137-b] boshchiligida abituriyentlar uchun tuzilgan universal qo'llanmada esa aynan mana shu manba bilan bir xil fe'llar lug'aviy turlarga ajratilgan. Ammo holat fe'llari ichida yig'lamoq, kulmoq, tirjaymoq kabi fe'llarni, jismoniy faoliyat fe'llari ichida esa yugurmoq, chopmoq kabi fe'llar bilan bir qatorda asos solmoq, bino qilmoq kabi fe'llarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida guruhlar ta'rifiga aniqlik kiritishni talab etadi nazarimizda.

B. To'xliyev [16; 192-b] boshchiligida tuzilgan metodologik manbada esa fe'llarni harakat, holat, natijali faoliyat va nutq fe'llari ma'noviy guruhlariga bo'ladi. Ushbu tasnif esa aqliy faoliyatga doir fe'llarni holat fe'llari ichida o'rganishni nazarda tutadi. Bundan tashqari holat fe'llari ichida uxlamoq fe'llining mavjudligi, bizning nazarimizda, muallifning harakat va holat tushunchalariga avval boshdan aniq ta'rif berib, ularni bir biridan farqlashni taqozo etadi.

Yuqoridagi tavsiflardagi farqlar to'g'ridan to'g'ri harakat fe'llari tushunchasiga bo'lgan qarashlardagi tafovutlarga ishora qiladi va harakat fe'llari umumiy ta'rifini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Ammo, fe'llarning ma'noviy turlari tasniflaridan farqli o'laroq, harakat va harakat fe'llari tushunchasi ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarda bir-biridan farqli bo'lsada, chuqurroq yoritilgan. Xususan, K. Xolikov [17; 15-b] lingvistikada harakat tushunchasi subyektning makon va davrdagi harakatini ifodalaydi deydi va harakat

fe'llarini umumiy ma'noli harakat fe'llari (ishlamoq, qilmoq) va ayrim xususiy ma'noli harakat fe'llari (yozmoq, kesmoq) ma'no turlariga bo'ladi.




### 5-rasm. Harakat fe'llarining leksik-semantik guruhlariga bo'linishi K. Xolikov talqinida

M. Orazova [11; 30-b] harakat fe'llarini ikki guruhga ajratadi harakat fe'llari (yemoq, ichmoq, ayirmoq) qo'zg'alist fe'llari (kelmoq ketmoq yaqinlashmoq). Muallif ushbu ikki guruh orasidagi farqni grammatik xususiyatlarga bog'laydi, ya'ni harakat fe'llari o'timli fe'llarni, qo'zg'alist fe'llari esa o'timsiz harakat fe'llarni o'z ichiga olgan. O'. Sharipova [13; 107-b] esa harakat fe'llarini yumush, kechim va davomiy harakat fe'llariga bo'lib o'rgangan. Yuqoridagi ikki ishda berilgan harakat fe'llarining qamrovidan kelib chiqqan holda, mualliflar fe'llarni eng avval holat va harakat fe'llariga bo'lgan deya olamiz.

S. Muhamedova [10, 61-b] harakat fe'llarini alohida guruhga ajratishda eng avvalo harakat barcha fe'llarga xos ekanligi nazarda tutgan holda, statik va dinamik harakat tushunchasini farqlab olish g'oyasini ilgari suradi. Lingvistika sohasi uchun dinamik yoki mexanik harakat tushunchasi tegishli ekanligini ta'kidlab, dinamik harakat tushunchasi ostida esa borliqdagi harakatlana oluvchi jismlarning muayyan o'zgarishiga uchrashi ya'ni o'z o'rni va holatini o'zgartirishi, harakat sodir qilish natijasida o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirishi kabilarni yoxud faol harakat semasiga ega fe'llarning barchasini harakat fe'llari guruhiga tegishli deb hisoblaydi. S. Muhammedova A. Hojiyevning [5; 5-b] tilshunoslikda harakat tushunchasini keng talqin etib, uni barcha fe'llarga xosligi haqidagi fikrlariga tayangan holda mavzuga yondashganligini ta'kidlab o'tadi. Ammo ishda fe'llar umumiy jihatdan qanday ma'no turlariga bo'linishi haqida muallif aniq fikri mavjud emas. Yuqorida harakat fe'llariga berilgan ta'rif fe'llarni harakat va holat fe'llariga bo'ladi go'yo, ammo ishning ikkinchi va uchinchi boblarida tahlilga tortilgan fe'llarning umumlantiruvchi belgilarini hisobga olsak, S. Muhammadova harakat fe'llari deganda real fazoda kuzatiladigan, jismoniy jihatdan idrok qilinadigan, semantik jihatdan nisbatan sodda bo'lgan dinamik hodisalarni ifodalovchi va kognitiv, nutqiy va institutsional faoliyatni ifoda etmaydigan fe'llarni amalda tahlil qilgan. Jismoniy harakat semasi esa ikkinchi darajali bo'lgan fe'llar harakat fe'llari sifatida tahlilga tortilmagan. Muallif ushbu holni ishda aniq harakatlantiruvchi va harakatlanuvchi obyektarga ega bo'lmagan leksemalar (harakatlanmoq, ishlamoq, qilmoq, bajarmoq, davolamoq kabilarni) tahlilga tortilmaganligi bilan izohlaydi xolos.

Ammo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu ishni harakat fe'llari semantik va valentlik xususiyatlarini ochib beruvchi o'zbek tilidagi eng izchil ishlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Ishda keltirilgan harakat fe'llari semantik klassifikatsiyasi hozirda mavjud bo'lgan tasniflarning eng izchili sifatida baholash mumkin.



**6-rasm. S.Muhammedova klassifikatsiyasi bo'yicha obyektli harakat fe'llarining farqlanishi**

Ko'rib turganimizdek, S. Muhammedova harakat fe'llarini avvalo obyektli va obyektli guruhlar ajratadi va bu tasnif A. Hojiyev qarashlariga tayanadi. Keyinchalik esa mazkur guruhlar qo'shimcha semantik turlarga ajratilgan. Mazkur klassifikatsiyada e'tiborni tortadigan jihat shundaki, unda turli tizimlarga tegishli mezonlar bir tizim ichida qo'llanilgan. Xususan, fe'llarning obyektli va obyektli guruhlar bo'linishi fe'llarning sintaktik xususiyatini aks ettirib, fe'llarni guruhlar ajratsa, keyingi bosqichda harakatning yo'nalishi (gorizontal, vertikal, aylanma va boshqalar) semantik mezon sifatida qo'llanilgan. Ayrim guruhlar (natijali ijro, natijasi mavhum ijro) esa fe'llar natijaviylik yoki aspektual xususiyatlari asosida boshqa guruhlardan ajratilgan. Shuningdek, harakatning joylashgan sohasi ham alohida mezon sifatida qaraladi (og'iz bo'shlig'ida sodir bo'luvchi harakat fe'llari).

Ingliz tilshunosligida ham fe'llarni semantik sohalar yoki ma'no turlari asosida tasniflash an'anasi mavjud. Biroq bu tasniflar semantik belgi bilan bir qatorda grammatik xususiyatlar ham inobatga olinadi. Masalan, R. Dikson [1; 40-b] fe'llarni ularning ma'nosi va shu ma'no bilan bog'liq grammatik xususiyatlarga ko'ra semantik turlarga ajratadi. Ular motion (harakat), rest (holat), affect (ta'sir), giving (berish), corporeal (jismoniy jarayon), weather (ob-havo), attention (e'tibor), thinking (tafakkur) va speaking (nutq) kabi asosiy semantik guruhlaridir. Ch. Fellbaum [2; 29-b] rahbarligida yaratilgan WordNet leksik bazasida fe'llar cognition (tafakkur), change (o'zgarish), bodily functions (fiziologik jarayonlar), communication

(muloqot), contact (jismoniy ta'sir), creation (yaratish), emotion (hissiy holat), motion (harakat), perception (idrok), possession (egalik), social interaction (ijtimoiy munosabat), weather (ob-havo) semantik "fayllar" asosida guruhlangan. Beth Levin [7; 117-b] esa ingliz fe'llarini semantik xususiyatlari ularning sintaktik xususiyatlari belgilaydi degan tamoyil asosida fe'llarni change of state (holat o'zgarishi), manner of motion (harakat usuli), psych verbs (hissiy-idrokiy fe'llar), searching verbs (qidiruv fe'llari) kabi guruhlarga bo'ladi. Ch. Fillmore [3; 16- b] tomonidan ishlab chiqilgan FrameNet loyihasida esa fe'llar konseptual freymmlar doirasida cognition, motion, emotion, perception, communication, transaction, health care, time, space, social context kabi keng semantik sohalarga bo'lingan. L. Talmi [15; 193-b] kognitiv semantika doirasida tilning konseptual tuzilishini asosiy domenlar orqali tahlil qiladi va fe'llarni motion and location (harakat va joylashuv), causation and force interaction (sabab va kuch ta'siri), cognition (tafakkur jarayonlari), affect (hissiyot) kabi fundamental semantik guruhlarga bo'lib o'rgangan.

Shuni aytib o'tish joizki, ingliz va o'zbek tilshunosligida fe'llarni semantik jihatdan tasniflash mavjud bo'lsa-da, bu tasniflarning metodologik asoslari bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilshunosligida fe'llarni semantik guruhlash ko'proq mazmuniy yaqinlikka tayangan holda amalga oshiriladi. Bunda harakat fe'llari jismoniy harakat, nutq, aqliy faoliyat, hissiy jarayon, fiziologik jarayon kabi guruhlarga ajratilishi mumkin. Ammo ko'pincha bu guruhlarning chegaralari aniq formal mezonlar bilan belgilanmaydi va turli semantik, funksional hamda ba'zan sintaktik belgilar bir tizimda aralash holda qo'llanadi.

Ingliz tilshunosligida esa semantik tasniflar, odatda, mustaqil ravishda emas, balki boshqa lingvistik ko'rsatkichlar bilan bog'liq holda ishlab chiqilgan. Masalan, B. Levin fe'llarni semantik xususiyatlari bilan bir qatorda ularning sintaktik o'ziga xosliklariga tayangan holda tasniflaydi. Ch. Fillmore konseptual freymmlari esa fe'lning argumentlarini inobatga olgan holda tuzilgan. Umumiy qilib aytganda, ingliz an'anasida semantik tasnif ko'proq strukturaviy mezonlar bilan tartiblangan.

O'zbek tilshunosligida fe'llarni semantik sohalar asosida guruhlash ko'proq mazmuniy tasnif xarakteriga ega bo'lsa, ingliz tilshunosligida bu tasniflar sintaktik, argument tuzilmasi yoki konseptual model bilan bog'langan holda tizimlashtirilganiga guvoh bo'ldik. Bu holat esa, mazkur tadqiqotda fe'llarni tasniflash mezonlarini aniqlashda metodologik yondashuvni aniq belgilash zaruratini yuzaga keltiradi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan klassifikatsiyalar fe'llarni tavsifiy jihatdan keng qamrovda tasniflash imkonini bersa-da, turli tipdagi mezonlarning bir iyerarxik tizimda aralash qo'llanilishi ularni semantik xususiyatlar asosida qiyoslashni murakkablashtiradi. Ayniqsa, ikki tildagi sinonimik harakat fe'llarining semantik va tarjima xususiyatlarini tizimli ravishda taqqoslashda mezonlarning bir yo'nalishda tuzilmaganligi ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli fe'llarni bir tizim doirasidagi mezonlar asosida semantik guruhlarga ajratuvchi klassifikatsiya ayni tadqiqot uchun zarur deb hisoblaymiz va quyida fe'llarning leksik ma'nolari bo'yicha mualliflik tavsifini taqdim etamiz. A. G'ulomov [G'ulomov, 1954, 16] ta'biri bilan aytganda, fe'l harakat va holatni bildiruvchi so'zlarni o'z ichiga oluvchi turkum ekanligidan kelib chiqqan holda, fe'llarning eng avvalo harakat va holat guruhlarga bo'linishi tabiiydir va shu o'rinda holat va harakat tushunchasi tilshunoslik doirasida aniq farqlanishi lozim.

Fe'llarni harakat va holat turlariga ajratishda mexanik harakat va uning asosiy komponenti bo'lgan fazoviy trayektoriyani asosiy mezon sifatida qabul qilish lingvistik tasnif nuqtai nazaridan cheklangan yondashuv hisoblanadi. Mexanik harakat fizika faniga xos tushuncha bo'lib, jismlarning makonda joy almashinuvi bilan belgilanadi. Til esa bunday real jarayonlarning bevosita fizik tavsifini emas, balki ularning konseptual ifodasini berishi bilan fizika fanidan farqlanadi. Shu sababli fe'l ma'nosini jismning makonda ko'chishi bilan tenglashtirish leksik-semantik tizimning murakkabligini to'liq aks ettira olmaydi. Masalan, *yurmoq* yoki *yugurmoq* fe'llari fazoviy trayektoriyani aniq bildiradi. Biroq *o'rganmoq*, *asos solmoq*, *tashkil etmoq*, *rivojlantirmoq* kabi fe'llar odatda bitta mexanik harakat bilan bog'lanmaydi. Ular ko'pincha ko'plab mayda harakatlari, kognitiv jarayonlar, tashkiliy faoliyat yoki ijtimoiy munosabatlarning yig'indisini ifodalaydi. Masalan, "asos solmoq" real hayotda qurilish, hujjatlashtirish, kelishuv, tashabbus kabi turli xatti-harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin, ammo fe'lning o'zi aniq bir nuqtada sodir bo'ladigan aniq trayektoriyali harakatni bildirmaydi. Shunday ekan, mexanik ko'chish mezoni asosida bunday fe'llarni "harakat" doirasidan chiqarib tashlash semantik jihatdan asoslanmagan bo'ladi. Harakatni faqat makoniy o'zgarish bilan bog'lash fe'llarning konseptual mazmunini toraytiradi hamda ularning ma'no tuzilmasidagi boshqa muhim komponentlarni e'tibordan chetda qoldiradi. Tilshunoslikda fe'l tasnifi fizik trayektoriya mavjudligiga emas, balki fe'lning leksik-semantik xususiyatlari va u bildirayotgan vaziyatning konseptual tuzilishiga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Shuning uchun mexanik harakatni yagona ajratish mezoni sifatida qo'llash nazariy jihatdan yetarli va universal asos bo'la olmaydi.

Bizning fikrimizcha, harakat fe'llari energiya sarfi, jarayon yoki o'zgarish bilan bog'liq vaziyatlarni bildiradi. Ular vaqt davomida rivojlanadi yoki ma'lum natijaga olib keladi. Holat fe'llari esa dinamik bo'lmagan, energiya talab qilmaydigan va ichki va tashqi o'zgarishni anglatmaydigan vaziyatlarni ifodalaydi. Bunday fe'llar vaqt davomida saqlanib turuvchi holatni bildiradi va faol jarayon xususiyatiga ega emas. Shu o'rinda harakat va holat fe'llari bir biridan farqlovchi mezonlar aniq yoritilishi zarur deb hisoblaymiz.

### 1-jadval. Holat va harakat fe'llarini farqlovchi mezonlar G. A. Hasanova talqinida.

Farqlovchi mezonlar	Aktiv energiya sarfini talab qiladi	Jarayon ( ichki bosqichlarga ega)
<b>Harakat fe'llari</b>	+	+
<b>Holat fe'llari</b>	-	-

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Dixon, R. M. W. (2005). *A semantic approach to English grammar* (2nd ed.). Oxford University Press.
2. Fellbaum, C. (Ed.). (1998). *WordNet: An electronic lexical database*. MIT Press.
3. Fillmore, C. J., Johnson, C. R., & Petruck, M. R. L. (2003). Background to FrameNet. *International Journal of Lexicography*, 16(3), 235–250.
4. G'ulomov, A. (1954). Fe'l. In *Hozirgi o'zbek tili kursidan materiallar* (pp. 16–56). Fan.
5. Hojiyev, A. (1973). *Fe'l*. Fan. (Alisher Navoiy kartatekasidan olib yozilgan)
6. Jalolova, S. M. (2019). *Ingliz va o'zbek tillarida fe'l turlarining chog'ishtirma tadqiqi* (Doctoral dissertation). Toshkent.

7. Levin, B. (1993). *English verb classes and alternations: A preliminary investigation*. University of Chicago Press.
8. Mahmudov, N., Sobirov, A., Nabiyeva, D., & Nurmonov, A. (2017). *O'zbek tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik*. Tasvir nashriyot uyi.
9. Mengliyev, B., & Xoliyorov, O'. (2008). *O'zbek tilidan universal qo'llanma: Talaba va abituriyentlar uchun qo'llanma*. Fan nashriyoti.
10. Muhamedova, S. X. (2007). *O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari* (Doctoral dissertation). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
11. Orazov, M. (1983). O'zbek tili harakat fe'llari. *Sovet maktabi*, (12), 30.
12. Sayfullayev R. R., Mengliyev, B. R., Boqiyeva, G. H., Qurbonova, M. M., Yunusova, Z. Q., & Abuzalova, M. Q. (2009). *Hozirgi o'zbek adabiy tili: O'quv qo'llanma*. Fan va texnologiya.
13. Sharipova, O'. (1995). *O'zbek tilidagi yumush fe'llarning ma'no valentliklari* (Doctoral dissertation). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti.
14. Sodiqova, M. S. (1991). *Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l stilistikasi (Semantik aspektda)* (Doctoral dissertation). Toshkent.
15. Talmy, L. (2000). *Toward a cognitive semantics: Vol. II. Typology and process in concept structuring*. MIT Press.
16. To'xliyev, B., Shamsiyeva, M., & Ziyodova, T. (2006). *O'zbek tili o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma*. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.
17. Халиков, К. (1967). Глаголь движения в современном узбекском литературном языке (Сандидате диссертацион абстракт). Самарқанд.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **LEXICALIZATION OF SOME ARABIC IZAFFETIC CONSTRUCTIONS IN THE OLD UZBEK LANGUAGE**

**Yakubova Nilufar**

independent researcher  
Khorezm Mamun Academy

**Abstract.** This article scientifically analyzes the formation, development, and functional features of Arabic loanwords in the old Uzbek language. The introduction of Arabic into the old Uzbek language through Islam, science, and culture, especially its influence on the development of literary language in the 14th-16th centuries, is illuminated. Based on the materials of Alisher Navoi's works, the artistic and stylistic functions, aesthetic and spiritual load of Arabic vocabulary are revealed.

**Keywords:** old uzbek language, arabic borrowings, lexical layer, islamic culture, phonetic adaptation, semantic change, sufi terms.

---

## **ESKI O'ZBEK TILIDAGI AYRIM ARABCHA IZOFALI BIRIKMALARNING LEKSIKALIZATSIYASI**

**Yakubova Nilufar Egamberganovna**

mustaqil tadqiqotchi  
Xorazm Ma'mun Akademiyasi  
E-mail: [niilufar.yakubova@gmail.com](mailto:niilufar.yakubova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada eski o'zbek tilida arabiy o'zlashmalarning shakllanishi, rivoji va funksional xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Arab tilining islom dini, ilm-fan va madaniyat orqali eski o'zbek tiliga kirib kelishi, ayniqsa XIV-XVI asrlarda adabiy til taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri yoritib beriladi. Alisher Navoiy asarlari materiallari asosida arabiy leksikaning badiiy-uslubiy vazifalari, estetik va ruhiy yuklamasi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** eski o'zbek tili, arabiy o'zlashmalar, leksik qatlam, islom madaniyati, fonetik moslashuv, semantik o'zgarish, tasavvufiy terminlar.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N19>

**Kirish.** O'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, xususan, eski o'zbek adabiy tilining leksik qatlamini o'rganish milliy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Zero, til taraqqiyoti boshqa tillar bilan bo'lgan ko'p asrlik madaniy, ilmiy va diniy aloqalar jarayonida shakllanadi. Bu jarayonda arab tili bilan o'zaro ta'sir alohida o'rin tutadi.

Arab tilining ichki flektiv (introflektiv) tuzilishga egaligi va turkiy tillarning agglyutinativ tabiatga mansubligi ularning o'zaro munosabatida murakkab struktur-semantik jarayonlarni yuzaga keltirgan. Xususan, arab tiliga xos izofa (qaratqichli birikma) konstruksiyalarining eski o'zbek tiliga o'zlashuvi natijasida erkin sintaktik birikmalar leksikalizatsiyalashib, morfologik jihatdan parchalanmaydigan mustaqil birliklarga aylangan. Mazkur hodisaning tizimli ravishda o'rganilishi til tarixining muhim, ammo yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy til va ma'naviy merosni asrash hamda chuqur o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va ma'ruzalarida ona tilimizning boy tarixiy ildizlarini o'rganish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va adabiy merosni chuqur tadqiq etish zarurligini alohida ta'kidlab kelmoqda. Xususan, davlat rahbari o'zbek tilining xalqimiz milliy o'zligining ajralmas qismi ekanini qayd etib, uning tarixiy qatlamlarini ilmiy asosda o'rganish va targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanini uqtiradi.

Tadqiqotning **dolzarbligi** shundan iboratki, arab tilidan o'zlashgan izofali birikmalar eski o'zbek tilida keng qo'llangan bo'lsa-da, ularning struktur-semantik transformatsiyasi va leksikalizatsiyalashuv mexanizmi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tizimli o'rganilmagan. Ayniqsa, ism + artikl + ism tipidagi qurilmalar, zu-, sohib-, ahl- komponentli birikmalar hamda tasniya va ko'plik shakllarining o'zbek tilidagi maqomi alohida ilmiy izohni talab etadi.

Tadqiqotning **maqsadi** – arab tiliga xos izofa konstruksiyalarining eski o'zbek tiliga o'zlashish jarayonini, ularning leksikalizatsiyalashuv xususiyatlarini hamda semantik transformatsiyasini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun arab tilidagi izofa konstruksiyasining grammatik va semantik mohiyatini aniqlash, eski o'zbek tilida uchraydigan ism + artikl + ism tipidagi birikmalarni tizimlashtirish, zu-, sohib-, ahl- komponentli tarkibli o'zlashmalarning leksik maqomini belgilash, arab tilidagi tasniya va ko'plik ko'rsatkichlarining o'zbek tilidagi funksional holatini tahlil qilish, predlogli arabiy birikmalarning ravish va modal birlik sifatida leksikalizatsiyalashuvini ko'rsatish, mumtoz adabiyot namunalari asosida (xususan, Alisher Navoiy va boshqa adiblar asarlari misolida) izofa konstruksiyalarining badiiy va terminologik funksiyasini ochib berish kabi **vazifalar** belgilandi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Arabiy izofa konstruksiyalarining struktur xususiyatlari, grammatik tabiati va semantik imkoniyatlari avvalo arab tilshunosligi doirasida o'rganilgan. Xususan, B.M.Grande arab tilining qiyosiy-tarixiy grammatikasini yoritib, izofa munosabatining sintaktik va morfologik asoslarini ilmiy jihatdan izohlagan. Mazkur tadqiqotlar arab tilidagi erkin sintaktik birikmalarning semantik yukini va artikl tizimining rolini tushunishda metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Turkiy tillar, jumladan, eski o'zbek adabiy tili leksikasida arabiy qatlamning shakllanishi masalasi o'zbek tilshunosligida ham keng o'rganilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlari tilini tadqiq etish orqali arabiy va forsiy o'zlashmalarning leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan. Navoiy ijodi, xususan, Muhokamatu-l-lug'atayn asari turkiy tilning leksik boyligini asoslash jarayonida arabiy birliklarning funksional imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, o'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi, terminologiyasi va til kontaktlari masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda arabcha tarkibli birikmalarning o'zlashish mexanizmi, ularning semantik torayishi yoki kengayishi, leksikalizatsiyalashuv darajasi masalalari turli darajada yoritilgan. Biroq mavjud adabiyotlarda izofa konstruksiyalarining aynan struktur-semantik transformatsiyasi hamda morfologik parchalanmaslik mezonlari tizimli ravishda maxsus obyekt sifatida kam tadqiq etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot obyekti sifatida eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan arabiy izofa konstruksiyalari tanlandi. Namuna sifatida XV–XIX asrlarga oid mumtoz badiiy va tarixiy asarlar, xususan, Alisher Navoiy asarlari hamda boshqa tarixiy manbalar

tanlab olindi. Mazkur tadqiqotda arabiy izofa konstruksiyalarining eski o'zbek tilida leksikalizatsiyalashuv jarayonini aniqlash maqsadida aniq metodologik tamoyillar asos qilib olindi. Bu yondashuv arabiy izofa konstruksiyalarining eski o'zbek tilidagi leksikalizatsiyalashuv jarayonini aniq va asosli ravishda yoritish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Eski o'zbek tili leksik qatlamining shakllanishida arab tiliga xos bo'lgan tarkibli birikmalar, xususan, izofa (qaratqichli birikma) konstruksiyalari alohida o'rin tutadi. Arab tili ichki flektiv (introflektiv) qurilishga ega bo'lgani bois, unda yangi mazmun nafaqat affikslar, balki so'zlarning o'zaro sintaktik birikishi va artikllar tizimi orqali ham ifodalanadi[7,10]. Agglyutinativ tabiatga ega bo'lgan eski o'zbek tili uchun bunday murakkab sintaktik qurilmalarni qabul qilishda leksikalizatsiya hodisasi kuzatiladi, ya'ni arab tilida ikki yoki undan ortiq komponentdan iborat bo'lgan erkin birikmalar o'zbek tilida morfologik jihatdan parchalanmaydigan, yagona leksik ma'no tashuvchi mustaqil birliklarga aylangan.

*Ism + artikl + ism tipidagi birikmalar.* Eski o'zbek tilida, ayniqsa ilmiy va diniy-falsafiy matnlarda *ism + artikl (ul-/al-/il) + ism* modelidagi o'zlashmalar nihoyatda faol qo'llangan. Bunday birikmalarining ikkinchi komponenti birinchisini aniqlab keladi va ko'pincha martaba, mansab yoki muayyan tushuncha nomini anglatadi. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan quyidagi misollar bu fikrni tasdiqlaydi: *amirul-mo'minin* (mo'minlar amiri) – xalifalik maqomini ifodalovchi yaxlit leksema; *amirul-umaro* (amirlar amiri) – davlat boshqaruvidagi yuqori harbiy-ma'muriy unvon; *shayxulislom* – diniy rahnamo ma'nosidagi mustaqil atama; *baytulloh* – Allohning uyi – Ka'ba; *baytul-ma'mur* (obod uy – ko'kdagi Ka'ba); *baytul-mol* (xazina); *baytul-lataf* (buzuqixona) kabi birikmalar o'zbek tilida ichki sintaktik aloqasi yo'qolgan, tayyor nominativ birliklar sifatida o'zlashgan. *Aynul-kamol* (kamol ko'zi); *aynul-yaqin* (chin ishonish) kabi birikmalar Navoiy ijodida tasavvufiy terminlar sifatida qotib qolgan bo'lsa, *avsatun-nos* (odamlarning o'rtamiyonasi) kabi birikmalar ijtimoiy toifani bildiruvchi so'z maqomini olgan.

Bularning bir qismini maxsus komponentli (*zu-*, *sohib-*, *ahl-*) birikmalar tashkil qiladi. Arabiy o'zlashmalar tarkibida muayyan xislat, narsa yoki holat egasini ifodalovchi komponentlar ishtirokidagi birikmalar leksik tizimda alohida qatlamni tashkil etadi.

*Zu- (zi-)* tarkibli birikmalar: Bu komponent “ega”, “sohib” ma'nosini anglatib, murakkab sifatlar yasashga xizmat qiladi. Masalan, Shermuhammad Munis asarlarida qalamning uchi tilingani uchun unga nisbatan ishlatilgan *zullisonayn* (ikki til egasi) sifati iyhom san'ati asosida shakllangan mustaqil leksemadir. Shuningdek, *zuljalol* (buyuklik egasi – Alloh), *zulfiqor* (Teshib o'tuvchi – mashhur qilich nomi) kabi so'zlar o'zbek tilida morfologik tahlil qilinmaydigan yaxlit otlar hisoblanadi.

*Sohib-* tarkibli birikmalar. Bunday birikmalar shaxsning ijtimoiy maqomi yoki ma'naviy holatini ifodalaydi. Navoiy so'zligidagi *sohibjamol*, *sohibkamol*, *sohibnazar* kabi birliklar shular jumlasidandir. *Sohibqiron* atamasi Amir Temurga nisbatan ishlatiladigan mustaqil tarixiy terminga aylangan.

*Sohibqiron* so'zi arabcha ikki komponentdan iborat izofa (tarkibli birikma) konstruksiyasidir: *sohib* (صاحب) – ega, molik, hamroh; *qiron* (قران) – astronomik termin bo'lib, ikki sayyoraning bir burjda to'qnashuvi yoki yaqinlashishini anglatadi.

Sharq munajjmlari va tarixchilarining qarashiga ko'ra, insonning tug'ilishi yoki taxtga o'tirishi *qironi a'zam* (Zuhul va Mushtariy sayyoralarining yaqinlashuvi) vaqtiga to'g'ri kelsa, bunday shaxs buyuk davlat va uzoq umr sohibi bo'lishiga ishonilgan. “Lug'atnoayi Dehxudo”da ta'kidlanishicha, bu termin Temuriylar davrigacha ko'proq vasfiy (sifatlash) ma'nosida

ishlatilgan, keyinchalik esa atoqli ot maqomini olgan. Bu soʻz eski oʻzbek tilida shunchaki “ikki yulduz egasi” emas, balki oliy hukmdorlik, ilohiy nusrat va siyosiy legitimlik timsoliga aylandi. Alisher Navoiy ijodida bu soʻz ham dunyoviy hukmdorlar madhida, ham maʼnaviy-tasavvufiy yuksaklikni ifodalashda faol qoʻllangan. Munis Xorazmiyning “Firdavs ul-iqbol” asarida Xorazm xonlariga nisbatan *Hazrat Sohibqiron* sifati barqaror qoʻllanilib, hatto *naʼlayni sohibqiron* (sohibqironning taqasi/oyoq kiyimi) kabi birikmalar tarkibida leksikalizatsiyalashgan.

*Sohibqiron* soʻzi arab tilidagi erkin sintaktik birikmadan oʻzbek tilidagi mustaqil leksemaga aylanishning mumtoz namunasi. Oʻzbek tili tizimida u morfologik jihatdan parchalanmaydigan, yagona bir mazmunni anglatuvchi birlik sifatida qabul qilingan. Buning isboti sifatida ushbu soʻzga turkiy koʻplik yoki egalik qoʻshimchalarining bimalol qoʻshilishini koʻrsatish mumkin.

*ahl-* tarkibli birikmalar. Muayyan toifa yoki guruh kishilarini anglatadi: *Ahli ilm, ahli fazl, ahlilloh* (Allohga yaqin kishilar). Bu yerda *ahl* soʻzi arab tilidagi sintaktik vazifasini yoʻqotib, oʻzbek tilida murakkab soʻzning birinchi komponenti sifatida barqarorlashgan.

Tarkibli oʻzlashmalarning eng oʻziga xos jihati – ular tarkibidagi arabcha koʻplik va ikkilik (tasniya) koʻrsatkichlarining oʻzbek tilida morfema emas, balki soʻzning ajralmas boʻlagi sifatida qabul qilinishidir. Masalan, arab tilida ikkita predmetni ifodalaydigan *-ayn* qoʻshimchasi eski oʻzbek tilida mustaqil soʻz maqomini olgan birliklar tarkibida keladi. *Kavnayn* (ikki olam), *bahrayn* (ikki dengiz), *nayyirayn* (ikki yoritqich – Quyosh va Oy). Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lugʻatayn” (Ikki til muhokamasi) asari nomi bunga yorqin misoldir. Shuningdek, *asfalassofilin* (tubanlarning tubani) birikmasidagi *sofiliyn* soʻzi arabchada koʻplik va qaratqich kelishigida boʻlsa-da, oʻzbek tilida u diniy-teologik tushuncha (“doʻzaxning eng qaʼri”) yoki majoziy maʼnoda “qarilik”; “eng yoson joy” tushunchasini anglatuvchi yaxlit birlikdir.

Arab tilidagi predloglar (*bi-, fi-, ba-, min-*) turkiy tillardagi kelishiq va affiksial tizimning sintaktik vazifasini bajaradi. Biroq eski oʻzbek tilida bu predloglar ishtirokidagi iboralar mustaqil ravish sifatida leksikalizatsiyalashgan: *bil-qull* (butunlay, batamom); *biz-zarura* (zarurat yuzasidan); *fil-hol* (shu zahoti), *fil-voqyeʻ* (haqiqatan); *minbaʻd* (bundan keyin); *favqulodda* (odatdan tashqari); *batnan baʻda batn* (avloddan-avlodga, avlod osha) kabi.

Eski oʻzbek tili leksik qatlamida arab tilidan oʻzlashgan *ism + artikl (ul-/al-) + ism* tipidagi qurilmalar alohida oʻrin tutadi. Arab tili morfologiyasida bunday birikmalar ikki mustaqil komponentning sintaktik aloqasi (izofayi lafziy) natijasida hosil boʻlsa, eski oʻzbek tili tizimida ular maʼlum bir tushuncha, mansab yoki asar nomini anglatuvchi yaxlit leksik birlik (leksikalizatsiya) maqomini olgan.

Ushbu qolipdagi oʻzlashmalarning eski oʻzbek tiliga moslashishida arab tili artiklining (ال) talaffuz qonuniyatlari – qamariy va shamsiy tovushlar taʼsiri saqlanib qolgan. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumidagi birinchi dostoni nomi ushbu tipdagi birikmalarning yaqqol namunasi. Shoir dostonning xotima qismida asar nomining qoʻyilish sababini quyidagicha izohlaydi:

*Hayrati abror koʻrub zotini,*

*“Hayratul-abror” dedim otini*[1, 262].

Birikma birinchi komponent — *hayrat* (ajablanish), aniqlik artikli – *ul-* va ikkinchi komponent – *abror* (yaxshilar, pokiza kishilar) soʻzlaridan tashkil topgan. Bu yerda ikkinchi komponentning bosh harfi “a” (*alif*) qamariy harf boʻlgani uchun artikldagi “l” tovushi saqlanib

qolgan. Alisher Navoiy ushbu birikmani shunchaki nom sifatida emas, balki olam sirlarini anglab, ilohiy hikmatlardan lol qolgan orif insonlarning holatini ifodalovchi terminologik birlik sifatida leksikalizatsiyalashtirgan. Bu tipga “*Maxzanul-asror*”, “*Matlul-anvor*”, “*Tuhfatul-ahror*”, “*Mahbubul-qulub*”, “*Mezonul-avzon*” kabi juda ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Mumtoz astronomiya va manbashunoslikda faol qo‘llaniladigan falakiyot atamalaridan biri *samtur-ra’s* سَمْتُ الرَّأْسِ birikmasidir. Ushbu istiloh ikki komponentdan: arabcha *samt* (yo‘nalish, tomon) va *ra’s* (bosh) leksemalarining izofali birikuvidan hosil bo‘lgan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda osmon gumbazining eng yuqori nuqtasi – *zenit* ma‘nosini ifodalaydi.

Arab tili leksikologiyasining mo‘tabar manbalaridan biri hisoblangan “Mu‘jamu-l-ma‘oniy al-jomi” معجم المعاني الجامع qomusida ushbu istilohga quyidagicha ilmiy ta‘rif berilgan: “*Samtur-ra’s* – falakiyot ilmida kuzatuvchining boshi ustida perpendikulyar (tik) ravishda joylashgan nuqtadir” [10].

Etimologik jihatdan tahlil qilinganda, mazkur birikmaning o‘zagi bo‘lgan *samt* سَمْتُ so‘zi aslida “yo‘l”, “yo‘nalish” va “qasd qilish” ma‘nolarini anglatadi. Shunga ko‘ra, *samtur-ra’s* birikmasining semantik kalkasi “bosh tomon yo‘nalishi” yoki “bosh ustidagi yo‘l” mazmunini beradi. Ilmiy kontekstda bu tushuncha kuzatuvchi turgan nuqtadan osmonga qarab o‘tkazilgan tik chiziqning (vertikal) osmon sferasi bilan kesishgan yuqori nuqtasiga nisbatan ishlatiladi.

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnlarda va she‘riyatda ushbu o‘zakdan yasalgan so‘zlar (masalan, *somin* – yuksak, *sama* – yuksalmoq) ko‘chma ma‘noda “oliylik”, “ulug‘vorlik” va “yuksaklik”ni ifodalash uchun ham xizmat qilgan. Biroq qat‘iy ilmiy terminologiyada *samtur-ra’s* faqat astronomik koordinata tizimidagi zenit nuqtasini ifodalashga ixtisoslashgandir.

**Xulosa va takliflar.** Arabiy izofa konstruksiyalarining eski o‘zbek tiliga o‘zlashishi shunchaki mexanik jarayon bo‘lmay, balki murakkab leksik-semantik transformatsiyani aks ettiradi. Ikki va undan ortiq komponentli birikmalar o‘zbek tili muhitida grammatik mustaqilligini yo‘qotib, yagona tushunchani ifodalovchi yaxlit leksemalarga aylangan. Bu jarayon eski o‘zbek tilining leksik tarkibini boyitish bilan birga, ilmiy, diniy va badiiy tafakkurning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan. *Sohibqiron*, “*Hayratul-abror*”, *samtur-ra’s* kabi misollar izofali birikmalarning terminologik barqarorlashuvi va yangi semantik maqom kasb etishini yaqqol ko‘rsatadi.

Arabiy izofa konstruksiyalarining eski o‘zbek tiliga o‘zlashuvi oddiy leksik qabul jarayoni emas, balki murakkab struktur-semantik transformatsiya natijasidir. Arab tilida erkin sintaktik birikma sifatida shakllangan ism + artikl + ism tipidagi qurilmalar turkiy muhitda grammatik mustaqilligini yo‘qotib, yagona nominativ ma‘no anglatuvchi mustaqil leksemalarga aylangan.

Demak, arabiy tarkibli birikmalar eski o‘zbek tilining ilmiy, diniy va badiiy uslubini boyitgan, abstrakt tushunchalarni ifodalash imkoniyatini kengaytirgan va tilning nominativ salohiyatini oshirgan. Ushbu jarayon til kontaktlari natijasida yuzaga keladigan leksik-semantik integratsiyaning klassik namunasi sifatida baholanishi mumkin. Natijada, izofa konstruksiyalarining o‘zlashuvi eski o‘zbek tili leksik qatlamining shakllanishida muhim omil bo‘lib, u til tarixining struktur va semantik taraqqiyot bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 262
2. Алишер Навои асарлари тилининг изоҳли луғати: 4 томлик Э.И.Фозилов таҳрири остида. Т. 1. / Таҳрир ҳайъати: А. Н. Кононов ва бошқ. Т., «Фан», 1983. – Б. 656
3. Алишер Навои асарлари тилининг изоҳли луғати: 4 томлик Э.И.Фозилов таҳрири остида. Т. 3. / Таҳрир ҳайъати: А. Н. Кононов ва бошқ. Т., «Фан», 1984. – Б. 624
4. Алишер Навои асарлари тилининг изоҳли луғати: 4 томлик Э.И.Фозилов таҳрири остида. Т. 4. / Таҳрир ҳайъати: А. Н. Кононов ва бошқ. Т., «Фан», 1985. – Б. 636
5. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати» / М.Абдуқадир. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2018. – 560 б.
6. Фозилов Э.И. Алишер Навоий асарлари луғати: К.1/Е.И.Фозилов. – Т.: – Т.: “Nisoraligraf, 2013. – Б. 1008
7. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: Восточная литература, 2001. – С. 585
8. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. 2-жилд. 1-китоб. “Фирдавсул-иқбол” Нашрга тайёрловчилар: И.Бекчонов, Н.Полвонов. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти,
9. Mu’jamu-l-ma’oniyy al-jomi’ (Arabcha-arabcha universal izohli lug’at).
10. Maqola: «الرَّأْسِ سَمْتٌ». Elektron manba: almaany.com.

**Received:** 01 March 2026

**Accepted:** 15 March 2026

**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE TRADITION OF "TOYNOMA" IN KHOREZM HISTORIOGRAPHY: FORMATION AND COMPOSITIONAL STRUCTURE**

**Askarova Zulaykho Yangiboevna**

independent researcher of the Khorezm Mamun Academy

E-mail: [askarovazulayxo@gmail.com](mailto:askarovazulayxo@gmail.com)

**Abstract.** This article is devoted to the study of the tradition of "Tuynomeh" formed in Khorezm historiography and its compositional structure. The main attention is paid to the masnavi dedicated to the circumcision ceremony of Rahimkuli Khan's children in Muhammad Rizo Ogahi's work "Riyazu-d-davla." The scientific significance of this source as a unique historical source illuminating the political and diplomatic life of the Khiva Khanate has also been studied.

**Keywords:** To'ynoma, Khorezm literary environment, Muhammad Rizo Ogahiy, Shermuhammad Munis, masnavi, ethnographic information.

## **XORAZM TARIXNAVISLIGIDA "TO'YNOMA" AN'ANASI: SHAKLLANISHI VA KOMPOZITSION TUZILISHI**

**Asqarova Zulayxo Yangiboyevna**

Xorazm Ma'mun akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Xorazm tarixnavisligida shakllangan "To'ynoma" an'anasi va uning kompozitsion tuzilishini o'rganishga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor Muhammad Rizo Ogahiyning "Riyozu-d-davla" asaridagi Rahimqulixon farzandlarining xatna to'yiga bag'ishlangan masnaviyga qaratilgan. Shu bilan birga, u Xiva xonligining siyosiy va diplomatik hayotini yorituvchi noyob tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** to'ynoma, Xorazm adabiy muhiti, Muhammad Rizo Ogahiy, Shermuhammad Munis, masnaviy, etnografik ma'lumot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N20>

**Kirish.** Muhammad Rizo Ogahiyning "Riyozu-d-davla" asaridagi Rahimqulixon farzandlarining xatna to'yi tasviriga bag'ishlangan masnaviyasi ("To'ynoma") Xorazm adabiy muhitida shakllangan maxsus an'ananing mantiqiy davomidir. Bu an'ananing nazariy va amaliy asoslarini dastlab Ogahiyning ustozlari va amakisi Munis Xorazmiy boshlab bergan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Buning dalili sifatida O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan nodir qo'lyozmani keltirish mumkin. Manbalarda qayd etilishicha, "To'ynomai Munis Mirob" deb nomlangan ushbu asar 1228-hijriy (1813-melodiy) yilda Muhammad Rahimxon I ning o'g'li Rahmonquli to'raning xatna to'yi munosabati bilan bitilgan[5; 2b-3a.].

Ogahiyning "Riyozu-d-davla" asaridagi "To'ynoma" masnaviysining janriy ildizlari va tarixiy-adabiy qimmatini tadqiq etishda, ushbu yo'nalishning Xiva xonligi adabiy muhitida shakllangan o'ziga xos an'alariga e'tibor qaratish lozim. Tarixiy manbashunoslikka oid

so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xonlikda hukmdorlar yoki yuqori martabali davlat arboblari tomonidan o'tkaziladigan tantanali marosimlarga bag'ishlab maxsus she'rlar bitish va ularni to'plam holiga keltirish barqaror an'anaga aylangan edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Manbalarda "To'ynoma" deb ataluvchi bunday bag'ishlov she'rlarning ayrimlari Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va boshqa muarrixlarning tarixiy asarlari tarkibiga singdirilgan bo'lsa, ba'zilar alohida to'plam holda bizgacha yetib kelgan. Xususan, Sharqshunoslik instituti manbashunos olimi H.Lutfillayevning qayd etishicha, "Shermuhammad Munis turli shoirlar tomonidan yozilgan shunday she'rlarni bir joyga yig'ib, so'zboshi bilan ta'minlagan holda alohida ikkita to'plam ham tuzgan. Ulardan birinchisi 1813-yili tuzilgan bo'lib, u Muhammadrahimxon I ning o'g'li Rahmonquli to'raning sunnat to'yiga bag'ishlab yozilgan she'rlardan iborat. Ikkinchi to'plam esa 1829-yilda Allohqulixon buyurtmasi bilan tuzilgan hamda bir necha shahzodalarning nikoh va xatna to'ylariga atab yozilgan bag'ishlovlarni o'z ichiga oladi"[4; B. 440.]

**Tahlil va natijalar.** Ogahiy "Riyozu-d-davla"da keltirgan "To'ynoma" masnaviysi stixiyali ravishda paydo bo'lgan she'riy parcha emas, balki ustoz Munis tomonidan 1813- va 1829-yillarda asoslangan adabiy an'ananing mantiqiy davomidir. Farqi shundaki, Munis turli shoirlarning she'rlarini antologiya qilgan bo'lsa, Ogahiy tarixiy asar ichida o'zining mualliflik masnaviysini yaratdi va unda butun bir davr manzarasini chizdi.

Bugungi kunda Toshkent va Sankt-Peterburg fondlarida saqlanayotgan mazkur "To'ynoma"lar nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-faktologik qiymatga ham ega. Tadqiqotchilarning e'tiroficha, "To'ynoma"lar faqat janr xususiyatlari bilangina muhim bo'lmay, ularda ba'zan boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli ma'lumotlar ham keltiriladi. "Masalan, Xiva xonligidagi amaldorlarning qaysi taxallusda ijod qilganligi, qozoq sultonlari bilan quda-andachilik munosabatlari, hech qaysi manbada uchramaydigan shoirlarning masnaviylari shu to'plamlarda keltirilgan"[4; B.380.]

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ogahiyning "Riyozu-d-davla"dagi "To'ynoma" masnaviysi ham faqat badiiy tasvir vositasi emas, balki diplomatik aloqalar (xorijiy elchilarning ishtiroki), ijtimoiy iyerarxiya va madaniy hayot haqidagi noyob ma'lumotlarni she'riy yo'l bilan muhrlagan ishonchli tarixiy hujjat vazifasini o'taydi.

"Riyozu-d-davla" asaridagi "To'ynoma" masnaviysining janriy ildizlarini tadqiq etishda, ushbu atamaning manbalardagi ilk qo'llanish o'rniga e'tibor qaratish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tarixiy va adabiy manbalarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, "To'ynoma" termini ilmiy iste'molga bevosita Ogahiyning ustoz Shermuhammad Munis tomonidan kiritilgan. Buni biz Xorazm tarixnavisligining shoh asari bo'lmish "Firdavsul-iqbol"ning Munis qalamiga mansub qismida uchramiz. Xususan, asarning vaziri a'zam Muhammad Amin mehtar tomonidan tashkil etilgan hashamatli to'y tasviriga bag'ishlangan o'rnida muarrix shunday yozadi: "...Oftobi zarrinkuloh bovujudi shavkat-u kamoli shuao'ining jorubi mulamma'i bila farroshlig'g'a keldi va Zuhroyi ishratkash changi nozik ohangig'a zulfi mushkboridin avtor bog'lab, navosozliq og'oz qildi va Atorudi tezhush qalami mushkinraqamin olib, *to'ynoma* xayolida sahifatirozliq ko'rguzdi"[8; B.235.]

Demak, Munis *to'ynoma* so'zini shunchaki she'r nomi sifatida emas, balki muayyan tarixiy voqeani (to'yni) badiiy muhrlash jarayonining atamasi sifatida qo'llagan. Shu bilan birga, muarrix bu janrning martabasini shu qadar yuksakka ko'taradiki, uni yozish uchun falak kotibi hisoblangan Atorud (Merkuriy sayyorasi) qalam tebratadi, deb tasvirlaydi. Ko'rinadiki, Ogahiy

“Riyozu-d-davla”da “To‘ynoma” masnaviysini yaratishda ustoz Munis asos solgan nazariy va amaliy an‘anaga qat‘iy rioya qilgan. U “Firdavsul-iqbol”da tilga olingan “to‘ynoma xayoli”ni real tarixiy asar tarkibidagi mukammal badiiy polotnoga aylantirdi. Bu esa Ogahiyning janrlar tadrijidagi vorislik tamoyiliga sadoqatini yana bir bor isbotlaydi.

Ogahiy “Riyozu-d-davla”dagi masnaviysini yozishda aynan ushbu qo‘lyozmada aks etgan an‘anaga – voqeani tarixiy hujjat sifatida muhrlash va badiiy doston darajasiga ko‘tarish tamoyiliga amal qilgan.

Adabiy manba sifatida Ogahiy “To‘ynoma”si quyidagi jihatlari bilan qimmatlidir:

1. Ogahiy tarixiy nasr (xronika) ichida epik she‘riyat (doston) unsurlarini mujassamlashtirgan. “To‘ynoma” mustaqil kompozitsiyaga (kirish, voqealar rivoji, kulminatsiya va xotima) ega.
2. Masnaviyda tasvirlangan mushoira jarayoni o‘sha davr shoirlarining badihago‘ylik mahoratini ko‘rsatadi.
3. Ogahiyning “To‘ynoma”si shunchaki bazm tasviri emas, balki Xiva xonligining siyosiy qudrati va tashqi aloqalarini namoyish etuvchi muhim hujjatdir. Masnaviyda to‘yga tashrif buyurgan qo‘shni davlatlar elchilari, ularni kutib olish tartibi va o‘tirish o‘rni (iyerarxiya) qat‘iy tartibda bayon qilinadi.
4. Shahzodalarning xatna to‘yi – sulola davomiyligini ta‘minlash va bo‘ljak valiahdlarni elga tanitish marosimi sifatida siyosiy tusga ega bo‘lgan. Ogahiy xonning saxovatini (xalqqa in‘omlar ulashishini) tasvirlash orqali hukmdorning “odil podshoh” obrazini yaratadi.

“To‘ynoma”ning eng katta ilmiy qimmatini uning etnografik axborotga boyligidadir. Taniqli etnograf N.P.Lobacheva ta‘kidlaganidek: “Nikoh (va to‘y) marosimlari majmui jamiyat tuzilishi, dunyoqarashi va etnik muhit madaniyatini qoldiq sifatida o‘zida aks ettiradi... Shu bois to‘y marosimini xalqlarning etnik tarixini o‘rganishda tarixiy-etnografik manba sifatida foydalanish mumkin”[3; B.39-48.]

Ogahiy masnaviysi N.Lobachevaning ushbu nazariy qarashlarini tasdiqlovchi quyidagi etnografik detallarni o‘z ichiga oladi:

1. To‘y dasturxoniga tortilgan noz-ne‘matlar, shirinliklar va taomlar ro‘yxati (palov, sho‘rva va hokazo) o‘sha davr Xorazm pazandachiligi va mehmondorchilik madaniyati haqida noyob ma‘lumot beradi.
2. Asarda ko‘pkari (uloq), kurash, dorbozlik va qo‘chqor urishtirish kabi xalq tomoshalari dinamik tarzda tasvirlangan. Bu esa to‘yning nafaqat oilaviy, balki umumxalq bayrami (sayil) xarakterida bo‘lganini ko‘rsatadi.
3. To‘ydagi mehmonlarning joylashuvi (to‘rda xon va amaldorlar, poygakda fuqarolar) o‘sha davr jamiyatidagi ijtimoiy stratifikatsiyani (tabaqalanishni) aniq ko‘rsatib beradi.

Ogahiyning “To‘ynoma”si mumtoz epik an‘analarga sodiq qolgan holda lirik muqaddima – soqiyga xitob bilan boshlanadi. Adabiyotshunoslikda e‘tirof etilganidek, soqiynomalar mustaqil janr bo‘lish bilan birga, yirik epik asarlar (dostonlar) tarkibida lirik chekinish yoki bob boshlanishi vazifasini ham o‘tagan[1; B.20.]

Ogahiy “To‘ynoma”sidagi ushbu qism quyidagi ilmiy-nazariy jihatlari bilan ahamiyatlidir:

1. Irfoniy va falsafiy mazmun talqini. Muqaddimada shoir soqiyga murojaat qilar ekan, zohiran ishrat majlisini tasvirlayotgandek tuyulsa-da, botinan rindona ruh va irfoniy ma'nolarni ifodalaydi.

To'yona ayog'lar manga tut,  
Gulrang sharoblar ila to'la tut.

Ogahiyshunos olimlar va soqiynoma tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, mumtoz she'riyatda, xususan, Navoiy va Ogahiy ijodida *may* (sharob) obrazi ko'pincha *ma'rifat suvi*, *ilohiy ishq* yoki *ijodkor ruhini poklab, unga kuch beruvchi vosita* timsolida keladi. Ogahiy "To'ynoma"sidagi soqiynoma ham aynan shu vazifani – o'quvchini va shoirning o'zini katta epik tasvirga ruhiy tayyorlash vazifasini o'taydi

M.Asadov o'z tadqiqotlarida *may* timsolining lirik qahramon ruhiyatidagi o'rnini tahlil qilib, uning rang va ruhiyat tasviridagi ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. Ogahiyning ushbu matnida *may* (*gulrang sharob*) jismoniy mastlik uchun emas, balki quyidagi ikki maqsad uchun so'ralmoqda: "*Bo'lub taru toza ruh har dam*" – shoir kundalik tashvishlardan xoli bo'lib, ijodiy parvozga shaylanmoqchi. "*Ko'nglimga yetib futuh har dam*" – bu yerda "futuh" so'zi qalb ko'zining ochilishi va ilhom kelishi ma'nosida qo'llangan.

Ogahiy soqiynomadan so'ng bevosita maqsadga ko'chadi. Uning maqsadi shunchaki to'yni tasvirlash emas, balki *aql ahliga dilpazir* (yoqimli) va *benazir* (tengsiz) san'at asari yaratishdir:

*Ya'niki, olib qo'lumg'a xoma,  
Sabt aylayin uyla to'ynoma.  
Kim san'ati benazir tushgay,  
Aql ahlig'a dilpazir tushgay.*

Bu misralar Ogahiy tarixiy asarlarining *adabiy manba* sifatidagi qiymatini oshiradi. U tarixchi sifatida faktni (to'yni) qayd etsa, shoir sifatida uni yuksak san'at darajasiga ko'tarishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

*Ayla karaming zamon-zamon ko'p,  
Lutfu shuming dag'i ayon ko'p.*

Bu o'rindagi *shum* so'zi zamonaviy "baxtsizlik" ma'nosida emas, balki arab tilidagi *shamam* (yuksaklik, tog' cho'qqisi, ulug'vorlik) yoki *asham* (oliyjanob, mard) so'zlari bilan o'zakdosh bo'lib, *yuksak himmat, ulug'vorlik* ma'nosini bildiradi. Shoir soqiyning (yoki mamduhning) lutfi va oliyhimmatligi ziyoda bo'lishini tilamoqda.

Shuningdek, tashbeh (o'xshatish) va istiora san'atlari matnning ta'sirchanligini oshirgan: "*Gullar ochibon yorug' yuzingdin*" – yuzning nurliligi gul ochilishiga qiyoslangan; "*Durlar sochibon chuchuk so'zingdin*" – so'z qimmatbaho durga o'xshatilgan.

Ogahiyning "To'ynoma"sidagi ushbu parcha shunchaki to'y tasviriga kirish emas, balki muallifning borliqning yaralishi (ontologiya), jamiyat tuzilishi (sotsiologiya) va davlat boshqaruvi (siyosatshunoslik) haqidagi yaxlit falsafiy qarashlari ifodasidir.

Masnaviy an'anaviy hamd (Allohga maqtov) ruhida, ammo chuqur irfoniy mazmun bilan boshlanadi:

*To tuzmak uchun xudoyi qodir,  
O'z jilvayi husnig'a mazohir.  
Yo'qdin qilibon jahonni paydo,  
Ashyoni ham ayladi huvaydo.*

Bu yerda Ogahiy tasavvuf falsafasidagi vahdat ul-vujud ta'limotiga ishora qilmoqda. Olam – Yaratganning “husn jilvasi” namoyon bo'ladigan ko'zgu (mazohir)dir. J.Xalliyev ta'kidlaganidek, “Mumtoz matndagi ma'rifiy-falsafiy leksika muallifning dunyoqarashi va borliqni idrok etish darajasini ko'rsatuvchi asosiy vositadir”[6]. Ogahiyning “yo'qlik” (*adam*) va “borliq” (*vujud*) dialektikasini tasvirlashi uning nafaqat tarixchi, balki yetuk mutafakkir ekanini ko'rsatadi.

Shoir koinotning yaralishidan sekin-asta inson (bani Odam) va jamiyat mavzusiga o'tadi. Uning fikricha, inson uchun Yerda “ma'vo” (yashash joyi) hozirlangan va bu jamiyat ma'lum qonuniyatlar asosida shakllangan:

*Kishvarlar etib bino sarosar,  
Qo'rg'on tuzatib yana sarosar.  
Har kishvar aro bo'lub biri shoh,  
Har qo'rg'on aro topib biri joh.*

Bu baytlarda Ogahiy ijtimoiy ierarxiyaning zaruriyatini asoslaydi. Uning nazdida davlatchilik (“kishvar”, “qo'rg'on”) va hokimiyat (“shoh”, “joh”) – ilohiy nizomning yerdagi davomidir.

Parchaning eng muhim ijtimoiy-siyosiy qismi – bu hukmdorlarning tasnifidir. Ogahiy tarixchi sifatida hukmdorlarni axloqiy mezonlar asosida ikki qutbga ajratadi:

*Biri qilibon adolat oyin,  
O'z mulkini etdi ravzatazyin.*

Bunday hukmdorning faoliyati mamlakatni “jannat bezagi” (*ravzatazyin*)ga aylantiradi. Ogahiy tarixiy asarlarida “adolat” konsepti markaziy o'rin tutib, u “mamlakat ravnaqi va el osoyishtaligining garovi” sifatida talqin qilinadi.

*Aylab birisi rasmi javr bunyod,  
Ko'kdin anga dag'i yetti bedod.*

Bu o'rinda Ogahiy chuqur falsafiy xulosani ilgari suradi: zulm (*javr*) qilgan hukmdor, albatta, osmondan (taqdirdan) “bedod” (jazo, balo) oladi. Bu –“qaytar dunyo” falsafasining tarixiy-badiiy ifodasidir.

Ba'zi o'rinlarda Ogahiy hokimiyatning o'tkinchiligi va dunyoning vafosizligi haqidagi hikmatni bayon qiladi:

*Gar birisi ko'si rihlat urdi,  
Yuz shahri adam sori evurdi.*

Bu yerda “ko'si rihlat” (ko'chish, vafot etish nog'orasi) va “shahri adam” (yo'qlik shahri) obrazlari orqali shoir har qanday hokimiyat muvaqqat ekanligini, shohlar kelib-ketaverishini, lekin “rasm” (qonun-qoida, yaxshi yoki yomon nom) qolishini ta'kidlaydi. Bu Ogahiyning tarix falsafasiga oid qarashlarini aks ettiradi.

“To'ynoma” shaklan masnaviy (har bayt alohida qofiyali: *aa, bb, cc...*) bo'lsa-da, mazmunan va kompozitsion jihatdan mumtoz qasida janri qonuniyatlariga qat'iy amal qiladi. Adabiyotshunoslikda e'tirof etilganidek, qasida janri *nasib* (lirik muqaddima), *gurezgoh* (o'tish qismi), *madh* (asosiy qism) va *duo* (yakun) kabi qismlardan iborat bo'ladi[7; – B.12.]

**Xulosa va takliflar.** Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asaridagi masnaviy janri poetikasi, uning badiiy-tipologik xususiyatlari va “To'ynoma”ning epik tabiatini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirish mumkin. Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrida masnaviy janri shunchaki lirik chekinish yoki voqealar bezagi emas, balki asarning g'oyaviy-

badiiy yukini ko'taruvchi, tarixiy haqiqatga emotsional-falsafiy baho beruvchi asosiy konstruktiv (epik) unsurdir. Asardagi masnaviylar kompozitsion vazifasiga ko'ra to'rtta yirik tipologik guruhga: tavsifiy-peyzaj, voqeaband (epik), madhiyaviy (panegirik) hamda lirik-falsafiy (didaktik) masnaviylarga ajratiladi.

Voqeaband (syujetli) masnaviylar orqali muarrix quruq tarixiy xronikaga kuchli ruhiy-psixologik va ijtimoiy dinamika olib kiradi. Harbiy yurishlar (razm) tasviridagi masnaviylarda insoniy fojialar (asirlik uqubatlari) realistlik bo'yoqlarda chizilgan.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида соқийнома (генезиси, тараққиёт босқичлари, поэтик хусусиятлари): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.
2. Асадов М. Май мавзусидаги шеърларда ранг ва руҳият тасвири // Турк халқлари адабиёти... – Боку, 2015. – Б. 271–274.
3. Лобачёва Н. П. Свадебный обряд хорезмских узбеков // Краткие сообщения Института этнографии АН СССР. – Москва: Изд-во АН СССР, 1960. – Вып. XXXIV. – С. 39–48.
4. Лутфиллаев Н. М. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти манбашунослик бўлимининг истиқболлари // Ўзбекистонда тарихий манбашуносликнинг долзарб масалалари: халқаро илмий-амалий анжумандаги мақолалар тўплами. – Тошкент, 2024. – Б. 440.
5. То'уномайи Munis Mirob. – O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondi, inv. № 12556. Ko'chirilgan sanasi: 1924-yil 11-yanvar / 1342 hijriy, 6-jumadi us-soniy. Kotib: Mulla Hasanmurod qori Muhammad Amin o'g'li. – 2b-3a-varaqlar.
6. Халлиев J.I. Ogahiyning tarixiy asarlarida ma'rifiy-falsafiy leksika. Filol. fan. falsafa doktori (PhD) diss... – Urganch, 2019.
7. Хасанова М. XV аср туркий шеърлятида қасида жанри: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2018.
8. Shir Muhmmad Mirab Munis and Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. – Б. 235.

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW**

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

**CONSTITUTIONAL AND LEGAL MEANING OF THE CONCEPT OF HEALTHCARE**

**Shagilova Gulxatisha**

Associate Professor of  
Karakalpak State University

**Abstract.** In this article, the constitutional and legal content of the concept of "healthcare" is analyzed based on a comprehensive approach. Healthcare is considered one of the natural and inalienable human rights and an important component of the concept of a social state. The author reveals the theoretical and legal foundations of this right, its constitutional nature, its features as a subjective right, and the relationship between the positive obligations of the state.

**Keywords:** healthcare, constitutional law, human rights, state guarantees, social state, medical services.

**SOG'LIQNI SAQLASH TUSHUNCHASINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAZMUNI**

**Shagilova Gulxatisha Koptleuovna**

Qoraqalpoq davlat Universiteti  
"Inson huquqlari, davlat huquqi va boshqaruv"  
kafedrası dotsent v.b.  
E-mail: [shagilovag@gmail.com](mailto:shagilovag@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada "sog'liqni saqlash" tushunchasining konstitutsiyaviy-huquqiy mazmuni kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Sog'liqni saqlash insonning tabiiy va ajralmas huquqlaridan biri hamda ijtimoiy davlat konsepsiyasining muhim tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan mazkur huquqning nazariy-huquqiy asoslari, uning konstitutsiyaviy tabiati, subyektiv huquq sifatidagi xususiyatlari va davlatning ijobiy majburiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** sog'liqni saqlash, konstitutsiyaviy huquq, inson huquqlari, davlat kafolatlari, ijtimoiy davlat, tibbiy xizmat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N21>

Insonning hayoti va sog'lig'i – oliy qadriyat hisoblanadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida sog'liqni saqlash tizimini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi yangi tahririda inson qadri, uning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish davlat siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq, O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida e'tirof etilgan. Mazkur konstitutsiyaviy qoida sog'liqni saqlash huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi va uni amalga oshirishda

davlatning ijobiy majburiyatlari mavjudligini anglatadi. Shu ma'noda, sog'liqni saqlash huquqi ijtimoiy davlat konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Insonning hayoti va sog'lig'i oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan sharoitda sog'liqni saqlash huquqining mazmunini aniqlash alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, sog'liqni saqlash nafaqat tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlar majmuasi, balki inson huquqlarining umumiy tizimida mustaqil konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, mazkur tushunchaning huquqiy tabiatini ilmiy jihatdan tahlil qilish uning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Sog'liqni saqlash tushunchasining huquqiy tabiati yuzasidan huquqshunoslik va konstitutsiyaviy nazariyada yagona yondashuv shakllanmagan. Olimlar mazkur tushunchaning mazmuni va hajmi borasida turlicha pozitsiyalarni ilgari suradilar.

Bir guruh olimlar sog'liqni saqlashni asosan tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq sohaviy faoliyat sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, mazkur institutning markazida "tibbiy yordam olish huquqi" turadi. Bunday yondashuvda sog'liqni saqlash huquqi kasallikni davolash va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati bilan cheklanadi. Mazkur pozitsiya muayyan darajada amaliy ahamiyatga ega bo'lsa-da, u sog'liqni saqlash tushunchasining ijtimoiy va konstitutsiyaviy qirralarini to'liq qamrab olmaydi.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa sog'liqni saqlashni keng ijtimoiy kategoriya sifatida ko'radilar. Ularning fikricha, mazkur huquq faqat davolash bilan emas, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ekologik xavfsizlik, sanitariya nazorati, profilaktika va davlatning ijtimoiy siyosatini qamrab oladi. Bu pozitsiya xalqaro standartlarga ham uyg'un bo'lib, xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Nizomida sog'liq "kasallik va nuqsonning yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida ta'riflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson hayoti va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi normalari sog'liqni saqlashni faqat sohaviy emas, balki fundamental konstitutsiyaviy institut sifatida talqin qilishga asos beradi. Shu jihatdan, sog'liqni saqlash huquqini tor ma'nodagi tibbiy xizmat doirasi bilan cheklash uning konstitutsiyaviy mohiyatini sun'iy ravishda qisqartirishga olib keladi.

Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotchilar sog'liqni saqlashni "ijtimoiy xizmat"[1] sifatida baholab, uni bozor munosabatlari doirasida ko'rishni taklif etadilar. Muallif fikricha, bunday yondashuv davlatning ijobiy majburiyatlarini kamsitishi va ijtimoiy tengsizlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Konstitutsiyaviy nuqtai nazardan sog'liqni saqlash – bu tijoriy emas, balki inson huquqlari tizimiga kiruvchi ijtimoiy kafolatdir.

Umumiy sog'liqni saqlash ta'rifi haqidagi umumiy ensiklopediya ta'rifi: «Sog'liqni saqlash — bu ijtimoiy, sanitariya-gigiyena, iqtisodiy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga olgan aholi salomatligini muhofaza qilishni tashkil etuvchi va ta'minlovchi davlat tarmog'idir»[2].

Burova A.A. sog'liqni saqlashni jamiyat hayotining ijtimoiy tizimi sifatida qarash tavsiya etilgan, u sog'liqni saqlashni faqat tibbiy xizmatdan tashqari ijtimoiy munosabatlar va davlat siyosatining muhimi sifatida ko'radi [3]. Bu yondashuv uning konstitutsiyaviy-huquqiy xarakterini keng qamrovda tushuntirish uchun juda qulay — demakki, sog'liqni saqlash nafaqat tibbiy xizmat bilan bog'liq soha, balki jamiyatning ijtimoiy-ekonomik, huquqiy va inson huquqlarini ta'minlovchi tizim ekanligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi nazariy tahlillar asosida quyidagi ilmiy ta'rif taklif berib o'tsak Sog'liqni saqlash — bu insonning hayoti va qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan, shaxsning malakali

tibbiy yordam olishga bo'lgan subyektiv huquqini hamda davlatning sanitariya-epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash, tibbiy infratuzilmani rivojlantirish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ijobiy majburiyatlarini o'z ichiga olgan kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy institutdir.

O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi [4]. Ushbu norma sog'liqni saqlash huquqining konstitutsiyaviy mohiyatini belgilab beradi. Agar inson hayoti oliy qadriyat bo'lsa, demak, uning sog'lig'ini muhofaza qilish davlatning ustuvor vazifasiga aylanadi. Shu jihatdan, sog'liqni saqlash huquqi boshqa ijtimoiy huquqlar ichida markaziy o'rinni egallaydi. Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Konstitutsiyamizning 48-moddasiga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'radi». Bu norma ikki muhim jihatni o'z ichiga oladi: Birinchidan, subyektiv huquq, ya'ni har bir shaxs tibbiy xizmat olishga haqli ekanligi ko'rsatadi va ikkinchidan davlatning ijobiy majburiyati — sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu yerda konstitutsiyaviy norma deklarativ emas, balki faol majburiyat yuklovchi xarakterga ega. Davlat faqat ruxsat beruvchi emas, balki tashkiliy va moliyaviy shart-sharoit yaratuvchi subyekt hisoblanadi. Konstitutsiya davlat zimmasiga sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligini ta'minlash vazifasini ham yuklaydi. Bu norma sog'liqni saqlashni faqat individual huquq emas, balki jamoat xavfsizligi instituti sifatida ham ko'rishga asos beradi. ya'ni, sog'liqni saqlash shaxsiy huquq, jamoat manfaati, davlat xavfsizligi elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Safarova X. sog'liqni saqlashni insonning ijtimoiy huquqlar tizimidagi o'rin bilan bog'lab, uning huquqiy va inson huquqlari bilan bog'liqligini tushuntirgan[5].

Konstitutsiyaviy normalar o'z rivojini «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi[6] qonun qoidalarida topgan.

Mazkur qonunda sog'liqni saqlash quyidagicha ta'riflanadi: fuqarolar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash; kasalliklarning oldini olish; tibbiy yordam ko'rsatish; aholining sanitariya-epidemiologik farovonligini ta'minlash. Bu yerda ko'rinib turibdiki, sohaviy qonun konstitutsiyada belgilangan umumiy prinsiplarni konkretlashtiradi va amaliy mexanizmlarga aylantiradi.

Konstitutsiya normalari va sohaviy qonun tahlili shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash faqat tibbiy va ijtimoiy xizmat emas balki kompleks konstitutsiyaviy institutdir. U bir vaqtning o'zida insonning subyektiv huquqi, davlatning ijobiy majburiyati, ijtimoiy davlat prinsipining amaliy ifodasi, jamoat xavfsizligining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Sog'liqni saqlash huquqi xalqaro huquq tizimida ham mustahkamlangan fundamental huquqlardan biridir. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining[7] 25-moddasida har bir inson o'zining va oilasining sog'lig'i va farovonligi uchun yetarli turmush darajasiga ega bo'lish huquqi kafolatlangan.

Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Nizomida sog'liq tushunchasiga berilgan ta'rif sog'liqni saqlash huquqining mazmunini keng ijtimoiy kategoriya sifatida tushunishga

asos bo'ladir. Unga ko'ra, sog'liq – bu faqat kasallik yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir.

Xalqaro standartlar milliy konstitutsiyaviy normalar bilan uyg'unlashgan holda sog'liqni saqlash huquqining universal xarakterini namoyon etadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar xalqaro huquq tamoyillariga muvofiqligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyada belgilangan normalar nafaqat huquqiy deklaratsiya, balki davlatning aniq ijtimoiy majburiyatlarini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda ushbu majburiyatlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Tibbiy sug'urta tizimining konstitutsiyaviy asoslari: Konstitutsiyaning 48-moddasida tibbiy sug'urtaning turli shakllarini rivojlantirish belgilangan. Bu sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning an'anaviy budjet modelidan ijtimoiy sug'urta modeliga o'tish uchun huquqiy zamin yaratadi. Bunda davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun sug'urta badallarini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olishi ijtimoiy davlat tamoyiliga to'liq mos keladi.

Tibbiyotni raqamlashtirish va "Intellektual tibbiyot": Hozirgi davrda sog'liqni saqlash huquqining mazmuni "elektron sog'liqni saqlashni" (e-health) ham qamrab olmoqda. Masofaviy tibbiy xizmatlar (telemeditsina) va elektron retseptlar tizimining joriy etilishi, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi fuqarolarning malakali tibbiy yordam olish huquqini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xususiy sog'liqni saqlashni rivojlantirish va davlat nazorati: Konstitutsiyada davlat va nodavlat sog'liqni saqlash tizimlarining birgalikda mavjudligi tan olingan. Bu yerda davlatning vazifasi faqat xizmat ko'rsatish emas, balki xususiy sektorda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va xavfsizligi ustidan qat'iy nazoratni o'rnatishdan iboratdir.

Konstitutsiyaviy islohotlarning amaliy natijadorligini sog'liqni saqlash sohasidagi so'nggi statistik ko'rsatkichlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra davlatning tibbiy infratuzilmani rivojlantirish borasidagi majburiyatlari ijrosi sifatida 2024-yil yakuni bo'yicha respublikada shifoxonalar soni 1 972 taga yetib, o'sish sur'ati 37,7 foizni tashkil etdi [8].

Ushbu jarayonlarning hududiy tahlilida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ijobiy o'zgarishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Inson qadri va salomatligi ustuvorligi tamoyili asosida:

Tibbiy xizmatning yaqinligi: O'lis mahallalarda 34 ta yangi tibbiyot punkti tashkil etildi.

Ixtisoslashtirilgan yordam: Nukus shahrida ilk bor 20 o'rinli palliativ yordam markazi (xospis) va 120 o'rinli Bolalar tibbiy reabilitatsiya markazining tashkil etilishi sog'liqni saqlash huquqining barcha qatlamlar uchun inklyuzivligini ta'minlaydi.

Moliyaviy kafolat: 2025-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog'istonda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish to'liq Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali amalga oshirila boshlandi. Bu tizim "mablag' bemor ketidan boradi" tamoyilining konstitutsiyaviy ijrosidir[9].

Shu bilan birga, Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik holat nafas yo'llari kasalliklari ko'rsatkichining respublika o'rtacha darajasidan qariyb ikki baravar yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa Konstitutsiyada belgilangan "qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq"ni sog'liqni

saqlash bilan uzviy bog‘liqlikda ta‘minlash davlatning strategik vazifasi bo‘lib qolayotganini tasdiqlaydi

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, sog‘liqni saqlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mazmunini yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

*Birinchidan*, sog‘liqni saqlash huquqi faqat tibbiy muassasaga murojaat qilish emas, balki yashash uchun qulay atrof-muhit, sog‘lom ovqatlanish va xavfsiz mehnat sharoitlarini ham qamrab oluvchi “sog‘liq uchun huquq” konsepsiyasi sifatida talqin etilishi lozim. Sog‘liqni saqlash tushunchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida faqatgina tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasidan, insonning qadr-qimmatini ta‘minlovchi fundamental ijtimoiy kafolat darajasiga ko‘tarildi. Bu esa davlatning sog‘liqni saqlash sohasidagi rolini “kuzatuvchi” dan “faol tashkilotchi va kafil”ga aylantirdi

Ikkinchidan, qonunchilikda “tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi” tushunchasini aniqlashtirish va uning har bir fuqaro uchun inklyuziv bo‘lishini ta‘minlash zarur.

Uchinchidan, sog‘liqni saqlash huquqining amalga oshirilishi nafaqat huquqiy normalarga, balki mustahkam moddiy-texnik bazaga bevosita bog‘liqdir. Statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag‘larni va shifoxonalar sonini (respublika bo‘yicha 37,7 foizga o‘shish) oshirish orqali konstitutsiyaviy majburiyatlarining moddiy ta‘minotini yaratmoqda. Bu esa sog‘liqni saqlash huquqining deklarativ xarakterdan voz kechib, real hayotiy kuchga ega bo‘layotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, sog‘liqni saqlash — bu insonning fundamental huquqi, davlatning ijobiy majburiyati va ijtimoiy davlat konsepsiyasining asosiy ustunidir. Mazkur huquqni ta‘minlash nafaqat tibbiy muassasalar sonini ko‘paytirishni, balki har bir fuqaroning yashash sharoiti, atrof-muhit tozaligi va tibbiy xizmatdan teng foydalanish imkoniyatini kafolatlaydigan kompleks konstitutsiyaviy tizimni yaratishni anglatadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Вицелярова, К. Н., & Басанова, К. Л. (2015). Здравоохранение как элемент социальной сферы. Концепт, (S13), 1-5.
2. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%97%D0%B4%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%BE%D0%BE%D1%85%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5?utm\\_source](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%97%D0%B4%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%BE%D0%BE%D1%85%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5?utm_source)
3. Бурова, А. А. (2009). Здравоохранение как социальная система человеческого общества. Вятский медицинский вестник, (1), 134.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2023.- 80 b
5. Сафарова Х. (2024). Роль права человека на здоровье в системе социальных прав. Общество и инновации, 5(2/S), 74–83. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp74-83>
6. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida »gi 29.08.1996 yildagi 265-I-son Qonuni// <https://lex.uz/docs/-26013>
7. **Всеобщая декларация прав человека**// [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/declhr.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml)
8. <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/65001-ajsi-viloyatda-shifokhonalar-soni-k-p-3>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2022 — 2024-yillarda aholi salomatligini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish to‘g‘risida” 07.07.2022 yildagi PQ-310-son qarori // <https://lex.uz/en/docs/-6100013>

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **KOREAN PRACTICE OF MINIMIZING HARM IN THE USE OF FIREARMS**

**Komilov Lazizjon Zokirjon ugli,**

Institute for Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs,  
Instructor of the Combat Training Cycle, Captain

**Abstract.** This scientific article analyzes the legal and practical aspects of the use of firearms by law enforcement agencies in ensuring public safety. The study also reveals the differences between the law enforcement model and the military model of firearm use, substantiates that the primary purpose of firearm use is to neutralize a threat, and develops relevant recommendations.

**Keywords:** firearms, harm minimization, proportionality, law enforcement model, military model, public safety, human rights, Korean practice.

## **O'QOTAR QUROLNI QO'LLASH HUQUQIDA ZARARNI MINIMIZATSIYA QILISH BO'YICHA KOREYA AMALIYOTI**

**Komilov Lazizjon Zokirjon o'g'li,**

IIV Malaka oshirish instituti  
Jangovar tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, kapitan

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'qotar qurolni qo'llashning huquqiy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, o'qotar qurolni qo'llashda huquqni muhofaza qilish modeli va harbiy model o'rtasidagi farqlar ochib berilib, o'qotar qurolni qo'llashning maqsadi tahdidni bartaraf etishdan iborat ekani asoslangan va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qotar qurol, zararni minimizatsiya qilish, mutanosiblik, huquqni muhofaza qilish modeli, harbiy model, jamoat xavfsizligi, inson huquqlari, Koreya amaliyoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N22>

**Kirish.** Yangi O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlarini ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan Bosh Qomusimizning II bob 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi [1].

Albatta, mazkur umuminsoniy prinsiplar ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatida ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlaridan munosabatlarning barcha shakllarida inson huquqlarini hurmat qilinishi talab etiladi. Ichki ishlar organi va Milliy gvardiya xodimlari o'z xizmat faoliyatini amalga oshirishda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash kabi vazifalarni samarali bajarish uchun "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunlarda ayrim huquqlar belgilab berilgan. Ushbu huquqlar o'ziga xos vazifalarni bajarish

bilan bir qatorda, o'qotar qurolni qo'llash huquqi alohida ahamiyatga ega. Bir tomondan, o'qotar qurolni qo'llash huquqi boshqa huquqlardan farqli o'laroq, fuqarolarning Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklariga chuqur ta'siri etishi bilan bir qatorda, insonning yashash huquqidan mahrum qilishgacha bo'lgan og'ir va qaytarib bo'lmaydigan oqibatlarining yuqori xavfini vujudga keltiradi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu huquqlar qonunlarga itoatkor fuqarolarni va ichki ishlar organi xodimini qonunni qasddan, qo'pol ravishda buzuvchi shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishidan himoyalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi [2].

Darhaqiqat, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlari jamoat xavfsizligini ta'minlashda majburlov choralarini qo'llash zarurati tug'lsa, zararni imkon qadar kam yetkazishga intilishlari lozimligi qonun bilan belgilab qo'yilgan. Ushbu tartibot ijrosining kasbiy jihatdan yuqori jihatdan ta'minlanishi davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi omil hisoblanadi va insonning manfaatlari yanada kuchliroq himoya qilinadi.


**Metodologiya va adabiyotlar.** Ushbu ilmiy maqola huquqiy-nazariy yondashuv asosida yaratildi. Tadqiqot jarayonida jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llashda zararni imkon qadar kam yetkazilishiga intilish masalasi mantiqiy-huquqiy tahlil metodi orqali o'rganib chiqildi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari xodimlari kasbiy tayyorgarligidagi mazkur huquqiy tartibotning amaliy ta'minlanishi Koreya amaliyotni bilan qiyosiy-huquqiy metod asosida solishtirildi.

**Muhokama.** Zamonaviy davlatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida o'qotar qurolni qo'llash masalasi alohida e'tibor talab etadi. Chunki, o'qotar qurol majburlov choralarining eng keskin va qaytarib bo'lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shakli hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlar amaliyotida o'qotar qurolni qo'llash nafaqat qonuniylik, balki zararni minimizatsiya qilish, inson hayotini maksimal darajada saqlash va mutanosiblik tamoyillariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi. Ana shunday ilg'or tajribalardan biri Koreya Respublikasi amaliyotidir.

Koreya Respublikasida politsiya tomonidan har yili o'rtacha 10 martaga yaqin o'qotar qurol qo'llanadi [3]. Bu esa, xalqaro doirada juda ham past ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbekistonda garchi, bu bo'yicha statistika ochiqlanmasa-da, bu miqdordan ham kam qo'llanilmoqda. Koreya politsiyasi tomonidan o'qotar qurol qo'llashning huquqiy asosi "Politsiya xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi to'g'risida"gi Qonuni (*Act on the Performance of Duties by Police Officers*) hisoblanib, 10-4 moddasida politsiya xodimiga qachon, qanday hollarda, qanday chegarada va qaysi shartlar bilan qurol qo'llash mumkinligi aniq belgilab berilgan. Bu esa o'z navbatida, politsiya xodimini o'zboshimchalikdan cheklashga, fuqarolarning hayoti va daxlsizligini yanada kuchliroq himoya qilishga, qurol qo'llashda faqatgina zarurat va qonuniylik doirasida ruxsat etilishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga 10-1 moddasi 4-bandida "O'limga olib keladigan politsiya vositalarini qo'llash zaruriy minimal darajada cheklanishi kerak.", degan tartibot ham belgilangan [5].

Albatta, Koreya politsiyasi qonunchiligini mazmunan tahlil qilsak, politsiya xodimi tomonidan o'qotar qurolni qo'llash harbiy maqsadlardan ko'ra huquqni muhofaza qilish maqsadiga qaratilganidir. Bunda, politsiya xodimi tomonidan o'qotar qurolni qo'llashda zararni imkon qadar minimizatsiya qilishga insonning hayotiy muhim organlarini mo'ljallashtirishdan tiyilish orqali erishilishi nazarda tutiladi. Koreyaga tashrif mobaynida shu aniq bo'ldiki,

politsiya o'q otish tayyorgarligida asosan ikki turdagi, ya'ni, oyoq shakldagi va sport nishonlarga o'q otiladi.



Bu esa, Koreyada o'qotar qurolni qo'llashda zararni minimizatsiya qilishning amaliy mexanizmi hisoblanadi. Chunki, inson tanasining oyoq qismida ko'krak qismiga nisbatan hayotiy muhim qismlar nisbatan kamroqdir. Koreya politsiyasi xodimlari o'q otish tayyorgarligida bir mashq uchun jami 30 ta o'q otishadi. Shundan 20 ta o'q oyoq shakldagi nishonga (10 tasi turgan holda, 10 tasi o'tirgan holda), 10 ta o'q sport nishoniga (turgan holda) otiladi. Mashq natijalariga ko'ra, jami 200 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan xodimlar mashqni muvaffaqiyatli tamomlagan deb topiladi. Oyoq shakldagi nishon politsiya xodimlariga nostandart vaziyatlarda oyoqni tezkor mo'ljalga olish refleksini shakllantirsa, sport nishoni xodimlarda mo'ljallagan joyga aniq o'q otish texnikasini takomillashtiradi. Bu esa, politsiya xodimlarida yuzaga kelgan vaziyat xususiyatini inobatga olgan holda, qachon zararni minimizatsiya qilish, qachon o'limga olib keluvchi kuchni qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. Politsiya xodimlariga taqdim etilayotgan o'qlar soni ham shundan dalolat bermoqdaki, Koreya politsiyasi amaliyotda o'qotar qurolni qo'llashda politsiya (huquqni muhofaza qilish) modeli harbiy modeldan 2:1 nisbatda ustunlik qilmoqda.

Albatta, o'qotar qurolni qo'llashda harbiy model va politsiya (huquqni muhofaza qilish) modeli bir-biridan farq qiladi. Harbiy modelda qurol qo'llashning maqsadi – dushmanni neytrallashtirishdan iborat bo'lsa, politsiya (huquqni muhofaza qilish) modelining maqsadi – yuzaga kelayotgan tahdidni to'xtatishdan iborat bo'ladi. Harbiy modelda urg'u jangovar samaradorlikka berilgan bo'lsa, politsiya (huquqni muhofaza qilish) modelida inson hayotini maksimal saqlashga harakat qilinadi. Harbiy modelda ko'krak yoki bosh qismini mo'ljalga olish muhim bo'lsa, politsiya (huquqni muhofaza qilish) modelida tahdidni to'xtatish uchun eng kam zarar yetkazadigan nuqta (masalan, oyoq) tanlanadi. Harbiy modelda qurolli to'qnashuv huquqining asoslariga ko'ra harakat qilinsa, politsiya (huquqni muhofaza qilish) modelida inson huquqlari va milliy qonunchilikka ko'ra amaliyot tashkil etiladi. Harbiy modelda o'ldirish ehtimoli odatiy oqibat hisoblansa, politsiya (huquqni muhofaza qilish) modelida o'lim eng oxirgi va nomaqbul natija sifatida malakalanadi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashda asosan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaga o'qotar qurolni qo'llash vakolati berilgan. O'qotar qurolni qanday hollarda qo'llash "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning [6] 24-moddasida, "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunning [7] 31-moddasida keltirilgan bo'lib, quyidagi jadvalda taqqoslab o'tamiz:

Ichki ishlar organlari	Milliy gvardiya
fuqarolarni yoxud o'zini hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, zo'rlik ishlatish bilan qilingan hujumdan himoya qilishda;	hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, zo'rlik ishlatish bilan qilingan hujumdan fuqarolarni yoxud o'zini himoya qilishda;
garovdagilarni ozod qilishda;	garovdagilarni ozod qilishda;
o'ta og'ir jinoyatni sodir etish chog'ida ko'rib qolingan va yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlash imkoni bo'lmasa;	o'ta og'ir jinoyatni sodir etish chog'ida ko'rib qolingan va yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlash imkoni bo'lmasa;
ichki ishlar organlarining o'qotar qurollarini, o'q-dorilarini, portlovchi moddalarini, transport vositalarini, maxsus va jangovar texnikasini egallab olishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda;	o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni, transport vositasini, maxsus va jangovar texnikani egallab olishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda;
fuqarolarning uy-joylariga, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning qo'riqlanadigan obyektlariga, o'ta muhim yuklariga, transport vositalariga, binolariga guruh bo'lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni daf etishda;	fuqarolarning uy-joylariga, qo'riqlanadigan obyektlarga va shaxslarga guruh bo'lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni qaytarishda;
qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsni, shuningdek yonidagi qurolni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarni topshirish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlashda;	qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsni, shuningdek o'zidagi qurolni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarni topshirish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlashda;
jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslarning, o'ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning qamoqdan qochib ketishiga chek qo'yishda, shuningdek ushbu shaxslarni kuch ishlatib ozod qilishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda;	qurolni qo'llash niyati haqida ogohlantirish zarurati tug'ilganda, shuningdek yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo'nalishda o'q otish orqali xavf-xatar signalini berishda yoki yordam chaqirishda.
agar transport vositasining haydovchisi fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga haqiqiy xavf tug'dirsa hamda ichki ishlar organi xodimining qonuniy talablariga qaramay, to'xtashdan bosh tortsa, ushbu transport vositasini shikastlash yo'li bilan to'xtatishda;	
insonning hayoti va sog'lig'iga tahdid solayotgan hayvonni zararsizlantirishda;	
qurol ishlatish niyati haqida ogohlantirish sifatida o'q otishda, yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo'nalishda o'q otish orqali xavf-xatar signali berishda yoki yordamga chaqirishda.	

1. Fuqarolarni yoxud o'zini hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, zo'rlik ishlatish bilan qilingan hujumdan himoya qilishda. O'qotar qurol ko'proq hujum vositasi bo'lib, himoya vositasidan ko'ra ustunroqdir. Bu holatda uni qo'llash vazifasi ichki ishlar organi yoki Milliy gvardiya xodimi yoxud boshqa shaxsga nisbatan bunday tajovuzni amalga oshirayotgan huquqbuzarni zararlashdan iborat bo'ladi. Ushbu bandda

- nazarda tutilgan huquqiy norma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasida [8] belgilangan zaruriy mudofaa tushunchasiga mos keladi. Ushbu sharoitlarda vaziyatga qarab huquqbuzarni jarohatlashga ham, to'liq neytrallashga ham qaratilgan o'qotar qurol qo'llash zarurati yuzaga kelishi mumkin.
2. Garovdagilarni ozod qilishda. Bu holatda o'qotar qurolni qo'llash vazifasi garovga olinganlarni zo'ravonlik bilan ushlab turgan shaxslarni zararlash orqali ularni qutqarish va ozod etishni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Ushbu sharoitlarda, odatda, jinoyatlarning o'ta xavfliligi va ularni sodir etayotgan shaxslar tomonidan, shuningdek garovga olinganlar hamda ularni ozod etish bo'yicha maxsus operatsiyada ishtirok etayotgan ichki ishlar organlari yoki Milliy gvardiya xodimlarining hayotiga real tahdid mavjudligi sababli, huquqbuzarni (huquqbuzarlarni) to'liq neytrallashga qaratilgan o'qotar qurol qo'llash zarur bo'ladi.
  3. O'ta og'ir jinoyatni sodir etish chog'ida ko'rib qolingan va yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlab olish imkoni bo'lmasa. Bu holatda o'qotar qurolni qo'llash vazifasi ushbu shaxsni zararlash orqali uni qochish yoki ichki ishlar organlari yoki Milliy gvardiya xodimlariga qarshilik ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etishdan iborat bo'ladi. Bu yerda faqat huquqbuzarni jarohatlashga qaratilgan o'qotar qurol qo'llash zarurati yuzaga keladi.
  4. O'qotar qurollarni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarini, transport vositalarini, maxsus va jangovar texnikasini egallab olishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda. Bu holatda qurol qo'llash vazifasi mazkur urinishni amalga oshirayotgan shaxslarni zararlash orqali bunday egallab olishning oldini olishdan iborat bo'ladi. Agar huquqbuzar politsiya xodimi yoki fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga bevosita, darhol tahdid solmayotgan bo'lsa, faqat uni jarohatlashga qaratilgan o'qotar qurol qo'llash zarurati yuzaga keladi.
  5. Fuqarolarning uy-joylariga, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning qo'riqlanadigan obyektlariga, o'ta muhim yuklariga, transport vositalariga, binolariga guruh bo'lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni daf etishda. Bu holatda o'qotar qurolni qo'llash vazifasi ushbu obyektlarni egallab olishning oldini olish maqsadida hujum qilayotgan shaxslarni zararlashdan iborat bo'ladi. Bu yerda huquqbuzarni to'liq neytrallashga qaratilgan o'qotar qurol qo'llashni talab qiladigan vaziyatlar ehtimoli yuqori, biroq faqat jarohatlash yetarli bo'lgan holatlar ham mumkin.
  6. Qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsni, shuningdek yonidagi qurolni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarni topshirish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlab olishda. Bu holatda qurol qo'llash vazifasi ushbu shaxsni zararlash orqali uni keyingi qurolli qarshilik ko'rsatish, ko'rsatilgan buyumlarni topshirishdan bo'yin tovlash yoki qochish imkoniyatidan mahrum etishdan iborat bo'ladi. Ushbu sharoitlarda ba'zan ushlab olinayotgan shaxsni to'liq neytrallash zarurati tug'ilishi mumkin (masalan, u o'qotar qurol bilan qarshilik ko'rsatayotganda), ayrim hollarda esa faqat uni jarohatlash yetarli bo'ladi.

7. Jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslarning, o'ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning qamoqdan qochib ketishiga chek qo'yishda, shuningdek ushbu shaxslarni kuch ishlatib ozod qilishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda. Bu holatda qurol qo'llash vazifasi qochishga urinayotgan shaxsni, shuningdek uni zo'ravonlik bilan ozod qilishga urinayotgan shaxslarni zararlash orqali qochish yoki ozod qilishning oldini olishdan iborat bo'ladi. Bu sharoitlarda, zo'ravonlik bilan ozod qilishga urinish bilan bog'liq vaziyatlardan tashqari, huquqbuzarni ta'qibdan qochish imkoniyatidan mahrum etish uchun uni jarohatlashga qaratilgan o'qotar qurol qo'llash yetarli bo'ladi.
8. Agar transport vositasining haydovchisi fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga haqiqiy xavf tug'dirsa hamda ichki ishlar organi xodimining qonuniy talablariga qaramay, to'xtashdan bosh tortsa, ushbu transport vositasini shikastlash yo'li bilan to'xtatishda. Bu holatda Qonun o'q otish maqsadini aniq yo'naltirib bermoqda: transport vositalarini shikastlash yo'li bilan to'xtatishda.
9. Insonning hayoti va sog'lig'iga tahdid solayotgan hayvonni zararsizlantirishda. Bu holatda ichki ishlar organi xodimining maqsadi inson hayoti va sog'lig'ini saqlab qolish uchun xavfli bo'lgan hayvonni zararlash hisoblanadi. Bunda, ichki ishlar organi xodimi hayvonni mo'ljallash va unga o'q otishda aniqlikka, ya'ni tasodifiy shaxslar jabrlanmasligiga e'tibor qaratishi talab etiladi.
10. Qurol ishlatish niyati haqida ogohlantirish sifatida o'q otishda, yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo'nalishda o'q otish orqali xavf-xatar signali berishda yoki yordamga chaqirishda. Bu holatda ham o'q insonning tana qismiga emas, balki xavfsiz nuqtaga yo'naltirilishi lozim.

Shuningdek, politsiya xodimlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llash bo'yicha Rossiya "Politsiya to'g'risida"gi Federal Qonunida keltirilgan tartibotlarni rus olimi A.Axmatgatin tomonidan ham mazmunan tadqiq etilganini guvohi bo'lishimiz mumkin [9].

Shunday qilib, ichki ishlar organlari xodimlari Qonunga asosan, 10 ta holatdan faqatgina garovdagilarni ozod qilishdagina muqarrar o'limga olib keluvchi o'qotar qurolni qo'llashlari mumkin. O'ta og'ir jinoyat sodir etib, qochishga urinayotgan shaxsni ushlab turishda va ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni qochishga yoki ozod bo'lishga bo'lgan urinishlarini to'xtatishda faqat jarohatlash maqsadida o'qotar qurolni qo'llashlari lozim. 24-moddaning 2,5,6,7-xatboshilariga asosan, garchi xavfning xususiyatiga qarab ayrim hollarda o'limga olib keluvchi qurol qo'llash imkoniyati mavjud bo'lsa ham, ichki ishlar organlari xodimlari mazkur vaziyatlarda zararni kamaytirishga imkoniyatiga ham egadirlar. 9,10,11-xatboshilarida nazarda tutilgan hollarda esa qurol qo'llashda inson mo'ljali obyekt sifatida ishtirok etmaydi.

Milliy gvardiya xodimlari Qonunga asosan, 7 ta holatda o'qotar qurolni qo'llashi mumkin bo'lib, ular ham faqatgina garovdagilarni ozod qilishdagina muqarrar o'limga olib keluvchi o'qotar qurolni qo'llashlari mumkin. O'ta og'ir jinoyat sodir etib, qochishga urinayotgan shaxsni ushlab turishda faqat jarohatlash maqsadida o'qotar qurolni qo'llashlari lozim. 31-moddaning 2,4,5,6-xatboshilarida belgilab o'tilgan hollarda esa, Milliy gvardiya xodimlari o'limga olib keluvchi qurol qo'llash bilan birga, zararni minimizatsiya qilish imkoniyatiga ham egadirlar. 7-xatboshiga asosan ogohlantirish maqsadida o'qotar qurolni xavfsiz nuqtaga qo'llashda inson – obyekt mo'ljali bo'lmaydi. Ko'rinib turibdiki, o'qotar qurolni qo'llashda zararni minimizatsiya

qilish holatlari muqarrar o'limga olib keluvchi qurolni qo'llash holatlaridan bir muncha ko'proq. Shu bilan birga, zararni minimizatsiya qilishga amal qilish ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlari uchun qonunchilikda shart sifatida belgilangan. Shuning uchun xodimlarda harbiy modeldagidek, har doim ham nishonni ko'krak yoki bosh qismini mo'ljalga olish ko'nikmasini shakllantirish huquqiy maqsadlarga zid kelishi mumkin. Zero, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya statusi o'zaro uch nuqtada birlashadi:

- 1) Huquqni muhofaza qiluvchi organlar.
- 2) Jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari.
- 3) Qurolli Kuchlar tarkibidagi tuzilmalar.

Biz bu yerda ham huquqni muhofaza qilish modeli va harbiy modelning 2:1 nisbatini ko'rishimiz mumkin.

**Natija.** Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlarining o'q otish tayyorgarligida qo'llaniladigan nishon turlari ularning kuch qo'llash haqidagi psixologik qaror qabul qilish modelini shakllantiradi. Hozirda O'zbekiston ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya o'q otish tayyorgarligi mashg'ulotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, o'q otish mashg'ulotlari hali ham 4-sonli ko'krak qiyofali nishonga o'q otish orqali tashkil etilmoqda. 2025-yil oktyabr oyidan boshlab ichki ishlar organlarida o'q otish tayyorgarligini tashkil etish bo'yicha yangi idoraviy normativ hujjat ishlab chiqildi va oyoq shakldagi nishon amaliy mashg'ulotni o'tkazish uchun tatbiq etildi. Biroq hozirgi kunda ushbu nishondan o'q otish mashg'ulotlarida foydalanish hali ham boshlang'ich darajada ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Milliy gvardiya o'q otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida esa 4-sonli ko'krak qiyofali va 8-sonli bo'y shakldagi nishon asosiy nishon hisoblanmoqda. Ko'krak qiyofali nishon harbiy modeldagi o'q otish mashqi uchun samarali hisoblanadi. Bunda xodim nostandart vaziyatga tushganida insonning ko'krak qismiga tezkor o'q otish ko'nikmasini shakllantirish orqali o'zida o'limga yo'naltirilgan avtomatizmni shakllantiradi. Biroq ushbu nishon huquqni muhofaza qilish (politsiya) modeli uchun amaliy o'q otish mashg'ulotida o'qotar qurolni qo'llashda zararni kamaytirish shartiga ziyon yetkazishi mumkin. Chunki, o'q otish tayyorgarligi huquqni muhofaza qilish (politsiya) modelida mashg'ulot o'ldirish emas balki funksional to'xtatishga asoslanishi lozim. Shu sababli, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya o'q otish tayyorgarligini qonunchilikda belgilanganidek, zararni minimizatsiya qilish shartini hisobga olgan holda o'quv dasturlarini yangicha tartibda ishlab chiqish va tashkil etish tavsiya etiladi.

Xususan, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida, Malaka oshirish institutida va Jamoat universitetining "Yo'l-patrul xizmatining qo'mondonlik-taktik faoliyati", "Patrul-post xizmatining qo'mondonlik-taktik faoliyati" va "Pasport tizimini huquqiy ta'minlash" [10] yo'nalishlarida o'q otish tayyorgarligini "Muhokama" qismida tahlil qilinganidek, huquqni muhofaza qilish (politsiya) modelini va harbiy modelga qiyosan, 2:1 nisbatda tashkil etish lozim. Shunda zararni qonunchilikda belgilangan zararni minimizatsiya qilish shartini real ta'minlanishiga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, zamonaviy davlatlarda o'qotar qurolni qo'llash masalasi majburlov choralarining eng keskin shakli sifatida alohida huquqiy va axloqiy mezonlar asosida tartibga solinadi. Xususan Koreya amaliyoti shuni ko'rsatadiki, qurol qo'llashning asosiy maqsadi shaxsni o'ldirish emas, balki xavfni to'xtatishdan iborat bo'lib, bunda zararni minimizatsiya qilish va inson hayotini maksimal darajada saqlashga ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llash vakolatlari qonunchilik bilan aniq chegaralangan bo'lib, ko'plab holatlarda o'limga olib kelmaydigan, balki zararni kamaytirishga qaratilgan yondashuvni qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan. Shu bois, o'q otish tayyorgarligini tashkil etishda ham amaldagi huquqiy talablar bilan uyg'unlikni ta'minlash, ya'ni xodimlarda tahdidni funksional to'xtatish, vaziyatga mutanosib qaror qabul qilish va inson hayotini asrashga yo'naltirilgan ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'qotar qurolni qo'llash amaliyotini inson huquqlari tamoyillari bilan uyg'unlashtirish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy modelini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar / Литература / References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2024;
2. Ю.П.Соловей “Некоторые правовые вопросы применения сотрудниками полиции физической силы, специальных средств и огнестрельного оружия” / Научная статья / Журнал «Проблемы права – индекс 73848», Российская Федерация, 2011 г, 136 стр.;
3. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://www.google.com/search?q=South+Korea+police+using+firearms+2025+statistics> (murojaat qilingan sana 02.02.2026-y.);
4. Elektron resurs – Rejim kirish: [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?hseq=68706&](https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=68706&) (murojaat qilingan sana 02.02.2026-y.);
5. Elektron resurs – Rejim kirish: (<https://www.policinglaw.info/country/south-korea>) (murojaat qilingan sana 02.02.2026-y.);
6. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'RQ-407-son Qonuni – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023;
7. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://lex.uz/mact/-5128310> (murojaat qilingan sana 27.01.2026);
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – T.: Adolat, 2023;
9. А.Ахматгатин / maqola / Некоторые аспекты применения огнестрельного оружия сотрудниками полиции: Elektron resurs – Rejim kirish: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-aspekty-primeneniya-ognestrel'nogo-oruzhiya-sotrudnikami-politsii/viewer> (murojaat qilingan sana 02.02.2026 y.);
10. 2021-yil 6-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga nomzodlarni saralab olish va o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 500-son qarori

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **DIGITALIZATION OF PUBLIC SERVICES AS AN EFFECTIVE TOOL IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION**

**Uzbekova Dilshoda Tulkinovna**

Lecturer

Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article scientifically analyzes the role and effectiveness of digitalization of public services in combating corruption. The paper examines the implementation of e-government systems, increasing transparency in government-citizen relations through the use of information technologies, reducing the human factor and eliminating administrative barriers. The study examines the practical experience of foreign countries and the Republic of Uzbekistan, and develops specific recommendations for reducing corruption through digitalization.

**Keywords:** digitalization, e-government, corruption, transparency, public services, information technologies, open data, e-services.

---

## **DAVLAT XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH — KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA**

**Uzbekova Dilshoda Tulkinovna**

o'qituvchi

Toshkent davlat yuridik universiteti

E-mail: [uzbekovadilshoda20@gmail.com](mailto:uzbekovadilshoda20@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining korrupsiyaga qarshi kurashda tutgan o'rni va samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada elektron hukumat tizimlarining joriy etilishi, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali davlat-fuqaro munosabatlarida shaffoflikning oshirilishi, inson omilining kamaytirilishi va ma'muriy to'siqlarning bartaraf etilishi masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda xorijiy davlatlar va O'zbekiston Respublikasining amaliy tajribasi o'rganilgan bo'lib, raqamlashtirish orqali korrupsiya darajasini kamaytirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, elektron hukumat, korrupsiya, shaffoflik, davlat xizmatlari, axborot texnologiyalari, ochiq ma'lumotlar, e-xizmatlar.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N23>

**Kirish.** Korrupsiya — davlat boshqaruvi tizimining eng xavfli kasalliklaridan biri bo'lib, u iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'libgina qolmay, balki fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini ham susaytiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya sababli jahon miqyosida har yili 1 trillion dollardan ortiq mablag' yo'qolmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi davlat boshqaruvida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Elektron hukumat, raqamli xizmatlar va ochiq ma'lumotlar platformalari an'anaviy byurokratik jarayonlarni tubdan o'zgartirish imkonini bermoqda. Shunday qilib, raqamlashtirish nafaqat samaradorlikni oshirish, balki korrupsiyaga qarshi kurashning ham muhim vositasiga aylandi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining korrupsiyaga qarshi kurashda tutgan oʻrnini nazariy va empirik jihatdan asoslash, xorijiy tajribani oʻrganish hamda Oʻzbekiston Respublikasi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Raqamlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurash oʻrtasidagi bogʻliqlik koʻplab ilmiy tadqiqotlarda oʻrganilgan. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda elektron hukumat indeksi va korrupsiya idrokining indeksi (Corruption Perceptions Index — CPI) oʻrtasida kuchli teskari korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan.

Ndou (2004) oʻz tadqiqotida elektron hukumatning rivojlanayotgan mamlakatlardagi ahamiyatini koʻrsatib, u davlat-fuqaro munosabatlarida vositachilarni kamaytirish orqali korrupsiya ehtimolini sezilarli darajada pasaytirishi mumkinligini taʼkidlaydi [4]. Bertot, Jaeger va Grimes (2010) esa ochiq maʼlumotlar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalar yigʻindisini «shaffoflik ekotizimlari» deb atagan va bu tizimlar korrupsiyaga qarshi kurashda inqilobiy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatgan [3].

Oʻzbekiston kontekstida esa Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan tizimli islohotlari davlat boshqaruvini raqamlashtirishni ustuvor yoʻnalish sifatida belgiladi. «Raqamli Oʻzbekiston — 2030» strategiyasi va «My Gov» platformasining yaratilishi bu yoʻnalishda muhim qadamlar boʻldi [6].

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: taqqoslama tahlil (turli davlatlarning raqamlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurash tajribasini solishtirish); statistik tahlil (Transparency International, Jahon banki va UNDP maʼlumotlaridan foydalanish); hujjatlar tahlili (milliy qonunchilik va davlat dasturlarini oʻrganish); case study usuli (alohida davlatlar va loyihalarni chuqur oʻrganish).

**Muhokama.** Korrupsiyaning asosiy omillaridan biri — davlat xizmatlarini koʻrsatishda bevosita fuqaro va amaldor oʻrtasidagi aloqa hisoblanadi. Bu aloqa poraxoʻrlik uchun qulay muhit yaratadi. Raqamlashtirish esa bu zanjirni kesib, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali xizmatlar koʻrsatish imkonini beradi.

Masalan, Estoniya tajribasi bunga yorqin misol boʻla oladi. Ushbu mamlakatda fuqarolar 99% dan ortiq davlat xizmatlarini onlayn tarzda olishlari mumkin. Natijada, 2023 yildagi Transparency International maʼlumotlariga koʻra, Estoniya Yevropada korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar qatoriga kiradi (CPI = 76) [1].

Raqamli platformalar davlat xarajatlari, tender jarayonlari va qarorlar qabul qilishni ochiq va kuzatilishi mumkin boʻlgan holatga keltiradi. Ochiq maʼlumotlar portallari orqali fuqarolar, jurnalistlar va nodavlat tashkilotlar davlat faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qila oladi [5].

Janubiy Koreya tajribasi diqqatga sazovor: OPEN (Online Procedures Enhancement for Civil Applications) tizimining joriy etilishi qurilish ruxsatnomalarida korrupsiya darajasini 56 foizga kamaytirdi. Bu tizim orqali barcha jarayonlar onlayn kuzatilishi natijasida lobbichilik va tazyiq koʻrsatish imkoniyatlari keskin qisqardi.

Naqd pul muomalasini kamaytirish korrupsiya uchun qulay sharoitlarni yoʻq qiladi. Raqamli toʻlov tizimlari moliyaviy operatsiyalarni toʻliq audit iziga ega qiladi. Hindistonning «Jan Dhan» loyihasi bunga misol boʻlishi mumkin: bank hisobvaraqlariga toʻgʻridan-toʻgʻri

transferlar orqali subsidiyalarning 12,7 milliard dollar miqdorida «oqib ketishi» oldini olindi [2].

Zamonaviy raqamlashtirish bosqichida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari korrupsiyaga qarshi kurashda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) orqali korrupsion xatti-harakatlarning naqshlarini aniqlash, anomal xarajatlarni avtomatik tarzda belgilash va xavf darajasini bashorat qilish mumkin bo'lmoqda. Braziliya hukumati CGU (Comptroller General) tizimida SI yordamida tibbiyot sohasidagi xaridlarda firibgarlik holatlari 70 foizga kamaytirildi.

Механизм осуществления прокурорского надзора проводимого посредством ИЦТ и ИИ включает в себя следующие функциональные элементы: 1) надзорная функция; 2) тактическая функция; 3) функция программирования; 4) функция внедрения возможностей ИЦТ и ИИ в осуществлении прокурорского надзора за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ.

Одной из основных задач здесь выступает обучение программного устройства выполнять разработку и реализацию тактики в соответствии с соблюдением содержания выработанного алгоритма прокурорского надзора. Любое отклонение от заданного алгоритма прокурорского надзора за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ будет способствовать принятию необоснованного и нерационального решения.

Указанные предложения по совершенствованию прокурорского надзора за исполнением законов в сфере борьбы с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ путем использования ИЦТ и ИИ согласуются со Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года.

В целом, можно констатировать, что применение ИЦТ и ИИ позволит качественно повысить эффективность прокурорского надзора за исполнением законов в борьбе с

незаконным оборотом наркотиков. Это позволит более оперативно выявлять и пресекать наркотрафик, отслеживать финансовые потоки наркоторговли и предотвращать распространение наркотиков и психотропных веществ. Внедрение ИЦТ и ИИ также позволит оптимизировать работу органов прокуратуры и повысить качество прокурорского надзора в рассматриваемой сфере. Это особенно важно для выполнения задач связанных с раскрытием и расследованием преступлений в сфере незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ в деятельности органов следствия[18, с.12].

В частности прокурорский надзор за исполнением законов в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ с применением ИЦТ и ИИ может быть совершенствоваться посредством компьютерной программы Big Data, которая включает в себя сбор и анализ массивов данных из различных источников (оперативные базы данных, Интернет-ресурсы, финансовые транзакции) для выявления связей между преступными группами занимающимися незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ и участниками наркотрафика.

Для эффективного использования ИЦТ и ИИ в осуществлении прокурорского надзора за исполнением законов в борьбе с незаконным оборотом наркотиков, считаем целесообразным создать единую информационную систему, для обмена данными между прокуратурой и правоохранительными органами.

Следует отметить, что эффективность применения ИЦТ и ИИ в осуществлении прокурорского надзора за исполнением законов в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ во многом зависит от создания защищенных каналов обмена информацией между правоохранительными органами. Использование специализированных программных средств для мониторинга Интернет-ресурсов, социальных сетей и мессенджеров на предмет осуществления координации действий для качественного осуществлении прокурорского надзора за исполнением законов в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ.

**Заключение.** Таким образом, из вышеуказанного можно сделать, что применение ИЦТ и ИИ позволит качественно повысить эффективность прокурорского надзора за исполнением законов в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. Это позволит более оперативно выявлять и пресекать наркотрафик, отслеживать финансовые потоки наркоторговли и предотвращать распространение наркотиков и психотропных веществ.

#### Литературы/References/Adabiyotlar:

1. <https://www.ungeneva.org/ru/news-media/news/2025/06/107836/doklad-oon-globalnaya-nestabilnost-usugublyayet-posledstviya>
2. <https://president.uz/ru/lists/view/8882>
3. Комментарий состоянии борьбы с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ по итогам 2025 года МВД Республики Узбекистан
4. Указ Президента Республики Узбекистан от 6.05.2024 г. № УП-73, Источник: НБДЗ, 6.05.2024 г., <https://lex.uz/ru/docs/6912477> (<https://lex.uz/search/>)

5. Рывкин С.Ю. Концепция взаимодействия следователя военной прокуратуры с органами дознания при расследовании преступлений: Проблема разграничения полномочий. //Российский следователь. -2000. - № 5. - С. 5 – 9.
6. Шайдуллин Р.Ф. Перспективы внедрения искусственного интеллекта в деятельности органов прокуратуры // Законность. 2019. № 11 (1021). С. 31-33.
7. Исаенко В.Н. Цифровые технологии в прокурорском надзоре за законностью и обоснованностью отказа в возбуждении уголовного дела // Законность. 2020. № 4 (1026). С. 5-9.
8. Покуль А.А. Возможности использования технологии искусственного интеллекта в деятельности органов прокуратуры // Технологии XXI века в юриспруденции: Материалы Пятой международной научно-практической конференции, Екатеринбург, 19 мая 2023 года. Екатеринбург: КримЛиб, 2023. С.162-169.
9. Махьянова Р.М. Использование технологий искусственного интеллекта при осуществлении надзорной деятельности прокуратуры // Юридическая наука. 2024. № 1. С. 195-199.
10. Покуль А.А. Возможности использования технологии искусственного интеллекта в деятельности органов прокуратуры // Технологии XXI века в юриспруденции: материалы Пятой международной научно-практической конференции, Екатеринбург, 19 мая 2023 года. Екатеринбург : КримЛиб, 2023. С.162-169.
11. Махьянова Р.М. Использование технологий искусственного интеллекта при осуществлении надзорной деятельности прокуратуры // Юридическая наука. 2024. № 1. С. 195-199.
12. Щурова А.С. Незаконный оборот наркотических средств и их аналогов с использованием компьютерных технологий (сети Интернет): уголовно-правовое и криминологическое исследование: Автореф. ...дис. канд. юрид. наук. – СПб., 2017. – 26 с.
13. Карпышева Ю.О. О возможностях использования искусственного интеллекта и иных информационных технологий в деятельности прокурора по надзору за исполнением законов // КБ: Административное право и практика администрирования. 2023. № 4. С. 15-23.
14. Пащенко И.Ю. Искусственный интеллект и смежные технологии: о понятии, информационной природе и публично-правовых аспектах // Юридический вестник Кубанского государственного университета. 2022. № 2 (14). С. 99-105.
15. Еремеев Д.В. Перспективы использования искусственного интеллекта в уголовном судопроизводстве // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Юридические науки. 2022. Т. 8 (74). № 1. С.141-148.
16. Исмоилов Б.М. Совершенствование прокурорского надзора за исполнением законодательства в сфере противодействия коррупции: Автореф. дис. ...д-ра философии (PhD). – Т., 2021. – 54 с.
17. Еремеев Д.В. Перспективы использования искусственного интеллекта в уголовном судопроизводстве // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Юридические науки. 2022. Т. 8 (74). № 1. С.141-148.
18. Матчанов А.А. Раскрытие и расследование незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ. Монография – Т. Академия МВД Республики Узбекистан, 2007. – 197 с.

**Received:** 01 March 2026

**Accepted:** 15 March 2026

**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE CONCEPT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THEORETICAL APPROACHES TO ITS APPLICATION IN THE LEGAL SYSTEM**

**Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna,**

Independent researcher at the law enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: [m.urunboyeva@gmail.com](mailto:m.urunboyeva@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes the formation of the concept of Artificial Intelligence, its rapid expansion in modern society and the economy, and the main theoretical approaches to its application within the legal system. Using statistical data on the use of artificial intelligence in European Union countries and the growing number of legislative initiatives related to AI in the United States, the article highlights the institutionalization trends of this technology. It evaluates the potential of Artificial Intelligence in the legal sphere (LegalAI), particularly in analyzing court documents, automating judicial processes, and supporting decision-making in civil proceedings as a factor in improving efficiency and the quality of fair justice. To ensure the principle of openness in the context of AI implementation, the article proposes its reinterpretation based on transparency and accountability standards, as well as the introduction of institutional measures, including independent oversight mechanisms and judicial training.

**Keywords:** artificial intelligence, legal regulation, judicial system, civil proceedings, digital justice, principle of openness, accountability, human rights, judicial training.

## **SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQ TIZIMIDA QO'LLANILISHIGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR**

**Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna,**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) tushunchasining shakllanishi, uning zamonaviy jamiyat va iqtisodiyotdagi tezkor tarqalishi hamda huquq tizimida qo'llanilishiga doir asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida sun'iy intellektdan foydalanish ko'rsatkichlari va AQShda sun'iy intellektga oid qonunchilik tashabbuslarining ko'payishi misolida mazkur texnologiyaning institutsionallashuv tendensiyalari yoritiladi. Maqolada sun'iy intellektning huquqiy sohadagi (LegalAI) imkoniyatlari, xususan sud ishlarini yuritishda hujjatlarni tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish, qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash kabi funksiyalari samaradorlik va adolatli sudlov sifatini oshirish omili sifatida baholanadi. Sudda oshkoralik tamoyilini sun'iy intellekt sharoitida ta'minlash uchun shaffoflik va hisobdorlik mezonlari asosida qayta talqin qilish, mustaqil nazorat mexanizmlari hamda sudyalarning malakasini oshirish kabi institutsional chora-tadbirlar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, huquqiy tartibga solish, sud-huquq tizimi, fuqarolik sud ishlarini yuritish, raqamli adolat, oshkoralik tamoyili, hisobdorlik, inson huquqlari, sudya malakasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N26>

**Kirish.** Kiber makonda sun'iy intellekt (SI) nafaqat texnologik sohada, balki zamonaviy huquq tizimida ham tub burilish yasamoqda. Bugungi kunda insoniyat to'rtinchi sanoat inqilobining faol bosqichini boshdan kechirmoqda, unda raqamli texnologiyalar va **sun'iy**

**intellekt (AI)** ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi. Sun'iy intellekt tushunchasi nafaqat texnik imkoniyatlarni, balki huquqiy tartibga solishni talab qiluvchi yangi fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) jahon bo'ylab odamlarning hayotiga tezkor kirib bormoqda. Xususan, 2024-yilda Yevropa Ittifoqida xodimlar soni 10 nafar va undan ortiq bo'lgan korxonalarining 13,5 foizi o'z faoliyatini yuritishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yildagi 8,0 foizga nisbatan 5,5 foiz punktga oshganini ko'rsatadi. Ushbu korxonalar ulushi eng yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga Daniya (27,6 foiz), Shvetsiya (25,1 foiz) va Belgiya (24,7 foiz) kiradi. Ro'yxatning quyi qismida esa Ruminiya (3,1 foiz), Polsha (5,9 foiz) va Bolgariya (6,5 foiz) joy olgan.

Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida 2023-yilga nisbatan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanayotgan korxonalar ulushining o'sishi qayd etilgan. Eng yuqori o'sish Shvetsiyada (14,7 foiz punkt) kuzatilgan bo'lib, undan keyin Daniya (+12,4 foiz punkt) va Belgiya (+10,9 foiz punkt) keladi. Ayni paytda, nisbatan mo'tadil o'sish Portugaliyada (+0,8 foiz punkt), Ruminiyada (+1,6 foiz punkt) va Ispaniyada (+2,1 foiz punkt) qayd etilgan[1].

Bu sohadagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, birgina AQSh sun'iy intellekt bo'yicha qonunchilikda yetakchilik qilmoqda BSA | The Software Alliance tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda AQShda sun'iy intellekt bilan bog'liq qariyb 700 ta qonunchilik taklifi ko'rib chiqilgan.

Shu bilan birga, AQSh qonun chiqaruvchi organlari milliy konferensiyasi (National Conference of State Legislatures) ma'lum qilishicha, kamida 30 ta shtat o'z idoralari tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha rasmiy qo'llanmalar va yo'riqnomalarni ishlab chiqqan [2].

Sun'iy intellekt tizimi — bu inson fikrlash jarayonini kompyuterda taqlid qiladigan dasturiy tizimdir. Bunday tizimni yaratish uchun nafaqat ushbu jarayon algoritmini o'rganish va uni kompyuterda qayta ishlashga mos dasturiy vositalarni ishlab chiqish, balki inson fikrlash jarayonini ham o'rganish zarur. Demak, sun'iy intellekt metodlari qaror qabul qilish tizimlarini ishlab chiqishga oddiy tuzilmaviy yondashuvni taklif etadi va inson aqli talab etiladigan vazifalarni bajara oladigan intellektual tizimlarni yaratishni ko'zlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** “Sun'iy intellekt” tushunchasini 1956-yilda birinchi bo'lib amerikalik informatik Jon Makkarti taklif qilgan [3]. Ushbu tushuncha bundan oldin ishlatilgan “mashinalarni o'qitish” tushunchasini almashtirdi. Sun'iy intellekt atamasi kompyuterning katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ma'lum algoritmlar asosida qarorlar taklif qilish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, 2024-yilga kelib, dunyodagi kompaniyalarning yarmidan ko'pi sun'iy intellektdan foydalanmoqda. Besh milliarddan ortiq inson turli darajada ushbu texnologiyalardan foydalanadi. Generativ sun'iy intellektning paydo bo'lishi insoniyat hayotida elektr energiyasi, yadro texnologiyalari va kosmosni o'zlashtirish bilan teng darajadagi yutuq bo'ldi.

Jahon huquq tizimi sun'iy intellekt va unga asoslangan algoritmlar bilan yangi bosqichga o'tmoqda. Bir tomondan, sun'iy intellekt sud ishlarini avtomatlashtirish va nafaqat protsessual, balki ish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarini ham qo'llab-quvvatlashi mumkin. Ikkinchi tomondan, ushbu texnologiyalar fuqarolik protsessining muhim prinsiplari hisoblangan odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, qonun va sud oldida tenglik, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, sud muhokamasining oshkoraligi kabi

prinsiplarga ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun'iy intellekt borasidagi nazariy yondashuvlar va huquqiy talqinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga, jumladan, huquqiy tizimga ham chuqur kirib borishiga sabab bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra, kelgusi o'n yillikda sun'iy intellekt xonadonlar, ofislar, korxonalar va jamoat joylarida keng qo'llanilib, kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanadi. Bugungi kunda smartfonlar, aqlli soatlar, robot-changyutgichlar, uchuvchisiz transport vositalari va dronlar kabi "aqlli" qurilmalarning ommalashuvi ushbu jarayonning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Sun'iy intellekt robototexnika, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash (ayniqsa tibbiy diagnostika va jarrohlik amaliyotlarida), transport, harbiy operatsiyalar, xavfsizlik, davlat boshqaruvi, moliya va marketing kabi ko'plab sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda [4]. Shu bilan birga, uning huquqiy sohada qo'llanilishi ham izchil ravishda ortib bormoqda va oxirgi besh yillikda mazkur masala ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinib kelinmoqda [5].

Sun'iy intellekt asosida huquqiy tizimlarni takomillashtirish (LegalAI) huquqiy jarayonlarning samaradorligi, shaffofligi va ochiqligini oshirishda muhim innovatsion vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, sud-huquq tizimida, xususan, fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi sudda ish ko'rish sifatini yaxshilash va odil sudlovni ta'minlash imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektning sud ishlarini yuritish jarayonlariga ko'rsatayotgan transformatsion ta'siri, uning axloqiy va huquqiy oqibatlarini hamda ishda ishtirok etuvchi taraflar o'rtasidagi munosabatlar uni odil sudlov sohasida ta'bir joiz bo'lsa, inqilobiy innovatsiya sifatida tavsiflash imkonini beradi [6]. Avtomatlashtirilgan tizimlar fuqarolik ishiga oid hujjatlarni tahlil qilish, sud ishlarini tashkil qilish kabi vazifalarni bajarish orqali sudya va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yanada murakkab va strategik masalalarga e'tibor qaratish imkonini yaratmoqda.

Shuningdek, sun'iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi huquqiy ma'lumotlar va sud precedentlarini tizimli ravishda tahlil qilish orqali qaror qabul qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi taxminiy va tahliliy xulosalarni shakllantirmoqda. Bu esa sud amaliyotida mavjud tendensiyalar va qonuniyatlarni aniqlash, shuningdek, ish yuzasidan ehtimoliy natijalarni oldindan baholash imkonini yaratib, yanada asosli, izchil va adolatli sud qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi [7]. Ayrim olimlar ham sun'iy intellekt sud ishlarini kuzatish, hujjatlarni boshqarish va rejalashtirish jarayonlarini yaxshilashi, manipulyatsiya va poraxo'rlik imkoniyatlarini minimallashtirishi haqida fikr-mulohaza bildiradi [8].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim afzalligi — odil sudlovni ta'minlash imkoniyatini kengaytirishidir. Xususan, sun'iy intellekt asosidagi raqamli huquqiy xizmatlar kam ta'minlangan aholi qatlamlari va moliyaviy resurslari cheklangan shaxslar uchun arzon va oson kirish mumkin bo'lgan huquqiy yordamni taqdim etish imkonini yaratadi [9].

Biroq, fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun'iy intellektdan foydalanish qator jiddiy xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqaradi. Xususan, algoritmlardagi ehtimoliy tarfkashlik va diskriminatsiya masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt tizimlari ko'pincha tarixiy ma'lumotlar asosida o'qitiladi va ushbu ma'lumotlar jamiyatda mavjud bo'lgan tizimli tengsizlik va ijtimoiy stereotiplarni aks ettirishi mumkin. Natijada, bunday tizimlar odil sudlov sohasidagi mavjud nomutanosibliklarni, ayniqsa marginallashtirilgan guruhlar uchun, yanada kuchaytirishi ehtimoli mavjud.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlarining fuqarolik ishlarini ko'rish va hal etilishida keng joriy etilishi ish yuzasidan sud qarorlarini qabul qilish jarayonlarida inson mulohazasi va mustaqil baholash rolining kamayishiga olib kelishi mumkinligi haqida ilmiy xavotirlar mavjud.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, sun'iy intellekt texnologiyalari sud qarorlarini tezlashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilishda katta imkoniyatlar ochishi bilan birga, shu sohada inson huquqiy baholashi va mustaqil sud qarorlari qabul qilish jarayoniga ta'sir etishiga oid jiddiy xavotirlar xalqaro akademik va huquqiy tahlillarda keng muhokama qilinmoqda. Turli ilmiy tahlillar ko'rsatadiki, sud qarorlari faqat texnik algoritmlar natijasi bo'lishi mumkin emas — ular qarashlar, axloqiy qarashlar, axborotning konteksti va insoniy vaziyatga muvofiq tafakkurni ham o'z ichiga olishi kerak. Bu odil sudlovni ta'minlash uchun muhimdir, chunki algoritmlar hozirda umumiyati bilan "qora quti" (black-box) hisoblanadi va ularning aniq huquqiy fikrlashni mexanikatsiya qilish mushkul [10].

Sud qarorlarini qabul qilish kontekstida shaffoflik qarorlarning mazmunan tushunarli bo'lishi hamda jamoatchilik nazorati uchun ochiqligini ta'minlovchi fundamental huquqiy standart sifatida namoyon bo'ladi; aynan shu orqali hisobdorlik mustahkamlanadi va qonun ustuvorligi ta'minlanadi. Biroq sud faoliyatida qo'llanilayotgan sun'iy intellekt tizimlarining yopiqligi (shaffof emasligi) mazkur fundamental tamoyilga jiddiy tahdid solmoqda. Mazkur muammoni sun'iy intellekt tizimlarining dasturiy kodiga kirish imkoniyatini taqdim etish yoki umumiy, abstrakt protsessual talablarga rioya qilish bilan hal etib bo'lmaydi. Aksincha, shaffoflik tushunchasi qayta ta'riflanishi, ya'ni u aqliy jihatdan anglanish mumkinligi (intelligibility), institutsional hisobdorlik hamda qarorlardan manfaatdor bo'lgan shaxslar uchun mazmunli e'tiroz bildirish imkoniyatini o'z ichiga olishi lozim.

Shu bois, sun'iy intellekt davrida sudda oshkoralik tamoyilini ta'minlash sudlarning o'ziga xos ommaviy funksiyasini va ular zimmasiga yuklatilgan konstitutsiyaviy majburiyatlarni hisobga olgan holda, tarkibiy va ko'p qirrali tartibga solish chora-tadbirlarini talab etadi. Bu borada yuzaki protsessualizmdan voz kechib, mazmunan hisobdorlikka yo'naltirilgan ongli yondashuvni amalga oshirish lozim. Ushbu yondashuv doirasida majburiy auditar, shaffoflik reestrlari, mustaqil nazorat kengashlari hamda ma'lumotlarni oshkor etish majburiyatlari kabi tartibga soluvchi kafolatlarni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, sudyalarning uchun maxsus tayyorgarlik va malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish kabi tizimli chora-tadbirlar taklif etiladi.

Ushbu takliflar sudlarda qo'llanilayotgan sun'iy intellekt tizimlarining butun hayotiy sikli davomida — ya'ni ularni ishlab chiqish va xarid qilish bosqichidan tortib, amaliyotga joriy etish va sud qarorlarini asoslash jarayonigacha — shaffoflikni amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, sud faoliyatida sun'iy intellektdan foydalanishda intellektual mulk va tijorat sirlari rejimlarining ustun mavqeyiga tanqidiy yondashish zarur, chunki mazkur rejimlar jamoatchilik nazoratiga to'sqinlik qiladi hamda odil sudlovning yaxlitligiga putur yetkazadi.

**Xulosa.** Yakuniy xulosa sifatida, ilgari surilgan tavsiyalar faqat sun'iy intellekt sharoitida sud shaffofligini tiklashga qaratilgan emas, balki ommaviy hokimiyatning eng konstitutsiyaviy jihatdan sezgir sohalaridan birida texnologik infratuzilma ustidan demokratik nazoratni qayta tiklashni ham maqsad qiladi. Sudlar yopiq tijoriy mantiq asosida ishlab chiqilgan texnologik vositalarning passiv iste'molchisiga aylanib qolmasligi lozim. Aksincha, ular sun'iy intellekt

davrida huquqiy munozara, huquqiy innovatsiya va inson huquqlarini himoya qilish markazlari sifatida qayta shakllanishi zarur.

Zero, sun'iy intellekt texnologiyalarining tezkor rivojlanishi mavjud me'yoriy-huquqiy asoslar va axloqiy standartlardan ilgari ketib, huquqiy tizimlarni yangi xavf va muammolarga yetarlicha tayyor bo'lmagan holatda qoldirish xavfi mavjud.

#### Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Usage of AI technologies increasing in EU enterprises. News articles 23 January 2025 // <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20250123-3>
2. <https://www.route-fifty.com/emerging-tech/2024/12/after-ais-busy-2024-expect-more-same-next-year/401816/>
3. <https://ru.wikipedia.org>
4. Уолтерс Р., Новак М. Кибербезопасность, искусственный интеллект, защита данных и законодательство // -Сингапур. "Искусственный интеллект и право". doi:https://doi.org/10.1007/978-981-16-1665-5\_3.
5. Qarang: Mamasiddiqov M.M., Islamov M.I. Xitoy prokuratura organlarida sun'iy intellektni j'rollash rolati va afzalliklari // "ODILLIK MEZONI" / № 3 / 2025. – B. 10-12.;
6. Sabirov E.K. Sudda ish ko'rishning ochiqligini ta'minlashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning ayrim masalalari // Kiberhuquq: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. /Mas'ul M.M.Mamasiddiqov. "Impress media". 2025. – B. 377-383.;
7. Davletova K.X. Zamonaviy iqtisodiy sud ish yurituvida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning protsessual shakllari // Kiberhuquq: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. /Mas'ul M.M.Mamasiddiqov. "Impress media". 2025. – B. 345-353.
8. Alfonso Renato Vargas, Ilda Nadia Monica de la Asuncion Pari Bedoya. Transforming Justice: Implications of Artificial Intelligence in Legal Systems // Academic Journal of Interdisciplinary Studies March 2024. // [https://www.researchgate.net/publication/378739404\\_Transforming\\_Justice\\_Implications\\_of\\_Artificial\\_Intelligence\\_in\\_Legal\\_Systems](https://www.researchgate.net/publication/378739404_Transforming_Justice_Implications_of_Artificial_Intelligence_in_Legal_Systems)
9. Artificial intelligence, judicial decision-making and fundamental rights // [https://ssm-italia.eu/wp-content/uploads/2025/02/JuLIA\\_handbook-Justice\\_final.pdf](https://ssm-italia.eu/wp-content/uploads/2025/02/JuLIA_handbook-Justice_final.pdf)
10. Qodirov M.I. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning korrupsiyaga qarshi kurashdagi yutuqlari: xorijiy davlatlar ilg'or tajribalari tahlili // <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/download/1084/2072/1049>
11. Цифровые платформы и доступность бесплатных юридических услуг в США// [https://www.researchgate.net/publication/388190058\\_Digital\\_Platforms\\_and\\_the\\_Accessibility\\_of\\_Pro\\_Bono\\_Legal\\_Services\\_in\\_the\\_US](https://www.researchgate.net/publication/388190058_Digital_Platforms_and_the_Accessibility_of_Pro_Bono_Legal_Services_in_the_US)
12. Tatiana Dancy, Monika Zalnieriute. AI and Transparency in Judicial Decision-Making Oxford Journal of Legal Studies, 2025 forthcoming // 43 Pages. [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=5331491](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=5331491)

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE THEORETICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THE CORRELATION BETWEEN ADMINISTRATIVE-LEGAL DISPUTES AND PUBLIC-LAW DISPUTES**

**Ochilov Aziz Ismatovich,**  
Master's Student at the Law  
Enforcement Academy  
E-mail: [a.ochilov@gmail.com](mailto:a.ochilov@gmail.com)

**Abstract.** The article analyzes the correlation between the concepts of an administrative-legal dispute and public-law disputes, the criteria for their differentiation, as well as their theoretical and practical significance within the system of administrative justice. The study substantiates the legal nature of public-law disputes through the legal inequality of the parties, the connection of the dispute with public interest, and the mandatory participation of a subject vested with state authority powers. Administrative-legal disputes are considered as a specific type of public-law disputes; it is demonstrated that they are characterized by the affiliation of the issue forming the substance of the dispute with administrative law, as well as by the presence of a legal fact giving rise to the dispute (an administrative act, action/inaction). Within the framework of the concept of administrative justice, the role of judicial review, relations in the sphere of public administration, and scholarly approaches to the legal nature of disputes arising from such relations are comparatively analyzed.

**Keywords:** administrative-legal dispute; public-law dispute; administrative justice; public administration; state authority powers.

## **MA'MURIY-HUQUQIY NIZO VA OMMAVIY-HUQUQIY NIZOLARNING O'ZARO NISBATINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI**

**Ochilov Aziz Ismatovich,**  
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
magistratura tinglovchisi

**Annotatsiya.** Maqolada ma'muriy-huquqiy nizo va ommaviy-huquqiy nizolar tushunchalarining o'zaro nisbati, ularni farqlash mezonlari hamda ma'muriy adliya tizimidagi nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ommaviy-huquqiy nizolarning huquqiy tabiati ishtirokchilarning huquqiy jihatdan teng emasligi, nizoning ommaviy manfaat bilan bog'liqligi, shuningdek davlat hokimiyati vakolatlariga ega subyektning majburiy ishtiroki orqali asoslanadi. Ma'muriy-huquqiy nizolar esa ommaviy-huquqiy nizolarning alohida turi sifatida, nizo mazmunini tashkil etuvchi masalaning ma'muriy huquqqa mansubligi hamda nizoni keltirib chiqaradigan huquqiy fakt (ma'muriy akt, harakat/harakatsizlik) bilan belgilanishi ko'rsatiladi. Maqolada ma'muriy adliya tushunchasi doirasida sud nazoratining o'rni, davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlar va ulardan kelib chiqadigan nizolarning huquqiy tabiatiga oid ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy-huquqiy nizo, ommaviy-huquqiy nizo, ma'muriy adliya; ommaviy boshqaruv; davlat hokimiyati vakolatlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N27>

**Kirish.** Muayyan huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni aynan sud orqali himoya qilish tartibiga bo'lgan obyektiv ehtiyoj, ular yuzasidan nizo mavjudligini aniqlash yoki taxmin qilish mumkin bo'lgan holatlarda yuzaga keladi.

Har bir nizo o'z turiga qarab muayyan nomga ega bo'ladi. Masalan, fuqarolik-huquqiy, oilaviy, mehnat, uy-joy, yer va boshqa nizolar "xususiy-huquqiy nizolar" tushunchasi bilan qamrab olinadi. Shu bilan bir qatorda, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda namoyon bo'ladigan alohida toifa — ommaviy-huquqiy nizolar ham ajratib ko'rsatiladi.

Mamlakatimizda 2017-yildan ommaviy huquqiy nizolar alohida sud tomonidan ko'rib chiqilishi belgilandi.

Ommaviy huquqiy munosabatlar ma'muriy, sud, soliq va bojxona huquqiy munosabatlari sohasida vujudga keladi.

Ishlarning sezilarli qismi normativ xususiyatga ega bo'lmagan huquqiy hujjatlar, qarorlar va davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek normativ qonun bilan alohida davlat yoki boshqa ommaviy vakolatlar berilgan boshqa organlar va tashkilotlar hamda mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq.

**Adabiyotlar tahlili.** N.M.Korkunov ommaviy huquqiy nizolarni ko'rib chiqishi kerak bo'lgan ma'muriy va fuqarolik yustitsiya o'rtasidagi farqni keltirib, buni ommaviy va xususiy huquq o'rtasidagi farq sifatida ifoda etadi [1].

Ma'lum bo'lishicha, agar protsessual munosabatlar yordamida xususiy huquqiy munosabatlar (fuqarolik huquqi, oila, uy-joy va boshqalar) amalga oshirilsa, u holda xususiy huquq nizolari yuzaga keladi; agar protsessual munosabatlar ma'muriy, moliyaviy, soliq, budjet va boshqa ommaviy moddiy huquqiy munosabatlarni amalga oshirishga yordam bersa, u holda ommaviy huquqiy nizo kelib chiqadi. Bu shuni anglatadiki, ommaviy huquqiy nizo — bu uning mazmuni hisoblangan huquqning ommaviy tarmoqlari masalalaridan iborat bo'lgan nizo. Masalan, moliya qonunchiligi masalalari bo'lgan nizoni moliyaviy ommaviy nizo deb atash mumkin; soliq masalalari — soliq ommaviy nizosi, ma'muriy masalalar — ma'muriy nizo va boshqalar. Tabiiyki, ma'muriy ommaviy nizolar moddiy ma'muriy munosabatlarning protsessual ta'minlanishida o'rin egallaydi. Olimlar to'g'ri ta'kidlaganidek, agar nizoning mazmunini tashkil etadigan masala ma'muriy huquqqa tegishli bo'lsa, nizo ma'muriy hisoblanadi.

D.M.Chechot ta'kidlaganidek, ma'muriy organlar fuqarolar yoki tashkilotlar bilan turli xil mazmundagi huquqiy munosabatlarda bo'lishi mumkin: ma'muriy, fuqarolik, yer, moliyaviy, mehnat. Ma'muriy harakatlar ba'zi hollarda nafaqat ma'muriy, balki boshqa (masalan, fuqarolik) oqibatlarga olib keladi. Bunday vaziyatlarda nizo ma'muriy xarakterni yo'qotadi [2].

Huquqshunoslar orasida ma'muriy huquqiy munosabatlar — bu faqat ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadigan va davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan munosabatlar ekanligi ham ko'rsatiladi. Masalan, V.S.Baynova davlat boshqaruvini "jamiyat manfaatlarini ifodalashga qaratilgan davlat organlari faoliyati" sifatida ta'riflagan [3]. Shuningdek, davlat boshqaruvi sohasida soliq, bojxona, sud, budjet va ekologik huquqiy munosabatlar ham vujudga keladi, zero ushbu munosabatlarning umumiy obyekti ommaviy manfaatni ifoda etish va himoya qilish hisoblanadi.

Ma'muriy huquqiy munosabatlarni ommaviy huquqiy munosabatlar guruhiga kiritadigan olimlar fikri asosli deb hisoblanadi. Ushbu tushunchalarni mos ravishda xususiy va umumiy tushunchalar sifatida ko'rib chiqish lozim. Bunday yondashuv davlat boshqaruvi bilan ommaviylik o'rtasidagi uzviy va uzluksiz bog'liqlikni yana bir bor ta'kidlaydi.

Ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlari sohasida shakllanadi. Bunday huquqiy munosabatlarning bir tomoni sifatida har doim muayyan hokimiyat vakolatlarini amalga oshiradigan davlat organi ishtirok etadi, ikkinchi tomon esa davlat organi o'z vakolatlarini amalga oshiradigan boshqaruv munosabatlarining subyekti bo'lgan tashkilot yoki fuqaro hisoblanadi.

Shu o'rinda aytish lozimki, ommaviy huquqiy nizo, ma'muriy nizo tushunchalari bilan bir qatorda ma'muriy adliya tushunchasi ham qo'llaniladi. Shu o'rinda ushbu tushunchalar o'rtasidagi farqni ajratib olish lozim bo'ladi.

Yuridik manbalarda ko'rsatilishicha, "ma'muriy adliya ommaviy huquq subyektlari ustidan bevosita nazoratni anglatadi [4].

Shuningdek, "ma'muriy adliya — ommaviy boshqaruv munosabatlaridan kelib chiqadigan ma'muriy-huquqiy nizolarni davlat organlari va mansabdor shaxslar, fuqarolar hamda yuridik shaxslar o'rtasida ko'rib chiqish va hal etishning maxsus sud nazorati tizimidir" [5].

Ma'muriy adliya muayyan huquqiy fakti bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topishga qaratilgan [6]. Ma'muriy adliya — ommaviy boshqaruvda fuqarolik huquqlari buzilgan taqdirda sud himoyasi tizimidir [7]. K.Belskiyga ko'ra, ma'muriy adliya fuqarolar va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlarini sud tartibida ko'rib chiqishning maxsus tartibiga doir protsessual munosabat bo'lib, g'ayriqonuniy boshqaruv aktini bekor qilish orqali fuqarolik huquqlarini himoya qiladi [8].

G.Hakimovga ko'ra, ma'muriy adliya — ommaviy boshqaruv munosabatlaridan kelib chiqadigan ma'muriy-huquqiy nizolarni davlat organlari va mansabdor shaxslar, fuqarolar hamda yuridik shaxslar o'rtasida ko'rib chiqish va hal etishning maxsus sud nazorati tizimidir. M.Adlerga ko'ra, ma'muriy adliya — ma'muriy organlarning to'g'ri qaror qabul qilishini ta'minlaydigan va adolatni ilgari suradigan tizimdir [9].

Bizning fikrimizcha, ma'muriy adliya — davlat organlari va mansabdor shaxslar, fuqarolar hamda yuridik shaxslar o'rtasidagi ommaviy boshqaruv munosabatlaridan kelib chiqadigan ma'muriy-huquqiy nizolarni ma'muriy hamda sud tartibida hal etish mexanizmidir. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, ma'muriy adliyaning yagona ta'rifi mavjud emas. Biroq, ushbu ta'riflarning umumiy jihati — bu nizo hal etish mexanizmi ekanligidir. Shu o'rinda ma'muriy nizo tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalish maqsadga muvofiq.

D.M.Zaysev ma'muriy-huquqiy nizolar eng keng tushuncha hisoblanadi va shu bois ular qatoriga nizoning taraflaridan biri sifatida hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar ishtirok etadigan barcha nizolar kiritiladi [10].

Ma'muriy-huquqiy nizolar — bir tomonda davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari, mansabdor shaxslar, ikkinchi tomonda esa jismoniy va yuridik shaxslarning subyektiv ommaviy huquqlari buzilishi fakti yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy nizodir [11].

N.V.Suxarevaga ko'ra, ma'muriy-huquqiy nizo — muayyan ma'muriy munosabat ishtirokchilaridan birining ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki tugatilishiga sabab bo'lgan huquqiy fakt bilan noroziligining ifodasidir. Ma'muriy-huquqiy nizolar — ma'muriy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlariga oid nizolar bo'lib, mazmuniga ko'ra boshqa huquqiy nizolardan farq qiladi [12].

**Tahlil va natijalar.** Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, ma'muriy-huquqiy nizolar — ma'muriy-huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari yuzasidan kelib chiqadigan qarama-qarshilik va ziddiyatlardir. Ushbu ziddiyatlar bir tomonda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari, ikkinchi tomonda fuqarolar o'rtasida vujudga keladi. Shu jihatdan ma'muriy-huquqiy nizolar boshqa huquqiy nizolar turlaridan farqlanadi.

Demak, ma'muriy adliyaning predmeti — fuqarolarning davlat organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari ustidan shikoyatlari asosida sudlarga murojaat qilishi natijasida yuzaga keladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlardir. Amaldagi ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning ma'muriy-huquqiy xarakteri quyidagilar bilan belgilanadi:

- ushbu turdagi nizolar davlat organlarining ommaviy boshqaruv funksiyalarini bajarishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi;

- ma'muriy nizolar ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasida huquqiy va ma'muriy qarorlar qabul qilinishi hamda boshqa tomonning noroziligi natijasida vujudga keladi.

Yuqoridagi qoidalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ma'muriy adliya predmetini tashkil etuvchi nizolar ikki turga bo'linadi:

*Birinchidan*, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan harakatlari (harakatsizligi)dan kelib chiqadigan ma'muriy-huquqiy nizolar;

*Ikkinchidan*, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan farmoyishlar (qarorlar) qabul qilishi natijasida yuzaga keladigan nizolar.

Ko'rinib turibdiki, ma'muriy adliyaning predmeti bo'lgan nizoli ma'muriy-huquqiy munosabatlar davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar o'rtasida vujudga keladi. Shuningdek, ushbu ziddiyatlar ommaviy boshqaruv organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarda mustahkamlangan asosiy vazifalar va funksiyalar asosida farmoyishlar qabul qilish yoki harakatlarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladi. Xususan, ommaviy boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida fuqarolar bilan ziddiyat kelib chiqishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

*Birinchidan*, ommaviy boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) yoki yo'l qo'yib bo'lmaydigan qarorlari natijasida;

*Ikkinchidan*, fuqarolarning ommaviy boshqaruv organlari yoki mansabdor shaxslar qabul qilgan harakatlar (harakatsizlik) yoki qarorlarga qarshiligi, ishtirok etmasligi natijasida.

Birinchi holatda ommaviy boshqaruv organi yoki mansabdor shaxs o'z vakolatlari doirasida muayyan harakatlarni g'ayriqonuniy tarzda amalga oshirishi yoki qonun bilan talab etiladigan harakatni umuman bajarmasligi mumkin. Boshqacha aytganda, ommaviy boshqaruv organlari yoki mansabdor shaxslar vakolat doirasidan chiqadi yoki o'z funksiyalarini shaxs va jamiyat-davlat manfaatlariga zid ravishda bajaradi, farmoyishlar qabul qiladi. Bu fuqarolar noroziligiga sabab bo'ladi va ma'muriy adliyaning predmeti bo'lgan ma'muriy-huquqiy nizoning vujudga kelishiga olib keladi.

Ikkinchi holatda ommaviy boshqaruv organi yoki mansabdor shaxs qabul qilgan harakat va qarorlar g'ayriqonuniy bo'lmasligi ham mumkin. Biroq, amalga oshirilgan harakat, oldi olingan harakatsizlik yoki qabul qilingan qaror ma'muriy-huquqiy munosabatning ishtirokchisi

bo'lgan fuqaro noroziligiga va ishtirok etmasligiga sabab bo'ladi. Fuqaro harakat yoki farmoyish natijasida o'z huquq va qonuniy manfaatlarini buzilgan deb hisoblab, huquqlarini tiklash uchun sudga murojaat qiladi.

Ma'muriy adliya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslariga doir yana bir masala — ma'muriy adliya tushunchasi ma'muriy huquq tarkibiga kiradimi yoki yo'qmi, degan savoldir. Ilmiy manbalarda bu borada turli fikrlar bildirilgan. Bugungi kunda ma'muriy huquqni isloh qilish zarurati, shuningdek, ma'muriy adliya ham ma'muriy huquq predmeti sifatida kiritilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Buni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

*Birinchi*dan, ma'muriy huquq predmeti — boshqaruv munosabatlari, ya'ni ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatidir. Ijro etuvchi hokimiyatni tashkil etish va faoliyat yuritishning asosiy tamoyillaridan biri — fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etish, ularning ustuvorligini ta'minlashdir.

*Ikkinchi*dan, fuqarolar ma'muriy huquqning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi, ya'ni ijro hokimiyatini tashkil etish va faoliyatida o'ziga xos huquqiy maqomga ega. Fuqarolarning ommaviy boshqaruvda ishtirok etish huquqi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari hamda boshqaruv aktlari ustidan sudga murojaat qilish huquqi davlat tomonidan kafolatlanadi. Demak, davlat organlari faoliyati ustidan sud nazorati katta ahamiyatga ega.

*Uchinchi*dan, ma'muriy huquqning muhim institutlaridan biri — davlat xizmati hisoblanadi. Fuqarolarning huquq va manfaatlariga davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslarning vakolatlarini amalga oshirish jarayonidagi harakatlari va qarorlari bilan zarar yetkazilishi mumkin.

*To'rtinchi*dan, ommaviy boshqaruvning asosiy huquqiy shakllaridan biri — ma'muriy aktlar qabul qilishdir. Ma'muriy adliya ommaviy boshqaruv aktlarining qonuniyligi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

*Beshinchi*dan, davlat o'z organlari va mansabdor shaxslari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga ma'muriy jazolar qo'llaydi. Ma'muriy adliya — davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy majburlov choralarini noto'g'ri qo'llash holatlarida yagona sud himoyasidir.

*Oltinchi*dan, ma'muriy adliya ma'muriy jarayon kabi ma'muriy huquq institutlari bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birgalikda, ma'muriy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan asosiy farqi — tomonlarning dastlabki tarzda bo'ysunuv (subordinatsiya) munosabatida bo'lishidir.

Ma'muriy yoki boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar normativ yoki individual (normativ bo'lmagan) hujjat asosida yuzaga keladi. Ushbu hujjatlarda tomonlarning huquq va majburiyatlari qat'iy tartibda belgilab qo'yilgan bo'lib, ularni o'zgartirish mumkin emas.

Ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlarning yana bir belgisi — tomonlarning huquqiy subyektligi imperativ xususiyatga egaligidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda "ommaviy munosabatlar" tushunchasining qonuniy (legal) ta'rifi mavjud emas. Yuridik adabiyotlarda ommaviy munosabatlarning umumiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi turli xil ta'riflar keltirilgan.

Jumladan, I.A.Ilinning fikricha, huquqiy munosabatlar ommaviy hisoblanishi uchun, birinchidan, bir subyekt ikkinchisiga nisbatan hokimiyat vakolatiga ega bo'lishi, ikkinchisi esa birinchi subyektga bo'ysunish majburiyatiga ega bo'lishi lozim [14].

Ye.V.Akulova esa quyidagini ta'kidlaydi: “Huquqiy munosabatlarning ommaviy xususiyati hokimiyat vakolatlariga ega subyekt (mansabdor shaxs, davlat hokimiyati organi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi, budjetdan tashqari jamg'armalar va boshqalar) ishtirokini nazarda tutadi” [15].

Shuningdek, ommaviy huquqiy munosabatlarning vujudga kelishidagi asosiy manba — himoya qilinishi lozim bo'lgan moddiy-huquqiy manfaat ekanligiga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Ma'muriy huquqiy munosabatlarni ommaviy huquqiy munosabatlar guruhiga kiritadigan olimlar fikri asosli deb hisoblanadi. Mazkur tushunchalarni mos ravishda xususiy va umumiy tushuncha sifatida ko'rib chiqish lozim. Bunday yondashuv davlat boshqaruvi bilan ommaviylik o'rtasidagi uzviy va uzluksiz bog'liqlikni yana bir bor ta'kidlaydi.

V.Bolgova “ommaviy huquqiy munosabat”lar davlat tomonidan ma'lum qonun-qoidalar orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning eng samarali vositasi ekanligini bildiradi [16]. A.Miyagasheva esa, ommaviy huquqiy munosabatlar — davlat huquqiy munosabatlarning asosi ekanligini ko'rsatib, huquqiy munosabatlarning turlaridan biri sifatida huquq subyektlarining belgilangan va shunga muvofiq davlat tomonidan himoya qilinadigan qonuniy huquqlari va majburiyatlarining birligidir — deb ko'rsatadi [17].

Bizningcha, ushbu olimlarning fikrlari bahsli bo'lib, ma'muriy huquq davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ommaviy huquqiy munosabatlar ma'muriy suddan tashqari boshqa sudlov ishlarini yuritish sohasida fuqarolar va mansabdor shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni ham qamrab oladi.

S.E.Shindyapin ommaviy huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib quyidagilarni keltiradi: birinchidan, subyektlar huquqiy maqomi bo'yicha o'zaro teng bo'lmaydi; ikkinchidan, ommaviy huquqiy maqomga, davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lgan subyektlarning majburiy mavjudligi; uchinchidan, “hokimiyatga bo'ysunish” tamoyili asosida bir tomon faqatgina qonuniy majburiyatlarga ega, ikkinchi tomon esa subyektiv huquqlarga ega; to'rtinchidan, hokimiyat subyektlarining vakolatlari majburiy xarakterga ega ekanligi; beshinchidan, jismoniy shaxs majburiy tomon sifatida, mansabdor shaxs vakolatli shaxs sifatida harakat qiladi; oltinchidan, jamoat birlashmalarining turli xil shakllari subyekt sifatida harakat qilishi mumkin [18].

Bundan tashqari, ommaviy huquqiy munosabatlarning muammolarini o'rgangan ayrim olimlar ularning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni bildiradi: — ommaviy huquqiy munosabat subyektlari hokimiyat vakolatlariga bo'ysunadi hamda taraflar yuridik jihatdan teng maqomga ega bo'lmaydi; subyektlardan biri (boshqaruvchi subyekt) boshqasi (boshqariladigan subyekt) ustidan hokimiyat vakolatlariga ega va unga majburiy bo'lgan bir tomonlama ko'rsatmalar berishi mumkin; — huquqiy munosabatlar, qoida tariqasida, boshqariladigan subyektlarning xohishidan qat'iy nazar vujudga keladi [19].

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda, hozirgi kunda ommaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari sifatida bir tomonda jismoniy va yuridik shaxslarni, ikkinchi tomonda esa faqatgina

davlat organlarini emas, balki hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan turli subyektlarni uchratish mumkin.

Demokratik huquqiy davlatlarda olib borilayotgan nomarkazlashtirish nafaqat davlat organlari tizimi ichida, balki undan tashqarida ham yuz bermoqda. Jumladan, ayrim davlat funksiyalari nodavlat tashkilotlariga (fuqarolik jamiyati institutlariga) o'tkazilmoqda. Bu o'z navbatida ommaviy-huquqiy munosabatlarning bir tomonida ishtirok etuvchi hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan subyektlar doirasining kengayishiga olib keladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma'muriy sudga murojaat qilish belgilangan. Demak, ma'muriy sudda ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizo ko'rib chiqilayotganda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Yu.A.Tixomirovning fikricha, "ommaviy huquqiy nizo" – bu vakolatli davlat organlari tomonidan ommaviy xususiyatga ega bo'lgan va qonun bilan o'rnatilgan protsessual tartibda ko'rib chiqiladigan nizodir. Yuzaga kelgan nizo, agarda ommaviy huquq sohalari (konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, soliq, mehnat va h.k.lar)ga tegishli masalalarni qamrab oladigan bo'lsa, bunday nizolar ommaviy-huquqiy hisoblanadi [20].

Ma'muriy ishlar haqiqatdan ham ma'muriy va boshqa ommaviy munosabatlardan kelib chiqadi, lekin bu ularning o'xshashligidan dalolat bermaydi. Ma'muriy ishlar ommaviy xarakterga ega va maxsus protsessual tartibda sud muhokamasini talab qiladi. Ommaviy-huquqiy nizoning asosiy xarakteri — bu nizoli huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquqiy jihatdan teng emasligidir.

Ommaviy-huquqiy nizolarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu nizoli munosabat ishtirokchilari huquqiy jihatdan teng emas. Jumladan, D.M.Zamishlyayevning ko'rsatishicha, bu huquqiy munosabatlar subyektlarining teng huquqliligining yo'qligidir, ya'ni ulardan biri hokimiyat funksiyalari bilan ta'minlanganligi, shu bilan birga, bu alohida yurisdiksiya va uning maxsus protseduralarini ajratish uchun sabab bo'lgan huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati sanalishini ko'rsatadi [21].

"Ommaviy huquqiy nizo" va "ma'muriy huquqiy nizo" tushunchalari ko'pgina holatlarda bir butun yoki ikkinchisi birinchisining bo'lagi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, T.V.Peshkovaning fikriga ko'ra, ma'muriy-huquqiy nizolarga tomonlarning biri sifatida ijro hokimiyati organlari, shuningdek davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi boshqa organlar va ularning mansabdor shaxslari ishtirok etgan barcha nizolar kiradi [22]. Yu.N.Starilov esa "ma'muriy huquqiy nizolar" deganda, bir tomondan davlat organlari, mahalliy organlar, mansabdor shaxslar, ikkinchi tomondan huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi jismoniy va yuridik shaxslarning subyektiv ommaviy huquqlari buzilishi fakti yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy nizo ekanligini ta'kidlaydi [23].

Sh.Shayzakov ta'biricha, jismoniy yoki yuridik shaxslarning ommaviy huquqlari davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va boshqa huquq subyektlari tomonidan noqonuniy ma'muriy qoidalarni ishlab chiqishi yoki davlat boshqaruv sohasida manfaatlar to'qnashuvining vujudga kelishi natijasida ma'muriy huquqiy nizolar paydo bo'lib, natijasida subyektlar huquqiy to'qnashuvi vujudga keladi [24].

Ma'muriy huquqiy nizo nafaqat ommaviy huquqiy xarakterga ega, balki ommaviy huquqiy nizolarning turi sifatida qaraladi hamda ma'muriy huquqiy nizoning maqsadi fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Shu sababli ham bizningcha, "ma'muriy-huquqiy nizo" tushunchasi "ommaviy-huquqiy nizo" tushunchasining tarkibi sifatida qaralishi hamda ushbu nizolarning bir tomonida albatta hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar bo'lishi shart. Aks holda, bunday nizolar ma'muriy sudlovga emas, boshqa sud vakolatiga taalluqli bo'lib qoladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, "ommaviy huquqiy nizo" tushunchasining quyidagi bir necha umumiy xususiyatlarini sanab o'tishimiz mumkin:

a) ommaviy huquqiy nizolar ommaviy huquq sohalariga tegishli masalalarni qamrab oladi;

b) ommaviy huquqiy nizolarda munosabat ishtirokchilaridan biri sifatida davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lgan subyekt namoyon bo'ladi hamda munosabat ishtirokchilari teng emas;

v) ommaviy huquqiy nizolarni hal etishning maxsus tartibi joriy etiladi;

d) ommaviy huquqiy nizo subyektlarning huquqlari va majburiyatlarini, ularning xatti-harakatlarini belgilab beruvchi moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash bo'yicha yuzaga keladi;

e) ommaviy huquqiy nizolar davlat hokimiyat subyektlari tomonidan qabul qilingan qarorlari va mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi), normativ-huquqiy hujjatlar, boshqa ommaviy qarorlar va xatti-harakatlar bo'yicha yuzaga keladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritish mustaqil institut sifatida shakllanayotganligi sababli, unda bir qancha nazariy tushunchalarni qo'llash tavsiya etiladi:

1) Ommaviy-huquqiy nizo — bu ommaviy huquq sohalariga tegishli munosabatlarni qamrab olgan, munosabat ishtirokchilari huquqiy jihatdan teng bo'lmagan, subyektlarning huquqlari va majburiyatlarini, ularning xatti-harakatlarini belgilab beruvchi moddiy huquq normalarini qo'llashga qaratilgan va protsessual tartibda hal etiladigan munosabat.

2) Ma'muriy-huquqiy nizo — bu ma'muriy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlariga daxldor bo'lgan, boshqaruv vakolatiga ega bo'lgan shaxsning qabul qilgan qarori yuzasidan ma'muriy-huquqiy munosabat subyektlarining noroziligidan kelib chiqadigan munosabatlar.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Коркунов Н.М. Русское государственное право. СПб., 1889.
2. Чечот Д.М. Неисковое производство. М., 1973. С. 10
3. Кудряшова А.Г. Понятие и признаки административных и иных публичных правоотношений // Студенческий форум. 2023. № 30 (253). С. 17-19
4. Baron S.A.Korf. Administrative justice in Russia. S. Petersburg. 2007.p. 87
5. Starilov Y.N. Administrative proceedings and administrative courts in the Russian Federation: reality and prospects // Russian judge, 2012. No. 2. His own. Administrative Justice Theory, history, perspectives. М.: Norm, 2001.p.304.
6. М Adler, 'A Socio-Legal Approach to Administrative Justice' (2003) 25 Law and Policy 323-324 and M. Adler, 'Understanding and Analysing Administrative Justice' in M. Adler (ed), Administrative Justice in Context (Hart 2010) 129.

7. Belsky K.S. Questions on the subject of administrative law // GiP, 1997. - No. 11. - P. 20-21.
8. Sukhareva N.V. The essence of administrative disputes // Lawyer, 1999. - No. 10. - P. 52.
9. J. Nematov. Improvement of Administrative Procedures in the Republic of Uzbekistan: Administrative and Legal Framework: Comparative-Legal Analysis: Textbook-T.;2015.P.86.
10. Зайцев Д.М. Соотношение административных дел, рассматриваемых по КАС РФ, и дел из дминистративных и иных публичных правоотношений, рассматриваемых по АПК РФ // Научное обеспечение агропромышленного комплекса. сборник статей по материалам 77-й научно-практической конференции студентов по итогам НИР за 2021 год. – Краснодар: Кубанский государственный аграрный университет им. И.Т. Трубилина, 2022. С. 132-135
11. Davydov K.V. The principles of administrative procedures: comparative legal research // Actual issues of public law.- 2015. No. 4 (34). P. 18.
12. Sukhareva N.V. The essence of administrative disputes // Lawyer, 1999. - No. 10. - P. 52.
13. Симонян С.Л. Производство по делам, возникающим из публичных правоотношений: учебное пособие. - Ростов-на-Дону: Издательство ЮФУ, 2010. 272 с.
14. Кудряшова А.Г. Понятие и признаки административных и иных публичных правоотношений // Студенческий форум. 2023. № 30 (253). С. 17-19.
15. Болгова В.В.: Публичное право: проблемы теории, методологии, практики. Автореф. дисс. док. юрид. наук. - М.2009. С. 28-29
16. Миягашева А.В. Понятие и сущность публичных правоотношений // Юридические науки. №9, 25.09.2017. С. 80-82
17. Шиндяпин С. Э. Субъекты публичных правоотношений: проблемы понимания и классификация // Вестник Тамбовского университета. – 2014. – №6 (314). - С. 177-182
18. Битяк Ю.П., Богуцький В.В., Гаращук В.М. / Адміністративне право України підручник для юрид. вузів і фак. За ред. Ю.П. Битяка. — Харків: Право, 2000. - С. 19
19. Тихомиров Ю. А. Публично-правовые споры // Право и экономика. 1998. № 6. С. 8–13
20. Замышляев Д. М. Виды судебных юрисдикций в Российской Федерации: сравнительно-правовой и исторический подход: дис. ... канд. юрид. наук. - М., 2015. С. 100 -101
21. Пешкова Т. В. Административное судопроизводство в судах общей юрисдикции в Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. - Воронеж, 2014. С. 116
22. Стариков Ю.Н. Административная юстиция. Теория, история, перспективы. - М., 2001. - С.68
23. Shayzakov Sh.I. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari: qiyosiy-huquqiy tahlil. yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T., 2021. 41 b.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **DETERMINING THE SUBSEQUENT LEGAL STATUS OF GOODS AND MATERIAL ASSETS SEIZED IN CONNECTION WITH CRIMES IN THE CUSTOMS SECTOR: KEY ISSUES AND THEIR SOLUTIONS**

**Temirov Madrahim Ulmas o'g'li**

Student of the "Investigative Activity" program,  
Academy of the Ministry of Internal Affairs

E-mail: [madrahimtemirov@gmail.com](mailto:madrahimtemirov@gmail.com)

**Abstract.** This scientific article examines the issue of seizure of goods and material assets resulting from crimes in the customs sector, their storage, and the determination of their subsequent legal status. Both theoretical and practical aspects of the application of measures for the safekeeping of seized goods, as well as their transfer to the state or conversion into state revenue, are analyzed. Special attention is given to the legal and organizational challenges arising in this process and possible solutions to them.

**Keywords:** customs sector, crime, goods and material assets, natural offspring and reproduction, legal status, forfeiture / confiscation.

## **BOJXONA SOHASIDA SODIR ETILGAN JINOYATLAR YUZASIDAN OLIB QO'YILGAN TOVAR MODDIY BOYLIKLARINING KEYINGI HUQUQIY MAQOMINI BELGILASHDAGI AYRIM MASALALAR VA ULARNING YECHIMLARI**

**Temirov Madrahim O'lmas o'g'li**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
"Tergov faoliyati" yo'nalishi tinglovchisi

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada bojxona sohasida jinoyat sodir etilishi natijasida tovar-moddiy boyliklarini olib qo'yish, saqlash va ularning keyingi huquqiy maqomini belgilash masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga, olib qo'yilgan tovarlarning saqlanishi, ularga nisbatan musodara yoki davlat daromadiga o'tkazish choralarini qo'llash jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy va tashkiliy muammolar hamda ularning yechimlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** bojxona sohasi, jinoyat, tovar-moddiy boyliklar, tabiiy hosil va ko'payish, huquqiy maqom, musodara.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N28>

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholi sonining ortib borishi zamirida mamlakatning eksport-import hajmi ham ortib borishiga va iqtisodiy taraqqiyotining rivojlanishi olib kelmoqda. Davlatimiz iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi, xalqaro savdo munosabatlarining rivojlanganlik darajasi hamda ushbu sohada qonuniylikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bojxona organlari faoliyati davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, milliy bozorni himoya qilish, budjet daromadlarini shakllantirish hamda noqonuniy tovar aylanmasiga qarshi kurashishda

muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv jarayonlari, transport-logistika tizimlarining rivojlanishi va savdo hajmining keskin o'sishi bojxona sohasida yangi turdagi huquqbuzarliklar va jinoyatlarning kelib chiqishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, tovarlarni bojxona nazoratidan yashirincha olib o'tish, bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash, qalbaki hujjatlardan foydalanish hamda taqiqlangan yoki cheklangan tovarlarni noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlar amaliyotda keng uchramoqda. Bunday jinoyatlar nafaqat davlat budjetiga, balki jamiyat va fuqarolar manfaatlariga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Bojxona sohasida sodir etilgan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular aksariyat hollarda muayyan moddiy qiymatga ega bo'lgan tovar-moddiy boyliklar bilan bevosita bog'liq holda sodir etiladi. Mazkur tovarlar ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilib, davlat ixtiyoriga vaqtincha o'tkaziladi. Ana shu paytdan boshlab, ushbu tovar-moddiy boyliklarning keyingi huquqiy maqomini belgilash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi qonunchilikda olib qo'yilgan tovar-moddiy boyliklarni saqlash, baholash, davlat foydasiga musodara qilish yoki yo'q qilish tartiblari umumiy tarzda belgilangan bo'lsa-da, ularni qo'llash jarayonida qator muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, sudga qadar bo'lgan bosqichda tovarlarni saqlash uchun zarur infratuzilmaning yetarli emasligi, saqlash xarajatlarining ortishi, tovarlarning sifat va bozor qiymatini yo'qotishi, yirik shohli hayvonlarning tabiiy ko'payishi(bolalari)ni keyingi huquqiy maqomining ochiq qolib ketishi kabi muammoli holatlar amaliyotda ko'p uchramoqda.

Xususan, bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilayotgan yirik shohli hayvonlar yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi yuzasidan sudning qonuniy hukmi e'lon qilingunga qadar vaqtning ko'pligi, buning natijasida ularning tabiiy ko'payishi (bolalari)ni ham huquqbuzarlik ashyosi deb e'tirof etilishi yoki e'tirof etilmasligi, ularning keyingi huquqiy maqomini belgilash(agarda huquqbuzarlik ashyosi(yirik shohli qoramollar) davlat foydasiga musodara qilinsa, ularning tabiiy ko'payishi (bolalari) ham musodara qilinadimi) masalalari bo'yicha haligacha qonunchilikka biror bir norma kiritilmaganligicha qolmoqda. Bu esa tadbirkorlarning davlat organlariga bo'lgan ishonchining yo'qolishiga, vakolatli organlarning turli korrupsion holatlarga yo'l qo'yishiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pgina davlatlarda olib qo'yilgan mol-mulkni boshqarish bo'yicha maxsus agentliklar faoliyat yuritadi. Bunday tizim tovarlarni saqlash, baholash va realizatsiya qilish jarayonlarini markazlashtirish orqali samaradorlikni oshiradi. Ushbu tajribani milliy huquq tizimiga moslashtirib joriy etish bojxona sohasida olib qo'yilgan tovar-moddiy boyliklar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda muhim qadam bo'lishi mumkin.

Xalqaro standartlarga ko'ra, huquqbuzarlik ashyosi sifatida olib qo'yilgan mol-mulkning huquqiy maqomini belgilashda quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

- qonuniylik va protsessual adolat;
- mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash;
- jinoyatdan kelib chiqadigan foydani muomaladan chiqarish;
- davlat manfaatlarini va jamoat xavfsizligini himoya qilish.

Xalqaro tajribaga ko'ra, davlat chegarasidan noqonuniy olib kirilgan yirik shohli hayvonlar jinoyat predmeti hisoblanadi va ularning tabiiy ko'payishi ham mustaqil mulk sifatida qaralmaydi. Ular asosiy hayvon bilan birga mustaqil emas, davlat foydasiga musodara qilinadi.

Mazkur yo'nalishda ko'plab olimlar o'z fikrlarini bildirgan. Xususan, bojxona sohasida jinoyat predmeti sifatida olib qo'yilgan tirik hayvonlarning huquqiy maqomi ularning tabiiy ko'payishi masalasini ham qamrab oladi. Fuqarolik-huquqiy doktrinaga ko'ra, hayvonlarning tug'ilgan bolalari asosiy ashyoning tabiiy hosilasi (*fructus naturales*) hisoblanadi va u asosiy mulkning huquqiy taqdiriga ergashadi [1]. Mazkur yondashuv Rim huquqidagi "partus sequitur ventrem" ("nasl ona ortidan boradi") prinsipiga asoslanadi[2]. Klassik ingliz huquqshunosi William Blackstone o'zining mashhur asari – *Commentaries on the Laws of England*da hayvonlarning nasli ona hayvon egasiga tegishli ekanligini qayd etgan[3].

Ushbu qoida keyinchalik zamonaviy mulk huquqi nazariyasida ham rivojlantirilgan. Xususan, amerikalik huquqshunos olim Thomas W. Merrill hayvonlarning tabiiy ko'payishini asosiy aktivdan kelib chiqadigan iqtisodiy manfaat sifatida talqin qiladi va uni mulkdorning ajralmas huquqiy manfaatlari qatoriga kiritadi[4].

Jinoyat-huquqiy musodara institutida esa asosiy jinoyat predmetidan kelib chiqqan hosila mol-mulk ham davlat foydasiga o'tkazilishi mumkinligi qayd etiladi. Bu borada taniqli jinoyat huquqi nazariyotchisi Wayne R. LaFave o'zining *Substantive Criminal Law* asarida musodara nafaqat jinoyat vositasi yoki predmeti, balki undan kelib chiqqan hosila (*derivative property*)ni ham qamrab olishini ta'kidlaydi[5].

Shu bilan birgalikda, AQSh davlat qonunchiligida jinoyat ishida ashyo sifatida olingan mulkning tabiiy ko'payishi ham ashyo tarkibida hisoblanishi belgilab qo'yilgan. AQSh qonunchiligida — "jinoyat natijasida bevosita yoki bilvosita olingan, undan kelib chiqqan mulk musodara qilinadi" deb ko'rsatilgan[6].

Agar asosiy qoramol musodara qilinsa tabiiy ko'payishi ham shu qarorga ergashadi. Bolalar ham davlat foydasiga o'tadi, chunki ular jinoyat predmetining tabiiy hosili hisoblanadi.

Agar sud tomonidan qoramol egasiga qaytarilsa, bolalar ham egasiga qaytariladi. Davlat tarafidan qilingan veterinariya, ozuqa xarajatlari sud qaroriga muvofiq egadan undirilishi mumkin.

Shuningdek, Kanada davlatining "Criminal forfeiture" qonuniga muvofiq, "Jinoyat predmetining tabiiy hosili ham mulk bilan birga musodara qilinadi" deb belgilab qo'yilgan[7].

Bundan tashqari, Uganda davlatining "Uganda Wildlife Act" qonuniga ko'ra—"Agar hayvon jinoyat yoki noqonuniy olib kirilish natijasida ushlansa, uning tabiiy ko'payishi ham davlat mulki sifatida qaraladi" [8].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, 15.07.2009 yildagi Vazirlar Mahkamasining "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 200-sonli qarorida hamda 24.09.2010 yildagi Adliya Vazirligidan 2174-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo'yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi Yo'riqnomada ham jinoyat bilan bog'liq tabiiy hosil va ko'payishlar haqida biror bir norma kiritilmagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xorijiy davlatlarning qonunchiligini qiyosiy o'rganish va tahlil qilish natijasida mazkur sohada yuzaga kelayotgan ayrim muammolar yechimi sifatida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildiramiz:

**Birinchi taklif.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining

182-moddasi sanksiya qismiga hayvonlar tabiiy hosil va ko'payishlari musodara qilinishi to'g'risida tushuncha kiritish;

**Ikkinchi taklif.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.07.2009-yildagi "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 200-sonli qarori hamda 24.09.2010-yildagi Adliya Vazirligidan 2174-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo'yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi Yo'riqnomalarga hayvonlar tabiiy hosil va ko'payishlari huquqbuzarlik ashyosi sifatida e'tirof etilishi hamda ularning tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonlarida inobatga olinishiga oid norma kiritish zarur.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Суханов Е.А. Гражданское право: Учебник. Т. 1. М.: БЕК, 2019. С. 512–514.
2. Zimmermann R. The Law of Obligations: Roman Foundations of the Civilian Tradition. Oxford: Oxford University Press, 1996. P. 321–325.
3. William Blackstone. Commentaries on the Laws of England. Vol. 2. Oxford: Clarendon Press, 1766. P. 390–392.
4. Thomas W. Merrill. Property and the Right to Exclude // Nebraska Law Review. 1998. Vol. 77. P. 730–732.
5. Wayne R. LaFave. Substantive Criminal Law. 3rd ed. St. Paul: West Academic Publishing, 2018. § 6.6.
6. 21 U.S.C. § 853 : Criminal forfeitures // United States Code. – Title 21, § 853. – Washington, D.C. : U.S. Government Publishing Office
7. Criminal Code of Canada Part XII.2 : Proceeds of crime (Part XII.2) // Criminal Code of Canada. – R.S.C., 1985, c. C-46. – Ottawa : Department of Justice Canada
8. Uganda Wildlife Act : Uganda Wildlife Act. – Act No. 14 of 2019. – Kampala : The Uganda Gazette

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **ADMINISTRATIVE-LEGAL NATURE OF HIGHWAYS AS PUBLIC PROPERTY**

**Mashrabov Madorbek**

Tashkent State University of Law

Independent Researcher

E-mail: [mashrabov\\_m@mail.ru](mailto:mashrabov_m@mail.ru)

**Abstract.** This article analyzes the administrative-legal nature of highways as public property from a scientific, theoretical and practical perspective. The place of highways in the system of public property, the content of administrative-legal relations related to their management, use and protection are revealed. The legal regime of highways as public property, the powers of authorized state bodies and their role in ensuring public interests are also highlighted. The article analyzes the current legislative norms and puts forward proposals and conclusions on improving administrative-legal mechanisms in the field of effective use and maintenance of highways.

**Keywords:** highways, public property, administrative-legal relations, state administration, legal regime, public interest.

## **AVTOMOBIL YO'LLARINING OMMAVIY MULK SIFATIDA MA'MURIY-HUQUQIY TABIATI**

**Mashrabov Madorbek**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada avtomobil yo'llarining ommaviy mulk sifatidagi ma'muriy-huquqiy tabiati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Avtomobil yo'llarining davlat mulki tizimidagi o'rni, ularni boshqarish, foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq ma'muriy-huquqiy munosabatlar mazmuni ochib beriladi. Shuningdek, ommaviy mulk sifatida avtomobil yo'llarining huquqiy rejimi, vakolatli davlat organlarining vakolatlari hamda jamoat manfaatlarini ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Maqolada amaldagi qonunchilik normalari tahlil qilinib, avtomobil yo'llaridan samarali foydalanish va ularni saqlash sohasidagi ma'muriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va xulosalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** avtomobil yo'llari, ommaviy mulk, ma'muriy-huquqiy munosabatlar, davlat boshqaruvi, huquqiy rejim, jamoat manfaati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N29>

**Kirish.** Bugungi kunda avtomobil yo'llari sohasi alohida huquq sohaslarida ham o'rganib kelinmoqda. Xususan, "Yo'l huquqi" ("Highway Law"), "Transport huquqi" ("Transport law"), "Ommaviy infrastruktura huquqi" ("Public infrastructure law"), "Yo'l harakati huquqi" ("Traffic law") kabi alohida huquq sohaslarida o'rganiladi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

Tahlil va sintez metodi – avtomobil yo'llarining huquqiy tabiatini ommaviy mulk instituti doirasida kompleks o'rganishda;

Qiyosiy-huquqiy metod – milliy qonunchilik normalarini xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslashda;

Tizimli yondashuv – avtomobil yo‘llarini davlat mulki obyekt sifatida boshqarish mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilishda;

Formal-yuridik metod – amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash va huquqiy normalar mazmunini aniqlashda;

Amaliyotni o‘rganish metodi – huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlashda.

Qo‘llanilgan metodlar tadqiqot mavzusini nazariy va amaliy jihatdan chuqur yoritish, xulosa va takliflarni ilmiy asoslash imkonini berdi.

**Tahlil natijalari.** Roman-german huquqi davlatlarida avtomobil sohasidagi munosabatlar ma‘muriy huquqning muhim instituti sifatida o‘rganiladi. Xususan, Germaniyada yo‘l huquqi (Straßenrecht) va yo‘l harakati huquqi (Verkehrsrecht) kabi huquq sohalari ma‘muriy huquqdan ajralib chiqqan[1].

Ayniqsa, mazkur masala O.Mayer tomonidan ommaviy huquqda “ommaviy huquqiy ashyolar”(öffentliche Sachen) konsepsiyasini ilgari surishi bilan rivojlandi. Olimning talqini bo‘yicha yo‘llar davlat mulki hisoblanib, ommaviy foydalanish maqsadida maxsus ma‘muriy-huquqiy rejimga ega[2]. Ya‘ni, mana shunday yondashuv yo‘llarni alohida ma‘muriy huquq obyekt sifatida o‘rganishni rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bu kabi yondashuvlar F.Fløyner, O.Byuller, K.Korman va boshqa shu kabi ma‘muriy huquqning doktrinal rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar ishlarida ham tahlil qilingan.

Ta‘kidlash lozimki, avtomobil yo‘lini ma‘muriy huquq obyekt sifatida tahlil qilish ommaviy mulk tushunchasi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Ommaviy mulk tushunchasi sovet davri merosini, ya‘ni davlat mulkining o‘ziga xosligi bilan birga, xususiy huquqning qayta tiklangan klassik an‘analarini, ilg‘or xorijiy tajribaning ayrim elementlarini hamda so‘nggi yillardagi milliy yangiliklarni o‘zida mujassam etgan.

Milliy huquq tizimida ommaviy mulk tushunchasi, uning mezonlari hamda turlari bo‘yicha yagona yondashuv shakllanmagan. Mazkur masalani hal etmasdan ommaviy mulkning zamonaviy doktrinasini yakuniy ko‘rinishda shakllantirish, shuningdek, mazkur sohadagi tegishli normativ-huquqiy bazani sifat jihatdan takomillashtirish qiyin bo‘ladi.

Umuman olganda, ommaviy mulk davlat va munitsipal mulk obyektlariga bo‘lish tendensiyalari mavjud. Tarixiy jihatdan davlat mulki hamda munitsipalitetlar (kommunalar, jamoalar) mulki turli yo‘llar orqali shakllangan. Lekin, bugungi kunda mazkur obyektlar toifalari yagona huquqiy maydonga aylangan. Mulkn bunday tasniflash asosiy mezon subyektga borib taqalmoqda. Lekin, xususiy mulkchilik ustuvor bo‘lgan davlatlar tarixiga e‘tibor qaratsak ayrim farqlar mavjud.

Jumladan, roman-german huquq oilasiga mansub mamlakatlarning mutlaq ko‘pchiligida davlatga hamda boshqa ommaviy huquq subyektlariga tegishli bo‘lgan mol-mulk tarkibi bir xil deb tan olinmaydi. Ular orasida huquqiy rejimi asosan fuqarolik emas, balki ommaviy (ma‘muriy) qonunchilik bilan tartibga solinadigan, alohida ommaviy maqsadga ega obyektlar ajratib ko‘rsatiladi.

Bunday mulkn ajratib ko‘rsatishning mazmuni uni davlatga tegishli bo‘lgan, fuqarolik-huquqiy tartibga bo‘ysunuvchi xususiy-huquqiy mulk obyektlariga qarshi qo‘yishdan iboratdir. Aynan ana shu mulkka nisbatan “ommaviy mulk obyektlari” yoki “ommaviy ashyolar” atamalari qo‘llaniladi.

Rim huquqida ommaviy ashyolar (*res publicae*) funksional mezon asosida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ular davlat yoki jamoalarga tegishli bo'lgan va jamoat foydalanishi uchun mo'ljallangan edi[3]. Ushbu yondashuv Rim huquqini o'zlashtirishdan so'ng Yevropa huquq tartibotlari tomonidan ham qabul qilingan, biroq keyinchalik u sezilarli darajada rivojlanib, funksional mezon ancha kengaydi va qator davlatlarda mustaqil ahamiyat kasb etdi[4].

Roman huquqi an'analari mansub mamlakatlarda davlat mulkining alohida toifasi sifatida e'tirof etiladigan ommaviy domenlar (*domaine public*) mavjud bo'lib, ular xususiy-huquqiy mulk obyektlariga (*domaine privé*) qarshi qo'yiladi. Misol uchun, Fransiya, Ispaniya, Lotin Amerikasi davlatlarida bunday ommaviy domenlar funksional mezon asosida belgilanadi va faqat umumiy foydalanishdagi mol-mulknigina emas, balki davlat xizmatlari ehtiyojlarini ta'minlovchi mol-mulknini ham qamrab oladi.

Italiya qonunchiligiga e'tibor qaratsak, huquqiy rejim nuqtai nazaridan funksional mezon asosida ajratiladigan ommaviy mulk obyektlariga xususiy shaxslarga tegishli bo'lgan, biroq ommaviy foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk (*i beni privati di interesse pubblico*) ham kiradi [5].

Bugungi nemis huquqida ommaviy mulk fenomeni tan olinmagan bo'lib, unda ommaviy ashyolar (*öffentlichen Sachen*) kategoriyasi ajratiladi. Ushbu kategoriya faqat umumiy manfaatga xizmat qilish funksional mezon asosida belgilanadi[6]. Shu munosabat bilan ommaviy ashyolarning xususiy shaxslarga tegishli bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Nemis huquqini bunday yondashuvi hozirgi paytda Shveysariyada qabul qilingan[7].

Zamonaviy fransuz huquqida ommaviy mulk va xususiy mulk orasidagi farq jiddiy tanqidga uchramoqda. Sababi ularni ajratishning asosiy mezon sifatida jamoat manfaatining borligi yoki yo'qligiga qaratilgan bo'lib, ushbu mezon o'zini oqlamayapti. Ya'ni, davlatning xususiy mulkida ham jamoat manfaatlari uchrab turadi. Shu bilan birga, ommaviy mulk munosabatlari sohasiga xususiy elementlar yanada kuchli kirib bormoqda.

Milliy huquq tizimida esa davlat va munitsipal mulklar huquqiy rejimi jihatidan klassik ommaviy domenlarga o'xshashdir. Davlat va munitsipal mulk munosabatlarini tartibga solish uchun metodologik jihatdan yagona huquqiy instrumentlar va muayyan mulknini boshqarish uchun universal mexanizm qo'llanadi.

Ommaviy mulkning umumiy yoki alohida qismiga nisbatan ko'pincha "xalq mulki", "jamoat mulki", "milliy mulk", "milliy boyluk" kabi atamalar qo'llaniladi. Xalq mulki konsepsiyasi sovet davrida keng tarqalgan. Xalq mulki sifatida barcha davlat mulk obyektlari e'lon qilingan. Ammo ushbu konsepsiya XX asrning 90-yillaridan boshlab bir necha marotaba mazmunan tanqidga uchragan. Sababi u mulkning iqtisodiy va huquqiy egalari o'rtasida asossiz taqsimlash hamda maxsus afzalliklar kabi kamchiliklar bilan bog'liq bo'lgan.

V.P.Mozolinning ta'kidlashicha, davlat mulkida ikki turga bo'linadi: jamiyatda odamlar uchun umumiy foydalanishga mo'ljallangan obyektlar va ishlab chiqarish maqsadidagi obyektlar[8].

Davlat mulki tushunchasiga nisbatan huquqshunos olimlar S.A.Sosna "jamoat mulki" tushunchasidan foydalangan bo'lsa, V.D.Mazayev esa "milliy mulk" tushunchasini qo'llaydi[9].

Yuqorida keltirilgan yondashuvlar orasidagi farqlar asosan terminologik xarakterga ega bo'lib, bu borada yakdil yondashuv yuzaga keltirish uchun V.A.Tarxov va V.A.Ribakov "jamoat mulki bo'lgan davlat mulki obyektlari" tushunchasini kiritishni taklif qiladi[10].

Umuman olganda, xalq mulki amalda roman huquqi mamlakatlarida ko‘rib chiqilgan ommaviy mulk fenomeni bilan tenglashtiriladi. Shu munosabat bilan qiziq jihat shundaki, fransuzcha *domaine public*, ispancha *dominio público*, portugalcha *domínio público*, italyanча *demanio pubblico* atamalari faqat ommaviy mulk yoki ommaviy domenlar sifatida emas, balki “umumiy mulk”, “jamoat mulki”, “barchaga tegishli mulk” yoki “xalq mulki” deb ham tarjima qilina oladi. Bu yerda, boshqa ko‘p jihatlarda bo‘lgani kabi, Rim huquqi an‘analari o‘z aksini topgani ko‘rinadi.

Milliy huquqiy tizimida “jamoat mulki” atamasidan foydalanish ma‘nosi faqat aniq belgilangan kategoriyadagi obyektlarga alohida huquqiy xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatish mumkin bo‘lsagina paydo bo‘ladi.

Birinchi dan, jamoat mulki obyektlari munosabatlarida subyektning tarkibi xususiyatlari haqida fikrlar bildiriladi. Masalan, sovet davrida ularning egasi xalq hisoblanadi va ayrim fuqarolar ishtirok etadi. Bu borada V.D.Mazayev ushbu konsepsiyani rivojlantirib, konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarda ommaviy mulk egasi xalq, u esa ommaviy tuzilmalarni ushbu mulkni taqsimlash va boshqarishga vakolatli qiladi.

XIX–XX asr boshidagi nufuzli Yevropa olimlari (J.B.V.Prudon, L.Dyugi, R.Iering, F.L.Keller) fikricha, ommaviy domenlar asosan mulk huquqi obyekti hisoblanmaydi. Ammo, bu qarashlar asosan “egalikka asoslangan” yondashuv (G.Dernburg, M.Oriu, R.F.Velasko va boshqalar) tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida almashtirildi. Mazkur obyektlarning egasi faqat ma‘muriy-hududiy tuzilmalar sifatida qaralishi mumkin. Xalqni jamoat mulkining egasi sifatida tan olish yoki uni mulk huquqi obyekti sifatida e‘tirof qilmaslikka asoslangan yondashuvlar ommaviy mulk haqidagi nazariyalar rivojlanishining oldingi bosqichlarini aks ettirib, hozirgi huquqiy tartibga to‘g‘ri kelmaydi.

Ikkinchi dan, jamoat mulki konsepsiyasi tarafdorlari tegishli obyektlarning huquqiy rejimida o‘ziga xos xususiyatlar borligini ta‘kidlaydilar. Bu asosan obyektning ahamiyati va o‘ziga xosligi (tabiiy resurslar, madaniy, tarixiy, arxeologik yodgorliklar) bilan bog‘liq. Shu orqali muayyan obyekt egasi uchun jamoat manfaatlari uchun qo‘shimcha cheklovlar o‘rnatiladi. Bunda obyektning xalq mulki sifatida tavsiflash asosan uning huquqiy rejimidagi xususiyatlarni belgilash uchun asos bo‘ladi.

Biroq, jamoat mulkining chegaralari va turlari aniq belgilab bo‘lmaydi. Masalan, davlat (ommaviy) mulk obyektlari tushunchasiga to‘liq to‘g‘ri kelmaydi, chunki ularning ko‘pchiligi “mulk” sifatida ta‘riflash qiyin. Umuman olganda, jamoat mulki obyektlariga nisbatan huquqiy rejim qonunchilikda ham, nazariy adabiyotda ham yagona va aniq mazmunda shakllantirilmagan.

Shu tariqa, “xalq mulki” konsepsiyasi ayrim jihatlarda ilmiy ahamiyatga ega, ammo amaliy qo‘llanish uchun asosiy ahamiyatga ega emas. Xususan, egalik huquqi tushunchasining chegaralari fuqarolik huquqiy subyektiv egalik huquqi bilan solishtirganda kengayishi mumkin.

Shuningdek, jamoatning ommaviy mulkka bo‘lgan huquqiy da‘volari asosan umumiy foydalanish obyektlariga nisbatan huquqiy shaklga ega bo‘ladi. Chunki bu obyektlar shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni ta‘minlaydi. Biroq bu yerda ham fuqarolar egalik huquqi sohibi sifatida emas, balki cheklangan ommaviy mulk huquqi subyektlari sifatida ishtirok etadilar.

Shu tariqa, davlat mulkida bo‘lishi mumkin bo‘lgan obyektlar faqat “jamoat mulki” deb ataladigan mulk bilan cheklanmaydi, balki davlatning xavfsizligi, mudofaa qobiliyati, strategik

va boshqa manfaatlarini ta'minlovchi mulkni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, mazkur munosabatlar ma'lum bir ommaviy mulkni foydalanishni nazorat qilish kabi bir qator ommaviy talablarni o'rnatish bilan birga kechadi.

Shu bilan birga, mulkning maqsadi fuqarolik qonunchiligi doirasiga kirmaydigan kategoriya bo'lsa-da, u obyekt davlat yoki munitsipal mulkida nima uchun mavjudligi va uni qanday boshqarish va foydalanish kerakligini aniq ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, fuqarolik huquqiy klassifikatsiya mulk munosabatlari tahlili uchun muhim, ammo ommaviy boshqaruv mexanizmini ishga tushirish va ommaviy mulk munosabatlarini ochish uchun yetarli emas.

Xorijiy huquq tizimlarida ham ommaviy ashyolar turli asoslarda tasniflanadi. Eng tarqalgan ko'rinishi foydalanish tartibiga ko'ra umumiy foydalanishdagi mulk va ommaviy xizmatlar mulki kabi turlarga ajratiladi.

Bu mezon nafaqat ommaviy mulk instituti mavjud bo'lgan huquqiy tizimlarda qo'llanadi (masalan, Fransiyada), balki uni rasman tan olmagan tizimlarda ham ommaviy mulk obyektlari huquqiy rejimini differensiyalashda qo'llaniladi (masalan, Germaniyada)[11]. Mulkn muayyan ommaviy manfaatni aks ettirishi davlat va munitsipal ma'muriyat faoliyatiga kerakli yo'nalish berishi mumkin. Shu bois, asosiy ahamiyat mulkni muayyan ommaviy funksiyaga bog'lashda va uning foydalanish maqsadini belgilashda namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Bizningcha, ommaviy mulkni quyidagicha tasniflash mumkin:

Birinchi guruh, umumiy foydalanishga mo'ljallangan ommaviy mulkdir. Bunga davlat va munitsipal mulkiga tegishli obyektlar kirib, ular ma'lum doirada erkin foydalaniladi va davlatning maxsus ruxsatnomasi yoki kelishuvini talab qilmaydi. Ushbu mulk shaxsning ajralmas huquqlari va erkinliklarini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Mazkur turdagi mulk Fransiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda ommaviy mulk fenomenini (*domaine public*) rivojlantirish uchun asos bo'lgan, shuningdek Germaniya, Shveysariya va ayrim boshqa davlatlarda ommaviy ashyolar institutini (*öffentlichen Sachen*) shakllantirishga xizmat qilgan.

Bugungi kunda romano-german huquq tizimida umumiy foydalanishga mo'ljallangan ommaviy mulk ommaviy domenlar yoki ommaviy ashyolarning alohida turi sifatida qaraladi. Eng muhim jihati shundaki, bunday munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi asosan xususiy huquq doirasidan chiqarilgan va ma'muriy huquq predmetiga kiritilgan. Milliy qonunchilikda bunday mulk turlariga tadqiqotimizning muhim obyekti hisoblangan umumiy foydalanishga mo'ljallangan avtomobil yo'llarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh, shaxsiy iqtisodiy ehtiyojlarni ta'minlovchi ommaviy mulk. Bunga maxsus ravishda ma'lum shaxslarga ularning tegishli mulkdan iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun berilishi mo'ljallangan mulklarni kiritish mumkin. Xususan, cheklangan foydalanish hisobiga shaxsiy iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan o'rmon fondi uchastkalari, suv obyektlari va boshqa tabiiy resurslar kiradi.

Uchinchi guruh, ommaviy xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlovchi ommaviy mulk. Bunga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minlash muassasalari mulk kompleksi va boshqalarni kiritish mumkin.

Bunday mulk notijorat maqsadida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, u fuqarolar va tashkilotlarning davlat kafolatlagan subyektiv ommaviy huquqlarini amalga oshirishni ta'minlaydi, davlat esa o'zini ijtimoiy davlat sifatida namoyon etadi.

To'rtinchi guruh, jamiyat uchun muhim iqtisodiy faoliyatni ta'minlovchi ommaviy mulk. Bular davlat va munitsipal mulkiga tegishli aksiya paketlari, unitar korxonalar va muassasalar mulk komplekslari, shuningdek boshqa ommaviy organ nazoratidagi tashkilotlarga topshirilgan obyektlar, ular davlat va munitsipal xizmatlarga kirmaydigan, jamiyat uchun muhim umumiy iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bunga energetika, transport, moliya, axborot, harbiy sanoat, neft-gaz va boshqa infratuzilma obyektlarini kiritish mumkin.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_stvg/englisch\\_stvg.html](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stvg/englisch_stvg.html)
2. Mayer O. Deutsches Verwaltungsrecht. Bd. I–II. Leipzig: Duncker und Humblot. 1 Aufl., 1895–1896; 3 Aufl., 1924. 409 S
3. Derecho de los Bienes Públicos / Dir. Julio V. González García. 2ª ed. Valencia: Tirant lo Blanch, 2009. P. 40
4. Дювернуа Н.Л. Чтения по гражданскому праву. Т. 2: Учение о вещах. Учение о юридической сделке / Под ред. и с предисл. В.А. Томсинова. М., 2004. С. 1622; Победоносцев К.П. Курс гражданского права. Первая часть: Вотчинные права. М., 2002. С. 98-102; Шершеневич Г.Ф. Учебник русского гражданского права. Т. 1. М., 2005. § 14.
5. Centofanti N. I beni pubblici: tutela amministrativa e giurisdizionale. Milano: Giuffrè Editore, 2007. P. 297-356.
6. Papier H.-J. Recht der öffentlichen Sachen. 3. Auß. Berlin: De Gruyter, 1998. S. 6. Эннекцерус Л., Кипп Т., Вольф М. Курс германского гражданского права. Т. I. Полутом 2: Введение и общая часть / Пер. с нем. И.Б. Новицкого, Г.Н. Полянской, В.А. Альтшулера; под ред. Д.М. Генкина, И.Б. Новицкого. М., 1950. С. 53-56
7. Häfelin U., Müller G., Uhlmann F. Allgemeines Verwaltungsrecht. 6. Auß. Zürich: Dike Verlag AG, 2010. S. 531.
8. Мозолин В.П. Право собственности в Российской Федерации в период перехода к рыночной экономике. М., 1992. С. 126-146.
9. Сосна С.А. О концепции общественного достояния // Государство и право. 1996. № 2. С. 55-57.
10. Мазаев В.Д. Публичная собственность в России: конституционные основы. М., 2004. С. 58-63.
11. Тархов В.А., Рыбаков В.А. Собственность и право собственности. М., 2007 (СПС «КонсультантПлюс»). Абз. 807-820.
12. Papier H.-J. Op. cit. S. 17 38; Wolff H.J., Bachof O., Stober R, Kluth W. Verwaltungsrecht. Bd II. 7. Auß. München: C.H. Beck, 2010. S. 149 153; Allgemeines Verwaltungsrecht / Hrsg. von H.-U. Erichsen und D. Ehlers. 14. Auß. Berlin: De Gruyter, 2010. S. 866-880.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **CHOICE OF LAW FOR INTERNATIONAL COMMERCIAL AGENCY AGREEMENTS: BALANCING PARTY AUTONOMY AND AGENT PROTECTION**

**Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli**

PhD student, Tashkent State University of Law

E-mail: [davronbekabdugaffarov@gmail.com](mailto:davronbekabdugaffarov@gmail.com)

**Abstract.** The principle of party autonomy remains a fundamental pillar of international contract law, allowing commercial actors to designate the legal regime governing their relations. However, in the context of international commercial agency agreements, this freedom frequently intersects with mandatory statutory regimes designed to protect the commercial agent, who is traditionally viewed as the economically weaker party. This article explores the tension between the freedom of contract and the mandatory protective provisions established by the European Union through Directive 86/653/EEC. By examining the doctrinal foundations of overriding mandatory rules and the pertinent jurisprudence of the Court of Justice of the European Union, this study analyzes how courts navigate the conflict between a principal's choice of non-EU law and an agent's right to statutory indemnification or compensation upon termination. The article aims to clarify the boundaries of party autonomy in cross-border agency contracts and evaluate the effectiveness of the Directive in maintaining a protective baseline in the globalized market.

**Keywords:** choice of law, international commercial agency, Directive 86/653/EEC, party autonomy, overriding mandatory provisions, agent protection, private international law.

## **XALQARO TIJORAT VAKILLIGI SHARTNOMALARI UCHUN HUQUQNI TANLASH: TARAFLARNING ERK MUXTORIYATI VA TIJORIY VAKIL HIMOYASI O'RTASIDAGI MUVOZANAT**

**Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Taraflar avtonomiyasi tamoyili xalqaro shartnoma huquqining fundamental ustuni bo'lib qolmoqda va tijorat ishtirokchilariga o'z munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy rejimni belgilash imkonini beradi. Biroq, xalqaro tijorat vakilligi shartnomalari doirasida bu erkinlik ko'pincha iqtisodiy jihatdan zaif tomon sifatida qaraladigan tijorat agentini himoya qilish uchun ishlab chiqilgan majburiy qonunchilik rejimlari bilan to'qnash keladi. Ushbu maqola shartnoma erkinligi va Yevropa Ittifoqi tomonidan 86/653/EEC Direktiva orqali o'rnatilgan majburiy himoya qoidalarini o'rtasidagi ziddiyatni o'rganadi. Ustuvor majburiy normalarning doktrinal asoslari va Yevropa Ittifoqi Sudining tegishli sud amaliyotini o'rganish orqali, ushbu tadqiqot sudlar prinsipialning Yevropa Ittifoqiga kirmagan davlat huquqini tanlashi va agentning shartnoma bekor qilinganda qonuniy tovon yoki kompensatsiya olish huquqi o'rtasidagi ziddiyatni qanday hal qilishini tahlil qiladi. Maqola transchegaraviy agentlik shartnomalarida taraflar avtonomiyasi chegaralarini oydinlashtirish va globallashtirish bozorida himoya bazasini saqlashda Direktiva samaradorligini baholashga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqni tanlash, xalqaro tijorat vakilligi, 86/653/EEC Direktiva, taraflarning erk muxtoriyati, ustuvor majburiy normalar, tijoriy vakil himoyasi, xalqaro xususiy huquq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N30>

**Introduction.** In the landscape of private international law, the doctrine of party autonomy allows contracting parties to expressly select the substantive law that will govern

their contractual obligations. This principle fosters legal certainty, predictability, and commercial flexibility in cross-border transactions [1]. However, the unrestricted application of party autonomy can lead to significant imbalances when there is a disparity in bargaining power between the contracting parties. International commercial agency agreements represent a classic paradigm of this imbalance. A commercial agent, who acts as an independent intermediary negotiating and concluding transactions on behalf of a principal, often operates in a state of economic dependence. The agent invests time, resources, and local market expertise to build a customer base for the principal. Consequently, upon the termination of the agency agreement, the principal retains the accrued goodwill and customer relations, potentially leaving the agent uncompensated for their long-term efforts.

To mitigate this structural vulnerability, national legislatures and supranational bodies have enacted protective regulatory frameworks. The most prominent example within Europe is the adoption of the Agency Directive [2]. The Directive was primarily designed to harmonize the conditions of competition within the internal market and, crucially, to guarantee a minimum level of protection for commercial agents across all Member States. The most significant protective mechanism within this framework is the mandatory entitlement to either an indemnity or compensation upon the termination of the agency contract, depending on the implementation chosen by the specific Member State [3].

A critical legal conflict arises when an international commercial agency agreement contains a choice of law clause designating the law of a non-EU state—one that does not provide equivalent statutory protections upon termination. Principals, often headquartered outside the European Union, may leverage their superior bargaining power to impose such clauses, effectively attempting to contract out of the protective regime established by the Directive. This creates a direct collision between the fundamental freedom of contract and the public policy objective of protecting the weaker party. The core problem addressed in this article is how courts and tribunals resolve this tension. It examines the mechanisms through which private international law permits the restriction of party autonomy, specifically focusing on how the protective provisions of Directive 86/653/EEC are elevated to the status of internationally mandatory rules, thereby safeguarding agents operating within the European territory regardless of the governing law chosen in the contract.

**Literature Review and Methodology.** The theoretical friction between party autonomy and state regulatory interests is a well-documented subject in private international law literature. Scholars have long debated the extent to which states should intervene in private commercial contracts to protect socio-economic policies. The prevailing academic consensus acknowledges that while the freedom to choose the applicable law is the general rule, it must be curtailed when it threatens the fundamental policies or the socioeconomic organization of the forum state [4]. This restriction is operationalized through the doctrine of "overriding mandatory provisions" or *lois de police*.

In the specific context of commercial agency, the literature has focused intensely on whether the protective provisions of Directive 86/653/EEC qualify as overriding mandatory rules. Prior to definitive judicial rulings, scholars were divided. Some argued that agency contracts, being commercial rather than consumer or employment contracts, should remain strictly subject to the chosen law to preserve commercial certainty and the integrity of party autonomy [5]. Conversely, others maintained that the economic vulnerability of the commercial

agent necessitated legislative intervention that could not be easily circumvented by a mere choice of law clause, framing the Directive's termination provisions as essential to the functioning of the internal market and the protection of fair competition [6]. The academic discourse heavily relies on the analysis of the Rome I Regulation, specifically Article 9, which defines overriding mandatory provisions as rules the respect for which is regarded as crucial by a country for safeguarding its public interests, such as its political, social, or economic organization, to such an extent that they are applicable to any situation falling within their scope, irrespective of the law otherwise applicable to the contract [7].

This article relies on a doctrinal legal research methodology to systematically analyze this conflict. The research primarily involves a critical examination of primary legal sources, notably the text and legislative history of Directive 86/653/EEC and the Rome I Regulation. Furthermore, the methodology heavily incorporates case law analysis, focusing on seminal decisions rendered by the Court of Justice of the European Union (CJEU). The study interprets how these judicial decisions have shaped the application of private international law rules, effectively charting the legal boundary where the freedom of contract ends and mandatory statutory protection begins. By synthesizing statutory texts, judicial interpretations, and existing scholarly commentary, this research aims to provide a comprehensive legal evaluation of the balance achieved between principal autonomy and agent protection in cross-border trade.

Here is Part 2 of your article, focusing on the detailed Results section, the textual analysis of the Directive, and the critical CJEU jurisprudence.

**Results.** An examination of the substantive law and judicial interpretations reveals a complex, bifurcated approach to balancing party autonomy and agent protection. The results of this analysis hinge on whether the choice of law conflict occurs between an EU Member State and a third country (extra-EU conflict) or between two EU Member States (intra-EU conflict).

The foundation of the protective regime lies in Articles 17 through 19 of Directive 86/653/EEC. Article 17 requires Member States to ensure that commercial agents are entitled to an indemnity or compensation for damage suffered upon the termination of the agency contract [8]. This entitlement is designed to remunerate the agent for the goodwill generated for the principal that continues to benefit the principal after the relationship ends, or to compensate the agent for investments made and lost commissions. Crucially, Article 19 explicitly prohibits the parties from derogating from Article 17 to the detriment of the commercial agent before the agency contract expires [9]. Consequently, within the domestic law of any single Member State, these termination rights are indisputably mandatory. The critical legal question, however, is whether these provisions transcend domestic mandatory status to become internationally mandatory (overriding mandatory rules) capable of invalidating a foreign choice of law clause.

The landmark ruling establishing the extra-territorial reach and overriding nature of the Directive is the *Ingmar* case [10]. In this case, a commercial agent established in the United Kingdom (*Ingmar*) entered into a contract with a principal established in California (*Eaton Leonard*). The contract expressly stipulated that it was to be governed by the laws of the State of California, which did not provide for the mandatory termination compensation required by the European Directive. Upon termination, the UK agent sought compensation under the UK

regulations implementing the Directive. The principal relied on the Californian choice of law clause to deny the claim.

When the English courts referred the matter to the Court of Justice of the European Union (CJEU), the Court was forced to directly weigh party autonomy against agent protection. The CJEU ruled decisively in favor of protection. The Court reasoned that the purpose of the Directive was not merely to protect a weaker party, but also to guarantee a minimum standard of protection across the internal market to eliminate restrictions on the freedom of establishment and prevent distortions of competition. Because these goals represent fundamental macroeconomic policies of the European Union, the CJEU concluded that Articles 17 to 19 must be applied where the commercial agent carries out their activity within the EU, irrespective of the law the parties chose to govern the contract [11]. Thus, in extra-EU scenarios, the results show that courts will systematically strike down a non-EU choice of law clause if its application would deprive an EU-based agent of their statutory termination rights.

However, the jurisprudential results demonstrate a significantly different balancing act in intra-EU conflicts, where the chosen law is that of another Member State. This nuance was firmly established in the *Unamar* case [12]. *Unamar*, a Belgian commercial agent, contracted with a Bulgarian principal. The contract contained a choice of law clause designating Bulgarian law. When the principal terminated the contract, the Belgian agent sought compensation under Belgian law, which offered wider, "gold-plated" protections that went beyond the minimum requirements of the Directive (specifically, extending the protection to contracts for the provision of services, not just goods). The Bulgarian law, conversely, had implemented only the strict minimum requirements of the Directive.

The Belgian courts asked the CJEU whether they could apply the broader Belgian national law as an overriding mandatory provision (under the framework of the Rome Convention/Rome I Regulation) to reject the parties' choice of Bulgarian law. The CJEU adopted a much stricter stance on restricting party autonomy in this intra-EU context. The Court ruled that because both Belgium and Bulgaria had implemented the minimum protections of Directive 86/653/EEC, the fundamental policy goals of the internal market were already satisfied by the chosen Bulgarian law. Therefore, to reject the chosen law of another Member State, the forum court must assess whether its national legislature, when adopting broader protective rules, deemed those specific broader rules to be absolutely crucial for safeguarding the country's public interests [13].

The results of this judicial evolution indicate that the threshold for overriding party autonomy is context-dependent. When a non-EU law threatens the baseline rights of the Directive, European courts will categorically intervene. However, when the choice of law involves another EU jurisdiction that guarantees the Directive's minimum standards, courts are highly reluctant to allow national "gold-plating" to override the parties' express contractual freedom.

**Discussion.** The juxtaposition of the *Ingmar* and *Unamar* decisions illustrates a highly nuanced framework for resolving the conflict between party autonomy and the protection of commercial agents. The CJEU's jurisprudence effectively establishes a two-tiered system of private international law within the European Union regarding agency contracts.

In extra-EU scenarios, the protective provisions of Directive 86/653/EEC operate as internationally mandatory rules, or *lois de police*, forming an impenetrable shield around the

EU-based agent. This approach aligns with the doctrine that certain legislative policies are so deeply ingrained in the economic and social fabric of the forum that they cannot be bypassed by private contractual arrangements [14]. By ruling that the Directive's protections are essential for the functioning of the internal market, the CJEU in *Ingmar* effectively elevated the status of the commercial agent from a mere contracting party to an instrument of European economic policy. The practical consequence for international trade is profound: principals located in third countries (such as the United States, China, or, post-Brexit, the United Kingdom) cannot rely on a choice of law clause favoring their home jurisdiction to evade the financial liabilities associated with terminating an agent operating within the EU. Even if the contract is explicitly governed by New York or English law, an EU court will apply the mandatory indemnity or compensation rules of the forum's implementing legislation.

Conversely, the intra-EU scenario presented in *Unamar* demonstrates that the principle of party autonomy regains its primacy when the fundamental objectives of the Directive are not at stake. Because all Member States are bound to implement the minimum protections of the Directive, a choice of law clause designating the law of another Member State does not threaten the baseline economic security of the agent or the integrity of the internal market. In these instances, the CJEU prioritizes legal certainty and the freedom of contract. The Court's reluctance to allow national "gold-plated" protections to override a valid choice of EU law underscores a critical limitation on the concept of overriding mandatory provisions. It confirms that the threshold for classifying a domestic rule as internationally mandatory is exceptionally high. A Member State cannot simply assert that its broader protective rules are overriding merely because they offer a better outcome for the weaker party; they must prove that the application of those specific broader rules is absolutely essential to safeguard its public organization [15].

This dichotomy presents challenges for legal practitioners drafting international commercial agency agreements. It necessitates a careful geographical analysis of where the agent will carry out their activities. The current legal landscape suggests that while the Directive successfully established a protective floor, it also introduced a degree of fragmentation. The varying levels of protection among Member States—some offering only the minimum indemnity, others offering extensive compensation—mean that the precise financial exposure of a principal still heavily depends on the interaction between the chosen law, the forum law, and the strict classification of overriding mandatory rules.

**Conclusion.** The intersection of international commercial agency agreements, party autonomy, and the protective mandate of Directive 86/653/EEC represents a critical flashpoint in modern private international law. The analysis of statutory frameworks and CJEU jurisprudence reveals that the freedom of contracting parties to choose their governing law is not absolute. When an agency relationship involves an agent operating within the European Union, the mandatory protections established by the Directive—specifically the rights to indemnity or compensation upon termination—heavily restrict party autonomy.

The European legal order resolves this tension through a context-dependent balancing act. To prevent the circumvention of its fundamental economic policies, the EU treats the Directive's minimum protections as overriding mandatory rules against principals from third countries. In these international disputes, the state's interest in protecting the weaker party and preserving fair competition definitively outweighs the parties' contractual freedom.

However, within the harmonized borders of the internal market, the balance shifts back toward party autonomy. Provided the minimum protective floor of the Directive is respected, courts will generally uphold a choice of law clause, even if it results in the agent losing access to more generous national protections. Ultimately, Directive 86/653/EEC succeeds in establishing a non-derogable safety net for commercial agents, ensuring that the globalization of trade and the principle of party autonomy do not become instruments of economic exploitation.

#### **References/Adabiyotlar/Literatura:**

1. Regulation (EC) No 593/2008 of the European Parliament and of the Council of 17 June 2008 on the law applicable to contractual obligations (Rome I), OJ L 177, 4.7.2008.
2. Council Directive 86/653/EEC of 18 December 1986 on the coordination of the laws of the Member States relating to self-employed commercial agents, OJ L 382, 31.12.1986.
3. Council Directive 86/653/EEC of 18 December 1986 on the coordination of the laws of the Member States relating to self-employed commercial agents, Article 17.
4. Dicey, A. V., Morris, J. H. C., & Collins, L. (2012). *Dicey, Morris and Collins on the Conflict of Laws* (15th ed.). Sweet & Maxwell.
5. Verhagen, H. L. E. (2002). The Tension Between Party Autonomy and European Union Law: Some Observations on *Ingmar GB Ltd v Eaton Leonard Technologies Inc.* *International and Comparative Law Quarterly*, 51(1), 135-154.
6. Michaels, R. (2001). The New European Choice-of-Law Revolution. *Tulane Law Review*, 75, 1607-1644.
7. Regulation (EC) No 593/2008 of the European Parliament and of the Council of 17 June 2008 on the law applicable to contractual obligations (Rome I), Article 9(1).
8. Council Directive 86/653/EEC of 18 December 1986 on the coordination of the laws of the Member States relating to self-employed commercial agents, Article 17.
9. Council Directive 86/653/EEC of 18 December 1986 on the coordination of the laws of the Member States relating to self-employed commercial agents, Article 19.
10. Court of Justice of the European Union, Case C-381/98, *Ingmar GB Ltd v Eaton Leonard Technologies Inc.*, [2000] ECR I-9305.
11. Court of Justice of the European Union, Case C-381/98, *Ingmar GB Ltd v Eaton Leonard Technologies Inc.*, [2000] ECR I-9305, paragraphs 24-25.
12. Court of Justice of the European Union, Case C-184/12, *United Antwerp Maritime Agencies (Unamar) NV v Navigation Maritime Bulgare*, [2013] ECLI:EU:C:2013:663.
13. Court of Justice of the European Union, Case C-184/12, *United Antwerp Maritime Agencies (Unamar) NV v Navigation Maritime Bulgare*, [2013] ECLI:EU:C:2013:663, paragraph 50.
14. Plender, R., & Wilderspin, M. (2009). *The European Private International Law of Obligations* (3rd ed.). Sweet & Maxwell.
15. Rühl, G. (2014). The Protection of Weaker Parties in the Private International Law of the European Union. *Journal of Private International Law*, 10(3), 335-358.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **ISSUES ON EXEMPTION FROM CRIMINAL LIABILITY AND ITS SOCIAL NECESSITY**

**Kabilov Sardor Asrolovich**

Master's student of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan  
E-mail: [sadakaba1983@gmail.com](mailto:sadakaba1983@gmail.com)

**Mirzayev Faxritdin Ziyatovich**

Senior Lecturer of Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, PhD in Law

**Abstract.** The article explains the concept of exemption from criminal liability based on legislative documents and scholars' scientific approaches, and discusses the social necessity of exemption from liability. The content of the legal consequences of exemption from criminal liability and the grounds for its application are also highlighted.

**Keywords:** release from criminal liability, socially dangerous act, guilt, punishment, sentence, trial, investigation, legal consequence.

---

## **JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA UNING IJTIMOY ZARURATI MASALALARI**

**Kabilov Sardor Asrolovich**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi  
E-mail: [sadakaba1983@gmail.com](mailto:sadakaba1983@gmail.com)

**Mirzayev Faxritdin Ziyatovich**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
katta o'qituvchisi, yu.f.f.d.

**Annotatsiya.** Maqolada jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi qonunchilik hujjatlari va olimlarning ilmiy yondashuvlari asosida yoritib beriladi hamda javobgarlikdan ozod qilishning ijtimoiy zarurati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning huquqiy oqibatlarini va uni qo'llanilishi borasidagi asoslar mazmuni yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, ijtimoiy xavfli qilmish, ayb, jazo, hukm, sud, tergov, huquqiy oqibat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N31>

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda Jinoyat Kodeksi javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini, shu bilan birga javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarini ham belgilab beradi.

D.R.Qurbonov “Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo‘llash muammolari” mavzusida tadqiqot olib borib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bu davlat jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishini salbiy baholashi, ammo uni jazolashdan voz kechishi”, -deb ta’rif beradi[1; 45-b]. Shuningdek, u bu borada o‘z fikrlarini davom ettirib, “shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o‘z-o‘zidan uning jazodan ham ozod qilinishiga sabab bo‘ladi. Bunda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti dastlabki tergov bosqichi boshlanishi, yakuni esa, ayblov hukmi chiqqunga qadar bo‘lgan sud muhokamasida yakunlanishi mumkin”ligini ta’kidlaydi[1; 45-b].

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb — shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishida aybdorlik masalasi hal qilinmasdan turib, uning barcha huquqiy oqibatlaridan uni ozod qilishga aytiladi. Ya’ni bunda, sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun JK asosida javob berish majburiyatidan, uning harakatlari davlat tomonidan salbiy baholanishidan, aybdorga jinoiy huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishidan, sudlanganlik holatining yuzaga kelishidan[2; 106-b].

A.S.Yakubovga ko‘ra, shaxsni qilmishi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi ikki omil mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi: birinchidan, shaxs jinoyat belgilarini ifodalagan qilmishni sodir etganida, shuningdek, uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo‘lgandagina; ikkinchidan, mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun barcha qonuniy asos va shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan hollarda yo‘l qo‘yiladi[3;351-b]. A.Yakubov shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish borasidagi yuqoridagi fikrlarini davom ettirib, “Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish vakolatli organning Jinoyat kodeksida belgilangan asoslar bo‘yicha shaxsni hukm qilishni rad etish haqida qaror qabul qilishda yoxud ayblov hukmi orqali alohida protsessual tartibda jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning boshqa shaklini qo‘llashida namoyon bo‘ladi”[3;352-b] deb ta’kidlaydi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsni jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘dirmasligi hisobga olinib, uni javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga kelinsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi[4;662-b].

R.Kabulov va A.Otajonovlarning fikriga ko‘ra, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar jinoyatning ayrim belgilari mavjud emasligida, qilmish yoki oqibatning jinoiy-huquqiy ahamiyati kasb etmasligida, shuningdek, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfli emasligida ifodalansa, jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish jinoyat sodir etishda aybi isbotlangan shaxslarga qo‘llaniladigan huquqiy choradir[5;357-b].

M.Z.Muqimovaga ko‘ra, javobgarlikdan ozod qilish – jinoyat sodir etgan shaxsni davlat tomonidan unga nisbatan hukm chiqarish yo‘li bilan jazolashdan voz kechish bo‘lib, sud tomonidan ayblov hukmi chiqarilgunga qadar, jinoyat ishini tugatishda namoyon bo‘ladi[6;77-b].

“Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslari” mavzusida tadqiqot olib borgan M.Akramova “Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish – qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganida jinoyat sodir etgan shaxsni davlat tomonidan jinoiy javobgarlik tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlardan ozod qilinishidir” degan mualliflik ta’rifini berib o‘tgan[7;19-b].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi o‘zbek olimlarining javobgarlikdan ozod qilish tushunchasiga bergan ta’riflaridan nisbatan to‘liq va kengroq berilgan ta’rif M.Akramova tomonidan berilgan deb hisoblaymiz. Shu bilan birga M.Muqimovani fikriga qo‘shila olmaymiz, chunki unga ko‘ra, javobgarlikdan ozod qilishga ta’rif berishda hukm chiqarish yo‘li bilan jazolashdan voz kechish jumlasini keltirgan. Lekin bizga ma’lumki, birinchidan hukm chiqarish

faqat sud tomonidan amalga oshiriladi, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish esa tergov organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkinligi inobatga olinmagan.

Shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o'z-o'zidan uning jazodan ham ozod qilinishiga sabab bo'ladi. Bunda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti dastlabki tergov bosqichi boshlanishi, yakuni esa, ayblov hukmi chiqqunga qadar bo'lgan sud muhokamasida yakunlanishi mumkin. Bundan so'ng esa, faqatgina jazodan ozod qilish instituti qo'llanilishi mumkin[1;45-b].

D.Payziyev esa, "javobgarlikdan ozod qilish deyilganda jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfli harakati u yoki bu holatga ko'ra javobgarlikka tortilishining bekor qilinishidir" [8; 329-b] degan fikrni ilgari suradi.

Ya.Matveyeva fikricha, "Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasiga ko'p ta'riflar va tavsiflar bo'lgan. Jinoyat huquqi ilmida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish ayblov hukmi shaklida davlatning uning xulq- atvoriga salbiy baho berishdan rad etish degan tasavvurlar paydo bo'lgan. Bunday qarash tarixiy jihatlar bilan bog'liq bo'lib, davlat tomonidan jinoyat sodir etish natijasida kelib chiqqan salbiy oqibatlarga chidash majburiyati sifatida qaralgan"[9; 38-b].

I.E.Zvecharovskiy va A.L.Ivanovlarning fikricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o'z mohiyatiga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxsni jinoyat qonuni bilan yuzaga kelgan nizodan jazosiz chiqishga yo'l qo'yadigan yagona huquqiy ta'sir chorasidir[10;13-18-b].

O.Yu.Avvakumovanning qayd etishicha, "jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksi bilan mustahkamlangan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga sud tomonidan qo'llaniladigan davlat chorasidir. Aybdor shaxslarga tashkiliy, mulkiy va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan ma'lum bir majburiyatlarni yuklash, jinoyat- huquqiy sohada ko'rsatilgan jazo qo'llash bilan qo'llaniladigan normalardir[11;11-b].

Olimlarning jinoyat huquqining institutlaridan biri bo'lgan jinoiy javobgarlikdan ozod etishga oid bildirilgan fikrlarni tahlil etish asosida quyidagi umumiy xulosaga kelinadi ya'ni:

1) Har qanday jinoiy javobgarlikdan ozod etish hukm e'lon qilinguniga qadar, shaxsning sud aybdor deb topishidan oldin, ish yuritishning sudgacha bo'lgan bosqichlarda ham amalga oshirilishi mumkin;

2) Jinoiy javobgarlikdan ozod etish aybdorning har qanday jinoyat huquqiy ta'sir choralari (jumladan, jazo) dan ozod etilganligini anglatadi;

3) Jinoiy javobgarlikdan ozod etish shaxsni jazo tayinlamasdan ham axloqan tuzalishi mumkin, deb hisoblanganida qo'llaniladi[12;416-417-b].

Huquqshunos olimlarning, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish borasidagi yondashuvlaridagi umumiylik jinoyat qonunchiligidagi javobgarlikdan ozod qilishdan ko'zlangan maqsad ya'ni, jinoyat sodir etgan shaxsga jinoiy jazo qo'llamasdan ham axloqan tuzatish mumkin, degan xulosaga kelinsa qo'llash mumkinligi yuzasidan yondashgan bo'lib, shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu holatda, yana bir muhim jihat bo'lib, shaxs jazoning muqarrarligini anglashi ham lozim hisoblanadi. Shaxsni aynan shaxs jazoning muqarrarligini anglashi kelgusida yana jinoyat sodir etmasligiga, qonun ustuvor ekanligi borasida huquqiy madaniyat shakllanishiga muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qiluvchi normalarning mazmuni turli tarixiy davrlarda hokimiyatni ushlab turgan shaxslarning yuritayotgan siyosatidan kelib chiqib belgilangan. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining mavjudligi "jinoiy javobgarlik" va "jazo" tushunchalarini o'rtasida chegara o'rnatdi[9;14-b].

Jinoyat qonunchiligining jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalari va ushbu institutning ijtimoiy zarurati haqida O.Klimanova qator o‘rinli fikrlarni bildirib o‘tadi. Unga ko‘ra, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutning ijobiy xususiyati rag‘batlantirish bilan bog‘liq maxsus vazifasi bilan izohlanadi. Ushbu vazifa jinoyat huquqining ikki tomonlama maqsadiga ya‘ni birinchidan- shaxsni, jamiyatni va davlatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, ikkinchidan- jinoyatlarning oldini olishga erishishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, O.Klimanova jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ijtimoiy zarurati haqidagi fikrlarini davom ettirib, bu institut ichida ozod qilishning ayrim turlari (og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar bilan bog‘liq) uchun umumiy moddiy asos va istisno mazmunga ega tarkiblarni belgilovchi qoidalarni kiritish ham talab qilinadi[13].

O.Klimanovanning yuqorida bildirib o‘tgan fikrlariga o‘xshash fikrlarni huquqshunos olim B.Murodov ham o‘zining “Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyada ilgari surgan. Ya‘ni B.Murodov, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxslarning aybiga iqror bo‘lib, sud-tergov organlari bilan hamkorlik qilishini ta‘minlash yo‘li bilan ularni jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini belgilash va milliy qonunchilikka joriy etish lozimligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi[14;19-b].

Huquqshunos olimlar B.Murodov va O.Klimanovalarning jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun tatbiq etilishi borasidagi normalarni ishlab chiqish zarurligi borasidagi fikrlariga qisman qo‘shilamiz. Albatta bu jinoyat sodir etish yo‘liga adashib kirib qolgan yoki turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra jinoyat sodir etishga majbur bo‘lgan yohud boshqa shu kabi omillar ta‘sirida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik prinsipi qo‘llanilishiga xizmat qiladi. Lekin har ikki olimning o‘ta og‘ir jinoyatlarga nisbatan ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi fikrlariga qo‘shila olmaymiz. Chunki, jinoyat qonunchiligida o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun o‘n yildan ortiq bo‘lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolar tayinlanishi nazarda tutilgan bo‘lib, bu turdagi jinoyatlarni jamiyat va davlat uchun xavfi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Mazkur toifadagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi esa o‘z navbatida jamiyatda qonun ustuvorligiga bo‘lgan ishonchni susayishiga, fuqarolar ongida jinoyat uchun jazo muqarrar prinsipi amalda to‘liq ishlayotganiga shubha uyg‘onishiga va boshqa qator salbiy omillar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ham emas, balki og‘ir jinoyatlar uchun ham qo‘llanilishi lozim degan fikrdamiz. Shunday bo‘lsa-da, og‘ir toifadagi jinoyatlar uchun javobgarlikdan ozod qilishning asosli va maqsadga muvofiq bo‘lishini ta‘minlash maqsadida shaxsni jinoyat uchun jazo muqarrar ekanligini to‘liq anglab yetishiga xizmat qiluvchi omillarni hamda ushbu norma qo‘llanilishining aniq chegaralarini belgilash lozim deb hisoblaymiz.

A.Toshpulatovga ko‘ra, ijobiy jinoiy javobgarlikni introspektiv javobgarlik deb atash mumkin, chunki u shaxsdan kelib chiqadi. Ayrim olimlarning fikricha, javobgarlikning turi (ijobiy yoki salbiy) huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladigan qonuniy yoki qonunga xilof huquqiy xatti-harakat turidan kelib chiqadi. Shuning uchun javobgarlik xulq-atvorning huquqiy oqibati sifatida ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan har qanday hodisaning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Demak, shaxsning jinoyat sodir etganidan keyingi o‘z qilmishi oqibatini bartaraf etishga qaratilgan harakatlari ijobiy javobgarlik tushunchasini anglatga, salbiy javobgarlik uning sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikni anglatadi[15;116-b].

Javobgarlikdan ozod qilishning ijtimoiy zarurati xususida fikr yuritilganda, huquqshunos B.Axrorovni quyidagi fikrlarni qayd etib o'tish joiz deb hisoblaymiz. Unga ko'ra, odillik prinsipi moxiyatidan kelib chiqilgan holda JKning umumiy qism beshinchi bo'limida javobgarlikdan va jazodan ozod qilish nazarda tutilganligi ham odillikning namunasi va amaliy ijrosining huquqiy mexanizmi sifatida nazarda tutilgan. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlari jinoyat sodir etgan shaxslarning asosan qayta tarbiyalanishlari, o'z qilmishlariga nisbatan pushaymonlik munosabatlarini ko'rsata olishlari, davlat qonun-qoidalariga hurmat ruhlarini izhor qila olishlari kabi munosabatlarga asoslanganligi odillikning huquqiy va amaliy ta'minlanish asoslari bo'la oladi[16].

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish nafaqat nazariy va uslubiy xarakterga ega, balki davlatning jinoiy-huquqiy siyosatida muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan instituti hisoblanadi. Zero, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, qonunda nazarda tutilgan hollarda agar jinoyat qonuni oldida turgan vazifalarni aybdorga nisbatan davlat majburlov choralari qo'llamasdan ta'minlash imkoni bor degan xulosaga kelinsa, jinoyatni sodir etgan shaxs xatti-harakatlarini sudlov yo'li bilan rasmiy jazo choralari qo'llamasdan va tayinlanishi mumkin bo'lgan jazodan ozod qilgan holda amalga oshiriladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasiga berilgan ta'rif va uning ijtimoiy zaruratidan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning mohiyati jinoyat sodir etgan shaxsni ijtimoiy kelib chiqishi (shaxsni o'ta og'ir sharoitdan kelib chiqqan holda jinoyat sodir etganligi, aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi va boshqa holatlar) sodir etilgan jinoyatni xususiyati hamda shaxsni jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori inobatga olinib, javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq emas deb hisoblab, uni qo'llamaslikda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda, mulohaza qilishga undovchi yana bir jihat mavjud bo'lib, bu — jinoiy javobgarlikdan ozod qilish faqatgina shaxs Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganidagina vujudga keladi. Agar shaxsning qilmishi, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatda, ya'ni zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish kabi jinoiy javobgarlikni istisno qiluvchi boshqa holatlarda sodir etilgan bo'lsa va shaxsning harakati aybli bo'lmasa shaxs javobgarlikdan ozod qilish asoslariga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Shuningdek, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning mohiyati va ijtimoiy zaruratini tadqiq qilish jarayonida, ushbu institut qo'llanilishi davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi siyosatida nafaqat repressiv ta'sir choralaridan, balki rag'batlantiruvchi normalardan ham foydalanishi muhim ahamiyat kasb etishligi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga jinoiy javobgarlikdan ozod qilish aybdor va jabrlanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilanishiga, shaxsni buzilgan huquqlarini qayta tiklanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ijtimoiy va huquqiy mohiyati yana shunda namoyon bo'ladiki, mazkur institutni qo'llanilishi jinoyat sodir qilgan shaxslarni tergov va suddan yashirinishini oldini olishga, jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlarini tez va to'la tiklanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, jinoyat uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash zarur bo'lsa-da, qonuniy asoslarda shaxsni javobgarlikdan ozod qilinishi bu davlat siyosatida insonparvarlik tamoyillarini aks etganligida ifodalanadi.

Shu o'rinda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni yuridik jihatdan yana bir tomonini unutmaslik kerakki, bunda jinoyat sodir etgan shaxs sodir etgan qilmishi uchun uni faqat huquqiy oqibatlaridan ozod etadi, ya'ni o'z mazmuniga ko'ra javobgarlikdan ozod qilinadi.

Lekin shaxsni qonunda belgilangan asoslarga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish qilmishning huquqiy tabiatini o'zgartirmaydi, chunki sodir etilgan qilmish jinoyatligicha qolaveradi va uni yuridik mohiyati saqlanib qoladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish insonparvarlik prinsipini amaldagi yorqin ifodasi bo'lib, jinoyat yo'lga adashib kirib qolgan va sodir etgan qonunga xilof xatti-harakatlaridan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan shaxslarga jinoiy javobgarlikdan ozod bo'lish imkonini berish bilan birga, jinoyatchilikning oldini olishda ijtimoiy-siyosiy, jinoiy-huquqiy va tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. D.R.Qurbonov "Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari". Diss... yur. fan. nomzodi. –Samarqand.: 2008.
2. H.R.Ochilov, E.O.Turgunboyev "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism). O'quv-uslubiy qo'llanma// mas'ul muharrir: yu.f.d. F.Toxirov. – T.: nashriyoti, 2013.
3. A.S.Yakubov. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Dasrlik. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Toshkent- 2009. 351-bet.
4. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. "Yangi asr avlodi", Toshkent- 2005. 662-bet
5. R.Kabulov, A.A.Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism Dasrlik. O'zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, Toshkent- 2012.
6. M.Z.Muqimova Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari. Monografiya.– Samarqand: SamDU, 2009.
7. M.Akramova "Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslari" mavzusidagi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent - 2022.
8. D.Payziyev "Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining retrospektiv tahlili". *Общество i innovatsii*. 2020-y.
9. Матвеева Я.М. Институт освобождения от уголовной ответственности в российском уголовном праве: модернизация и поиск альтернативных способов урегулирования уголовно-правового конфликта. Дисс... на соис. уч.степ. канд. юрид. наук – Санкт-Петербург, 2015.
10. Звечаровский И.Э., Иванова А.Л. Освобождение от уголовной ответственности // *Уголовное право*. 2015 № 4. С.13-18
11. Аввакумова О.Ю.. Уголовно-правовая регламентация освобождения от уголовной ответственности. Автореф. ... канд.юрид.наук. – Тюмень, 2007
12. Уголовное право. Общая часть/Под ред И.Я.Козначнеко и З.А.Незнамовой-М.1997-С.416-417
13. Климанова О.В. "Жиноят қонунининг мақсадини ҳисобга олган ҳолда жинойий жавобгарликдан озод қилишнинг таркиби тўғрисида". Мақола. Академик С.П.Королев номидаги Самара миллий тадқиқот университети, Самара, Россия Федерацияси 2025.
14. В.Муродов "Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish" mavzusidagi yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent - 2018.
15. A.Toshpulatov "Jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishda Jinoyat kodeksi prinsiplarning ahamiyati". Maqola. Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. 15-fevral 2023-yil.
16. B.Axrorov "Jinoyat qonunida odillik prinsipining huquqiy asoslari va amaliy masalalari". Maqola. Xalqaro konferensiya materiallari to'plami. O'zbekiston Respublikasi JXU universiteti. 16.10.2023-y.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **FORMS OF JUDICIAL REVIEW AT THE PRE-TRIAL STAGE OF CRIMINAL PROCEEDINGS**

**Egamberdiyev Feruzbek Asqarjon o'g'li**

Independent researcher at TSUL

Lecturer at the Department of Special Legal Sciences at FerSU

**Abstract.** This scientific paper analyzes the forms and legal essence of judicial control at the pre-trial stage of criminal proceedings. Judicial control is viewed as a key legal guarantee protecting the constitutional rights of an individual (liberty, inviolability of the home, privacy of life) from unwarranted restrictions.

**Keywords:** judicial control, investigating judge, constitutional rights, form of judicial control.

## **ФОРМЫ СУДЕБНОГО КОНТРОЛЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА**

**Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли**

Независимый соискатель ТГЮУ

Преподаватель кафедры Специально правовых наук ФерГУ

E-mail: [fenixofficial2001@gmail.com](mailto:fenixofficial2001@gmail.com)

<http://www.orcid/0009-0007-8504-1950>

**Аннотация.** В настоящей научной работе проведён анализ форм и правовой сущности судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса. Судебный контроль рассматривается как ключевой правовой гарант, защищающий конституционные права личности (свобода, неприкосновенность жилища, тайна частной жизни) от необоснованного ограничения.

**Ключевые слова:** судебный контроль, следственный судья, конституционные права, форма судебного контроля.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N32>

**Введение.** Актуальность исследования форм судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса обусловлена неразрывной связью этого института с конституционными принципами и эффективностью функционирования всей правоохранительной системы. В условиях построения правового государства, когда приоритет защиты прав и свобод человека признаётся высшей ценностью, правомерность и обоснованность действий органов предварительного расследования приобретает первостепенное значение.

Актуальность настоящей работы прослеживается и в концепции «Новый Узбекистан – к Третьему Ренессансу», реализуемая под руководством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, определила своим главным направлением коренную реформу систем государственного управления и правоохранительных органов, их преобразование в систему, служащую интересам народа. В этом процессе

реализуется идея государства, ориентированного на народ, то есть «не народ должен служить государственным органам, а государственные органы должны служить народу» [1; Б.40.]. Данная идея в рамках уголовно-процессуального законодательства реализуются путём полного и безоговорочного обеспечения прав участников уголовного процесса.

Как гласит статья 54 Конституции Республики Узбекистан: «Обеспечение прав и свобод человека — высшая цель государства. Государство обеспечивает права и свободы человека и гражданина, закрепленные Конституцией и законами» [2]. Именно на досудебной стадии уголовного процесса, когда лицо сталкивается с мощным репрессивным аппаратом государства, данный принцип подвергается наиболее серьезному испытанию. В этот период применяются меры процессуального принуждения, которые по своей сути являются грубым вторжением в сферу конституционных прав личности: на свободу и личную неприкосновенность (ст. 27) [3], неприкосновенность жилища (ст. 31) [4], тайну переписки и телефонных переговоров (ст. 31) [5].

В современном правовом государстве уважение прав и свобод человека выступает одним из ключевых приоритетов, особенно в сфере уголовного судопроизводства. Досудебная стадия, являясь начальным и зачастую наиболее интенсивным этапом уголовного процесса, сопряжена с возможностью серьезного ограничения конституционных прав граждан – неприкосновенности жилища, тайны переписки, личной свободы и других. Именно на этом этапе происходит сбор ключевых доказательств и принимаются решения, определяющие дальнейшую судьбу дела и участников процесса.

Эффективная реализация принципа правосудия требует создания надежных механизмов, способных обеспечить баланс между публичным интересом, заключающимся в оперативном раскрытии преступлений, и необходимостью защиты личности от потенциального произвола или ошибок органов расследования. В этой системе сдержек и противовесов особая роль отводится судебному контролю. Этот институт выступает не просто формальной процедурой, но критически важным гарантом законности действий и решений, принимаемых дознавателем, следователем и прокурором, до того, как дело поступит на рассмотрение по существу. Он представляет собой динамичную систему процедур, призванную обеспечить, чтобы любое властное вторжение в сферу частной жизни было обоснованным, пропорциональным и соответствовало строго определенным законом условиям.

Термин судебный контроль в Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан появился относительно недавно. Если быть точнее после введения института следственного судьи и упоминается всего единожды в УПК РУз. Согласно части 1 статьи 31<sup>1</sup> (Полномочия следственного судьи), следственный судья, действуя единолично, в порядке, предусмотренном настоящим Кодексом, осуществляет **судебный контроль** за соблюдением прав, свобод и законных интересов лица на стадии досудебного производства [6].

**Анализ литературы и методология.** Проблематика судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса разрабатывается как в отечественной, так и в зарубежной правовой науке. З.Ф. Иноғомжонова рассматривает его как деятельность,

пронизывающую все стадии процесса и направленную на обеспечение законности решений органов расследования. Е.И. Слепнева акцентирует внимание на реактивной природе судебного контроля, связывая его с фактами нарушения конституционных прав граждан, тогда как О.В. Химичева обосновывает необходимость распространения контрольных полномочий суда уже на стадию доследственной проверки. И.В. Чепурная определяет судебный контроль как форму реализации судебной власти, сочетающую превентивную и восстановительную функции, и предлагает его трёхчастную классификацию, получившую развитие в работах О.Ю. Цурлуя.

Методологическую основу исследования образует совокупность взаимосвязанных методов. Диалектический метод позволил выявить противоречие между публичным интересом государства в раскрытии преступлений и правом личности на защиту конституционных прав. Системно-структурный метод обеспечил классификацию форм судебного контроля как единого правового механизма. Формально-юридический метод применялся при анализе Конституции РУз 2023 года и норм УПК, в частности статьи 31<sup>1</sup> о полномочиях следственного судьи. Сравнительно-правовой и историко-правовой методы позволили оценить эволюцию института судебного контроля и его соотношение с российской уголовно-процессуальной доктриной.

**Обсуждение.** Имеются разные мнения по вопросу определения судебного контроля. Представитель отечественной науки З.Ф. Инагамжанова считает, что судебный контроль признается деятельностью, которая осуществляется практически на всех стадиях уголовного процесса, направлена на защиту конституционных прав и свобод граждан, служит обеспечению законности, обоснованности и справедливости решений, действий и бездействия, а также предварительного расследования и судебных решений (независимо от того, вступили они в законную силу или нет), понимается его правовая природа [7; Б.13.].

По мнению И.Е. Слепневой, судебный контроль осуществляется в случаях, когда решения, принимаемые органами предварительного расследования на досудебной стадии уголовного судопроизводства, нарушают конституционные права граждан [8; Б.8.].

По мнению О.В. Химичевой, судебный контроль – это направление деятельности органов юстиции при возбуждении уголовного дела и производстве предварительного расследования. Поэтому его можно назвать функцией уголовного процесса. Он включает в себя систему судебной проверки, предупреждения и восстановления прав и служит обеспечению законности и обоснованности решений и действий органов предварительного расследования, ограничивающих права и свободы человека [9; Б.210.].

Согласившись с мнениями вышеприведённых учёных, мы считаем, что О.В. Химичева рассматривает судебный контроль не только через призму предварительного следствия, но и предусматривает осуществление судебного контроля на стадии возбуждения уголовного дела, которое некоторыми процессуалистами рассматривается как отдельный этап уголовного процесса.

Иными словами, по мнению О.В. Химичевой судебный контроль должен осуществляться не только над предварительным следствием, но и над доследственной

проверкой. Мы считаем, что данный подход вполне обоснован, так как даже на стадии доследственной проверки могут быть осуществлены следующие действия согласно статье 329 УПК РУз: могут быть истребованы дополнительные документы, объяснения, а также произведены задержания лица, личный обыск и выемка, осмотр места происшествия, экспертиза, назначение ревизии, могут быть даны поручения о проведении оперативно-розыскных мероприятий.

Чепурная И.В. в своей диссертационной работе приводит определение понятию судебного контроля. Выведено определение судебного контроля в досудебном уголовном производстве как формы реализации судебной власти, системы предусмотренных процессуальным законом средств, направленной на недопущение незаконного ограничения конституционных прав личности в уголовном процессе, а также ее восстановление в этих правах [10; Б.11.].

Формы судебного контроля могут быть разнообразны. В одних случаях это проверка законности задержания или содержания под стражей. В других — оценка допустимости проведения обыска или изъятия. Существуют также ситуации, когда суду приходится разрешать жалобы на действия следователя или прокурора, если они нарушают права участников процесса. Каждая из этих форм имеет свою специфику, но объединяет их общее назначение — защита прав и интересов человека от необоснованного вмешательства государства.

Важно подчеркнуть, что судебный контроль выполняет двойную функцию. С одной стороны, он ограничивает власть следственных органов, обязывая их действовать строго в рамках закона. С другой — он выступает гарантом того, что уголовное преследование будет эффективным и справедливым, ведь только законные доказательства и процессуальные действия могут лечь в основу приговора. Таким образом, судебный контроль одновременно охраняет права личности и способствует достижению задач правосудия.

В научной литературе можно встретить различные подходы к пониманию судебного контроля. Одни исследователи видят в нём исключительно процессуальную гарантию — то есть средство защиты прав обвиняемого, подозреваемого или иных участников процесса. Другие трактуют его более широко, считая судебный контроль выражением разделения властей и механизмом демократического управления, где суд выполняет роль балансирующей силы по отношению к исполнительной и правоохранительной ветвям. Эти разные взгляды отражают многоаспектность самого явления и показывают, что судебный контроль выходит за рамки чисто процессуальной категории, приобретая конституционно-правовое измерение.

Согласно О.Ю. Цурлуй судебный контроль в российском уголовном судопроизводстве проявляется в трех основных формах: 1) принятие решения о применении отдельных мер пресечения и иных мер процессуального принуждения; 2) принятие решения о производстве отдельных следственных действий; 3) рассмотрение жалоб на действия (бездействие) и решения прокурора, следователя, органа дознания и дознавателя в ходе досудебного производства по уголовному делу [11; Б.182.].

По мнению И.В. Чепурной, которая занималась комплексным исследованием института судебного контроля, можно выделить три формы судебного контроля в досудебном уголовном производстве: - судебный контроль законности и

обоснованности применения мер процессуального принуждения, ограничивающих конституционные права участников уголовного судопроизводства; - судебный контроль законности и обоснованности производства следственных действий, ограничивающих конституционные права граждан; - судебный контроль законности и обоснованности действий (бездействия) и решений органов предварительного расследования и прокуратуры, ограничивающих конституционные права граждан [12; Б.11].

Согласившись с вышеприведёнными мнениями, диссертант разработал три крупных категорий форм реализации судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса:

1. Контроль за мерами процессуального принуждения.
2. Контроль за проведением следственных действий, затрагивающих конституционные права.
3. Контроль за рассмотрением жалоб и обращений участников процесса.

### **1. Контроль за мерами процессуального принуждения**

Наиболее значимой формой судебного контроля является проверка законности мер, связанных с ограничением личной свободы человека. В первую очередь речь идёт о задержании и заключении под стражу. Международные стандарты и национальные законодательства закрепляют правило: никто не может быть лишён свободы без решения суда. Судья обязан проверить наличие достаточных оснований для ареста, оценить представленные следствием доводы и убедиться в том, что мера пресечения применяется исключительно в тех случаях, когда иные способы обеспечения процесса невозможны.

Сюда также относится судебный контроль за продлением сроков содержания под стражей, а также за изменением меры пресечения. Эти полномочия суда играют ключевую роль в предотвращении произвольного лишения свободы и обеспечивают реализацию принципа презумпции невиновности.

**Результаты.** Проведённый анализ правовой сущности и форм судебного контроля на досудебной стадии уголовного процесса подтверждает его критическое значение как системообразующего института в современном правовом государстве. Актуальность данной проблематики обусловлена необходимостью обеспечения конституционных прав и свобод личности в условиях наиболее интенсивного их ограничения со стороны репрессивного аппарата государства в ходе досудебного производства. Судебный контроль выступает ключевым правовым фильтром и гарантом законности, предотвращая произвол и ошибки органов следствия и дознания.

Научная доктрина выделяет несколько основных форм реализации судебного контроля на досудебной стадии. Соглашаясь с позициями отечественных учёных, целесообразно выделить и систематизировать три крупные категории форм:

1. **Контроль за мерами процессуального принуждения:** Наиболее значимая форма, связанная с ограничением личной свободы (задержание, заключение под стражу, продление сроков). Суд здесь выступает гарантом **предотвращения произвольного лишения свободы** и обеспечения принципа презумпции невиновности.

2. **Контроль за проведением следственных действий, затрагивающих конституционные права** : Включает санкционирование таких действий, как обыск в жилище, что является критически важным для реализации права на неприкосновенность жилища.
3. **Контроль за рассмотрением жалоб и обращений участников процесса:** Восстановительный механизм, позволяющий обжаловать действия (бездействие) и решения органов предварительного расследования и прокуратуры, нарушающие права граждан.

Таким образом, дальнейшее совершенствование форм судебного контроля является неперенным условием для полноценной реализации принципа верховенства права и обеспечения высшей цели государства – защиты прав и свобод человека.

**Заключение.** Суммируя вышеприведённые факты, мы можем сделать вывод, что защита базовых прав и интересов участников уголовного процесса, установленных на конституционном уровне, должно осуществляться осознанно. Следуя этой логике, можно сказать, что классификация форм осуществления судебного контроля является ключевым моментом, так как даже многие теоретики и практики на деле не различают какую из форм судебного контроля они осуществляют. Данная тема исследования ещё раз показывает свою актуальность, особенно на фоне стремительных реформ в судебно-следственной практике Республики Узбекистан.

#### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси.” - Тошкент, 2021. – Б. 40;
2. Конституция Республики Узбекистан от 01.05.2023 г.  
<https://lex.uz/docs/6445147#6447842>;
3. Конституция Республики Узбекистан от 01.05.2023 г.  
<https://lex.uz/docs/6445147#6447842>;
4. Конституция Республики Узбекистан от 01.05.2023 г.  
<https://lex.uz/docs/6445147#6447842>;
5. Конституция Республики Узбекистан от 01.05.2023 г.  
<https://lex.uz/docs/6445147#6447842>;
6. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан.  
<https://lex.uz/docs/111463>;
7. Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процессида суд назорати. Ўқув қўлланма.-Т.: ТДЮИ нашриёти.2007. 13-б;
8. Слепнева Е.И. Проверка законности и обоснованности расследования в досудебных стадиях. Автореф.дисс....канд.юрид.наук. –Волгоград.: 1998. С.8;
9. Химичева О.В. Концептуальные основы процессуального контроля и надзора на досудебных стадиях уголовного судопроизводства. Монография. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право.2004. Б.210;
10. Чепурная И. В. Судебный контроль в досудебном уголовном производстве. Автореф.дисс.... канд.юрид.наук. – М.: Российская таможенная академия, 2005. С. 11;
11. Цурлуй О. Ю. Судебный контроль в досудебном производстве: краткий историко-правовой анализ //Актуальные проблемы российского права. – 2015. – №. 1. – С. 182;
12. Чепурная И. В. Судебный контроль в досудебном уголовном производстве. Автореф.дисс.... канд.юрид.наук. – М.: Российская таможенная академия, 2005. С. 11.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **CRIMINOLOGICAL DESCRIPTION OF A PERSON WHO COMMITTED A DOMESTIC CRIME**

**Shermatova Gulruh Akmalovna**

Independent researcher,  
Law enforcement academy

**Abstract.** This article analyzes the criminological characteristics of individuals who commit domestic crimes, their social, psychological and personal characteristics. The study was conducted on the basis of the causes of domestic crimes, factors influencing the commission of crimes, personal and social factors, and the likelihood of recidivism. The results show that impulsivity, aggressiveness, low emotional control, family conflicts and social environment have a major impact on the commission of domestic crimes. The results of the study serve as the basis for the development of preventive and rehabilitation measures.

**Keywords:** domestic crime, criminological characteristics, personal characteristics, psychological factors, social environment, prevention, recidivism, crime.

## **MAISHIY JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI**

**Shermatova Gulruh Akmalovna**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [shermatovaguli1@gmail.com](mailto:shermatovaguli1@gmail.com)

<http://www.orcid.org/0009-0008-5363-5217>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifi, ularning ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot maishiy jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, jinoyat sodir etishga ta'sir etuvchi omillar, shaxsiy va ijtimoiy faktorlar hamda retsdiv ehtimoli asosida olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, impulsivlik, agressivlik, hissiy nazoratning pastligi, oilaviy nizolar va ijtimoiy muhit maishiy jinoyat sodir etishga asosiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari profilaktika va reabilitatsiya choralari ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maishiy jinoyat, kriminologik tavsif, shaxsiy xususiyatlar, psixologik omillar, ijtimoiy muhit, profilaktika, retsdiv, jinoyatchilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N33>

**Kirish.** Maishiy jinoyatlar — jamiyatda eng ko'p uchraydigan va ijtimoiy xavf tug'diruvchi jinoyatlar turidir. Ular oilaviy va uy-joy muhitida sodir etiladi va ko'pincha shaxslarning yaqin munosabatlaridagi nizolar, mol-mulk bilan bog'liq qarama-qarshiliklar yoki hissiy impuls natijasida yuzaga keladi. Jahon va mamlakatimiz statistikasiga ko'ra, maishiy jinoyatlar, jumladan oilaviy zo'ravonlik, o'g'rilik, tahdid va boshqa zarar yetkazuvchi harakatlar jamiyatning turli qatlamlariga zarar yetkazadi, ijtimoiy ishonchni pasaytiradi va oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maishiy jinoyat sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi — bu jinoyatchining shaxsiy, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor xususiyatlarini o'rganish orqali jinoyat sodir etish sabablarini aniqlash va profilaktik choralarni ishlab chiqishga imkon beruvchi ilmiy vositadir. Shu orqali

jinoyatchilarni aniqlash, ularning xatti-harakatini prognoz qilish, reabilitatsiya va retsidivni kamaytirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, maishiy jinoyatlar sodir etgan shaxslar quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi: past ta'lim darajasi, ish bilan ta'minlanmaslik yoki past darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, impulsivlik, agressivlik, hissiy nazoratning pastligi, spirtli ichimlik yoki psixoaktiv moddalar iste'moli, shuningdek, oilaviy va antisotsial muhit.

Bundan tashqari, oilaviy zo'ravonlik va maishiy jinoyatlar jahon miqyosida global ijtimoiy muammo sifatida qaraladi. World Health Organization ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy zo'ravonlik nafaqat jabrlanuvchi, balki jinoyatchining psixologik va ijtimoiy holatiga ham salbiy ta'sir qiladi, bu esa jamiyat xavfsizligi va rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi.

Maqolaning maqsadi — maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifini aniqlash, ularning ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, jinoyat sodir etishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va profilaktika hamda reabilitatsiya choralari ishlab chiqishdir.

Mazkur tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini aniqlash;
2. Ijtimoiy va oilaviy muhit omillarini tahlil qilish;
3. Jinoyat sodir etish mexanizmlarini o'rganish;
4. Profilaktika va retsidivni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Adabiyotlar tahlili.** Maishiy jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarning xususiyatlarini o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar bir necha yo'nalishda olib borilgan: ijtimoiy faktorlar, psixologik xususiyatlar, jinoyat mexanizmlari va profilaktika choralari.

Ijtimoiy omillar maishiy jinoyatlar sodir etilishida muhim rol o'ynaydi. Carter ta'kidlaganidek, past darajadagi ta'lim, ish bilan ta'minlanmaslik, iqtisodiy qiyinchiliklar va antisotsial muhit jinoyat sodir etish xavfini oshiradi [1]. Shu bilan birga, oilaviy nizolar va oila ichidagi qarama-qarshiliklar ko'pincha impulsiv va hissiy reaksiyalar bilan birgalikda jinoyat sodir etishga olib keladi. Viger va Smith tadqiqotlarida stress va oilaviy konfliktlar bilan bog'liq maishiy jinoyatlar eng ko'p uchraydigan jinoyat turi ekanligi qayd etilgan [6].

Shaxsning psixologik xususiyatlari ham muhim omil hisoblanadi. Ivanova maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning impulsivligi, agressivligi, hissiyotlarni nazorat qila olmasligi va past stressga chidamliligi ularning jinoyatga moyilligini oshirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, spirtli ichimliklar va psixoaktiv moddalar iste'moli shaxsning impulsiv harakatlarini kuchaytiradi va jinoyat sodir etish xavfini oshiradi [7].

Maishiy jinoyatlar ko'pincha takroriy (ritsidiv) xarakterga ega. Melnikov tadqiqotlariga ko'ra, bir marta maishiy jinoyat sodir etgan shaxsning qayta jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'ladi, bu esa psixologik va ijtimoiy muhitning muvofiqligi bilan bog'liq. Shu bois jinoyatchilarni aniqlash va ularning xatti-harakatini prognoz qilishda kompleks yondashuv zarur [3].

World Health Organization hisobotida oilaviy zo'ravonlik va maishiy jinoyatlar global miqyosdagi ijtimoiy muammo sifatida qayd etilgan. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlik nafaqat jabrlanuvchi, balki jinoyatchi va uning atrofidagi ijtimoiy muhitga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, global va mahalliy tajribalar asosida samarali profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish muhim.

Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarni profilaktika qilishda kompleks yondashuv zarur. Petrov va Smirnova tadqiqotlarida psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy maslahat va reabilitatsiya dasturlari jinoyatlarni kamaytirishga samarali ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, jinoyatchilarni monitoring qilish va retsidivni kamaytirish ham muhim ahamiyatga ega [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maishiy jinoyat sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xususiyatlarning murakkab kombinatsiyasidan tashkil topadi. Shaxsning yosh, jinsi, ta'lim darajasi, iqtisodiy holati, oilaviy muhit, impulsivlik va agressivlik kabi omillar jinoyat sodir etish xavfini belgilaydi. Shu sababli, samarali profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish uchun ushbu omillarning har birini hisobga olish zarur.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifini aniqlash va jinoyat sodir etishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologiyasi ijtimoiy, psixologik va kriminologik yondashuvlarni birlashtiradi va quyidagi asosiy usullarga tayangan:

**Statistik tahlil.** Maishiy jinoyatlar bo'yicha so'nggi 5 yil ichidagi rasmiy statistika ma'lumotlari tahlil qilindi. Ushbu usul jinoyatlar soni, ularning turlari, sodir etilgan shaxslarning yoshi, jinsi va ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida aniq ma'lumot beradi. Statistik tahlil asosida jinoyat sodir etishning eng ko'p uchraydigan yosh va ijtimoiy guruhlari aniqlanadi.

**Taqqoslash usuli.** Maishiy jinoyatlar sodir etgan shaxslar va boshqa jinoyatchi guruhlar orasidagi farqlarni aniqlash uchun taqqoslash usuli qo'llanildi. Bu usul shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit, impulsivlik darajasi va jinoyat motivatsiyasi bo'yicha umumiy va farqli jihatlarni ko'rsatadi.

**Case study.** Tadqiqot doirasida oilaviy va maishiy jinoyatlarga oid ayrim jinoyat ishlarining batafsil tahlili amalga oshirildi. Keys-stady usuli jinoyat sodir etish konteksti, shaxsiy va oilaviy sharoitlarni chuqur o'rganishga imkon berdi. Shu orqali jinoyat sodir etishga olib keluvchi ijtimoiy va psixologik omillar aniqlanadi.

**Psixologik va kriminologik tahlil.** Maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun psixodiagnostika metodlari va kriminologik indikatorlar ishlatildi. Tadqiqot davomida impulsivlik, agressivlik, hissiyotlarni nazorat qila olish, stressga chidamlilik kabi parametrlar baholandi. Bu usul jinoyat sodir etish ehtimolini oldindan aniqlash va retsidiv xavfini baholashda qo'llanildi.

**So'rov va intervyular.** Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va kriminologlar bilan intervyular va so'rovnomalar o'tkazildi. Bu usul maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini amaliy tajribaga asoslangan holda tahlil qilish imkonini berdi.

**Ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish.** Tadqiqot jarayonida olingan barcha ma'lumotlar birlashtirilib, jinoyat sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi shakllantirildi. Ushbu tavsif quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: shaxsiy xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, impulsivlik va agressivlik darajasi, jinoyat motivatsiyasi va retsidiv xavfi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.** Ushbu metodologiya maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini tizimli o'rganish imkonini beradi. Natijalar profilaktika dasturlarini ishlab chiqishda, jinoyatchilarni reabilitatsiya qilishda va retsidivni kamaytirishda amaliy ahamiyatga ega.

1-jadval. Maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari.

Xususiyat turi	Tavsif / Ko'rsatkichlar	Izohlar / Tahlil
Yosh	25–40 yosh	Maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning aksariy qismi ushbu yosh guruhiga to'g'ri keladi
Jins	Erkaklar (70–75%)	Erkaklar maishiy jinoyatlarda ko'proq ishtirok etadi
Ta'lim darajasi	O'rta yoki o'rta maxsus	Past ta'lim darajasi ijtimoiy va moliyaviy muammolar bilan bog'liq
Ijtimoiy-iqtisodiy holat	Past yoki o'rta daraja	Iqtisodiy qiyinchiliklar jinoyat sodir etish xavfini oshiradi
Oilaviy muhit	Konfliktli oilalar, nizoli munosabatlar	Oilaviy nizolar va ziddiyatlar impulsiv jinoyatlar xavfini oshiradi
Shaxsiy xususiyatlar	Impulsivlik, agressivlik	Shaxsning hissiy nazoratini yo'qotishi jinoyat sodir etishga olib keladi
Psixologik xususiyatlar	Past stressga chidamlilik, hissiy nazoratning yetishmasligi	Stressli vaziyatlarda jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori
Spirтли ichimlik / moddalar	Spirтли ichimlik iste'moli mavjud (60–65%)	Alkogol va moddalar impulsiv harakatlarni kuchaytiradi
Jinoyat motivatsiyasi	Konflikt, vaqtincha manfaat, hissiy impuls	Jinoyatlar ko'pincha soddashtirilgan, hissiy asosda sodir etiladi
Retsidiv xavfi	Yuqori (takroriy jinoyatlar kuzatiladi)	Maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning qayta jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori

Ushbu jadval maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning asosiy ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini tizimli ko'rsatadi.

Jadval orqali: Jinoyat sodir etish xavfini oshiruvchi omillar aniqlanadi. Shaxsiy va ijtimoiy tavsiflar bilan bog'liq tendensiyalar ko'rinadi. Profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi.

**Tadqiqot muhokamasi.** Tadqiqot natijalari maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini tizimli ravishda aniqlashga imkon berdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, maishiy jinoyatlar ko'pincha kompleks omillar natijasida sodir etiladi va shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Ijtimoiy va oilaviy omillar: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, past ta'lim darajasi, ish bilan ta'minlanmaslik, iqtisodiy qiyinchiliklar va konfliktli oilaviy muhit jinoyat sodir etish xavfini oshiradi. Bu natija Carter va Viger & Smith tadqiqotlari bilan mos keladi. Ayniqsa, oiladagi nizolar, spirтли ichimlik iste'moli va antisotsial muhit impulsiv harakatlarga turtki beradi [1,6].

Shaxsiy va psixologik xususiyatlar: Maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning impulsivligi, agressivligi, hissiy nazoratning pastligi va stressga chidamlilikning yetarli emasligi jinoyat sodir etishga asosiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, spirтли ichimliklar va psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish holatlari impulsiv xatti-harakatlarni kuchaytiradi va jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi [9].

Retsidiv va jinoyat mexanizmlari: Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, maishiy jinoyat sodir etgan shaxslar orasida retsidiv ehtimoli yuqori bo'lib, bir marta jinoyat sodir etgan shaxs qayta

jinoyat sodir etish xavfiga ega. Shu sababli, jinoyatchilarni monitoring qilish va rehabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish muhimdir [10].

Profilaktika va amaliy tavsiyalar: Muhokama natijasida maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarni samarali profilaktika qilish va jamiyat xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi choralarga e'tibor qaratish lozim:

1. Oilalarni ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash — oilaviy nizolar va spirtli ichimlik iste'moliga bog'liq muammolarni kamaytiradi;
2. Psixologik maslahat va rehabilitatsiya dasturlari — impulsiv va agressiv shaxslar bilan ishlash imkonini beradi;
3. Huquqni muhofaza qilish organlari monitoringi — retsidivni kamaytirish va jinoyat sodir etishni oldini olish;
4. Ijtimoiy va ta'lim dasturlari — shaxsning iqtisodiy va ma'naviy holatini yaxshilash, jinoyat xavfini kamaytiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarni profilaktika va rehabilitatsiya qilishda kompleks yondashuv zarur bo'lib, ijtimoiy, psixologik va shaxsiy omillar bir vaqtning o'zida hisobga olinishi lozim. Bu esa jamiyatdagi maishiy jinoyatlarni kamaytirish va oilaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifini tizimli o'rganishga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni kompleks tarzda tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki: Maishiy jinoyatlar ko'pincha 25–40 yoshdagi erkaklar tomonidan sodir etiladi, bu esa yosh va jins faktorining jinoyat sodir etish xavfi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Jinoyatchilarning aksariyati o'rta yoki o'rta maxsus ta'limga ega va ijtimoiy-iqtisodiy holati past yoki o'rta darajada, bu esa ularning impulsiv va konfliktli holatlarga moyilligini oshiradi. Shaxsiy va psixologik xususiyatlar, xususan impulsivlik, agressivlik, hissiy nazoratning pastligi va stressga chidamsizlik, maishiy jinoyatlar sodir etishda muhim omil sifatida aniqlangan. Oilaviy muhit va ijtimoiy sharoitlar, xususan konfliktli oilalar, nizoli munosabatlar va antisotsial muhit jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maishiy jinoyat sodir etgan shaxslar orasida retsidiv (takroriy jinoyat) ehtimoli yuqori, shuning uchun monitoring va rehabilitatsiya dasturlari alohida e'tiborni talab qiladi. Profilaktika va rehabilitatsiya choralari samarali bo'lishi uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik maslahat, monitoring va ta'lim dasturlari kabi kompleks yondashuvlarni o'z ichiga olishi lozim. Shunday qilib, tadqiqot natijalari maishiy jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifini aniqlash, jinoyat sodir etish xavfini baholash va samarali profilaktika hamda rehabilitatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Carter P. Social Factors and Domestic Crimes. – London: Routledge, 2017.
2. Mamatqulov Z. M. Jinoyatchilik sabab va sharoitlari tahlili. – Samarqand, 2021.
3. Melnikov A. Recidivists in Domestic Crimes: Criminological Analysis. – Sankt-Peterburg: Piter, 2018.
4. Otajonov F. M. Oilaviy-maishiy munosabatlarda sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari. – Toshkent, 2022.
5. Rustamboyev M. H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi (Umumiy qism). – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2018.
6. Viger F., Smith J. Domestic Offenses: Socio-Psychological Aspects. – Moskva: Yurayt, 2015.

7. Ivanova N. Psychological Characteristics of Individuals Committing Domestic Crimes. // Kriminologiya jurnali. – 2019. – № 3. – B. 45–62.
8. Petrov V., Smirnova E. Prevention of Domestic Crimes: Socio-Psychological Approach. – Moskva: Nauka, 2016.
9. Yuldashev A. A. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy nazorat mexanizmlari. – Toshkent, 2018.
10. Qosimov Sh. R. Maishiy zo‘ravonlik va uning oldini olishning huquqiy asoslari. – Toshkent, 2020.

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE**

**Received:** 01 March 2026

**Accepted:** 15 March 2026

**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

**THE CONTENT AND ESSENCE OF THE DEVELOPMENT OF MORAL VALUES OF STUDENTS BASED ON THE SPIRITUAL HERITAGE OF TEMURIAN PRINCES**

**Kurbanova Dilafruz Toshturdiyevna**

Acting Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology (PHD) of the Samarkand Branch of the Tashkent International University of Kimyo

**Abstract.** This article analyzes the issues of developing the moral values of female students based on the spiritual and moral heritage of the Timurid princesses who lived and worked during the Timurid era and actively participated in the life of society - Saroy Mulk Khanum, Gavharshad Begum, Robiya Sul-ton Begum, Zuhra Begum, and other historical figures. The article covers the concept of moral education, its content, the moral qualities manifested in the activities of the Timurid princesses, and ways to integrate them into the spiritual and educational processes in higher educational institutions.

**Keywords:** Timurid queens, spiritual heritage, moral values, female students, spiritual education, higher education.

**TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA TALABA-QIZLARNING AXLOQIY QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI**

**Qurbanova Dilafruz Toshturdiyevna**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali Pedagogika va psixologiya kafedrası

(PHD) p.f.b.f.d. v.b.dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Temuriylar davrida yashab ijod qilgan va jamiyat hayotida faol ishtirok etgan temuriy malikalar – Saroy Mulk xonim, Gavharshod begim, Gladanbegim begim, Zebiniso begim va boshqa tarixiy shaxslarning ma'naviy-axloqiy merosi asosida talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada axloqiy tarbiya tushunchasi, uning mazmuni, temuriy malikalar faoliyatida namoyon bo'lgan axloqiy fazilatlar, ularni oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga integratsiya qilish yo'llari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** temuriy malikalar, ma'naviy meros, axloqiy qadriyatlar, talaba-qizlar, ma'naviy tarbiya, oliy ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N34>

“Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir” – Prizdentimiz Sh.Mirziyoyev so'zlaridan shuni anglashimiz mumkinki, davlatning har qaysi sohasi ma'naviy soha rivojisiz tasavvur qilish qiyin. Bunda ma'naviy tarbiya oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Har qanday ma'naviy tarbiya fenemon sifatida ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois milliy tariximiz, buyuk ajdodlarimiz

qoldirgan boy ma'naviy merosga tayanib, tarbiya jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbekiston tarixida Temuriylar davri nafaqat siyosiy va harbiy yutuqlari, balki yuksak madaniyat, ilm-fan va ma'naviyat taraqqiyoti bilan ham alohida o'rin egallaydi. Bu davrda temuriy malikalar jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy hayotida faol ishtirok etib, o'zlarining axloqiy fazilatlarini bilan ibrat maktabini yaratganlar [6]. Ularning ma'naviy merosi bugungi talaba-qizlar tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mamlakatda ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishda bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu Davlat dasturida, avvalo, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak intellektual salohiyatli, chuqur bilimli va zamonaviy dunyoqarashga ega, mamlakat taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir barkamol avlodni rivojlantirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini ana shu maqsadlarga safarbar etishga doir keng miqyosli chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Dastur yuz maqsaddan iborat bo'lib, unda oilada mehr-oqibat va o'zaro hurmat muhiti, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni barqaror qilish, yosh oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratish kabi vazifalar belgilangan [2].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ham odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berish masalasi ham alohida ta'kidlab o'tilgan. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida rivojlantirishni talab etmoqda [3].

Hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli madaniyat va ommaviy axborot vositalari ta'sirining kuchayishi yoshlar ongida milliy va umuminsoniy axloqiy mezonlarga nisbatan muayyan bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda [4]. Ayniqsa, talaba-qizlarning ma'naviy barqarorligi, ijtimoiy mas'uliyati va axloqiy immunitetini mustahkamlash zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan sanaladi.

Shu nuqtai nazardan, temuriy malikalar ma'naviy merosini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish va uni talaba-qizlar axloqiy tarbiyasiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Temuriy malikalar hayotida namoyon bo'lgan ma'rifatparvarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bugungi yosh ayollarning shaxsiy va ijtimoiy kamolotida samarali tarbiyaviy omil bo'la oladi [5]. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, u tarixiy meros va zamonaviy ta'lim ehtiyojlarini uyg'unlashtirgan holda, talaba-qizlarda mustahkam axloqiy pozitsiya va milliy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Temuriylar davrida ayollar, xususan malikalar davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Saroy Mulk xonim Amir Temurning yaqin maslakdoshi sifatida ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lgan. U madrasa va masjidlar qurilishiga homiylik qilgan, olim va fozillarni qo'llab-quvvatlagan [6].

Gavharshod begim esa Hirot madaniy muhitining yuksalishida beqiyos hissa qoʻshgan. Uning tashabbusi bilan qurilgan Gavharshod madrasasi va masjidi nafaqat diniy, balki ilmiy markaz sifatida mashhur boʻlgan [5]. Gavharshod begimning adolatparvarligi, xalqparvarligi va maʼrifatga boʻlgan eʼtibori uning yuksak axloqiy qiyofasini namoyon etadi.

Robiya Sulton begim va boshqa temuriy malikalar ham oʻz faoliyatlari orqali ayollarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirishga xizmat qilganlar. Ularning hayoti va faoliyati bugungi kunda ayol shaxsining ijtimoiy faolligi va axloqiy barkamolligi uchun tarixiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Temuriy malikalar maʼnaviy merosini tahlil qilish orqali quyidagi asosiy axloqiy fazilatlarni ajratib koʻrsatish mumkin:

- Maʼrifatparvarlik – ilm-fan va taʼlimni qoʻllab-quvvatlash, yosh avlod tarbiyasiga eʼtibor;
- Adolatparvarlik – jamiyatda ijtimoiy tenglik va haqqoniylikni taʼminlashga intilish;
- Vatanparvarlik – davlat va xalq manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qoʻyish;
- Mehr-oqibat va muruvvat – muhtojlarga yordam berish, insonparvarlik gʻoyalarini targʻib etish;
- Masʼuliyat va sadoqat – oilaga, jamiyatga va davlatga nisbatan masʼuliyatli munosabat.

Mazkur fazilatlar talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim tarbiyaviy resurs hisoblanadi.

Talaba-qizlarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish mazmuni ularning shaxsiy ehtiyojlari, yosh xususiyatlari va ijtimoiy tajribasini inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda temuriy malikalar merosidan foydalanish quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi:

- Tarixiy-maʼrifiy bilimlarni boyitish;
- Axloqiy ideal va namunalarni shakllantirish;
- Milliy oʻzlikni anglash va iftixor tuygʻusini kuchaytirish;
- Ijtimoiy faollik va fuqarolik masʼuliyatini oshirish.

Mazkur mazmun talaba-qizlarda mustahkam axloqiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Temuriy malikalar maʼnaviy merosini oliy taʼlim tizimida samarali qoʻllash uchun quyidagi pedagogik mexanizmlar taklif etiladi:

- Maʼnaviyat va maʼrifat soatlarida temuriy malikalar hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan mavzularni kiritish;
- Seminar va davra suhbatlarini tashkil etish;
- Ilmiy maqola, esse va loyihalar orqali talaba-qizlarning mustaqil izlanishlarini qoʻllab-quvvatlash;
- Tarixiy obidalar va muzeylarga tashriflar uyushtirish.

Ushbu yondashuvlar talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini amaliy faoliyat bilan uygʻun holda rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, temuriy malikalar maʼnaviy merosiga asoslangan tarbiyaviy ishlar talaba-qizlarning axloqiy qarashlarida ijobiy oʻzgarishlarni yuzaga keltiradi. Xususan, ularning milliy qadriyatlarga hurmati, ijtimoiy faolligi va maʼnaviy masʼuliyati ortadi. Talaba-qizlar temuriy malikalarni nafaqat tarixiy shaxs, balki zamonaviy hayot uchun ham dolzarb boʻlgan axloqiy ideal sifatida qabul qiladilar. Bu esa tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Mirziyoyev Sh. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 2021-yil 19-yanvar. <http://uza.uz/posts/235451>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6396146>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli Qarori // Xalq so'zi, 2019 yil 31-dekabr.
4. Oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar. (2019). Toshkent.
5. Gavharshod begim hayoti va faoliyati haqidagi tarixiy manbalar. (2020). Hirot tarixi markazi, Toshkent.
6. Alimuhamedov R. (2018). Milliy ma'naviyat asoslari. Toshkent: Ilm-fan.
7. Temuriylar tarixi va madaniyati. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: Ilm-fan, 2017.
8. Davlat ta'lim siyosati va axloqiy tarbiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari (2018–2020).
9. Shamsiyev B. (2016). Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya metodikasi. Toshkent: Fan.
10. Raxmonov A. (2015). Tarixiy shaxslar merosi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Ilmiy nashrlar.

**Received:** 01 March 2026

**Accepted:** 15 March 2026

**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **FOLKLORE AS A COMPLEX PEDAGOGICAL MECHANISM FOR FORMING NATIONAL AND GENERAL CULTURAL COMPETENCES**

**Tirkasheva Guzal Bahramovna**

Independent researcher at Chirchik State Pedagogical University

**Abstract.** This article examines the role of folklore in the moral and spiritual education of students from pedagogical and cultural perspectives. In the context of globalization, the formation of national identity, cultural self-awareness, and moral values among the younger generation has become increasingly important. The educational potential of folklore genres such as fairy tales, epics, proverbs, legends, and narratives is analyzed based on pedagogical, sociological, and cultural theories. The study proposes an integrative pedagogical model for incorporating folklore into the educational process, including axiological, content-didactic, methodological-technological, and diagnostic components. Methodological recommendations for integrating folklore materials into modern educational practices using information and communication technologies are also presented.

**Keywords:** folklore, oral folk creativity, moral education, national values, pedagogical integration, competency-based approach, student upbringing.

## **XALQ OG'ZAKI IJODI – MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRUVCHI KOMPLEKS PEDAGOGIK MEXANIZM SIFATIDA**

**Tirkasheva Go'zal Baxramovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodining o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'rni pedagogik va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlari sharoitida yosh avlodda milliy identifikatsiya, madaniy o'zlik va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda folklorning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotda ertak, doston, maqol, matal, afsona kabi folklor janrlarining tarbiyaviy imkoniyatlari pedagogika, sotsiologiya va madaniyatshunoslik nazariyalari asosida yoritiladi. Shuningdek, folklor asosidagi integrativ pedagogik modelning aksiologik, mazmuniy-didaktik, metodik-texnologik hamda diagnostik komponentlari tavsiflanadi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida folklor materiallarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, folklor, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, pedagogik integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchilar tarbiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N35>

**Kirish.** Zamonaviy dunyoning bugungi ma'naviy-siyosiy vaziyati fonida o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy urf-odat va an'analarga hurmat va sadoqat, milliy qadriyatlarga vorislik hamda Ona Vatanga cheksiz muhabbat va unga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish har qachongidan ham muhim va zaruriy milliy-ma'naviy ehtiyoj sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan, raqamli texnologiya va sun'iy intellekt jadal rivojlanayotgan hamda siyosiy-mafkuraviy tahdidlar ortib borayotgan bugungi zamonaviy jamiyatda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy barqarorligini ta'minlash, ularda milliy mentalitet

va madaniy o'zlikni shakllantirish pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar sharoitida endilikda milliy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki milliy qadriyatlar uzviyligi va uzluksizligini muntazam va barqaror ta'minlash, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda milliy-ma'naviy merosni avlodlardan avlodga bekorlik bilan ko'st yetkazish funksiyasini ham bajarishi lozim. Bu jarayonda asrlar davomida shakllanib kelgan xalqimizning yuksak ma'naviy-tarbiyaviy qadriyatlar tizimi hamda noyob badiiy merosi hisoblangan xalq og'zaki ijodi o'quvchilar tarbiyasining milliy-ma'naviy manbai sifatida alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki folklor nafaqat estetik hodisa, balki xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy me'yorlari, ideal obrazlari va ijtimoiy tajribasini o'zida mujassamlashtirgan madaniy-kognitiv tizimdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Pedagogika ilmi tarixida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosi doimiy ravishda dolzarb bo'lib kelgan. Atoqli pedagog K.D. Ushinskiy tarbiyaning milliy asosga tayanishi zarurligini ta'kidlab, "xalqning o'z ruhidan oziqlanmagan tarbiya tizimi sun'iy va samarasiz bo'ladi", – deya uqtiradi [28:153]. Ushbu fikr bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, milliy pedagogika konsepsiyasining nazariy asosi sifatida talqin qilinadi. O'zbek pedagog olimlari ham milliy tarbiyaning negizida xalq og'zaki ijodi turishini qayd etadilar. Demak, folklor bu – shunchaki adabiy meros emas, balki yuksak axloqiy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy tizim hisoblanadi.

Ma'naviyat tushunchasining pedagogik talqini ham bevosita xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liqdir. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "ma'naviyat" tushunchasini "insonni ruhan poklanishga, irodasini baquvvat qilishga undaydigan ichki kuch" sifatida izohlaydi [3:10]. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, folklor asarlari aynan ana shu ichki kuchni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ertaklar, dostonlar va maqollarda ifodalangan axloqiy-falsafiy qarashlar va g'oyalar o'quvchilarda yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, vatanparvarlik va xiyonat kabi tushunchalarning aksiologik mezonlarini shakllantiradi.

Aksiologik yondashuvga ko'ra, tarbiya jarayoni qadriyatlarni insonlarning ichki ruhiy jarayonlariga aylantirish tizimidir. Amerikalik taniqli faylasuf va pedagog J. Dewey ta'limni ijtimoiy tajribani qayta qurish jarayoni sifatida talqin qilib, unda madaniy merosning uzluksizligi muhimligini ta'kidlaydi [8:17-18]. Shuningdek, J. Bruner ta'limni madaniyatni uzatish mexanizmi sifatida izohlaydi va "har qanday ta'lim tizimi o'z madaniy kontekstidan tashqarida mavjud bo'la olmaydi" deydi [7:3-4]. Ushbu nazariyalar xalq og'zaki ijodini pedagogik jarayonga integratsiya qilish zarurligini ilmiy asoslaydi, chunki folklor – har bir xalq milliy adabiyotining negizi va asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan milliy madaniyatni og'zaki tarzda avlodlar o'rtasida asosiy tashuvchisi hisoblanadi.

L.S. Vygotskiy ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida shaxs tafakkuri ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi [29:124-127]. Folklor asarlari esa o'z mohiyatiga ko'ra dialogik va kommunikativ xarakterga ega bo'lib, ularni o'qish va muhokama qilish o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. M.M. Baxtin folklorni dialogik tafakkur mahsuli sifatida talqin qilib, undagi ko'p ovozlilik va ma'no qatlamlari tarbiyaviy jarayonda chuqur refleksiyaning yuzaga keltirishini qayd etadi [6:281-305]. Demak, folklor pedagogik jihatdan nafaqat axloqiy, balki intellektual rivojlanish vositasi hamdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodining yirik namunalari – "Alpomish" dostoni, afsona va rivoyatlar, maqollar – milliy qahramonlik, sadoqat, matonat va or-nomus tushunchalarini aks ettiradi.

Folklorshunos N. Mahmudov folklori “xalq ruhiyati va tafakkurining badiiy ifodasi” sifatida baholaydi [18:7]. Ushbu ruhiy-madaniy qatlam o‘quvchilarning identifikatsion jarayonida muhim rol o‘ynaydi. G. Hofstede madaniyatni “kollektiv ong dasturlanishi” sifatida talqin etadi [11]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, folklor yosh avlod ongida milliy qadriyatlarni dasturlovchi ijtimoiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasida V.A. Suxomlinskiy “bolaning qalbiga yo‘l topmagan tarbiya samarali bo‘la olmaydi” deya ta’kidlaydi [26:12]. Folklor asarlarining obrazli va hissiy ta’sir kuchi aynan shu jihatdan ahamiyatlidir. Ushbu jihat esa, bugungi milliy ta’lim tizimida o‘quvchini tarbiyalashning eng zaruriy vositalardan hisoblanadi. Amerikalik taniqli psixolog T. Lickona o‘zining asarlarida xarakter tarbiyasini samarali amalga oshirish uchun axloqiy namuna va hikoyalar nihoyatda muhimligini alohida qayd etadi [16]. O‘zbek ertaklari va dostonlari ana shunday axloqiy-badiiy folklor namunalari tizimini tashkil etadi.

Folklorning psixologik ta’sir mexanizmlarini tahlil qilganda, ijtimoiy-kognitiv rivojlanish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. I.S. Kon shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida madaniy stereotiplar va ramzlar muhim rol o‘ynashini qayd etadi [15]. Folklor ana shunday stereotip va ramzlarni shakllantiruvchi asosiy og‘zaki badiiy manbalardan biridir. J. Campbell mifologik syujetlarni “qahramonning ichki o‘shish yo‘li” sifatida talqin qilib, ularning shaxsiy rivojlanish jarayoniga ta’sirini asoslaydi [13:10-30]. Demak, folklor syujetlari o‘quvchilarda axloqiy-tarbiyaviy jihatdan shaxsiy rivojlanish va o‘zini ma’naviy anglash mexanizmlarini faollashtiradi.

UNESCO tomonidan ilgari surilgan “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim” konsepsiyasida ham mahalliy madaniy merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zarurligi alohida ta’kidlangan [30]. Shu o‘rinda, mahalliy madaniy meros tarkibiga xalq og‘zaki ijodi ham kirishini ta’kidlab o‘tish joiz. Ushbu jihatlar bugungi kunda xalq og‘zaki ijodini zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Amerikalik pedagog P. Freire ta’limni shaxsning o‘zgalarga yoki qandaydir siyosiy kuchlarga qaramlik va tobelikdan ozod qiluvchi jarayon sifatida talqin qilib, buning uchun unda madaniy ongni uyg‘otish muhimligini qayd etadi [10:72-86]. Xalq og‘zaki ijodi esa insonlarni o‘z tarixiy-madaniy ildizlari bilan bog‘lab, madaniy hamda ma’naviy ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Muhokama.** Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodi o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining aksiologik, madaniy va psixologik asoslarini mustahkamlovchi, asrlar davomida shakllangan va badiiy sayqallangan, ko‘plab janrlarga ega bo‘lgan adabiy-badiiy meros sifatida kompleks folklor resursidir. U tarbiyalanuvchilar ongi va tafakkurida milliy o‘zlikni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni qalbiga chuqur singdirish, ajdodlardan avlodlarga ijtimoiy tajribani uzatish va shaxsning ma’naviy immunitetini rivojlantirish jarayonida muhim axloqiy-badiiy-tarbiyaviy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, zamonaviy pedagogika nazariyasida folklor asosidagi uyg‘unlashgan tarbiya modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodining o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi imkoniyatlari qay darajada ekanligini chuqur anglash uchun, avvalo, uning janriy tizimi va har bir janrning tarbiyaviy funksional xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan puxta tahlil qilib chiqish zarur. Folklor janrlari – ertak, doston, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat va marosim qo‘shiqlari – o‘z mazmunida xalqning tarixiy tajribasi va axloqiy mezonlarini kodlashtirgan madaniy matnlar sifatida namoyon bo‘ladi. Folklorshunos X. To‘raqulov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodini “xalqning ijtimoiy ong shakllarini badiiy ifodalovchi tizim” deya baholaydi [27].

Ushbu ta'rif xalq og'zaki ijodining vazifasi shunchaki badiiy-estetik ta'sir ko'rsatish emas, balki ijtimoiy-regulyativ, ya'ni jamiyatda odamlarning xulq-atvori, qadriyatlarini, urf-odatlarini va ijtimoiy munosabatlarini muayyan me'yorlar asosida tartibga solish funksiyasiga ham ega ekanini ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari orasida ertak bolalar tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Ertaklarda ezgulik va yovuzlikning qarama-qarshiligi, adolatning tantanasi, mehnatsevarlik va halollikning qadrlanishi singari yuksak axloqiy normalar tarbiyalanuvchilar qalbiga badiiy uslubda obrazli shaklda yetkaziladi. Tarixchi va dinshunos M. Eliade mif va ertaklarni "insoniyatning arxetipik tajribasini aks ettiruvchi ramziy matnlar" sifatida talqin qiladi [9:6-7]. Demak, ertaklar orqali o'quvchi ongida qadimiy axloqiy arxetiplar (insoniyat tajribasida takrorlanuvchi, universal ramziy obraz yoki model) shakllanadi. Quyidagi jadvalda arxiteplarning turlari keltirildi: jadvalga qarang

Arxetip turi	Ta'rif	Folklordagi misollar
Qahramon arxetipi	Asosiy voqea vositachisi, sarguzashtlarni boshqaruvchi obraz	Hakimbek, Ravshan kabi doston, Kenja botir, Rustam kabi ertak qahramonlari
Ota/onalik arxetipi	Himoya, mehr-muhabbat va tarbiyaviy rolni aks ettiruvchi obraz	Onaning mehrini ko'rsatadigan ertaklar, masalan, "Guloyim"
Sehrli yordamchi arxetipi	Qahramonga yo'l ko'rsatadigan, sehrli vositalar beruvchi obraz	Sehrli tayoqcha yoki qurol, sehrli hayvon, jodugar yoki donishmand
Sayohat/sarguzasht arxetipi	Qahramonning rivojlanishi va o'zgarishi uchun amalga oshiriladigan safar, sinovlar	"Alpomish", "Ravshan", "Kuntug'mish" dostonlari, "Uch og'ayni botirlar" ertagi
Yomon kuch / qarshi kuch arxetipi	Qahramonga to'siq bo'luvchi, qiyinchiliklar keltiruvchi obraz	Ajdarho, jin, sehrli dushmanlar
Donishmand / oqsoqol arxetipi	Qahramonlarga maslahat va bilim beruvchi, axloqiy yo'l ko'rsatadigan obraz	Folklor asarlaridagi donishmand qahramonlar, xalq hikoyalaridagi oqsoqollar timsoli

### Xalq og'zaki ijodida qo'llanuvchi arxiteplar

Taniqli lingvokulturolog olim W.J. Ong og'zaki madaniyatni tafakkurning o'ziga xos turi sifatida ta'riflab, og'zaki matnlarning esda saqlanish va hissiy ta'sir kuchi yuqori ekanini ta'kidlaydi [22:30-45]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, og'zaki ertaklar bolalar xotirasida erta yoshdan mustahkam o'rnashib, ularning tafakkurida shakllanuvchi qadriyatlar tizimiga chuqur singib boradi.

Doston janri, xususan, "Alpomish" singari qahramonlik eposlari yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va matonat ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. D.S. Lixachyov epik asarlarni xalqning tarixiy ongini shakllantiruvchi omil sifatida baholaydi. Doston qahramonlari tarbiyalanuvchilar ongida ideal shaxs obrazini yaratadi va bu obraz o'quvchilarda identifikatsion mexanizm orqali tasavvur va xotirotdunyasiga o'rnashadi. A.S. Makarenko jamoaviy tarbiya jarayonida qahramonlik va ideal obrazlarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, "tarbiya idealni ko'rsatish orqali amalga oshiriladi" deya qayd etadi [20]. Demak,

folklor asarlaridagi ijobiy qahramonlar obrazi tarbiyalanuvchilar xarakterida ijobiy xulq-atvor belgilarini shakllantiruvchi motiv sifatida namoyon bo'ladi.

Maqollar va matallar bu — xalqning axloqiy qarashlarini, hayotiy tajribalarini qisqa, aniq va lo'nda so'zlar bilan ifodalovchi iboralardir, ular murakkab fikrlarni sodda va oson, tushunarli shaklga keltiradi. Shunday qilib xalqning donishmandligi va hayotiy saboqlari “xalq donishmandligining konsentrlashgan shakli” degan bir jumlada jamlanadi va ixcham shaklda avloddan-avlodga yetkaziladi. J. Banks ko'pmadaniyatli ta'lim nazariyasida mahalliy madaniy hikmatlar o'quvchilarda madaniy identifikatsiyani mustahkamlashini qayd etadi [5]. Maqollar orqali o'quvchilar ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini qisqa va lo'nda, ammo mazmunan chuqur shaklda o'zlashtiradilar. Amerikalik taniqli pedagog N. Noddings axloqiy tarbiyada “g'amxo'rlik etikasi” konsepsiyasini ilgari surib, shaxslararo munosabatlarda empatiya (boshqalarning his-tuyg'ularini, kayfiyatini va ruhiy holatini tushunish va ularga ruhiy jihatdan hamdardlik bilan munosabatda bo'lish qobiliyati – G.T.)ni hamda mehr-muruvvatni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [21:10-15]. O'zbek xalq maqollari mazmunida ifodalanuvchi mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi umuminsoniy g'oyalar ustuvorligi aynan ana shu g'amxo'rlik etikasi bilan uyg'unlashadi.

Bugungi jahon zamonaviy pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, unda bilim, ko'nikma va qadriyatlarning integratsiyasi hamda ularni ijtimoiy hayotda keng qo'llay olish, ya'ni kompetentlik muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy ta'lim tizimiga oid hujjatlarda ifodalangan tayanch kompetensiyalar o'quvchilarning turli hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va qobiliyatlarni yig'indisidir. Tadqiqotchi Sh. Qo'chqarova mazkur kompetensiyalar o'quvchiga nafaqat o'qituvchining taqdim etgan bilimni o'zlashtirish, balki uni amalda qo'llay olish imkonini berishini ta'kidlaydi. [24:163]. Folklor asosida shakllantiriladigan milliy va umummadaniy kompetensiya esa o'quvchining milliy qadriyatlarni anglash, ularni amaliy xulq-atvorda namoyon eta olish qobiliyatini bildiradi. UNESCO konsepsiyasida ham madaniy merosni o'quv dasturlariga integratsiya qilish barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida ko'rsatilgan [31].

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ta'limning asosiy maqsadi sifatida barkamol shaxsni shakllantirish belgilangan [1:3-modda]. Bu jarayonda milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish muhim omil sifatida qayd etiladi. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga alohida e'tibor qaratilishini ta'kidlab: “Istiqbolda bu sohada amalga oshirishimiz kerak bo'lgan ustuvor vazifalar O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot strategiyasi hamda uni amalga oshirish dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanishini taqozo etmoqda. Bu muhim vazifa, o'z navbatida, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni talab etadi.”, – deya ushbu sohaning naqadar zarur ekanligini uqtiradi [4:251]. Ushbu normativ-huquqiy asoslar xalq og'zaki ijodi namunalari adabiy ta'lim tizimiga yanada ko'proq singdirishning ijtimoiy zaruratini belgilaydi.

Shunday qilib, folklor namunalari o'zining janriy xususiyatlari orqali o'quvchilarda axloqiy ong, estetik did, milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantiruvchi kompleks pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ular obrazli kognitiv tafakkur, empatiya, ijtimoiy mas'uliyat, va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu

omillarga ko'ra, xalq og'zaki ijodiga asoslangan kompetensiyaviy tarbiya modelini ishlab chiqish va uni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish bugungi milliy pedagogika fanining kechiktirib bo'lmas dolzarb vazifalaridan biri ekanligini e'tirof etish mumkin.

Xalq og'zaki ijodini o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga tizimli integratsiya qilish masalasi nazariy asoslar bilan bir qatorda, amaliy-pedagogik modelni ishlab chiqishni ham talab etadi. Zamonaviy pedagogika nazariyasida tarbiya jarayoni ko'p omilli, ko'p bosqichli va tizimli hodisa sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchi olim D. Maxmudova ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biri ekanligini qayd etib: "Ushbu uyg'unlik yosh avlodni nafaqat o'z millatini anglaydigan, balki global jamiyatning axloqiy me'yorlariga moslashuvchan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi" – deya ta'kidlaydi [17:134]. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida ham tarbiya jarayonining muvaffaqiyati "milliy qadriyatlarning ta'lim mazmuniga uzviy singdirilishi" bilan belgilanishi qayd etilgan [2]. Shu nuqtai nazardan, folklor asosidagi integrativ model adabiyot fani o'quv dasturlari, dars jarayoni hamda sinfdan tashqari faoliyatning mazmuniga chuqur singdirilgan integrativ pedagogik model sifatida ishlab chiqilishi lozim.

Integrativ pedagogik modelning birinchi komponenti – aksiologik blok bo'lib, unda xalq og'zaki ijodida mujassam bo'lgan asosiy qadriyatlar (vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, sadoqat) tizimlashtiriladi. T. Parsons ijtimoiy tizim barqarorligi umumiy qadriyatlar konsensusiga bog'liqligini ta'kidlaydi [23: 5-6; 26-27]. Ushbu fikrdan kelib chiqib, aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'quvchilar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini shakllantirish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Integrativ pedagogik modeldagi ikkinchi komponent – mazmuniy-didaktik blok bo'lib, bunda xalq og'zaki ijodi namunalarini adabiyot fani mazmuniga chuqur singdirish qilish mexanizmi ishlab chiqiladi. Masalan, boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi, yuqori sinflarda adabiyot darslarida ertak va dostonlar tahlili orqali axloqiy-ideologik g'oyalarni ochish, ertak, rivoyat va dostonlarning ijobiy qahramonlari timsollari orqali milliy o'zlikni anglash, mavsum va marosim qo'shiqlari orqali xalq og'zaki ijodi elementlarini o'rganish mumkin. Folklor matnlarini muhokama qilish o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda axloqiy-estetik refleksiyaning rivojlantiradi.

Integrativ pedagogik modeldagi uchinchi komponent – metodik-texnologik blok bo'lib, unda adabiyot fani o'quv dasturida berilgan xalq og'zaki ijodi namunalarini interaktiv usullar, rolli o'yinlar, drammatizatsiya, loyiha metodlari va muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy metodikasi nazarda tutiladi. R. Slavin kooperativ ta'lim usullarining ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asoslaydi [25:34]. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish asosida tashkil etiladigan guruhli muhokamalar va sahnalashtirish jarayonlari o'quvchilarda jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Modeldagi to'rtinchi komponent – diagnostik-nazorat bloki bo'lib, bunda folklor namunalarini o'rganish natijasida o'quvchilarda hosil bo'lgan ma'naviy-axloqiy rivojlanish ko'rsatkichlari aniqlanadi. L. Kohlberg axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasida shaxsning axloqiy qaror qabul qilish darajasi bosqichma-bosqich shakllanishini ko'rsatadi [14:17-40].

O'qish savodxonligi va Adabiyot dars mashg'ulotlarida folklor namunalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning axloqiy fikrlash darajasi va qadriyatlarni anglash ko'rsatkichlarini aniqlash diagnostik mezon sifatida qo'llanishi mumkin.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodini raqamli ta'lim muhitiga moslashtirish masalasi ham o'ta dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida folklor materiallarini audio, video va interaktiv platformalar orqali taqdim etish o'quvchilarning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. H. Jenkins transmedia madaniyat nazariyasida madaniy kontentning ko'p platformali uzatilishi yoshlar ongiga samarali ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [12:3-4; 95-96]. Demak, xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy raqamli texnologiyalar formatlarida taqdim etish uning tarbiyaviy salohiyatini yanada kuchaytiradi.

Integrativ modelning samaradorligi o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi hamda mahoratiga ham bog'liq. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki qadriyatlar tashuvchisi hamdir. Amerikalik mashhur psixolog Maslow inson ehtiyojlari iyerarxiyasida o'zini namoyon qilish bosqichiga erishish uchun shaxsda ma'naviy ehtiyojlar qondirilishi zarurligini ko'rsatadi [19:35-38; 91-92]. Adabiyot darslarida folklor namunalarini har tomonlama o'rganish natijasida o'quvchilarning ana shu ma'naviy ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'ladi.

**Natija.** Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining konseptual, mazmuniy va metodik asoslarini boyituvchi tizimlashgan adabiy-pedagogik manbadir. U milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni davom ettirish, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ma'naviy immunitetni mustahkamlash jarayonida kompleks ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, xalq og'zaki ijodi namunalari asosidagi integrativ pedagogik modelni ta'lim tizimiga joriy etish zamonaviy milliy pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

**Xulosa.** Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, xalq og'zaki ijodi bu – milliy ma'naviyatning badiiy-estetik va axloqiy negizi, tarbiya jarayonining tabiiy va tarixiy asosidir. Uning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etish orqali yosh avlodni barkamol, milliy o'zligiga sodiq, ma'naviy barqaror shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2010. – 176 b.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
5. Banks J.A. Multicultural Education. – Boston: Pearson, 2008. – 344 p.
6. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – 276 с.
7. Bruner J. The Culture of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1996. – 272 p.
8. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 512 p.
9. Eliade M. Myth and Reality. – New York: Harper & Row, 1963. – 273 p.
10. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970. – 183 p.

11. Hofstede G. Culture's Consequences. – Thousand Oaks: Sage, 2001. – 612 p.
12. Jenkins H. Convergence Culture. – New York: NYU Press, 2006. – 288 p.
13. Campbell J. The Power of Myth. – New York: Doubleday, 1988. – 233 p
14. Kohlberg L. Essays on Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 729 p.
15. Кон И.С. Социология личности. – М.: Политиздат, 1967. – 320 с.
16. Lickona T. Educating for Character. – New York: Bantam Books, 1991. – 320 p.
17. Maxmudova D. Ta'lim-tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash masalalari // "ILM VAQTI" (SCIENCE TIME) jurnali, Vol. 3 No. 5 (2025). – B. 134-139.
18. Mahmudov N. O'zbek folklorshunosligi. – T.: Fan, 2010. – 280 s.
19. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper, 1954. – 402 p.
20. Макаренко А.С. Методика организации воспитательного процесса. – М.: Педагогика, 1983. – 224 с.
21. Noddings N. Educating Moral People. – New York: Teachers College Press, 2002. – 304 p.
22. Ong W.J. Orality and Literacy: 30th Anniversary Edition. – London: Routledge, 2013. – 264 p.
23. Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951. – 526 p.
24. Qo'chqarova Sh.A. Tayanch kompetensiyalar va malakalar ustuvorligi // Journal of universal science research, 2023, Volume-2, Issue-10. – B. 163-170.
25. Slavin R. Cooperative Learning. – Boston: Allyn & Bacon, 2011. – 352 p.
26. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – М.: Просвещение, 1977. – 368 с.
27. То'raqulov X. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: O'qituvchi, 2002. – 304 s.
28. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Педагогические сочинения. Том I. – М.: Педагогика, 1988. – 432 с.
29. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, «Педагогика», 1982. – 504 с.
30. <https://www.unesco.org/en/sustainable-development/education>
31. [https://ich.unesco.org/en/about-01159?utm\\_source=chatgpt.com](https://ich.unesco.org/en/about-01159?utm_source=chatgpt.com)

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **METHODOLOGY AND STAGES OF IMPROVING THE INFORMATION-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

**Ismatov Dilmurod Elmurod ugli**

Independent Researcher, Asia International University

**Abstract.** This article analyzes, from a scientific and theoretical perspective, the issue of developing the information-pedagogical competence of future teachers studying in pedagogical fields. The study describes the pedagogical conditions for forming this competence, methodological approaches, and the stages of its development. During the research process, methods such as pedagogical observation, analysis of scientific sources, pedagogical experimentation, and modeling were used. Based on the results of the study, a three-stage methodological model was developed to improve future teachers' skills in the effective use of information technologies, and its pedagogical significance was substantiated.

**Keywords:** digital education, digital didactics, online board, virtual board, poster presentation, asynchronous interaction, synchronous interaction.

## **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING AXBOROT-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI VA BOSQICHLARI**

**Ismatov Dilmurod Elmurod o'g'li**

Osiyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodik yondashuvlari hamda uni rivojlantirish bosqichlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, ilmiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik tajriba hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi uch bosqichli metodik model ishlab chiqildi hamda uning pedagogik ahamiyati asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim, raqamli didaktika, onlayn doska, virtual doska, stendli taqdimot, asinxron o'zaro ta'sir, sinxron o'zaro ta'sir.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N36>

**Kirish.** Hozirgi davrda ta'lim tizimining rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatiga yangi talablarni qo'yimoqda. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan ta'lim muhiti o'qituvchilardan nafaqat an'anaviy pedagogik bilim va ko'nikmalarni, balki zamonaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish kompetensiyasini ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta'lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan pedagoglarni tayyorlash bugungi kunda oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasi ularning kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur

kompetensiya o'qituvchining ta'lim jarayonini zamonaviy raqamli vositalar asosida tashkil etish, pedagogik axborotlarni izlash va tahlil qilish, shuningdek elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish kabi muhim faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bunday kompetensiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda hamda o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik kompetensiyalar muammosi ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, N.F. Talyzina kabi olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari hamda pedagogik kompetensiyalarning tarkibiy tuzilmasi keng tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlari o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning axborot-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagog kadrlarning axborot-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirmoqda. Shu sababli ushbu masala ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Pedagogik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari birinchi navbatda I.A.Zimnyaya tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotchi kompetensiyani shaxsning bilim, ko'nikma va tajribalarining integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1].

Pedagogik kompetensiyalar tizimini shakllantirish masalasi A.V.Xutorskoy tomonidan ham keng o'rganilgan. Olim ta'lim tizimida asosiy (tayanch) kompetensiyalar tushunchasini ilgari surib, ularga axborot bilan ishlash kompetensiyasini ham kiritadi. Uning fikricha, pedagoglar axborotlarni izlash, tahlil qilish va ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur [2].

Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish metodikasini ishlab chiqishda E.S.Polatning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchi ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonining interaktivligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida elektron ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim tizimi hamda raqamli didaktik vositalarning pedagogik imkoniyatlari keng yoritilgan [3].

Axborot texnologiyalarini pedagogik faoliyatga integratsiya qilish muammosi I.V.Robert tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Olim ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonning mazmuni, metodlari va shakllarini tubdan o'zgartirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, u pedagoglarning axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini asoslab beradi [4].

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda pedagoglarning raqamli kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari, elektron ta'lim platformalari va interaktiv metodlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning axborot-

pedagogik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda pedagoglarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari keng yoritilgan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi va bosqichlarini kompleks model asosida ishlab chiqish hali ham dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida pedagogika fanida qo'llaniladigan bir qator nazariy va empirik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu metodlar tadqiqot muammosini har tomonlama o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda amaliy natijalarni asoslash imkonini berdi.

Avvalo, pedagogik kuzatish metodi qo'llanildi. Mazkur metod yordamida ta'lim jarayonida talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanish faoliyati, ularning raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalari hamda pedagogik vazifalarni bajarish jarayonidagi xatti-harakatlari tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatish natijalari tadqiqotning keyingi bosqichlarida tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarildi [4].

Shuningdek, tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodidan keng foydalanildi. Bu jarayonda pedagogika, ta'lim texnologiyalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish masalalariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. O'rganilgan ilmiy ishlar asosida axborot-pedagogik kompetensiyaning nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda rivojlantirish yo'nalishlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri sifatida pedagogik tajriba metodidan foydalanildi. Mazkur metod yordamida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi amaliy ta'lim jarayonida sinovdan o'tkazildi. Pedagogik tajriba davomida talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalaridagi o'zgarishlar hamda ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi o'rganildi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida modellashtirish metodi qo'llanildi. Ushbu metod asosida bo'lajak o'qituvchilarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi. Model orqali kompetensiyani shakllantirishning asosiy bosqichlari, mazmuni hamda pedagogik shart-sharoitlari tizimli ravishda aks ettirildi.

Olingan natijalarni ilmiy jihatdan asoslash va umumlashtirish maqsadida statistik tahlil metodidan ham foydalanildi. Statistik tahlil yordamida pedagogik tajriba jarayonida olingan ma'lumotlar qayta ishlanib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda samaradorligi aniqlashtirildi.

Mazkur tadqiqot pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida talabalar bilan olib borilgan amaliy mashg'ulotlar, kuzatishlar va tajriba ishlari orqali bo'lajak o'qituvchilarning axborot-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni har tomonlama o'rganildi hamda tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Tadqiqot modeli**

**Muhokama.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning axborot-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilganda samaradorlik yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida olingan empirik ma'lumotlar hamda pedagogik tajriba natijalari asosida mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchta o'zaro bog'liq bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Ushbu bosqichlar diagnostik, rivojlantiruvchi hamda natijaviy bosqichlardan iborat bo'lib, ular talabalarning raqamli ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

*Diagnostik bosqich.* Axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirish jarayonining dastlabki bosqichi diagnostik bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi talabalarning mavjud bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash hamda ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tayyorgarlik darajasini baholashdan iborat. Diagnostik bosqich orqali talabalarning raqamli savodxonligi, axborot texnologiyalaridan foydalanish tajribasi va pedagogik faoliyatda ulardan foydalanishga bo'lgan motivatsiyasi o'rganiladi.


Mazkur bosqichda talabalarning nazariy bilim darajasini aniqlash, ularning raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini baholash hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasini tahlil qilish asosiy vazifalar sifatida belgilanadi. Diagnostika natijalari keyingi bosqichlarda qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

*Rivojlantiruvchi bosqich.* Axborot-pedagogik kompetensiyani shakllantirish jarayonining ikkinchi bosqichi rivojlantiruvchi bosqich bo'lib, bu bosqichda talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu bosqichda talabalarga ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Rivojlantiruvchi bosqich doirasida talabalar elektron ta'lim resurslarini yaratish, multimedia taqdimotlarini ishlab chiqish, turli onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish hamda masofaviy ta'lim metodlarini qo'llash bo'yicha amaliy faoliyatga jalb etiladi. Bunday faoliyatlar orqali talabalarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash tajribasi ortadi, shuningdek

ularning pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, ushbu bosqichda interaktiv metodlar, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham e'tibor qaratiladi (2-rasmga qarang).



## 2-rasm. Kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari modeli

*Natijaviy bosqich.* Axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirish jarayonining yakuniy bosqichi natijaviy bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda talabalar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalar darajasi kompleks tarzda baholanadi. Baholash jarayonida talabalarning axborot texnologiyalaridan pedagogik faoliyatda foydalanish imkoniyatlari, ularning raqamli ta'lim muhitida ishlashga tayyorgarligi hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyatlari tahlil qilinadi.

Talabalarning axborot-pedagogik kompetensiyasi bir qator mezonlar asosida baholanadi. Jumladan, texnologik savodxonlik darajasi, pedagogik jarayonga axborot texnologiyalarini integratsiya qilish qobiliyati, innovatsion faoliyatga tayyorgarlik hamda mustaqil ishlash ko'nikmalari asosiy baholash mezonlari sifatida qaraladi. Ushbu mezonlar orqali talabalarning raqamli ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritish darajasi aniqlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini diagnostik, rivojlantiruvchi va natijaviy bosqichlar asosida tashkil etish pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy ta'lim muhitida faoliyat yuritishga samarali tayyorlash imkonini beradi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-pedagogik kompetensiya o'qituvchining muhim kasbiy sifatlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot

davomida ushbu kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish uchun tizimli yondashuvga asoslangan metodik modelni ishlab chiqish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Taklif etilgan uch bosqichli metodika pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Mazkur metodik model raqamli ta'lim muhitida faoliyat yurita oladigan, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashga imkon yaratadi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты. – Москва: Педагогика, 2003. – 58 с.
3. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2010. – 272 с.
4. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании. – Москва: Школа-Пресс, 2014. – 215 с.
5. Назарова Т.С. Педагогические технологии: теория и практика. – Москва: Академия, 2012. – 304 с.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **INDEPENDENT WORK AS A KEY RESOURCE FOR THE DEVELOPMENT OF ENGINEERING COMPETENCIES AT A TECHNICAL UNIVERSITY**

**Gulboyeva Shohista Ismat qizi**  
Karshi state technical university

**Abstract.** This article analyzes student independent work as a system-forming resource for developing engineering competencies at a technical university. It is substantiated that independent work facilitates the transition from the reproductive acquisition of knowledge to project-based and analytical thinking, the development of engineering problem-solving skills, and professional responsibility. The key functions of independent work are highlighted: deepening theoretical knowledge, developing research and digital skills, developing design and communication skills, and self-regulation of learning activities. Methodological guidelines for the effective organization of independent work are proposed: setting measurable learning outcomes, creating a bank of assignments with practice-oriented cases, applying assessment criteria (rubrics), introducing regular feedback, and utilizing digital educational platforms. It is demonstrated that the effectiveness of independent work increases when integrated with project-based learning and professional disciplines.

**Keywords:** independent work, engineering competencies, technical university, project-based learning, rubricator, digital platforms, practice-oriented tasks.

## **САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА КАК КЛЮЧЕВОЙ РЕСУРС ФОРМИРОВАНИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**Гулбоева Шохиста Исмат кизи**  
Каршинский давлатский  
технологический университет  
E-mail: [shohistagulboyeva1994@gmail.com](mailto:shohistagulboyeva1994@gmail.com)

**Аннотация.** В статье анализируется самостоятельная работа студентов как системообразующий ресурс формирования инженерных компетенций в техническом университете. Обосновывается, что самостоятельная работа обеспечивает переход от репродуктивного усвоения знаний к проектно-аналитическому мышлению, развитию навыков решения инженерных задач и профессиональной ответственности. Выделены основные функции самостоятельной работы: углубление теоретической подготовки, развитие исследовательских и цифровых умений, формирование навыков проектирования и коммуникации, а также саморегуляции учебной деятельности. Предложены методические ориентиры эффективной организации самостоятельной работы: постановка измеримых результатов обучения, создание банка заданий с практико-ориентированными кейсами, применение критериев оценивания (рубрикаторов), внедрение регулярной обратной связи и использование цифровых образовательных платформ. Показано, что эффективность самостоятельной работы возрастает при интеграции с проектным обучением и дисциплинами профессионального цикла.

**Ключевые слова:** самостоятельная работа, инженерные компетенции, технический университет, проектное обучение, рубрикатор, цифровые платформы, практико-ориентированные задания.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N37>

**Введение.** Современное инженерное образование функционирует в условиях ускоренного технологического обновления, цифровизации производственных процессов и роста требований рынка труда к выпускнику. От инженера ожидают не только владения фундаментальными знаниями, но и способности анализировать сложные технические ситуации, проектировать решения, работать с данными, применять цифровые инструменты, соблюдать стандарты безопасности и качества, а также взаимодействовать в профессиональной среде. В этой связи на государственном уровне подчеркивается необходимость укрепления инженерно-технического кадрового потенциала: «Для ускоренного развития экономики нам как воздух нужны высококвалифицированные инженеры-технологи», — отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев [1].

Самостоятельная работа студентов в данном контексте выступает не вспомогательным элементом учебного процесса, а ключевым ресурсом формирования инженерных компетенций. Она обеспечивает индивидуализацию образовательной траектории, развитие навыков саморегуляции и перенос теоретических знаний в практику. При грамотной организации самостоятельная работа становится средой, в которой студент осваивает типовые и нестандартные инженерные задачи, учится выбирать инструменты моделирования и расчёта, оформлять техническую документацию и аргументировать принятые решения.

**Основная часть.** Компетентностный подход в инженерном образовании предполагает ориентацию на результаты обучения, выраженные в способности выпускника выполнять профессиональные функции. В структуре инженерных компетенций обычно выделяют:

- когнитивный компонент (знания, понимание принципов и закономерностей);
- операционально-деятельностный компонент (умения, навыки, технологические процедуры);
- коммуникативно-организационный компонент (взаимодействие, управление временем и ресурсами, командная работа);
- рефлексивный компонент (самооценка, корректировка действий, ответственность за результат) [3,7].

Самостоятельная работа воздействует на все перечисленные компоненты. Во-первых, она обеспечивает углубление и систематизацию теоретических знаний, особенно в дисциплинах, где требуется последовательное освоение математического аппарата, физико-химических основ, материаловедения и инженерной графики. Во-вторых, самостоятельная работа формирует деятельностную основу компетенций — через расчёты, моделирование, конструирование, работу с нормативной документацией и анализ производственных кейсов. В-третьих, самостоятельная работа развивает профессиональную коммуникацию: оформление отчётов, проектных пояснительных записок, презентаций, технических заданий. Наконец, она формирует рефлексивные навыки, поскольку требует постановки целей, планирования, контроля качества выполнения и корректировки ошибок [2,5].

Таким образом, самостоятельная работа выполняет роль связующего звена между аудиторной подготовкой и профессиональной деятельностью, обеспечивая «переход» от знания к действию и от действия — к профессиональной ответственности.

В инженерной подготовке самостоятельная работа выполняет ряд функций, принципиально важных для качества образования:

1) Функция углубления и систематизации знаний.

Студент не только повторяет материал, но выстраивает логические связи между понятиями и разделами дисциплины, формирует целостную инженерную картину: «условия → модель → расчёт → вывод».

2) Функция формирования навыков решения инженерных задач.

Самостоятельная работа позволяет обрабатывать алгоритмы: постановка задачи, выбор исходных данных, обоснование методов расчёта/моделирования, интерпретация результата, проверка на реалистичность и соответствие ограничениям.

3) Функция развития исследовательских умений.

Студент учится искать источники, критически анализировать литературу, сопоставлять подходы, проводить мини-эксперименты, формулировать выводы и рекомендации.

4) Функция развития цифровых компетенций.

В большинстве технических специальностей самостоятельная работа становится «полигоном» для освоения цифровых инструментов: табличные вычисления, САПР, симуляторы, системы управления проектами, базы данных, цифровые лаборатории.

5) Функция формирования профессиональной саморегуляции.

Самостоятельная работа развивает дисциплину, управление временем, ответственность за качество и сроки, что напрямую коррелирует с будущей инженерной практикой.

Эффективность самостоятельной работы определяется не количеством часов, а качеством заданий и их соответствием результатам обучения. В техническом университете целесообразно применять следующие типы заданий:

1. Расчётно-аналитические задачи (вариативные исходные данные, приближённые к реальным условиям).

Результат: развитие вычислительных навыков, логики расчёта, понимания ограничений модели.

2. Кейс-стади (производственные ситуации) с требованиями предложить решение и обосновать его.

Результат: формирование инженерного мышления, умения принимать решения, учитывать риски и ресурсы.

3. Мини-проекты (эскиз конструкции/технологической линии/алгоритма, подбор материалов и параметров, экономическое и технологическое обоснование).

Результат: развитие проектных компетенций и междисциплинарной интеграции.

4. Pre-lab задания (подготовка к лабораторной работе: цель, методика, техника безопасности, прогноз результата).

Результат: повышение качества лабораторной деятельности и исследовательской культуры.

5. Аналитические обзоры (статья/стандарт/технический регламент) с выделением требований и применимости.

Результат: развитие навыков работы с нормативной базой и научно-технической информацией.

6. Портфолио (накопительная оценка прогресса: черновики, промежуточные расчёты, итоговые решения, самооценка).

Результат: развитие рефлексии, ответственность за качество, траектория роста компетенций.

Для превращения самостоятельной работы в реальный ресурс формирования компетенций необходимы методические условия.

Задание должно быть связано с измеримым результатом («уметь рассчитать...», «уметь смоделировать...», «уметь обосновать выбор...»). Оценивание целесообразно осуществлять через рубрикатор (критерии + уровни достижения + баллы). Это повышает прозрачность и снижает субъективность.

Оптимальной является структура «база → стандарт → продвинутый уровень». Сильные студенты получают пространство для усложнения (оптимизация, альтернативные решения), а студенты со средним уровнем — понятную траекторию освоения.

Без обратной связи самостоятельная работа превращается в формальность. Эффективны: комментарии к ошибкам, «карта типовых ошибок», возможность доработки и повторной сдачи, короткие консультации по проблемным точкам.

Платформы управления обучением позволяют задавать дедлайны, фиксировать прогресс, организовывать проверку, обеспечивать академическую честность (проверка оригинальности), хранить портфолио и материалы курса. Важно, чтобы цифровые инструменты не заменяли методику, а усиливали её.

Самостоятельная работа максимальную ценность приобретает там, где задания опираются на реальную инженерную логику: технологические карты, расчёт оборудования, выбор материалов, оценка безопасности, расчёт эффективности и т.п.

**Заключение.** Самостоятельная работа в техническом университете является ключевым ресурсом формирования инженерных компетенций, поскольку обеспечивает развитие проектно-аналитического мышления, цифровых умений, профессиональной коммуникации и саморегуляции. Её эффективность определяется практико-ориентированным содержанием заданий, уровневым проектированием, прозрачными критериями оценивания (рубриками), регулярной обратной связью и интеграцией цифровых образовательных платформ. В результате самостоятельная работа становится инструментом повышения качества инженерной подготовки и готовности выпускника к профессиональной деятельности в условиях технологических изменений.

#### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Состоялся диалог по вопросам развития инженерной науки и образования: видеоселекторное совещание (20 июня 2024 г.) // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан.
2. Приказ Министерства высшего образования, науки и инноваций от 29 апреля 2024 г. № 136. Типовой порядок организации самостоятельного обучения студентов в организациях высшего образования. — Ташкент, 2024.

3. Пидкасистый П. И., Гарунов М. Г. Самостоятельная работа студентов (Материалы лекций, прочитанных в Политехническом музее на факультете новых методов и средств обучения). — М.: Знание, 1978. — 35 с.
4. Зимняя И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. — 40 с.
5. ABET. 2024–2025 Criteria for Accrediting Engineering Programs (Engineering Accreditation Commission). — ABET, 2023/2024.
6. Всемирная инициатива CDIO. Стандарты: информационно-методическое издание / пер. с англ. и ред. А. И. Чучалина, Т. С. Петровской, Е. С. Кулюкиной; Томский политехнический университет. — Томск: Изд-во ТПУ, 2011. — 17 с.
7. Чучалин А. И. Адаптация the Core CDIO Standards 3.0 к высшему STEM-образованию. — 2021.
8. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2003. — № 2. — С. 58–64.
9. Gulboyeva Sh.I. Students independent work in higher education: essence and methodology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. – July-2024.

**Received:** 01 March 2026  
**Accepted:** 15 March 2026  
**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **THE ESSENCE AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF THE DIGITAL EDUCATION ECOSYSTEM**

**Kudratov Shahzod Nasim ugli**

Independent Researcher, Asia International University

**Abstract.** This article analyzes the theoretical foundations of the digital education ecosystem, its pedagogical opportunities in the educational process, and its role in the modern education system. During the research, the digital learning environment, platforms, interactive technologies, and their pedagogical effectiveness were studied. The results show that the digital ecosystem enables the individualization of the educational process, the application of flexible teaching strategies, and the development of students' independent learning competencies.

**Keywords:** digital education, educational ecosystem, pedagogical technologies, digital platform, adaptive learning, interactive teaching.

## **RAQAMLI TA'LIM EKOTIZIMINING MOHIYATI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Qudratov Shahzod Nasim o'g'li**

Osiyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli ta'lim ekotizimining nazariy asoslari, uning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari hamda zamonaviy ta'lim tizimida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida raqamli ta'lim muhiti, platformalar, interaktiv texnologiyalar va ularning pedagogik samaradorligi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli ekotizim ta'lim jarayonini individuallashtirish, moslashuvchan o'qitish strategiyalarini qo'llash hamda talabalarning mustaqil o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim, ta'lim ekotizimi, pedagogik texnologiyalar, raqamli platforma, adaptiv ta'lim, interaktiv o'qitish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI3Y2026N38>

**Kirish.** XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi axborot makoni ta'lim jarayonining tashkil etilishiga, o'qitish metodlari va vositalariga, shuningdek, o'quv jarayonining mazmuniga ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida ta'lim tizimida raqamli ta'lim ekotizimi tushunchasi shakllandi. Ushbu tushuncha zamonaviy ta'lim muhitining integratsiyalashgan modelini ifodalaydi. Raqamli ta'lim ekotizimi – bu o'qituvchilar, talabalar, ta'lim muassasalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari hamda pedagogik metodlarning o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritishini ta'minlovchi kompleks tizim hisoblanadi.

Mazkur tizim ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quv resurslaridan keng foydalanish hamda bilimlarni egallash jarayonini interaktiv shaklda amalga oshirish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, bilimlarni uzluksiz o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy raqamli ta'lim muhiti turli xil axborot platformalari va innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Xususan, ta'lim jarayonida Learning Management System (LMS) platformalari keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizimlar yordamida o'quv jarayonini boshqarish, o'quv materiallarini joylashtirish, talabalar bilimni baholash hamda masofaviy ta'limni samarali tashkil etish mumkin. Shuningdek, virtual laboratoriyalar murakkab ilmiy tajribalarni simulyatsiya qilish imkonini berib, talabalar uchun xavfsiz va interaktiv o'quv muhitini yaratadi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ta'lim tizimlari ham keng rivojlanib bormoqda. Bunday tizimlar o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, o'qitish jarayonini individuallashtirish hamda moslashuvchan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim platformalari orqali talabalar geografik joylashuvidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Raqamli ta'lim ekotizimining joriy etilishi ta'lim jarayonining an'anaviy modelini sezilarli darajada takomillashtiradi. Ushbu tizim o'qitish jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish, global ta'lim resurslaridan foydalanish hamda zamonaviy raqamli kompetensiyalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu sababli zamonaviy pedagogika fanida raqamli ta'lim ekotizimining mohiyatini o'rganish, uning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng kirib kelishi natijasida raqamli ta'lim ekotizimi tushunchasi pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. So'nggi yillarda ko'plab olimlar ushbu tizimning nazariy asoslari, strukturasi hamda pedagogik imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib bormoqda.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida T.Anderson raqamli ta'lim muhitining nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, zamonaviy ta'lim jarayonida onlayn platformalar, virtual muhitlar va raqamli resurslar o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Anderson ta'lim jarayonida texnologiyalarni integratsiyalash orqali talabalar bilim olish faoliyatini faollashtirish mumkinligini ta'kidlaydi [1].

Shuningdek, T.Bates raqamli ta'limni tashkil etishning pedagogik tamoyillarini tahlil qilib, raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirish va moslashuvchan o'qitish tizimini yaratish mumkinligini asoslab bergan. Uning tadqiqotlarida raqamli ta'lim muhitida o'qituvchining roli o'zgarib, u bilim beruvchidan ko'ra o'quv jarayonini boshqaruvchi va fasilitator vazifasini bajarishi qayd etilgan [2].

N.Selwyn esa raqamli ta'lim texnologiyalarining ijtimoiy va pedagogik jihatlarini tahlil qilib, ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonida texnologiyalarning nafaqat imkoniyatlari, balki muammolari ham mavjudligini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlarida ta'lim

tizimida raqamli tengsizlik, texnologik infratuzilma va raqamli kompetensiya muammolari alohida ta'kidlangan [3].

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari G.Siemens tomonidan ham chuqur o'rganilgan. U tomonidan ishlab chiqilgan konnektivizm nazariyasi zamonaviy raqamli ta'lim ekotizimining nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilimlar turli axborot tarmoqlari va raqamli platformalar orqali shakllanadi hamda talaba ushbu tarmoqlar orqali bilim olish jarayonida faol ishtirok etadi [4].

MDH davlatlari olimlari ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, A.Yu.Uvarov raqamli transformatsiya jarayonida ta'lim tizimining yangi modelini ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi. U raqamli ta'lim ekotizimini o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro bog'liq axborot muhitidan iborat tizim sifatida tavsiflaydi [5].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalari o'rganilmoqda. Mahalliy ilmiy ishlarda raqamli ta'lim muhitining pedagogik imkoniyatlari, masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish hamda elektron ta'lim resurslarini yaratish masalalari keng yoritilgan [6].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim ekotizimi zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish hamda global ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish uchun pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish, texnologik infratuzilmani takomillashtirish hamda ta'lim resurslarini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida raqamli ta'lim ekotizimining nazariy asoslari hamda uning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazariy va tahliliy usullarga asoslandi. Ushbu metodlar yordamida raqamli ta'lim muhiti, uning tarkibiy komponentlari va ta'lim jarayoniga ta'siri kompleks ravishda o'rganildi.

*Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi.* Tadqiqotning dastlabki bosqichida raqamli ta'lim ekotizimiga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar chuqur o'rganildi. Xususan, pedagogika, ta'lim texnologiyalari, raqamli transformatsiya va masofaviy ta'limga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlarning ilmiy hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu metod yordamida raqamli ta'lim ekotizimining nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari va ta'lim tizimidagi ahamiyati aniqlashtirildi. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida turli olimlarning ilmiy qarashlari taqqoslanib, mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtirildi hamda tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi.

*Taqqoslash metodi.* Tadqiqot davomida an'anaviy ta'lim modeli bilan raqamli ta'lim modeli o'rtasidagi asosiy farqlarni aniqlash maqsadida taqqoslash metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida o'qitish jarayonining tashkil etilishi, o'qituvchi va talabaning roli, o'quv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonining samaradorligi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Taqqoslash natijasida raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan bir qator ustunliklarga ega ekanligi aniqlanib, ularning pedagogik imkoniyatlari asoslab berildi. Shuningdek, ushbu metod orqali raqamli ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar ham aniqlashtirildi.

*Modellashtirish metodi.* Tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim ekotizimining tuzilishi va funksional xususiyatlarini aniqlash maqsadida modellashtirish metodidan foydalanildi. Ushbu metod asosida raqamli ta'lim ekotizimining konseptual modeli ishlab chiqildi hamda uning asosiy komponentlari o'zaro bog'liq holda tasvirlandi. Model tarkibiga ta'lim subyektlari (o'qituvchi va talaba), raqamli platformalar, elektron ta'lim resurslari, axborot texnologiyalari va pedagogik metodlar kiritildi. Modellashtirish jarayoni raqamli ta'lim muhitining strukturaviy elementlarini tizimli ravishda ko'rib chiqish hamda ularning o'zaro ta'sir mexanizmini aniqlash imkonini berdi.


Mazkur metodologik yondashuvlar yordamida raqamli ta'lim ekotizimining pedagogik imkoniyatlari kompleks ravishda o'rganildi hamda uning ta'lim jarayonini samarali tashkil etishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

**Natija va muhokama.** Olib borilgan tadqiqot natijasida raqamli ta'lim ekotizimining asosiy tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan ta'lim muhiti bir nechta muhim elementlarning o'zaro integratsiyasi orqali faoliyat yuritadi. Mazkur komponentlar o'quv jarayonining samarali tashkil etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari asosida raqamli ta'lim ekotizimining konseptual modeli ishlab chiqildi.

Raqamli ta'lim ekotizimi o'zaro bog'langan bir nechta asosiy elementlardan tashkil topgan bo'lib, ular ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini yagona axborot makonida birlashtiradi. Ushbu tizim quyidagi asosiy tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi.

*Ta'lim subyektlari.* Raqamli ta'lim ekotizimining markazida ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchilar, talabalar va ta'lim jarayonini boshqaruvchi administratorlar turadi. O'qituvchi raqamli ta'lim muhitida bilim beruvchi bilan bir qatorda ta'lim jarayonini boshqaruvchi, maslahatchi va fasilitator vazifasini ham bajaradi. Talaba esa o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, raqamli resurslar yordamida mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Administratorlar esa ta'lim jarayonini texnik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

*Raqamli platformalar.* Raqamli ta'lim ekotizimining muhim elementlaridan biri turli xil ta'lim platformalari hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab ta'lim muassasalarida Moodle, Google Classroom, Coursera, Microsoft Teams kabi platformalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu platformalar yordamida o'quv materiallarini joylashtirish, onlayn mashg'ulotlarni tashkil etish, talabalar bilimini baholash hamda o'quv jarayonini masofadan boshqarish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ushbu platformalar talabalarning o'zaro hamkorlikda ishlashini va o'qituvchi bilan interaktiv muloqot qilishini ta'minlaydi (1-rasmga qarang).



### 1-rasm. Raqamli ta'lim ekotizimi modeli

*Texnologik infratuzilma.* Raqamli ta'lim ekotizimining samarali ishlashi zamonaviy texnologik infratuzilmaga bog'liq. Bunday infratuzilma tarkibiga bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt tizimlari hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi Big Data texnologiyalari kiradi. Bulutli texnologiyalar ta'lim resurslarini saqlash va ulardan masofadan foydalanish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar esa o'quv jarayonini individuallashtirish, talabalar bilim darajasini tahlil qilish va o'qitish strategiyalarini moslashtirish imkonini yaratadi.

*Ta'lim resurslari.* Raqamli ta'lim ekotizimida ta'lim resurslari ham muhim o'rin egallaydi. Bunday resurslar tarkibiga elektron darsliklar, video ma'ruzalar, interaktiv o'quv materiallari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari kiradi. Ushbu resurslar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilib, talabalarga murakkab nazariy tushunchalarni vizual va interaktiv shaklda o'zlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim ekotizimining joriy etilishi ta'lim jarayonining sifatini oshirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan o'quv muhiti talabalar uchun yanada interaktiv, moslashuvchan va samarali ta'lim sharoitini yaratadi.

*Raqamli ta'lim ekotizimining pedagogik imkoniyatlari.* O'rganishlar natijasida raqamli ta'lim ekotizimi pedagogik jihatdan bir qator muhim imkoniyatlarni taqdim etishi aniqlangan.

Birinchi, raqamli ta'lim muhiti ta'limni individuallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy raqamli platformalar yordamida talabalar bilim darajasi va o'rganish sur'ati tahlil qilinib, ularga mos individual o'quv trayektoriyalarini shakllantirish mumkin. Bu esa har bir talabaning o'z imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos ravishda bilim olishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar asosidagi ta'lim tizimi moslashuvchan ta'lim modelini yaratadi. Talabalar o'quv materiallaridan istalgan vaqt va istalgan joyda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Ayniqsa, masofaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi geografik cheklovlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli ta'lim muhitida interaktiv o'qitish usullari keng qo'llaniladi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va multimedia vositalari yordamida o'quv jarayoni yanada qiziqarli va samarali tashkil etiladi. Bunday texnologiyalar murakkab jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, raqamli ta'lim ekotizimi ta'lim jarayonini tahlil qilish va monitoring qilish imkonini yaratadi. Learning analytics texnologiyalari yordamida talabalar faoliyati, ularning bilim darajasi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari doimiy ravishda tahlil qilinadi. Bu esa o'qituvchilarga ta'lim jarayonini samarali boshqarish va o'quv metodlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, raqamli ta'lim ekotizimi global ta'lim integratsiyasini rivojlantiradi. Internet tarmoqlari orqali talabalar xalqaro ta'lim resurslari, onlayn kurslar va ilmiy platformalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada ta'lim jarayonining xalqaro hamkorlik darajasi oshadi.

*Raqamli ta'lim ekotizimining rivojlanishidagi muammolar.* Shu bilan birga, tadqiqotlar raqamli ta'lim ekotizimini joriy etish jarayonida ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Ulardan biri texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Ayrim ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash uchun zarur texnik vositalar yetishmaydi.

Bundan tashqari, pedagoglar va talabalar orasida raqamli kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Yana bir muhim muammo – *internet resurslariga teng kirish imkoniyatining mavjud emasligi* hisoblanadi. Ayrim hududlarda internet tezligi va texnologik infratuzilmaning pastligi ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shunday qilib, raqamli ta'lim ekotizimi zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samarali rivojlanishi ta'lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash hamda talabalarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Raqamli ta'lim ekotizimi zamonaviy ta'lim tizimining muhim elementi hisoblanadi. Ushbu tizim ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalash orqali o'qitish samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli ekotizim yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirish, interaktiv metodlarni qo'llash hamda talabalarning mustaqil o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Kelajakda raqamli ta'lim ekotizimini rivojlantirish uchun pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: AU Press, 2008. – 472 p.

2. Bates T. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: BCcampus, 2019. – 520 p.
3. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2017. – 240 p.
4. Siemens G. Learning Analytics and Educational Data Mining. – New York: Springer, 2013. – 320 p.
5. Uvarov A.Yu. Tsifrovaya transformatsiya obrazovaniya. – Moskva: Vysshaya shkola ekonomiki, 2020. – 340 s.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.” – Toshkent, 2022.

**Received:** 01 March 2026

**Accepted:** 15 March 2026

**Published:** 31 March 2026

*Article / Original Paper*

## **DETERMINING THE EFFECTIVENESS OF MULTIMEDIA TOOLS IN HISTORY TEACHING IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Muhammadiev Lochin Gayratovich**

Independent researcher at Chirchik State Pedagogical University

**Abstract.** This article analyzes the issue of determining the effectiveness of multimedia tools in teaching history in higher education institutions. The study studies the impact of multimedia-based educational processes on the development of students' cognitive activity, historical thinking, critical thinking, and media culture. Also, through experimental and test studies, the didactic capabilities and practical results of multimedia tools in the educational process are evaluated. The results obtained serve to draw scientific conclusions on improving the methodology of history education and the effective organization of a digital learning environment.

**Keywords:** history education, higher education, multimedia tools, effectiveness, experiment, media culture, critical thinking, cognitive activity, digital pedagogy, didactic capabilities.

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARIX O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING SAMARADORLIGINI ANIQLASH**

**Muhammadiyev Lochin G'ayratovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

